R.Dekart falsafasida metod muammozi (1596-1650) va uning matematik va tabiiy fanlar bilan aloqasi. Dekart sisitemasining dualizmi. Inson konsepsiysi. Ongning ruxiy substansiya atributi sifatida ajratilishi. Organizm xayot faoliyatini tushuntirishda mexanistik determinizm. Tana haqida ta’limot va xulq atvorni tushuntirishda reflekslar g‘oyasi. Extiroslar xaqida ratsionalistik nazariyalar. Dekart g‘oyalarning psixologiyaning keyingi rivojlanishiga ta’siri.

N. Malbransh (1638 – 1715) va A.Geylinks konsepsiylarida Dekart dualizmining o‘tkirlashuvi va (1624 – 1669) va ularning B. Spinoza tomonidan (1632 – 1677) engilishi. Spinozaning substansiya xaqidagi ta’limoti monizmi. Tafakkur substansiya atributi sifatida. Affektlar va inson mustaqilligi xaqidagi ta’limotlar. 20 asr psixologlari (S.L. Rubinshteyn, L.S. Vylgotskiy, E. Fromm) Spinoza ta’limoti ahamiyati xaqida.

T.Gobbsning ong xaqidagi ta’limotida epifenomenalizm (1588-1679). Gobbsning qobiliyatlar xaqidagi ta’limotida ijtimoiy ildizlar. Dj. Lokk (1632 – 1704) - "empirik psixologiya otasi". Tug‘ma g‘oyalar nazariyasi tanqidi. Rux tabula rasa sifatida. Xr. Volf (1679 – 1754) psixologiyasi. "Ratsional" va "empirik" psixologiya. Assotsiativ psixologiyaning vujudga kelishi

Dj.Berkli ishlarida assotsiatsiya xaqidagi tushunchalar rivojlanishi. (1685 - 1753). Ko‘rish idroki nazariyasi. D. YUm (1711 - 1776) tomonidan assotsiatsiya prinsipining bilish faoliyatiga tarqatilishi. Assotsiativ psixologiyaning birinchi tizimiga asos solinishi: D. Gartli (1705 - I759). Tizim manbalari. Gartli g‘oyalari va ularning ahamiyati. Fransuz psixologiyasida empirik yo‘nalishning shakllanishi (XVIII asr).

Fransiyada empirik psixologiya shakllanishining tarixiy shart sharoitlari. Uning muxim yo‘nalishlari. (E.B. Kondilyak (1715 - I780, J.O. Lametri (1709 –1751), P.J. Kabanis (1757 –

1808), K.A.Gelvetsiy (1715 - 1771), D. Didro (1713 – 1784), J.J. Russo (1712 – 1778). J.J.Russo g‘oyalarining psixologiyaning keyingi rivojlanishidagi ahamiyati.

I. Kant falsafiy qarashlari umumiy xarakteristikasi (1724 – 1804). Ratsionalistik psixologiya tanqidi. Empirik psixologiyaning fan sifatida mavjud bo‘la olmasligi xolati. Bilish ta’limotidagi apriorizm va uning psixologiyaga ta’siri. Appersepsiya, produktiv xayol xaqidagi ta’limotlar. Kant antropologiyasi. Kant ta’limotining psixologiyaning keyingi rivojlanishiga ta’siri. I. G. Fixtening (1762 — 1814) sub’ekt faoliyati va faoliyat yurtiuvchi sub’ekt xaqidagi ta’limoti. F.V. SHellingning (1775 – 1854) ong tabiatni va rivojlanishi xaqidagi ta’limoti. SHaxs konsepsiyasi. G. Gegel (1770 - 1831) va L. Feyerbax (1804 – 1872) g‘oyalari va ularning psixologiyaning keyingi taraqqiyotiga ta’siri.

Klassik falsafaning (Kant, Fixte, SHelling, Gegel) nemis psixologiyasi rivojlanishiga ta’siri. I.F. Gerbart psixologik konsepsiyasi (1776 – 1841). Gerbartning psixologiyada matematikani qo‘llash xaqidagi g‘oyalari. Gerbart maktabi. M. Latsarus (1824 – 1903), G. SHteyntal (1823 – 1899) etnik psixologiya asoschilari sifatida. R. Lotsening “maxalliy belgilar” nazariyasi (1817 – 1881).

Assotsianizm rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlarining umumiy xarakteristikasi. Ingliz assotsiativ psixologiyasi shakllanishida T. Braun (1778 – 1820) va Dj. Mill (1773 – 1836) g‘oyalarining roli. Virtual taxlil xaqida tushuncha (T. Braun). Dj. Millning “Mental mexanikasi”. Xarakter xaqida ta’limot (etologiya). A. Ben (1818 – 1903) psixologiyasi. G. Spenser (1820 – 1903) evolyusion assotsianizmi. Evolyusiyaning umumiy qonuni. Psixika rivojlanishi xaqidagi ta’limot. Psixologiya predmetining yangicha ta’rifi. Inson psixikasini ta’riflashda naturalizm. Assotsianizmni tarixiy baxolash.

D.M. Vellanskiy psixologiyasining antropologik xarakteri. (1774 - 1847). V.F.Odoevskiy ijodida inson muammosi (1803 - 1869). A.I.Galich psixologik tizimi(1783 - 1848).Psixologiyaning falsafa va tabiatshunoslik doirasida rivojlanishi. Psixik xodisalarни o‘rganish va talqin qilishga psixologik va tabiiy-ilmiy yondashuv xususiyatlari haqida munozaralar. (A.I. Gersen, N.G. CHernishevskiy, M. A. Antonovich. P.D. YUrkevich. K.D. Kavelin). Rossiyada pedagogik fikrlar va pedagogik psixologiyaning vujudga kelishi. K.D.Ushinskiy “Pedagogik antropologiyasida inson muammolari(1824 - 1870). Ushinskiy g‘oyalarining P.F. Kapterev asarlarida rivojlantirilishi (1849 — 1922). Ijtimoiy amaliyotning turli sohalari – ishlab chiqarish, harbiy ish, sud ishi, meditsina va boshqalarda psixologik bilimlarning rivojlanishi. A.A.Potebnya asarlarida til va ong munosabatlarining yoritilishi.

Qo‘llamiladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. B/B/B jadvali, munozara, Venn diagrammasi, T-sxema, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya sohalarining rivojlanishi.

Refleks haqida ta’limot: CH. Bell (1774- 1842); I. Myuller (1601 - 1858); M. Xoll (1790- 1857). Nerv impulsi elektrik tabiatining ochilishi. (E. Dyubua - Reymon, 1849). Nerv impulsi uzatilishini o‘lhash (G. Gelmgols, 1851). Asab tizimi fiziologiyasi va sezgi organlari sohasidagi muhim yutuqlar. (XIX asr). Sezgi organlari maxsus energiyasi nazariyasi (Myuller). T. YUNG rangli ko‘rish nazariyasi (1801). E. Gering nazariyasi (1875). YA. Purkine tadqiqotlari (1787 - 1869). E. Veber tomonidan tafovutlash hissiyoti sohasidagi tadqiqotlar va tuyishni o‘rganish. (1795 -1878). G. Gelmgols tadqiqotlari (1821 - 1894). Ko‘rish va eshitish nazariyalari. Sezgilar nazariyasi.Ongsiz fikrlash va xulosa qilish nazariyasi. Fazoni idrok etishda nativism va empirizm haqida munozaralar. (E. Gering va G. Gelmgols).

Psixofiziologik muammolarga aloqador bosh miya tuzilishi va funksiyalari sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari va natijalari. F. Gall frenologiyasi (1758 - 1828). P. Flurans ekstirpatsii metodi (1791 - 1867). Klinik kuzatish metodi (P.Brok, 1861). Bosh miyani elektrik

stimullahtirish metodi (G. Fritch va F. Gitsig, 1870). Bosh miyaning xujayraviy tuzilmasini tadqiq etish (T. Meynert. 1867 - 1868; V.A.Bets. 1874; E. Goldji, S. Ramon -i - Kaxal. 1906). Psixik funksiyalar lokalizatsiyasi nazariyasi.

G.Fexner tomonidan psixofizikaga asos solinishi. (1801 - 1887). Psixofizika predmeti va vazifalari. CHegaralarni o'lhash eksperimental metodlari. Psixik jarayonlar tezligini o'rganish F. Donders (1869). Asosiy psixofizik qonun. L. Lange (1888). Eksperimental psixologiya rivojlanishida psixofizika va psixometriyaning ahamiyati.

Biologiyadagi muvaffaqiyatlar. J.B. Lamark (1744 - 1829). Irsiyat qonuniyatlarining ochilishi (G. Mendel. 1865). CH.Darvin evolyusiya nazariyasining umumiy xarakteristikasi (1809 - 1882). E.Gekkelning biogenetik qonuni (1834 - 1918). Darwin nazariyasining psixologiya sohalari - bolalar psixologiyasi, zooopsixologiya, tarixiy psixologiya rivojlanishidagi ahamiyati.

V. Vundt (1832 – 1920) va eksperimental psixologiyaning shakllanishi. Dastur dualizmi. Vundt maktabi. I.M. Sechenov (1829 – 1905) ilmiy psixologiyasining tuzilish programmasi. Psixik xodisalarning reflektor konsepsiyasi. Psixologiya predmetini aniqlash. Psixologiya metodlari. Sechenovning idrok, xotira, tafakkur borasidagi tadqiqotlari. Sechenov g'oyalaringin psixologiya fanini rivolantirishga qo'shgan xissasi. CHet el psixologiyasidagi boshqa psixologik dasturlar.

E. Titchener (1867 - 1927) strukturalizmi amerika psixologiyasida Vundt g'oyalaringi rivojlanirish sifatida. Analitik introspeksiya metodi. F. Brentano (1838 - 1917) akti psixologiyasi va unining falsafa va psixologiyada rivojlanirishi. K. SHtumpf (1848 – 1986) funksiyalar psixologiyasi. Avstriya psixologik maktabi: A. Meynong (1853 – 1920), S. Vitasek (1870 – 1915), X.-Fon - Erenfels (1859 – 1932). Brentano g'oyalaringin Angliyada rivojlanishi (Dj. Staut, 1860 – 1944; Dj. Uord (1843 – 1925); v Germanii (T. Lipps, 1851 – 1914); v SHveysarii (E. Klapared). U. Djems psixologiyasi (1842 – 1910). Funksional psixologiyaning asosiy g'oyalari va ularning amaliy soxalar va bixevoirizmning yuzaga kelishidagi ahamiyati. Rossiyada psixologiya rivojlanishining muxim yo'nalishlari. Universitetlardagi psixologiya: Moskva universiteti (M.M. Troitskiy, N.YA. Grot, L.M. Lopatin), Peterburg universiteti (M.I. Vladislavlev, A.I. Vvedenskiy), Kiev universiteti (S.S. Gogotskiy) va ularning ilmiy maktablarni yaratishdagi roli.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Klaster", "Pinbort", "SWOT" tahvil, "VENN" diagrammasi, "T" sxema, "Aqliy xujum", "Baliq suyagi", "Nima uchun?" diagrammasi, "Qanday" diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Eksperimental psixologiyaning vujudga kelishi va qo'llanish sohalari

G. Ebbingauz (1885), G.E. Myuller (1911, 1913, 1917)ning xotira bo'yicha klassik tadqiqotlari. K. SHtumpfning eshitish psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlari (1883, 1890). N.N. Lange (1888, 1893)ning sezgi va idrok psixologiyasi borasidagi tadqiqotlari. Vyursburg mакtabida (1901 – 1911) tafakkurning o'r ganilishi. Ko'nikmalar shakllanish jarayonini o'rganish. (U. Brayan, N. Xarter, U. Buk, Dj. Mak-Kin Kettel). Xayvonlar psixologiyasini eksperimental tadqiq etish. (Torndayk, V.Smoll va boshqalar.) tadqiqotlari va ularning psixologiyada ob'ektiv metodlarni tasdiqlashdagi ahamiyati.

Psixologiyada ochiq inqiroz davri. (XX asrning 10- va 30-yillari o'rtalari). Ilmiy maktablarning yuzaga kelishi va keyingi yillarda rivojlanishi.

Bixevoirizm. Manbalar, falsafiy asoslar, bixevoirizm tarixi. Bixevoirizm asoschisi Dj. Uotson (1878 – 1958). Neobixevoirizm va uning ko'rinishlari. N. Tolmen (1886 – 1959) qarashlari. Gipotetik-deduktiv bixevoirizm (K. Xall (1884 – 1952)). Dj. Miller, E. Galanter, K. Pribram sub'ektiv bixevoirizmi. B. Skinnera (1904 – 1990) operant bixevoirizmi. Bixevoirizmning zamonaviy xolati. A. Banduraning ijtimoiy o'rgatish nazariyasi. V.M. Bexterev va I.P. Pavlov tizimlari va bixevoirizm o'zaro mutanosibligi.

Geshtaltpsixologiya. Berlin geshtaltpsixologiya maktabining vujudga kelishi. M. Vertgeymer (1883-1942), V. Kyoler (1887 – 1967), K.Koffka (1886 – 1941). Metodologik va metodik asoslar. Geshtaltpsixologiya muammolari- idrok (M. Vertgeymer, K. Koffka), tafakkur (V. Kyoler, M. Vertgeymer, K. Dunke), extiyojlar, affektlar, iroda (K. Levin va uning maktabi), psixik taraqqiyot (K.Koffka). Muxim faktlar va qonuniyatlar. CHuqur psixologiya. Uning yo‘nalishlari. Freydizm va psixoanaliz Z. Freyd, A. Adler individual psixologiyasi, K. Yung analitik psixologiyasi. Freyd psixoanalizi va uning yuzaga kelish manbalari, nazariy-metodologik prinsiplari, tizimning rivojlanish bosqichlari. Psixoanaliz terapevtik usul sifatida, umumpsixologik ta’limot, madaniyat falsafasi. Ongsizlik muammosi, uni tadqiq etish metodlari, psixika va shaxs strukturasi. Bola rivojlanishining psixoseksual bosqichlari. Himoya mexanizmlari. Psixoanalizning fan va madaniyat hamda ommaviy ongga ta’siri. Neofreydizm (Anna Freyd, K. Xorni, G.S. Salliven, E. Fromm).

A.Adler individual psixologiyasi (1870 – 1937). Organlar etishmovchilagini psixologik ahamiyati va etishmovchilik konpensatsiyasi haqida ta’limot.

K.Yung analitik psixologiyasi (1875 – 1961). Kollektiv ongsizlik haqida ta’limot. K.Yung assotsiativ eksperimenti. Psixologik tiplar klassifikatsiyasi.

Ego-psixologiya (Anna Freyd, 1895 – 1982). CHuqur psixologiyaning boshqa yo‘nalishlari. Mak-Daugoll gormik psixologiyasi. (1930). Neofreydizmda Freyd psixoanalizi sotsiologizatsiyasi. Neofreydizm variantlari. K. Xorni (1885 – 1952) konsepsiysi. Psixiatriyaning shaxslararo nazariyasi (G.S. Salliven) (1892 – 1949). E. Fromm gumanistik psixoanaliz (1900 – 1980).

Fransuz sotsiologik maktabida inson psixikasining ijtimoiy tarixiy shartlanganligi muammosi E. Dyurkgeym (1858 – 1917), L. Levi-Bryul (1857-1939). K.Levi-Stross g‘oyalari.

V. Diltey (1833 – 1911) tasnifiy psixologiyasi. E. SHpranger (1882 – 1963) qarashlari.

CHet el psixologiyasi rivojlanishining bugungi xolati

Ochiq kriziis davri yo‘nalishlari va evolyusiyasi va ularning nazariy va amaliy soxalardagi xolati. Rivojlanish psixologiyasi. J. Piaje (1896 – 1980); A. Vallon (1879-1962). E. Erikson (1902-1994) nazariyalari. Madaniyatlararo tadqiqotlar. Rivojlanish psixologiyasiga madaniy tarixiy yondashuv. (M. Koul, 1996).

SHaxs psixologiyasi borasidagi tadqiqotlarning rivojlanishi. Gumanistik psixologiya va uning yo‘nalishlari. V.Frankl va logoterapiya. Kognitiv psixologiya. (Dj.Bruner, T.Saymon, P.Lindsley, D.Norman, D.R.Anderson, X.Festinger, F.Xayder, U.Naysser, D.Brodent, D.Payono).

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: “Klaster”, “Pinbort”, “SWOT” tahlil, “VENN” diagrammasi, “T” sxema, “Aqliy xujum”, “Baliq suyagi”, “Nima uchun?” diagrammasi, “Idrok xaritasi”.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.

O‘zMU, Pedagogika universitetlarida psixologiya va uning ilmiy maktablar vujudga kelishidagi ahamiyati. M.Voxidovning psixologiya faniga qo‘shgan hissasi. M.G.Davletshin maktabi. E.G‘ozievning komil inson konsepsiysi. M.M.Mamatov va etnopsixologiya maktabi. O‘zbekistonda psixologiya fanida tadqiqot yo‘nalishlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: “Klaster”, “Pinbort”, “SWOT” tahlil, “VENN” diagrammasi, “T” sxema, “Aqliy xujum”, “Baliq suyagi”, “Nima uchun?” diagrammasi, “Assessment” texnologiyasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Psixologiya tarixi fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining kalendar tematik rejasi

Nº	Mavzular nomi	Ma’ruza
1	Psixologiya tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	8
2	Qadimgi SHarqda psixologik ta’limotlarning yuzaga kelishi	8
3	Antik davr psixologik ta’limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)	8
4	Bilish jarayonlari haqida ta’limot. Tafakkurning oliv shakllari: muhokama yurituvchi, mantiqiy, diskursiv	6
5	Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi	6
6	Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya sohalarining rivojlanishi	6
7	Eksperimental psixologiyaning vujudga kelishi va qo‘llanish sohalari	6
8	O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi	6
JAMI		54

Seminar mashg‘ulotlariga uchun tavsiya etiladigan mavzulari

Psixologiya tarixi predmeti va vazifalari

Psixologiya tarixi perdmeti va vazifalari. Psixologik bilimlarning yuzaga kelish shart-sharoitlari va rivojlanish qonuniyatlari. Psixologiya tarixi metodlari va manbalari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Integrativ, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Qadimgi Sharqda psixologik ta’limotlarning yuzaga kelishi

Hind Vedalari v falsafa maktablarining vujudga kelishi. Ruh haqidagi tasavvurlar.Qadimgi Xitoya fan va madaniyatning rivojlanishi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. B/B/B jadvali, munozara, Venn diagrammasi, T-sxema, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Antik davr psixologik ta’limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)

Empedokl nazariyasi. Demokrit qarashlari. Lukretsiy Karning “Narsalar tabiat” poemasining tarixiy roli. Sokratning ruh haqidagi ta’limoti. Sokrit suhbatlari, uning xususiyatlari va olib borish qoidalari. Platon falsafasida ruh haqidagi idealistik ta’limotning shakllanishi. Aristotel ta’limotida bilish, affekt, hissiyotlar, iroda jarayonlari xarakteristikasi.

Qo‘llaniladigan texnologiyalar: “Klaster”, “Pinbort”, “SWOT” tahlil, “VENN” diagrammasi, “T” sxema, “Aqliy xujum”, “Baliq suyagi”, “Nima uchun?” diagrammasi, “Qanday” diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Bilish jarayonlari haqida ta’limotlar

Antik davr shifokorlarining bosh miya, sezgi organlarini o‘rganishdagi eng muhim yutuqlari. Abu Ali ibn Sino, Ibn Al-Xaysam(Algazen), Ibn Rushd (Averroes) psixologik g‘oyalari. Sxolastika doirasida psixologiya. X – XII asrda arab tilida ijod qilgan mutafakkirlarning psixologik g‘oyalari.

Qo‘llaniladigan texnologiyalar: “Klaster”, “Pinbort”, “SWOT” tahlil, “VENN” diagrammasi, “T” sxema, “Aqliy xujum”, “Baliq suyagi”, “Nima uchun?” diagrammasi, “Qanday” diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi

R. Dekart ratsionalizmi. B.Spinoza ontologiyasida panteizm, monizm i immanentizm. Inson yagona substansianing murakkab modusi sifatida. T.Gobbs materialistik konsepsiysi. Empirik va ratsional bilish. N. Malbransh (1638 – 1715) va A.Geylinks konsepsiyalarda. Tafakkur substansiya atributi sifatida.

Qo‘llaniladigan texnologiyalar: “Klaster”, “Pinbort”, “SWOT” tahlil, “VENN” diagrammasi, “T” sxema, “Aqliy xujum”, “Baliq suyagi”, “Nima uchun?” diagrammasi, “Qanday” diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

XVIII asr fransuz psixologiyasi hamda XUSH asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida nemis klassik falsafasida empirik yo‘nalishning yuzaga kelishi. XIX asrda Rossiyada psixologik qarashlarning rivojlanishi

E.B. Kondilyak (1715 – 1780), J.O. Lametri (1709 – 1751) i P.J. Kabanisa (1757 – 1808), D. Didro (1713 – 1784), J.J. Russo (1712 – 1778) psixologik g‘oyalari. Kant antropologiyasi. Kant g‘oyalaring fanning keyingi rivojlanishiga ta’siri. I. G. Fixte (1762 – 1814), F.V. SHellinga (1775 – 1854), G.V.F. Gegelya (1770 – 1831) va L.Feyerbax (1804 – 1872) psixologik g‘oyalari. I.F. Gerbarta (1776 – 1841), M. Latsarusa (1824 – 1903), G.SHteyntalya (1823 – 1899) psixologik konsepsiyalari. R.Lotsening “mahalliy belgilar” nazariyasi (1817 – 1881). K.D.Ushinskiy “Pedagogik antropologiyasi”da inson psixologiyasi muammosi (1824 – 1870).

Qo‘llaniladigan texnologiyalar: “Klaster”, “Pinbort”, “SWOT” tahlil, “VENN” diagrammasi, “T” sxema, “Aqliy xujum”, “Baliq suyagi”, “Nima uchun?” diagrammasi, “Qanday” diagrammasi.

Adabiyotlar: A6; A7; A8; A9; Q1; Q2; Q3; Q4; Q11; Q12; Q13.

Qo'llaniladigan texnologiyalar: "Klaster", "Pinbort", "SWOT" tahlil, "VENN" diagrammasi, "T" sxema, "Aqliy xujum", "Baliq suyagi", "Nima uchun?" diagrammasi, "Qanday" diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi birinchi dasturlari. Psixologiya sohalarining rivojlanishi.

V. Vundt (1832 - 1920) va eksperimental psixologiyaning vujudga kelishi. Ilmsiy psixologiyani qurish dasturi (I.M. Sechenov) (1829 - 1905). Psixologiyadagi ochiq inqiroz davri (XX asrning 10- va 30 yyillari oxiri). Ilmiy maktablarning vujudga kelishi va ularning keyingi rivojlanishi. Bixevoirizm manbalari, falsafiy asoslari, tarixi. Geshtaltpsixologiya Berlin maktabining yuzaga kelishi. K. Levin va uning maktabi. CHuqr psixologiya yo'nalishlari: 3. Freyd psixoanalizi, A. Adler individual psixologiyasi, K. Yung analitik psixologiyasi. Ego-psixologiya (Anna Freyd. 1895 – 1982). Mak-Daugoll gormik psixologiyasi (1930). Freyd psixoanalizining neofreydizmda sotsiologizatsiyalashuvi.

Qo'llaniladigan texnologiyalar: "Klaster", "Pinbort", "SWOT" tahlil, "VENN" diagrammasi, "T" sxema, "Aqliy xujum", "Baliq suyagi", "Nima uchun?" diagrammasi, "Qanday" diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Chet el psixologiyasining zamonaviy holati

J.Piaje genetik psixologiyasi (1896 - 1980). E. Erikson epigenetik konsepsiysi (1902-1994). V. Frankl ijodida logoterapiya va ekzistensial analiz nazariyasi va amaliyoti. Kognitiv psixologiya.

Qo'llaniladigan texnologiyalar: "Klaster", "Pinbort", "SWOT" tahlil, "VENN" diagrammasi, "T" sxema, "Aqliy xujum", "Baliq suyagi", "Nima uchun?" diagrammasi, "Qanday" diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishi

M.Voxidovning psixologiya faniga qo'shgan hissasi. M.G.Davletshin maktabi. E.G'ozievning komil inson konsepsiysi. M.M.Mamatov va etnopsixologiya maktabi. O'zbekistonda psixologiya fanida tadqiqot yo'nalishlari.

Qo'llaniladigan texnologiyalar: "Klaster", "Pinbort", "SWOT" tahlil, "VENN" diagrammasi, "T" sxema, "Aqliy xujum", "Baliq suyagi", "Nima uchun?" diagrammasi, "Qanday" diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

Seminar mashg‘ulotlarining mavzulari

Nº	Mavzular nomi	Seminar mashg‘ulot
1	Psixologiya tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	8
2	Qadimgi Sharqda psixologik ta’limotlarning yuzaga kelishi	8
3	Antik davr psixologik ta’limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)	8
4	Bilish jarayonlari haqida ta’limotlar	6
5	Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi	6
6	XVIII asr fransuz psixologiyasi hamda XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida nemis klassik falsafasida empirik yo‘nalishning yuzaga kelishi. XIX asrda Rossiyada psixologik qarashlarning rivojlanishi	6
7	Psixologiya sohalarining rivojlanishi	6
8	Chet el psixologiyasining zamonaviy holati	4
9	O‘zbekistonda psixologiya fani rivojlanishi	2
JAMI		54

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

“Psixologiya tarixi” fani bo‘yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta’minlangan.

Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar echadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konsept qiladi, uy vazifa sifatida berilgan vazifalarni bajaradilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘sishimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar echadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘sishimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo’llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilalar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konseptlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Psixologiya tarixi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 20 ta katta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llannmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalilanligiga o‘quv mashg‘ulotlari;
- ma’lum mutaxassisligiga taalluqli psixologik bilimlarni referatlar shaklida namoyon qilish.

Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

№	Mavzular nomi	mustaqil ta’lim
1	Psixologiya tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	10
2	Qadimgi Sharqda psixologik ta’limotlarning yuzaga kelishi	10
3	Antik davr psixologik ta’limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)	10
4	Bilish jarayonlari haqida ta’limot. Tafakkurning oliy shakllari: muhokama yurituvchi, mantiqiy, diskursiv	8
5	Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi	10
6	Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya sohalarining rivojlanishi	10
7	Eksperimental psixologiyaning vujudga kelishi va qo‘llanish sohalari	10
8	O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi	10
JAMI		78

PSIXOLOGIYA TARIXI FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

№	Mavzular	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Hajmi (soatda)
1	Psixologiya tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
2	Psixologiya fani sohasida kuchlar	Adabiyotlardan konspekt qilish.	4

	konsolidatsiyasi.	Individual topshiriqlarni bajarish	
3	O‘tish davri psixologiyasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
4	S.L.Rubinshteyn maktabi umumiy xarakteristikasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
5	Gumanistik psixologiya.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
6	Freydizmning psixologiyaga qo‘shgan hissasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
7	Klinik psixologiyaning fan sifatida shakllanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
8	Strukturalizm –Vyursburg maktabi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
9	Chet el psixologiyasining zamonaviy holati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
10	Bixiviorizm psixologiyaga qo‘shgan hissasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
11	O‘zbekistonda psixologiyaning rivojlanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
12	Shaxs nazariyalari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
13	M.G. Davletshin psixologiyaga qo‘shgan hissasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
14	Ilmiy psixologiyaning amaliyot bilan yaqinlashuvi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2
15	Psixologik konsultatsiya tarixi va manbalari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2
16	B.G.Ananevning psixologiyaga qo‘shgan hissasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
17	P.YA.Galperin psixologik qarashlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
18	D.B.Elkonin va bolalar psixologiyasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4

19	B.M.Teplov psixologik tadqiqotlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
20	Psixologiyaning ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
21	Ilmiy maktablar evolyusiyasi va ularning zamonaviy psixologiyaning rivojlanishida tutgan o'rni.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2
Jami			52

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

13. Empirizm va assosionizm: bilim va tajriba. Nemis klassik falsafasidagi psixologik goyalar.
14. Psixologiyaning mustakil fan sifatida tarkib topishi davridagi nazariy kurashlar
15. Psixologiya tarixida psichoanaliz.
16. Yosh davrlari psixologiyasining vujudga kelish tarixi.
17. Abu Ali ibn Sinoning psixologik g'oyalari tarixi.
18. Psichoanaliz “vorislari” va “tuskinlik kiluvchilar”i
19. Gumanistik psixologiya
20. Psixologiyada tizimli yondashuv.
21. Freydizmga tanqidiy yondashuv.
22. U.Djeyms psixologiyasi va uning tanqidiy talqini.
23. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari.
24. Sport psixologiyasi fani tarixi

DASTURNING INFORMATSION USLUBIY TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi ko'zda tutilgan;

- Ma'ruzalar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya shaklda tayyorlash rejalashtirilgan.
- Psixologiya tarixi fanining seminar mashg'ulotlarida maxsus «Psixodiagnostika kompyuter programmalarini»dan foydalanish, shuningdek, interfaol (guruh-guruh, o'z-o'zini nazorat, klaster) usullarida tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

“Psixologiya tarixi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Psixologiya tarixi” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda

amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekviuum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

• **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

• **yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. YAKUNIY nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “YOZMA ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darjasini ballar orqali ifodalanadi.

“Psixologiya tarixi” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YaN.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.- 35 ball va O.N.- 35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A’lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshirqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi. Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = V \cdot O^c / 100$

- bu erda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);
- O^c -fan bo‘yicha o‘zlashtirish darjasini (ballarda).

- Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo‘yicha 55 bal va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘il qo‘yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lman tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy bo‘limi hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

Fan bo‘yicha oraliq nazorat ikki marta o‘tkazilishi nazarda tutilgan bo‘lib, I - ON “Og‘zaki” shaklda o‘tkaziladi va unga maksimal 17 ball, II – ON “Yozma” shaklida o‘tkazilib unga maksimal 18 ball ajratilgan.

• Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	JN-ballari		
		Maks	1-JN	2-JN
1	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi.	10	0-5	0-5
2	Seminar (laboratoriya) mavzulari bo‘yicha talabaning bergen og‘zaki javoblari	25	0-13	0-12
Jami JN ballari:		35	18	17

Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	ON-ballari		
		Maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Amaliy va nazariy mashg‘ulotlaridagi faolligi, konspekt daftarlарining yuritilishi va to‘liqligi. Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirishiga maksimal 5 ball (1-ON uchun 2 ball, 2-ON uchun 3 ball) ajratiladi	5	0-2	0-3
2	1- ON “Og‘zaki” savol-javob tarzida o‘tkazilib, 3 ta savol beriladi va har bir savolga maksimal 5 ball; 2 - ON “Yozma ish” shaklida o‘tkazilib, 3 ta savoldidan iborat	35	0-15	0-15

	bo‘ladi va har bir savoliga 5 balldan baholanadi			
	Jami ON ballari:	35	0-17	0-18

Talabalar bilimini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

O‘tkaziladigan vakti	Nazorat turi	Mak ball	“5”	“4”	“3”	Nazorat shakli
1-13-mashg‘ulotlardan so‘ng	I-JN	18	15-18	13-15	10-13	Og‘zaki
14-27-mashg‘ulotlardan so‘ng	II-JN	17	15-17	12-15	9-12	Og‘zaki
13-seminar mashg‘ulotidan so‘ng 26- seminar mashg‘ulotidan so‘ng	I-ON	17	15-17	12-15	9-12	Og‘zaki
	II-ON	18	15-18	13-15	10-13	Yozma
Jadval asosida	Ya.N	30	26-30	21-25	17-20	Test
	Jami	100	86-100	71-85	55-70	

Yakuniy nazoratda “Test” larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Test” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 30 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan. Har bir savolga berilgan to‘g‘ri javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 1 balldan baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

Yakuniy nazorat “Test” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Test” variantlari asosida o‘tkaziladi, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar YaN ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
1	Fan bo‘yicha yakuniy test nazorati	30	0-30
Jami yakuniy nazorat bali-30			

Talabalar bilimini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turi	Mak ball	“5”		“4”		“3”	
I-JN	18	15	18	13	15	10	13
II-JN	17	15	17	12	15	9	12
I-ON	17	15	17	12	15	9	12
II-ON	18	15	18	13	15	10	13
YaN	30	26	30	21	25	17	20
Jami	100	86	100	71	85	55	70

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Jdan A.N. Istorya psixologii. – M., 1995.
2. Istorya psixologii: Teksty. – M., 1992.
3. Frankl V. Chelovek v poiskakh smysla. M. 1990.
4. Yaroshevskiy M.G. Istorya psixologii. – M., 1997.
5. Yaroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
2. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.
3. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 vydayushchixsya psixologov mira. – M., 1995.
4. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, E.Chepmam, U.Konroy. – Spb., 1999.
5. Sokolova E.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
6. SHuls D., SHuls S. Istorya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
7. YAroshevskiy M.G., Ansiferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

1. <http://www.expert.psychology.ru/>
2. <http://www.psycho.all.ru/>
3. <http://www.psychology.net.ru/>

4. www.natlib.uz;
5. www.Sportivniy psixolog.ru;
6. www.Psixologiya sporta;
7. www.ziyonet.uz.
8. www.childpsy.ru
9. www.edu.uz
10. www.flogiston.ru
11. www.pedagog.uz
12. www.psychology.uz
13. www.psychology.net.ru
14. www.psycatalog.ru
15. www.psychology.net.ru
16. www.tdpu.uz

1-Mavzu. Psixologiya tarixi fani predmeti, maqsadi va vazifalari.

Ma’ruza rejasi.

- 1. Ilk psixologik g‘oyalarning yuzaga kelishi.**
- 2. Psixologiya tarixini o‘rganishga yondashuvlar.**
- 3. Psixologiya tarixini davrlashtirish.**
- 4. Psixologiya fanining boshqa fanlar tizimidagi o‘rni.**

Ma’lumki, psixologiya tarixi fani inson psixikasi va psixik hodisalar haqidagi fikrlarning paydo bo‘lishi va uning rivoji haqida fikr yuritib, u ruhiy olam to‘g‘risidagi qiziqarli va bahsbop bilimlar, mumtoz ma’lumotlar tizimidan iborat. Tarixiy rivojlanish har bir fan uchun xos bo‘lib, u fandagi yangi g‘oyalarning ildizi hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda nnsionning o‘zi xaqidagi bilimlarini yig‘ilib hamda chuqurlashtirib borishidir. Psixologiya fani tarixiga nazar solar ekanmiz, psixik hayotni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish turli tarixiy davrlarda nazariy rang-baranglik bilan kechganligini va psixikaning moddiy asoslari qanday tadqiqotlarda aniqlanganligini bilish imkoniga ega bo‘lamiz.

Psixologiya tarixi fan sifatida hayotning turli bosqichlarida, fan va madaniyat taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi, dastlabki psixologiya fani qay tarzda taraqqiy etib, fanlar tizimi darajasiga ko‘tarilganligiga doir ma’lumotlarni qamrab oladi. SHuningdek, psixologiya tarixi inson psixikasi va uning hozirga qadar taraqqiyoti haqida chuquroq, aniq ilmiy ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Ilmiy jihatdan esa bu fan, nazariy malumotlarni o‘rganishda foydali bo‘lgan ilmiy metodlarni yaratishda ahamiyatli hisoblanadi.

Inson psixikasi haqidagi bilimlarning rivojlanish tarixi davomida ikki ilmiy falsafiy oqim, ya’ni idealizm va materializm o‘rtasidagi kurashni ko‘rish mumkin. Bu kurash psixologiya fanining mohiyatini turlicha tushunadi, undagi farqlar insondagi psixik va fiziologik hodisalarni o‘zaro munosabatlarini aniqlashda hamda psixologiya fani predmetini turlicha talqin qilishda namoyon bo‘ladi. Fan tarixida turlicha qarashlar va yo‘nalishlar bo‘lishiga qaramasdan, fanning predmeti, ya’ni inson va hayvonga xos bo‘lgan psixika, psixik hayot shundayligicha qolaveradi.

Ilmiy jihatdan psixologiya tarixi fani, psixologiya fanining predmet va vazifalaridan farqli ravishda, miya mahsullarini emas, balki psixologik fikrlarning paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi, ilmiy tadqiqotchilarining turli davrlardagi faoliyati, psixologiyaning fan sifatida tan olishini kabilarni o‘rganadi. Bir tarafdan inson ruhiy olamini dastlab psixika, so‘ng ong, oxir-oqibat xulq-atvor sifatida tahlil etishdir.

Hozirga kelib fanda, psixologiya tarixining avvalgi davrlarda e’tiborga olinmagan “psixika va xulq-atvor” haqidagi faoliyat birligi tamoyili yana qaytadan tiklandi. Xronologik jihatdan yondoshilganda, psixik olam haqida fikrlar rivoji hech qachon izchillikda kechmagan. Ba’zi davrlarda nazariya va konsepsiyalarda inqirozli davrlar xarakterlansa, ba’zida ulardagi o‘sish kuzatiladi. Ammo bunda tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlardagi o‘zaro uyg‘unlik e’tiborli sanalib, bu psixologik bilimlarning haqiqiy ilmiylik mazmunini belgilaydi.

Bizningcha, haqiqiy ilmiy psixologiya XIX-asr oxiri, XX-asr boshlarida tan olingen bo‘lsada, antik davr va mumtoz qarashlar fan tarixi uchun ilk metodologik manbalar sanalishi ehtimoldan holi emas. CHunki nemis psixolog V.Vundning psixologiya tarixida amalga oshirgan tajribalari shunchaki falsafiy g‘oya emas, aksincha sof psixologik eksperimental tadqiqot edi. Bu tadqiqot psixologiya fanining amaliy jihatdan tan olinishi hamda keyingi tadqiqotlar uchun zaruriyatning ortishiga xizmat qildi. Hozirga kelib psixologiya fani ham metodologik jihatdan, ham metodik jihatdan etuk fan sifatida jamiyatdagi fanlar tizimida o‘z o‘rniga egadir. Olib borilayotgan amaliy tadqiqotlar, fan yutuqlari ba’zi mumtoz nazariy qarashlarni inkor etib, uning zamonaviy tahlilini amalga oshirmoqda. Psixologiya fani ilmiy jihatdan tubdan yangilanmoqda. SHunday ekan, psixologiya fani tarixini bilish har bir bo‘lg‘usi psixolog, sportchi psixologlar shuningdek, olyi o‘quv yurtlarida faoliyat olib boruvchi psixolog o‘qituvchilar uchun ilmiylikning nazariy sharti

sanaladi, u haqda bilmay turib psixologiya fani haqida fikr–mulohaza yuritish, ta’lim berish, shaxs haqida tadqiqotlar olib borish ehtimoldan holi sanadi.

Asrlar mobaynida ruh, ong, xulq haqidagi tasavvurlar yuzaga kelgan va bir-biri bilan o‘rin almashib kelgan. Psixologiya tarixi ana shu o‘rin almashish manzarasini ifodalab beradi.

Psixologiya tarixi vazifalari:

1. psixika haqidagi bilimlar rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, qanday qilib bir kategoriya va tushunchalar boshqasiga aylanadi, har bir iqtisodiy formatsiya mazukr davrga xos bo‘lgan psixik hayot manzarasini qanday aniqlab beradi, ana shu masalalarni hal etish.
2. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ochib berish.
3. bilimlarning vujudga kelishi va idrok qilinishining jamiyat talablariga bog‘liqligini aniqlash.
4. Fanning vujudga kelishida shaxs va uning individual hayotiy yo‘lining tutgan rolini o‘rganish.

Qisqacha qilib aytganda, psixologiya tarixi – bu fanning mantiqiy xotirasidir.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida kishilarning hayotiy faoliyatları kengayib, aqliy zakovati ham boyib boradi. Binobarin, ularning falsafiy dunyoqarashi ham tarixiy davrning in’ikosi sifatida jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi. SHu sabab insoniyat taraqqiyotining turli davrlari falsafaning turli shakllari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ilk falsafiy fikrlar qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistonda kelib chiqqan. Qadimgi Hindistondagi falsafiy maktablar asosan ikki turkumga bo‘linadi (1-rasm). Biri Vedalardan kelib chiqqan va unga suyanuvchi maktablar, ikkinchisi Vedalarni tan olmaydigan, ularni rad etuvchi maktablar. Vedalarni tan oluvchi va ularga suyanuvchi maktablarga vedanta, mimansa, sankxya, nyaya va vaysheshika maktablari kiradi. Vedalarni tan olmaydigan falsafiy maktablarga jaynizm, buddizm va chorvak maktablari kiradi. Ularning ayrimlari bilan tanishib chiqaylik.

Vedalar ta’limotini talqin etuvchi diniy-falsafiy maktablardan biri mimansa va vedanta hisoblanadi. Bu ikkala maktab ham Vedalarni muqaddas kitoblar deb biladi va kishilardan hayotda ularga to‘la amal qilishni talab qiladi. Biroq ularda diniy qarashlar bilan bir qatorda sof falsafiy masalalar ham ko‘tariladi. Masalan, mimansa maktabi bilish masalalariga katta e’tibor qaratgan. Unda hissiy bilish va uning manbai, mantiq masalalari ko‘tariladi. Vedanta maktabi namoyondalari jon bilan xudoni o‘zaro munosabati masalasiga e’tibor qaratadilar.

Vedanta maktabining falsafiy ta’limotini ishlab chiqishda Badarayana degan faylasuf katta xizmat qilgan. Jon va xudoning o‘zaro munosabati masalasida bu maktab vakillari ikkiga bo‘lingan. Madhva tarafдорлари xudo va jon tamoman mustaqil narsalardir deb o‘rgatsa, SHarkata tarafдорлари bunga teskari fikrni, ya’ni xudo va jon birdir degan qarashni ilgari surganlar. Vedalarni sharhlash va undagi aqidalarni falsafiy jihatdan asoslashda sankxya maktabi alohida o‘rin tutadi. Bu maktabning asoschisi Kapila hisoblanadi. U taxminan miloddan avvalgi 600 yillarda yashagan. Sankxya maktabi ikki boshlang‘ichni moddiy va ruhiy boshlang‘ichni e’tirof etadi. Sankxya maktabining ta’limotiga ko‘ra, biz yashab turgan dunyodagi hamma narsalar moddiyidir. Biroq moddiyilik bilan bir qatorda dunyoning ruhiy asosi ham bor. Sankxya maktabi bu



ruhiy asosni Prakhriti deb ataydi. Prakhriti dunyodagi hamma narsaning asosi. U abadiydir.

Bilish masalasiga kelganda sankxya maktabi kishining sezgi a'zolarini va aqlning rolini inkor etmasa ham Vedalar ta'limotiga katta ahamiyat beradi. Sankxya maktabining vakillari Veda aqidalari dunyoning mohiyatini olib berishga yordam beradi deb uqdiradilar.

Ikkinci turkumga kiruvchi maktablar ichida jaynizm va chorvak falsafasi diqqatga sazovordir. Jaynizm falsafiy maktabining asoschisi Vardxamana hisoblanadi.



U miloddan avvalgi VI asrda yashagan bo'lib, G'olib Jina degan taxallus bilan mashhur bo'lgan (2-rasm). Uning izdoshlari jaynichilar deb atalganlar. Jaynichilar borliqni ikkiga tirik va notirik dunyoga bo'ladilar. Notirik tabiatga ular moddiylikni kiritadilar. Moddiy narsalarning hammasi bo'linmas mayda zarrachalardan tashkil topgan. Notirik tabiatga jaynichilar yana makon, vaqt, harakat kabilarni ham kiritadilar. Tirik tabiatga, jaynichilar fikricha, jon kiradi. Jonning asosiy xususiyati onglilikdir. Onglilik, jaynichilar ta'limoticha, turli jonlarda turlicha darajada bo'ladi. Jon o'z tabiatiga ko'ra mukammal narsa bo'lib, uning Jonning asosiy xususiyati onglilikdir. Onglilik¹, jaynichilar ta'limoticha, turli jonlarda

turlicha darajada bo'ladi. Jon o'z tabiatiga ko'ra mukammal narsa bo'lib, uning 33 imkoniyatlari cheksizdir. Biroq jon tana bilan bog'langandir. U ehtiroslar, xohish-istiklar doirasiga tushib qolgan. Bu esa, uning imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. SHuning uchun haqiqiy bilim, jaynichilar ta'limoticha, jonni tanadan halos bo'lishiga yordam qilishi kerak.

Qadimgi hind falsafasida chorvak maktabi alohida o'rinn tutadi. Chorvak falsafasi miloddan avvalgi VI asrlarda kelib chiqqan. Chorvak falsafasi namoyondalarining ta'limoticha, olam moddiyidir. Moddiy dunyo esa to'rt unsur -suv, havo, tuproq va o'tdan tashkil topgan. Organik tabiat va shu jumladan inson ham ana shu moddiy unsurlarning birikmasidan iborat. Insonning o'ziga xos xususiyati shundaki, u avvalo aqli mavjudotdir. Chorvak ta'limoticha, inson o'z aqli va sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni bilihga qodir. Chorvak maktabi ko'pgina falsafiy muammolarni o'rtaga tashladi va ularni hal qilishga urindi. Bu qadimgi Hindistonda falsafiy fikr ancha rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Qadimgi Xitoy ham ijtimoiy-falsafiy fikr dastlab vujudga kelgan va taraqqiy etgan mamlakatlardan biri edi.

¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 4-bet.



Qadimgi Xitoyda ijtimoiy-falsafiy fikr miloddan avvalgi VII asrlarda vujudga kela boshlagan. Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida Konfutsiyning (551-479) qarashlari alohida o‘rin tutadi (3-rasm). U qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojiga katta hissa qo‘shtan. U qadimiy yodgorliklardan hisoblangan «Qo‘schiqlar kitobi», «Bahor va kuz» kabi kitoblarni tuzishda qatnashgan. Konfutsiyning o‘zi «Aforizmlar» bilan mashhurdir. Yaratuvchi ilohiy kuchni tan olgan Konfutsiy «kishilarning hayoti taqdirga bog‘liq, boylik va ulug‘lik esa Iloh tomonidan beriladi» deb uqdiradi. Konfutsiyning falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o‘rin tutadi. «Hamma odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir-birlariga o‘xshaydilar, tarbiyaga qarab ular bir-birlaridan farqlanadilar», «yangini bilish uchun eskini o‘rganish kerak», «mulohazasiz ta’limot foydasizdir, ta’limotsiz mulohaza bo‘lmaydi», degan fikrlar Konfutsiyning axloq haqidagi ta’limotida asosiy o‘rin olgan. Konfutsiy qarashlarida Li degan tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi. Li tartib, qoida degan ma’noni anglatadi. Li bo‘lmasa jamiyat ravnaq topmaydi. Tartib, qonun-qoida har qanday jamiyat rivojinining omildir.

Konfutsiy Li tushunchasini hatto ilohiylashtirishga borib etadi. Keyinchalik qadimgi Xitoyda konfutsiychilar ta’limotiga qo‘silmagan moistlar maktabi vujudga keladi. Bu maktabning asoschisi Mo-szi (Mo Di) hisoblanadi. U miloddan avvalgi 479-400 yillarda yashagan. Uning fikricha inson o‘z hayoti davomida ilohiy kuch belgilagan qoidalarga mos holda yashashi kerak. Ularga amal qilgan kishini Iloh baxtiyor qiladi, amal qilmaganlarni jazolaydi. SHunisi diqqatga sazovorki, Mo-szi urushlarni qoralaydi, davlatlar o‘rtasidagi tinch-totuvlikni qo’llab quvvatlaydi. Moistlarning falsafiy qarashlarida bilish bilan bog‘liq masalalar ham ko‘tariladi. Ular insonning butun bilimlari sezgi a’zolari bilan tafakkurning o‘zaro birligi natijasida vujudga kelishini ta’kidlaydilar. Qadimgi dunyoda falsafiy fikr taraqqiy etgan mamlakatlardan biri YUnioniston edi.



Qadimgi yunon falsafasi miloddan oldingi VI asrda, ibridoj jamoa tuzumi quldarlik jamiyatini bilan almashgan davrda vujudga keldi. Quldarlikning vujudga kelishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivoji YUnionistonda shahar-davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. YUnion shahar-davlatlari savdo va sanoat markazi hamda madaniy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘ldi. Qadimgi YUnionistonda falsafa ijtimoiy hayotning in’ikosi sifatida tabiat to‘g‘risidagi bilimlar bilan bog‘lanib bir butun dunyoqarashni o‘zida mujassamlantirgan edi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimiy falsafiy qarashlarini o‘rganishda eramizning 5-asri oxiri va 6-asr boshlarida Eronda zardushtiylik ta’limotining yangi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘lib, so‘ng markaziy

Osiyo, Kavkaz va SHimoliy Hindistonda keng yoyilgan mazdakizm yoki mazdakiylilik diniy-falsafiy ta'limoti bilan tanishish ham muhim o'rinn tutadi (4-rasm).

Mazdakiylilik ta'limoti, aslida, moniylik diniy-falsafiy ta'limotni to'ldiruvchi diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, uning ildizlari zardushtiylikka borib taqaladi.

Bu ta'limot Mazdak (470-529 yillar) nomi bilan bog'liq bo'lib, u shimoliy Eronning Nishopur shahrida zodagon oilasida tug'iladi. Mazdan dastlab zardushtiylik dini otashgohlaridan birida kohin bo'lib, keyinchalik butun Eron bo'yicha bosh kohin vazifasida ishlaydi. U bunda zardushtiylikka asoslanib o'zining yangi ta'limotini ishlab chiqadi. Mazdakiylilik ta'limotiga ko'ra, dunyoda bo'ladigan hodisalar va voqealar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezhgulik va yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong'ulik manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash ezhgulik (yaxshilik)ning, yorug'likning qorong'ulik (johillik) ustidan muqarrar g'alabasi bilan tugallanadi.

Умуман олганда, маздакийлик монийлиқдан фарқ қилиб, бу таълимот фақат фалсафий қарашлар мажмуаси бўлиб қолмай, балки амалий характерга ҳам эга бўлган, ўз ғояларини амалга оширишга қаратилган таълимотdir. Бу таълимотнинг ҳур фикрлилик ғоялари ўзидан кейин Шарқ мамлакатларида, Марказий Осиёда, ҳатто Farb мамлакатларида ҳам юзага келган озодлик харакатлари билан боғлиқ фалсафий оқимларга ўз таъсирини кўрсатган.

Shu bilan birga, Mazdakiylilik jamiyatdagi ijtimoiy da'vat etgan Mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida ham xizmat qiladi. Mazdakiylilik ta'limotiga ko'ra, jamiyatda ijtimoiy notenglik yuzaga kelsa, yovuzlik va zulmat hukmronlik qiladi. Bu esa kishilar o'rtasida hasad, g'arazgo'ylik, ziqlalik, o'g'irlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman baxtsizlikni keltirib chiqaradi. SHu sababli bu illatlarni jamiyatdan bartaraf etish uchun shu notenglikni paydo qiluvchi asoslarning o'zini yo'qotish, zarur, deb hisoblaydi. Mazdakning aytishicha, xudo kishilarga o'zaro teng taqsimlab olsin, deb, noz-ne'matlarni yaratgan. Biroq, ba'zi xudbin kishilar o'z manfaatini ko'proq o'ylab ish qilishgani uchun bu noz-ne'matlani taqsimlashda adolat buzilgan. SHu asosda ba'zilar mol-mulkka ega badavlat bo'lishib, boshqalar kambaqal bo'lib qolishgan. SHu bois, badavlat kishilardan mol-mulkning bir qimini tortib olib, uni kambaqallarga taqsimlab berish adolatli ish bo'ladi, chunki kambaqallar ham mol-mulkka ega bo'lishlari zarur.

Mazdakning bu ta'limotini oddiy xalq ommasi keng qo'llab-quvvatlaydi. SHu sababli u ko'p joylarga juda tez yoyiladi. Bu davrda ko'pchilik joylarda dehqon jamoalari va shahar

mehnatkashlari ahvoli og‘irligi tufayli mazdakiylikning bu g‘oyalari ular manfaatdorlariga mos bo‘lib tushadi. Mazdakiylikning bu g‘oyalari Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo xalq ommasi qo‘zg‘olonlarining g‘oyaviy bayrog‘i bo‘lib xizmat qiladi. O‘scha davr feodal zodagonlar mazdakiylik ta’limotining feodal jamiyati negizlariga putur etkaza boshlaganligini ko‘rishib, mazdakiylik ta’limoti tarafdarlarini shafqatsiz jazolaydilar. Mazdakni esa Sosoniylar davlatining podshosi Anushervon tomondan 529 yili qatl qilinadi. Umuman olganda, mazdakiylik moniylikdan farq qilib, bu ta’limot faqat falsafiy qarashlar majmuasi bo‘lib qolmay, balki amaliy xarakterga ham ega bo‘lgan, o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga qaratilgan ta’limotdir. Bu ta’limotning hur fikrlilik g‘oyalari o‘zidan keyin SHarq mamlakatlarida, Markaziy Osiyoda, hatto G‘arb mamlakatlarida ham yuzaga kelgan ozodlik harakatlari bilan bog‘liq falsafiy oqimlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Asosiy adabiyotlar

1. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
2. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
3. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
4. Jdan A.N. Istorija psixologii. M.: MDU, 1990.
5. Marsinkovskaya T.V. Istorija psixologii. M., 2002.
6. Yakunin V.A. Istorija psixologii: Uchebnoye posbiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.- 584 s.
2. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
3. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
4. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
5. Xayrullayev M.M. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O’zbekiston, 1995.
6. Xrestomatiya po obshchey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
7. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO “Xarvest”, 2003.-528 s.

2-Mavzu. Qadimgi Sharqda psixologik talimotlarning yuzaga kelishi.

Ma’ruza rejasi.

1. O‘rta asrlarda psixologiya rivojlanishining umumiy yo‘nalishlari.
2. SHarq allomalarining psixologik g‘oyalari.
3. Rux xaqidagi ta’limotlar doirasida psixologiyaning rivojlanish bosqichining tugallanishi.


O‘rta asr SHarqida arab xalifaligi davriga kelib yangi feodal ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan intellektual bilimlar monopoliyasi ruhoniylar qo‘liga o‘tadi. Natijada diniy rasm-rusumlari va an’ana-odatlari jamiyatdagi axloqiy-iqtisodiy va huquqiy-iqtisodiy normalarga aylanadi. Bu davrda falsafa amaliyotdan ajralib, ko‘proq sxolastikaga aylanib, ilohiyot haqidagi ta’limot xarakterini oladi. Tabiat va insonni ilmiy o‘rganish gunoh hisoblanib, bunday o‘rganishga kirishgan mutafakkirlar dahriylikda ayblanadi va quvg‘in qilinadi. Lekin shunga karamay, bu davrda ham jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti ma’lum darajada to‘xtamay davom etadi.

Bu davr mutafakkirlari islom dinining cheksiz hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiatni va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o‘rnini haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan farq qiladigan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarni ham ilgari suradilar. Bu bilan ular ilg‘or falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shadilar. Arab xalifaligiga qarashli hududlarda ilm-fanning taraqqiyoti bilan birga, erkin fikr qiluvchi, diniy aqidalardan etishib chiqadilar. Bu mutafakkirlar o‘z qarashlari bilan O‘rta asr SHarq falsafasiga asos soladilar. Ular o‘z qarashlarining dunyoviyligi, o‘z asarlarining aql-idrokli, o‘qimishiligi, qadimgi yunon-rim falsafiy qarashlari bilan tanish bo‘lgan, o‘z kuchlari va bilimlariga qattiq ishongan kishilar bo‘lishgan edi. VIII-XIII asrlarda O‘rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar o‘z taraqqiyotining gullab yashnagan davrini kechirdi. Bu jarayonga O‘rta va YAqin SHarq mamlakatlaridagi ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy ta’limotlar ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, o‘sha davrlarda O‘rta Osiyo, O‘rta va YAqin SHarq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar bir-biri bilan bog‘langan yaxlit jarayon sifatida rivojlandi. Unda qadariylar, murji’alar, mutazila va Kalomdan iborat ratsionalistik va insonparvarlik yo‘nalishdagi diniy-falsafiy oqimlar, tasavvufning oriflik ta’limoti tarafdarlari, «sof arab-musulmon falsafasi» - mashshoiyunlar (Kindiy, YAh’yo ibn Adi, Nasriddin Tusiy, Ibn Bajja, Ibn Tufayl, Ibn Rushd), Demokritning empirik tabiatshunoslik falsafasi yo‘nalishidagi tabiiyunlar (Jobir, Eronshahriy, Roziy, Beruniy, Abu-l-Barakot), amaliy siyosat, davlat va axloq falsafasi (Abu Hanifa, Abu Yusuf al-Hirojiy, Mavardiyy, Forobiyy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Kaykovus, Nizomul-Mulk,

Nasriddin Tusiy, Sa’diy, Hofiz), mantiqshunoslik va hozirgi semantik mantiq falsafasi yo‘nalishidagi falsafa (Matta ibn Yunus, YUhanna binni Haylon, Forobiyy, Abu Sulaymon Mantiqiy as-Sijistoniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, hurufiyalar, Mir Said SHarif Jurjoniy), fan, falsafiy va diniy ta’limotlarni qiyosiy o‘rganuvchilar (Ibn an-Nadim, Abu Abdullohh Kotib Xorazmiy, Abdulkarim ash-Shaharastoniy, Bayhaqiy, Ibn Hallikon, Ibn abi Usaybi'a, al-Forisiy

al-Fahriy) kabi oqimlar ta'siri katta bo'ldi. Bunday mutafakkirlardan biri, birinchi arab faylasufi YOqub Ibn Ishoq al-Kindiy (800-879) dir (1-rasm).



1-RASM

a) Al-Kindiyning falsafiy qarashlari.

Al-Kindiy asli arablarning Y Amanda yashaydigan Kinda degan qabilasidan chiqqan bo'lib, uning taxallusi ham shu qabilaning nomidan olingandir. Al-Kindiyning nomi aslida Abu YUsuf Yoqub Ibn Ishoqdir. Al-Kindiy dastlab boshlang'ich ta'limni Kufadan olib, so'ng Basraga boradi va u erda olimlar qo'lida o'qiy boshlaydi. Al-Kindiy Basrada o'ziga zarur, deb bilgan bilim sohalarini egallab, so'ng yana o'z bilimini oshirish maqsadida Bag'dodga kelib, dastlab fors, yunon falsafasini o'rganishga kirishadi. Lekin bu davrda yunon falsafasiga oid ko'p kitoblar arab tiliga hali tarjima qilinmagan edi. SHu sababli u qadimgi yunon falsafasini o'qish maqsadida yunon tilini o'rganishga kirishadi va tez orada bu sohada nihoyatda katta muvaffaqiyat qozonadi. Al-Kindiy yunon tilini bilib olishi asosida qadimgi yunon faylasuflarining asarlarini o'rganish bilan cheklanmay, ularning bir nechtasini arab tiliga tarjima ham qiladi. U o'zining ilmiga chinakam berilganligi tufayli tez orada bilimdon kishilar orasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib, uning nomi shahar amaldorlari va olimlari doirasida tez-tez tilga olinadigan bo'ladi. bundan xabar topgan xalifa Al-Ma'mun uni «Baytul hikma» («Donolar uyi») akademiyasiga jalb qiladi. Al-Kindiy bu erda yirik tarjimon va olim Xusayn Ibn Ishoq bilan tanishib, uning qo'lida tarjima ilmini o'rganadi, arab tiliga yunon tilidan tarjima qilish san'atini egallab, tez orada kuchli tarjimonlarning biri bo'lib qoladi. Natijada, u Aristotelning «Metafizika», Ptolomeyning «Geografiya», Evklidning «Elementlar» kitoblarini yunon tilidan arab tiliga tarjima qiladi. SHu bilan birga, Al-Kindiy Aristotelning «Kategoriya», «Ikkinchchi analitika», «Organon» asarlariga, Ptolemeyning «Almagest» asariga, Evklidning «Elementlar» kitoblariga sharhlar yozadi. Ayniqsa Al-Kindiyning arab falsafasida SHarq aristotelchiligining paydo bo'lishidagi roli g'oyat kattadir. U Aristotel falsafasini juda yaxshi bilgan va hatto uning ba'zi bir g'oyalariga tanqidiy ham yondoshgan. U Aristotelning² 10 ta kategoriyasi o'mniga o'zining 5 ta prasubstansiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamonni) ilgari surgan. Uning nuqtai nazaricha, tabiatdag'i barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to'rt unsur: olov, suv, havo va tuproqdan iboratdir.

Materiya doimiy harakatdadir, harakat esa narsalarning bir turdan ikkinchi turga o'tishidan iboratdir. Bu o'z navbatida o'zgarish demakdir. Al-Kindi harakatni olti turga bo'ladi: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o'zgarish va nihoyat; 6) siljish. Har qanday harakat esa ma'lum bir vaqt ichida sodir bo'ladi. Vaqt harakatning sekin yoki tezligidan iborat bo'lib, u o'tgan zamon bilan kelgusi zamonni bog'laydi. Materiya shaklga ham ega, faqat shakliy tafovut tufayli u yoki bu narsalar boshqa narsalardan farq qiladi. Al-Kindiy borliqning makon atributini ham e'tirof etadi. Makon, deb u jismni o'z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi sathga aytamiz, deydi. Makon bilan uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, agar makonni to'ldirib turuvchi narsa bo'lsa, uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, agar makonni to'ldirib turuvchi narsa bo'lsa albatta makon bo'lishi kerak

² Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 6-bet.



2-RASM

Ar-Roziy (864-925)ning to'liq ismi sharifi Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo ar-Roziydir (2-rasm). U eronlik bo'lib, Ray shahrida dunyoga keladi. Roziy yoshligidan arab va qadimgi yunon tillarini o'rganadi, Ray va Bag'dod shaharlarida o'qiydi. U ayniqsa, tibbiyot, kimiyo, botanika, astronomiya, matematika, mantiq va falsafaga oid ilmlarni chuqr egallab, SHarqning buyuk ensiklopedist olimi, adib va mutafakkiri bo'lib etishadi. Roziy keyinchalik Ray va Bag'dod shifoxonalarini boshqaradi. Bu paytda u O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro ilm ahllari bilan ilmiy aloqada ham bo'ladi. Roziy o'z davrining Galeni (Jolinusi) deb tanilib, Evropada uning nomi lotincha Razes deb ataladi. U inson bilimlarining uch sohasiga: tibbiyotga, kimiyo va falsafaga juda katta hissa qo'shadi. Roziy tabobatga, kimiyo, falsafaga, mantiqqa, etikaga, ilohiyotga, astronomiyaga, fizikaga oid 184 ta asar qoldiradi, shulardan bizgacha faqat 61 tasi etib keladi (ulardan 36 tasi tibbiyotga, 4 tasi kimiyo oid).

Roziyning falsafiy qarashlari Eron, Turon, arab, Hind, Xitoy falsafiy sistemalari hamda qadimgi yunon falsafiy ta'limotlari asosida shakllanadi. Uning dunyoqarashida materialistik tendensiyalar ustun o'rinni oladi. Roziyning ilmiy tadqiqotlari tajriba va eksperimentlarga asoslangan o'z davri dogmatik qarashlaridan holi, tabiatshunoslikning falsafiy muammolariga ko'proq oiddir. SHu bilan birga, u o'z davrida o'zining original falsafiy qarashlari bilan zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketib, qator ilg'or falsafiy g'oyalarni olg'a suradi.

Roziy o'z dunyoqarashida hukmron mafkura-islom ortodoksal ta'limotini inkor qilibgina qolmay, balki Aristotel va uning izidan borgan o'z o'tmishdoshlari Al-Kindiy, Ravandiy va shu kabilarga nisbatan butunlay boshqacha yo'l tutdi. Uning falsafiy ta'limoti bo'yicha, real dunyo beshta azaliy boshlang'ichning bir-biriga qo'shilishidan tashkil topgan. Bu beshta azaliy boshlang'ich: materiya (xayulo), makon, zamon, jon (an-nafas) va xudo (borib)dan iboratdir. Roziy bunda xudoni azaliy boshlang'ich sabablardan faqat biri, deb biladi, u dunyoning vujudga kelishida boshqa azaliy boshlang'ich sabablar qanday rol o'ynasa, xudo ham shunday rol o'ynadi, deb hisoblagan. SHu sababli u xudoni dunyoni yaratuvchi emas, balki boshqaruvchi kuch, deb tasavvur qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, Roziy xudoni butunlay inkor etuvchilar jumlasiga kirmaydi. U shu bilan birga, materianing abadiyligi, uning makon va zamonda cheksizligi, dunyo hech kim tomonidan yaratilmaganligi, harakat esa narsalarning ajralmas xususiyati, harakatning manbai narsalarning o‘z ichida, deb biladi. Ar-Roziy materiyani olamning asosiy negizi, deydi. U o‘zining materiya haqidagi ta’limotida Demokrit atomistik nazariyasiga asoslangan holda materiyani «bo‘linmas zarrachalar» («ajzou loyata jazzza») dan iborat, deb tushunadi. Bu zarrachalarning bo‘shliq (xolo) zarrachalari bilan turlicha birikishi natijasida to‘rtta unsur: suv, tuproq, havo va olov paydo bo‘ladi. Dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar shu unsurlarning turlicha miqdorda o‘zaro qo‘shilishidan tashkil topadi, deydi u. Bular shuni ko‘rsatadiki, Roziy o‘zining dunyoning tuzilishi haqidagi ta’limotida ma’lum darajada qadimgi yunon faylasuflarining atomistik qarashlariga suyangan. Uning bu ta’limotiga ko‘ra atomlar massa va og‘irlikka ega bo‘lgan abadiy moddiy narsalar. Bu moddiy narsalardan moddiy dunyo tashkil topadi. Roziy bunda moddiy dunyoning, tabiatdagi jismlarning asoslari va tuzilishlari haqida gapirib, ular ikki narsadan: materiya va shakldan iborat, lekin materiya mohiyati jihatdan shakldan ustun turadi, deydi. U bunda o‘z davri falsafasida qabul qilingan terminlardan foydalanib, materiyani javhar (substansiya), shaklni esa oraz (aksidensiya), deb hisoblaydi.

Roziy inson aql-idrokining qudratiga yuqori baho berib, insonni tabiatdagi predmet va hodisalarning mohiyatini bilishda benihoya qudratga ega, deb ta’kidlaydi. Uning falsafiy ta’limoti bo‘yicha, inson o‘zining aql va tafakkur qobiliyati bilan butun hayvonot dunyosidan farq qiladi. Inson dunyo hodisalarini bilishda o‘z sezgi va idrok ko‘rsatmalariga tayanishi va aqliy qobiliyatiga ishonishi lozim. SHundan kelib chiqqan holda, u har xil payg‘ambarlar va din mutaassiblari tomonidan qilingan va qilinadigan mo‘jizalarga, ko‘rsatiladigan karomatlarga ishonmaslikni aytadi. Roziy, inson-idrokining qudrati va kuchiga, uning bilish qobiliyatiga ishongan holda, kishilarni ilm-fan va ma’rifatni egallashga chaqiradi, u insonlarning baxtli hayotga erishishi ularning ilm-fanni egalashi orqali ro‘yobga chiqadi, deb tushuntiradi. Bizning uchun eng sharaflı bo‘lgan narsa, deydi u, - faqat jismoniy lazzatlarga intilish emas, balki ilm va ma’rifat orttirish va haqiqatga erishishdir. Uning falsafiy ta’limoticha, inson hayotining mohiyati baxtli turmushga erishishdir. SHuning uchun har bir kishi baxtli hayot uchun kurashishi kerak. Bu kurash ikki yo‘ldan iborat.

Birinchisi: hayotning hamma moddiy ne’matlaridan foydalangan holda, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish: ikkinchisi, eng oliy axloq iqtisodiy etuklikka erishishdir. Bunga erishish insonning o‘ziga bog‘liq. Inson o‘z taqdirini, o‘z hayotini o‘zi yaratadi. Eng baxtli kishi insonlarga eng ko‘p foyda keltirgan kishidir. U o‘zining «Kitob tibbi ar-ruhoniy» risolasida insonlarning eng oliy axloqiy-iqtisodiy etuklikka erishish yo‘llari haqida fikr yuritib, bu yo‘lda uchraydigan to‘silalar, kishidagi bo‘lidigan kamchiliklar va ularni engib o‘tish yo‘llarini ham ko‘rsatib beradi.

Uningcha, eng oliy ahloqiy-iqtisoiy etuklikka erishgan odam, ya’ni haqiqatdan, eng mu’tabar faylasuflar intilgan hol qisqacha shundan iborat: kishilar bir-biriga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishi, bir-birini ochiq ko‘ngillik va xushmuomalalik, rahmdillik bilan qabul qilishi, yordam qilishi, kishilarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lish, baxt va saodatga intilishidir.



3-RASM

Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G'ozzoliy (1058-1111) yirik musulmon arab faylasufi va mashhur islom ilohiyotchisidir (3-rasm). U Tus shahrida kosib oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Muhammad Ibn Ahmad Tusdag'i o'zining kichik do'konida ip yigiruvchi, ya'ni g'azzolchilik bilan tirikchilik qiladi. Abu Hamid Muhammadning G'azzoliy taxallusi ham ayni shu otasining kasbidan olingan. Otasi Abu Hamidni o'qimishli inson bo'lishini juda xohlaydi. SHu sababli u o'z vafoti oldidan uy-joyini sotib, o'zining bir ahli soliho mutasavvuf do'stiga o'g'lining ilm olish uchun sarflashni vasiyat qiladi. Ota vasiyati amalga oshib, Abu Muhammad G'azzoliy butun islom dunyosi tan olgan benazir faylasuf, buyuk islom ilohiyotchi olimi bo'lib etishadi. U dastlabki ma'lumotni Nishopurda olib, so'ng uni Bag'dodda davom ettiradi. o'qishni tugatib, «Nizomiya» madrasasida islom huquqi – fiqhdan, mantiq va falsafadan dars beradi. So'ng mudarrislikdan voz kechib, 11 yil zohidlikka beriladi.

Umuman, barcha buyuk olimlar kabi, Abu Hamid G'azzoliy ham yoshligidan ilmga o'ta chanqoq bo'ladi, u tinimsiz, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, o'qib o'rganadi, ilm oladi. G'azzoliy islom haqiqatni bilishning eng to'g'ri yo'li bo'la oladimi, yo'qmi yoki faylasuflar kabi haqiqatni faqat aql bilan bilish mumkinmi, kabi shubha va savollarga to'g'ri javob topishda juda ko'p izlanadi. Nihoyat, oxirgi u eng to'g'ri yo'l, deb Islom yo'lini tanlab, uning muqaddas dasturi Qur'on va Hadis ilmi ekanligiga o'zicha ishonch hosil qiladi hamda unga iymon keltiradi.


Abu Hamid G'azzoliy islom ilmlarning turli sohalarini dunyoviy ilmlarga qo'shib chuqur egalaydi. U bunda nimani o'rgansa, shu sohani to'ldirishga, rivojlantirishga harakat qilib, har bir o'rgangan narsasini islom tarozisiga qo'yib, o'lchab ko'rish asosida baholashga harakat qiladi. Oqibatda, o'zi shug'ullangan islomning turli sohalariga oid yuzdan ortiq asarlar yaratadi. U fiqh ilmiga oid «Bosit», «Vajid» va «Qosit» singari asarlar yozadi. Kalom ta'limotiga doir «Tavhidul A'qoid», «Ar-Risolat-ul-qudsiya», «Al-Iqtisodu fil e'tiqod», «Ijmoi-ul-Avvom an Ilm-ul-Kalom» kabi asarlar yozadi. G'azzoliy o'z asarlarida o'ziga xos bir islomiy falsafa bo'lgan kalom ilmini johil kishining o'qishidan hech bir foyda yo'q, bu ilm faqat iymonida shubhaga tushganlarni tuzatishga yaraydi, deb, uni din ulamolariga o'rganishni tavsiya etadi.

G'azolliyni jahonga mashhur qilgan va dunyo tan olgan faylasuflar qatoriga qo'shgan asarlari – bular mu'tazilliylar, botiniylar (ular ko'proq aqlga tayanganlar) ning yo'ldan ozgani va islonni zaiflashtirishlariga qarshi yozgan «Fadoix al-Botiniya», «Al-Qismoi-al-Mustaql», «Hujjatul-Haq», «Mufasi-ul-Xilof» va «Ad-Diras al-Marg'um» kabi asarlaridir.

Abu Hamid G'azzoliy jahon faylasuflari, xususan, yunon faylasuflari asarları bilan ham tanishib chiqqan bo'lib, u o'z o'tmishdoshlari ulkan allomalar Forobiya va Ibn Sinolarning Platon va Aristotel falsafasi ta'sirida qolganliklarini, ularga ergashganliklarini tanqid qilib, «Taxofut-ul-falosifa» («Faylasuflarga qarshi») asarini yaratadi. U bu asarida islomni, Qur'onni insoniyatning aqliy bilimlaridan iborat taroziga solishni qoralaydi. Aksincha, insoniyatning aqliy bilimlarini «Qur'on» tarozisiga solib tekshirib chiqish kerak. CHunki shunday qilinmasa, islomni yanglish tushunish davom etaveradi. Biz buning oldini olishimiz kerak, deydi u.

G'azzoliy bu asarida islom falsafasi nuqtai nazaridan kelib chiqib, kishilar haqiqatni tanishi, ya'ni Olloho tanishi kerakligini, ular his-tuyg'uda ham, aqliy bilimlarda ham adashishlarini isbotlaydi. U o'zining «Ixyo ulum-ud-din» asarida bilish kishining dilida mujassamdir, deydi. Dil esa, uningcha, ilohiy ne'mat, uni odiy qalb yoki yurak ma'nosida tushunsmaslik kerak. Dilga esa jon ham, aql ham, nafs ham kiradi, ular jisman ham, ruhan ham birdir. SHuningdek, «Qur'on» va «Hadis»ning qaysi joyida «dil» so'zi kelsa, undan albatta narsalarni anglab, ularning mohiyatiga eta oluvchi inson ma'naviyati tushuniladi, deb yozadi. G'azzoliy o'zining asrlarida islom ilohiyayoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslab beradi.

U islomning eng yirik nazariyotchisi hisoblanadi. G'azzoliy o'zining «Adashishdan qutqaruvchi» asarida Oliy tangriga-Oollohga, payg'ambarga va oxiratga ishonish-islam diniga ishonishning asosidir, deydi. U Olloho inson aql orqali anglashi mumkin emas, uni kishi maxsus ruhiy... jismoniy (psixofizik) harakatlar: siqinish va ibodat orqali anglashi, bilib olishi mumkin, deydi. Uning fikricha, jon xudo (Olloh) singari fazodan tashqarida, olam Olloh tomonidan yaratilgan.



4-RASM

Ibn Rushd (1126-1198)ning falsafiy qarashlari (4-rasm).

Asli nomi Adub-Valid Muhammad Ibn Ahmad (Evropada Averroes deb yuritiladi) hozirgi Ispaniyaning Kordoba shahrinda tug'ilib, Andalusi va Marokko shaharlarda yashab, ijod etadi hamda Marokkoda vafot etadi.

Ibn Rushd Aristotel qarashlarini davom ettirib, o'z falsafasida materializm elementlarini rivojlantirgan, shu asosda o'z shaxsiy falsafiy sistemasini yaratgan buyuk arab faylasufidir. U o'z qarashlarida xudoning mayjudligini e'tirof etsa-da, dunyoni, materiyani xudo yaratmagan, deydi. Ibn Rushd ta'lim berib aytadiki, dunyo, materiya boshlanishga ham, oxiriga ham ega emas. Materiya benihoya, abadiy va azaliy, deydi. Uning qarashicha, moddiy dunyoda faqat zaruriyat hukm suradi, xudo ham shu zaruriyatga bo'ysunadi.

Ibn Rushd ortodoksal islom-kalom ta'limoti ilgari suradigan: kishining o'lgandan keyin tirilishi, oxiratning mayjudligi, «u dunyo» to'g'risidagi qarashlarni butunlay rad qiladi. U insondagi jonni

tana bilan chambarchas bog'liq, undan ajralmas, deydi. Uningcha, jon umuman olganda o'lmasdir, bir butun holda olganda, insoniyat ham o'lmasdir, uning umumiy aqli, ya'ni umumiy aql ham o'lmas va adabiydir. Inson aqli haqiqatni bilishga qodir.

Ibn Rushd o'z davri uchun progressiv bo'lgan «ikki xil haqiqat» to'g'risidagi ta'limotni yaratadi. Bu ta'limotda aytishicha, ilmiy-falsafiy fikr erishgan haqiqat diniy ta'limotlarda mavjud haqiqatlarga mos kelmasligi mumkin. Uning bu fikri o'z navbatida fanni va falsafani dinning ilohivotning iskaniasidan dindorlar tazvividan ozod qilishda muhim rol o'vnavdi

Ibn Rushd o'zining Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asari-«Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ul-falosifa»)ga qarshi yozgan «Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ut-taxofut») asarida G'azzoliyning islom ortodoksal kalom ta'limotini qattiq tanqid qiladi. U kishi oliy kamolotga faqat zikru sano orqali emas, balki falsafiy bilimlarni egallash orqali erishadi, deb ta'lim beradi. Ibn Rushdning bu falsafiy ta'limoti O'rta asrdagi YAqin va O'rta SHarq mamlakatlarida, keyinchalik esa uyg'onish davri Evropa mamlakatlarida falsafiy qarashlarning rivojlanishida katta rol o'yndaydi. U O'rta asr hurfikrligining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi.



odamlar shahri» va shular kabilardir.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishda, ayniqsa, Abu Nasr Ibn Muhammad **al-Forobi** (870-950) faxrli o'rin tutadi. U Sirdaryo bo'yidagi Forob qishlog'ida tug'iladi va dastlabki bilimini SHosh, Samarqand va Buxoroda oladi. So'ngra Forobi o'z bilimini davom ettirish uchun Bag'dodga boradi. Natijada, u o'z davrining yirik olimi va buyuk faylasufi bo'lib etishadi. Forobi Bag'dodda yashab ijod qiladi, umrning so'nggi yillarini Xalab va Damashqda o'tkazib, shu erda vafot etadi (5-rasm).

Al-Forobi 160 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib, bizga ularning bir qismigina etib kelgan. U yaratgan asarlarni ularning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini o'rganish, tarjima qilish va sharhlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning «Kategoriyalar», «Ikkinchi analitika», «Topika», «Poetika», «Ritorika», «Sofistika» va shu kabi asarlariga yozilgan sharhlarni keltirish mumkin; b) O'rta asr fanining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar. Bulardan: «Ixso-al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel «Mantig»ining talqinlari», «Katta musiqa kitobi», «Assiyosat al-madaniy», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Fozil

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyosining tuzilishi haqidagi panteistik ta’limoti tashkil qiladi. Bu ta’limotga ko‘ra, butun mavjudot-borliq emanatsiya asosida yagona boshlang‘ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo‘lish, ular o‘zaro sababiyat orqali bog‘langan. Bundagi birinchi bosqich-birinchi sabab – bu «vujudi vojib»-o‘z-o‘zidan zaruriy mavjud bo‘lgan yagona Olloh (as-sabab al-avval); ikkinchi bosqich-bu birinchi «vujudi mumkin» bo‘lib, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir (as-sabab as-soniy); uchinchi bosqich-bu ikkinchi «vujudi mumkin», ya’ni faol aqldir (al-aql al faol); to‘rtinchi bosqich - to‘rtinchi sabab-bu tirik mavjudotlarga xos jonxir (an-nafas), ya’ni uchinchi «vujudi mumkin»dir; beshinchi bosqich-beshinchi sabab-bu narsa va hodisalarining ko‘rinishi, ya’ni shakli (as-surat)dir, ya’ni turtinchi «vujudgi mumkin»dir; niyoyat, oltinchi bosqich-oltinchi sabab-bu narsa va hodisalarining jismi, tanasi, ya’ni moddadir, bu beshinchi «vujuddi mumkin»dir. Bu bosqichlar bir-birlari bilan sababiy bog‘langandir.

Borliqning Forobiy tomonidan bunday talqin qilinishi o‘sha davrda tabiiy-ilmiy g‘oyalarning yanada rivojlanishiga keng yo‘l ochadi. Uning talqinidagi to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi bosqichlar osmon va er sathidagi jismlar moddiylik xossasiga ega bo‘lib ular ham 6 turga bo‘linadi: to‘rt element osmon jismlari, minerallar, o‘simpliklar, aqsliz hayvonlar va aqlii hayvonlar. Forobiyning borliq haqidagi bu ta’limotida shakl va mazmunning munosabati haqida u shaklni narsalarining qiyofasi, tuzilishi va shu kabi miqdoriy aniqlovchilarining yaxlit ko‘rinishi, deb; moddani esa narsalarni tashkil qiluvchi mohiyat, asos, deb tasavvur qiladi.

Forobiy Xudo bilan borliqni bir butunlik sifatida olib, ulardan sabab-oqibat shaklida boshqa barcha narsalarni keltirib chiqaradi. Uningcha, xudo yakka-yagona bo‘lib, u na massaga, na nasabga, na ta’rifga ega bo‘lmagan zaruriy, o‘z-o‘zicha mavjud «vujudi zarurdir», boshqa barcha bosqichlarning, xususan, moddaning ham sababdir. «U shu ma’noda barcha narsalar mavjudligining sababini;-deb yozadi Forobiy,-u ularga abadiy mavjudlik kasb etadi va ularni no mavjudlik xolos etadi».

Forobiyning fikricha, oltinchi bosqich modda ko‘plab belgi va xususiyatlarga ega, ya’ni u sifat va miqdorga, substansiya va aksidensiyaga, imkoniyat va vogelikka, zaruriyat va tasodifga, harakat, makon va zimonga ega. Uning ta’kidlashicha: «hamma narsalar uchun umumiy jism-olamdir, olamdan tashqarida hech narsa yo‘q». Jism bo‘lishlik hislati mavjud hamma narsalarining xususiyatidir.

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o‘zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqlii hayvon»desa ham aqlii inson haqida shunday yozadi: «Aqlii deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, (ular) yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil, deydi. YOmon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo‘lganlarni aqlii, deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim»

Forobiy, borliqni insoning bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy «quvvatlar», jumladan bilish qibiliyati ham unga bog‘liq, deydi. U o‘zining «Ilm va san‘atning fazilatlari» risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (al-oraz)lardan, ya’ni sifatlardan substansiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi.

Forobiy inson bilishi jarayonini ikki bosqichga bo'lib, bu bosqichlarning o'zaro bog'liqligini, aqliy bilim hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta'kidlaydi. U inson bilish jarayonining bu bosqichlarini insondagi «tashqi quvvat» va «ichki quvvat»lar bilan izohlaydi. «Tashqi quvvatlar» bevosita tashqi ta'sirlar orqali sezgi a'zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Ular 5 turli: teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularnng hammasini Forobiy hissiy bilish («quvvat hissiya»), deb qaraydi. «Ichki quvvatga»ga esa u esda olib qolish (xotira), hayol (tasavvur), his-tuyg'u nutq (fikrlash) «quvvatlari»ni kiritadi. «Ichki quvvat» deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallah shu «quvvatlar» orqali amalga oshadi.

Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomongan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomongan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'limtarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir.

Forobiy o'z bilish nazariyasida Platonning g'oyalalar dunyosi, g'oyalarning tug'ma bo'lishi haqidagi ta'limotga qarama-qarshi, g'oyalarning, tushunchalarning borliqdan, reallikdan olinganini, masalan, matematik tushunchalar: nuqta, chiziq, doira va sath kabi geometrik tushunchalar real mavjud narsalarning inson miyasidagi fikri in'ikoslari ekanligini aytadi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U o'rta asrlarda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqida izchil talimot yaratdi. Forobiyning bu ta'limoti uning «Fozil shahar aholisining maslagi», «Davlat saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. U «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida shunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.



Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun insonlar ko'paydilar va arning aholi yashaydigan qismiga o'mashdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi». Forobiy o'z davridayoq buyuk faylasuf, SHarq mutafakkirlari orasida Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim» degan nomga sazovor bo'lgan qarashlari bizning mustaqillik sharoitimizda ham muhim ahamiyatga ega.

O'rta asr SHarqining, xususan, Markaziy Osiyo ilk uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy (973-1048)dir (6-rasm). U qadimiy Xorazmning poytaxti bo'lgan Kot shahrida tug'ilib o'sadi va shu erda muvaffaqiyat bilan bilim oladi. U ona tilidan tashqari, arab, sug'd, fors, suryoniy, yunon, qadimiy

yahudiy tillarini, keyinroq sanskrit va hind tillarini o'rganadi. Beruniy o'z davridagi deyarli hamma ilm sohalarini egallaydi va ularga oid o'zi ham ko'plab asarlar yozadi. Natijada, u o'zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmiy meros – 160 dan ortiq asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldiradi. Beruniy fikricha, xudo va boshlang'ich modda, ya'ni materiyadan boshqa hech narsa bo'lmagan. Borliq abadiy, u o'zgarish va taraqqiyotdadir. Materiya muayyanlik libosiga burkanadi, u faoldir, harakat tamomila materiyaga tegishli, u ruhni modda bilan bog'laydi va uni turli shakllarda kezib yurishga majbur etadi.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharaflı borliq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birligiga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilashi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylikka ega. Lekin inson maymunga o'xshasa ham, ular o'rtasida tub farqlar mavjud. U «Hindiston» asarida insonlarda tillarning turlicha ekanligi to'g'risida to'xtalar ekan: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab-odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoqda yashashlaridir», -deydi

IX-XII asrlar musulmon SHarqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdulloh Ibn Sino (980-1037)dir.



7-RASM

Abu Ali Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, so'ng Buxoroda o'qib ulg'ayadi (7-rasm). Bu erda u turli ustozlardan ta'lim olib, o'z davri ilmlari: matematika, mantiq, astronomiya, huquqshunoslik, fizika, kimyo, falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqur o'rganadi. Ayniqsa, u tibbiyot ilmini kuchli va zo'r qiziqish bilan egallaydi. Tabobat saboqlari uning uchun shu qadar kuchli ta'sir qiladiki, u 16 yoshga kirganda bu soha ilmlarni nazariy o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliy tibbiyot bilan shug'ullanib, tabiblik ham qila boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino 18 yoshga to'lganda juda ko'p ilm sohalarini egallagan bo'ladi. U shu davrdan boshlab o'zi ham bu sohalarga oid asarlar yarata boshlaydi.

Abu Ali Ibn Sino o'z davrining barcha ilg'or ta'limotlarini, xususan, qadimgi Hind, YUnion, Turon, nihoyat, O'rta asr arab, Uyg'onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi, ularni o'z dunyoqarashida umumlashtiradi. U o'zidan oldin o'tgan SHarq olimlari, vatandoshlari: al-Xorazmiy, al-Kindiy, ar-Roziy, Forobiyl asarlari bilan birga, yunon olimlari: Galen, Gippokrat, Evklid, Arximed, Pifagor, Porfiriy, Platon, Aristotel asarlarini ham chuqur o'rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan asarlari orasida 5 tomdan iborat «Al-Qonun fit tib»

olimlari: Galen, Gippokrat, Evklid, Arximed, Pifagor, Porfiriy, Platon, Aristotel asarlarini ham chuqur o'rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan asarlari orasida 5 tomdan iborat «Al-Qonun fit tib»

(«Tib qonunlari») asari, 18 tomdan iborat mantiq, fizika, matematika va metafizika (Falsafa)ni to‘liq o‘z ichiga olgan «Kitob ash-SHifo», «Kitob an-najot», shuningdek 20 tomlik «Kitob al-Insof» («Insof kitobi»), «Donishnoma» asarlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ibn Sino insonni tana va jordan tashkil topadi, deydi. Miya esa jonni boshqaruvchi markazdir. Uning fikricha, hasharotlar, o‘simpliklar, hayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch - jon («an-nafas»)ga egadir. Inson joni bunda eng oliv va etuk jondir. SHuning uchun inson fikrlash hislatiga mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish, bilish mavjudotning mohiyatini tushunish, maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Inson aqli jonning oliv darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot mohiyatini bilishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan qo‘shilishi asosida vujudga keladi.

2-mashg‘ulot

1. Sxolastika doirasidagi psixologik bilimlar.

1. Anatomiya va meditsinaning rivojlanishi va ularning ruxni va uning tanadagi funksiyalarini tushunishga ta’siri.
2. Bilishda tajribaning roli xaqidagi ta’limot. Tajriba turlari.

O‘rta asrining asosiy xususiyati shundan iboratki, bu davrda G‘arbiy Ovro‘pada xristian dini asta-sekin hukmron mafkuraga, dunyoqarashga aylanib boradi. Din bilimning barcha sohalarini, shu jumladan, falsafani ham o‘ziga buysundiradi. Petr Domiani iborasi bilan aytganda, falsafa «ilohiyat xizmatchisi»ga aylanib qoladi. U butun kuchini xristian dinining aqidalari to‘g‘ri ekanligini isbotlashga sarf qilishi lozim edi. Bu falsafa - «sxolastik falsafa», degan nomni oldi.



8-RASM

Sxolastik ta’limotni bir yaxlit tizimga keltirgan faylasuf Foma Akvinskiy hisoblanadi (8-rasm). U keyinchalik katolik cherkovining piri, deb rasmiy ravishda e’lon qilingan edi. Foma Akvinskiyning fikricha, dunyoning mavjudligi xudoga bog‘liq. U - birinchi sabab hisoblanadi. Foma Akvinskiy xudoning mavjudligini narsalarning mavjudligidan keltirib chiqazishga harakat qiladi. Bu borada Foma Akvinskiy Arastu falsafasidan, uning mazmun va shaklning o‘zaro munosabati haqidagi ta’limotidan ustalik bilan foydalanadi. Akvinskiy fikricha, materiya shaklga bog‘liq bo‘limgan holda, alohida mavjud bo‘lishi mumkin emas. Biroq shakl materiyadan alohida yashashi mumkin. Bu bilan Akvinskiy moddiy narsalar oliv shakl - xudoga bog‘liq, bo‘limgan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas, degan g‘oyani isbotlashga urinadi.

F.Akvinskiy mohiyat va mavjudlik kategoriyalari suyanib, xudoning mavjudligini sababiyat kategoriysi yordamida asoslashga harakat qiladi. Hamma narsa va hodisa o‘z sababiga ega, sabablarning sababi esa xudodir. F.Akvinskiy g‘oyalarning narsalarga nisbatan birlamchi ekanligini ham e’tirof etdi. SHu davrning sxolastik falsafasida «universaliylar», boshqacha aytganda, umumiylilikning yakkalikka munosabati masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Bu masalada nominalistlar bilan realistlar o‘rtasida kizg‘in tortishuv ketadi. Realistlar umumiy tushunchalar (universaliyarni) yakka narsalarga bog‘liq bo‘lman holda yuvjud ekanligini, pirovard natijada, uning xudo bilan bog‘liq ekanligini e’tirof etadilar.

Bundan butun borliq ilohiy mohiyatning namoyon bo‘lishidan iborat, degan xulosa kelib chiqadi. Masalan, Anselm Kentrberiyskiy (1033-1109), umumiy mohiyat sifatida ifodalanuvchi abadiy, yagona xudo real mavjuddir, deydi. Moddiy olamdag‘i barcha narsalar shu umumiy mohiyatdan kelib chiqqandir. Tabiatdagi turli-tumanlik xudoning ijodkorlik qudratining namoyon bo‘lishidir.

Nominalistlar bunga qarama-qarshi mavqeda turadilar. Ular umumiy tushunchalar (universaliylar) yakka narsalarga bog‘liq bo‘lman holda mavjud 85 bo‘lishi mumkin emas deb uqdiradilar. Ularning fikricha, umumiy tushunchalar yakka narsalarning nomlaridir. (Lotincha «nomina» so‘zining ma‘nosi ham «nom» demakdir). Masalan, nominalist Rosselin (1050-1112) fikricha, umumiy tushunchalar hissiy narsalarni belgilashi u yoqda tursin, balki umuman mavjud emasdir. Umumiy tushunchalar odamlar tomonidan yakka, alohida narsalarga beriladigan nomlardir. Faqat yakka alohida narsalar mavjuddir. XIV va XVI asrlar G‘arbiy Ovro‘pada Uyg‘onish davri hisoblanadi.

Bu davrda, dastlab Italiyada, so‘ngra Ovro‘padagi boshqa mamlakatlarda feodalizm bag‘rida kapitalistik ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivoji tabiat ilmini, falsafani taraqqiyotga olib keldi. Bu davrda astronomiya, matematika, mexanika, fizika, jug‘rofiya, fiziologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar yanada kuchaydi. Tabiat bilimning yagona manbai va taraqqiyotining asosi bo‘lib qoldi. Bularning hammasi inson aqlini O‘rta asr sxolastikasidan ozod qilishni, uning e’tiborini tabiiy-ilmiy bilishning muammolariga qaratishni talab qildi.



9-RASM

Ana shunday sharoitda O‘rta asr sxolastikasini inkor etuvchi, insonning aql-zakovatini ulug‘lovchi falsafiy qarashlar vujudga kela boshladi. Bunday qarashlarning dastlabki ifodasi sifatida Nikolay Kuzanskiyning (1401-1461) ta’limotini ko‘rsatish o‘rinlidir (9-rasm). U o‘zining bir qator ilg‘or falsafiy g‘oyalari bilan ko‘zga ko‘rindi. Avvalom bor, uning «borliq» haqidagi ta’limoti diqqatga sazovordir. Sxolastik falsafa narsani tushunadi. «Borliq - bu hamma narsadir», deydi u. Kuzanskiyning bu fikri o‘z mohiyati bilan panteistik tabiatga ega bo‘lib, diniy-sxolastik ta’limotga zid edi.

N.Kuzanskiy ilgari surgan g‘oyalari N.Kopernik va Galeleo Galileyning qarashlariga zo‘r ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Kuzanskiyning «bepoyonlik», «cheksizlik» haqidagi g‘oyalari N.Kopernik

tomonidan gelotsentrik g‘oyani asoslashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning hamma narsaning birligi haqidagi panteistik g‘oyasi Jordano Brunoning panteistik falsafasini keltirib chiqardi.

SHunday qilib, Uyg‘onish davrining asosiy xususiyatlari tabiiyot fanlarining yanada rivojlanishi, falsafaning sxolastikadan voz kechib tabiatga yaqinlashishi, adabiyot va san’atda insonparvarlik g‘oyalarining kuchayishi bilan belgilanadi.

Asosiy adabiyotlar

7. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
8. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
9. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
10. Jdan A.N. Istorija psixologii. M.: MDU, 1990.
11. Marsinkovskaya T.V. Istorija psixologii. M., 2002.
12. Yakunin V.A. Istorija psixologii: Uchebnoye posbiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

Qo’shimcha adabiyotlar

8. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.
9. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
10. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
11. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
12. Xayrullayev M.M. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O’zbekiston, 1995.
13. Xrestomatiya po obshchey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V. Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
14. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO “Xarvest”, 2003.-528 s.

3-Mavzu. Antik davr psixologik ta'limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha).

Ma'ruza rejasi.

1. "Jon" va "rux" haqidagi qarashlarning yuzaga kelishi.
2. Eramizdan avvalgi VI asrda grek faylasuflarining ruh haqidagi ta'limotlari.
3. Ellinizm davri psixologiyasi.
4. Sufizm namoyandalarining psixologik qarashlari.
5. Platon falsafasida ouh haqidagi idealistik ta'limotning shakllanishi.
6. Aristotelning psixologik g'oyalari.
7. Antik davr shifokorlarining psixologik qarashlari.
8. Temperament xaqida Gippokrat ta'limoti.

Antik³ davr yunon falsafasi qadimiy SHarq – Bobil va Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoyda paydo bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlar ta'sirida, YUnionistonda yuksak rivojlangan quzdordik jamiyatining tarixiy, iqtisodiy siyosiy va madaniy-ma'naviy shart-sharoitlar asosida vujudga keldi. Miloddan ilgarigi VIII-VI asrlarda Kichik Osiyo, O'rta er dengizi qirg'oqlaridagi shaharlar bilan yaqin SHarq, Kavkaz hamda G'arb mamlakatlari xalqlari o'rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy munosabatlar juda ham avj oladi. Bu davrga kelib bu hududlarda qulchilik munosabatlari juda rivojlanadi. Natijada, quzdorlik jamiyatni YUnionistonda jadallik bilan taraqqiy eta boshlaydi. Ayniqsa, bu hududdagi Milet va Efes shaharlarida quzdorlik o'zining yuqori bosqichiga erishadi. Oqibatda, bu shaharlar YUnion ilm-fani va falsafasining beshigiga aylanadi.

Animizm (lot. «anima» - ruh)

Ruh haqida afsonaviy tasavvurlar vujudga keladi. Har bir hissiy idrok qilinayotgan narsa o'zining juftiga ega deb hisoblanadi.


Giliozizm – dunyoning umumiy jonliligi haqidagi ta'limot.

Bu davrda bir qancha maktablar vujudga keldi.

Milet faylasuflari o'z falsafiy qarashlarini tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan ifodalaydilar. Bu davrlarda falsafa va boshqa bilim sohalari ham bir-birlaridan ajralmagan holda bir butun shaklda «falsafa» nomi bilan atalar edi.

Ilk yunon faylasuflari Milet shahri falsafiy mifik vakillari: Fales, Anaksimanr va Anaksimenlardir. Ular o'zlarining falsafiy asarlarida kosmologizmga oid, ya'ni astronomik bilimlarga oid o'z qarashlarini ifodalab berdilar. Ulardan qadimiy YUnionistonda «etti donishmandning biri» hisoblanib, shuhrat qozongan Fales Bobilliklarning astronomik tassavvurlarini rivojlantirib, qadimgi yunon astronomiyasiga asos soladi.


1-RASM




³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lerning. 27-bet.

U oldindan quyosh tutilishini aytishga doir o‘zining hisoblash usulini ishlab chiqadi va ta’riflab beradi. Anaksimandr esa quyosh soatini ixtiro qilib, gnomon nomli asbob yasaydi va ko‘k-osmon gumbazi sferasi doirasi modelini tuzadi. U birinchi bo‘lib YUnionistonning geografik xaritasini chizadi (1-rasm).

Milodgacha V-IV asrlarda, xususan, V asrning 40-30 yillari davrida qadimgi YUnioniston o‘zining eng gullagan davriga kiradi. Bu davrda matematika, astronomiya, arxitekturaga oid bilimlar kuchli rivojlanib, qadimgi yunon falsafasining buyuk namoyandalari etishib chiqadi. Ayni shu davrda yunon materialistik falsafiy yo‘nalishining yirik vakillari Levkipp (mil. avv.500-440 y.y.) va Demokrit (mil. avv.460-370 y.y) maktablari shakllanib, ravnaq topadi. Bu asrlar orasida dastlab Suqrot hamda Aflatun, sal keyinroq Arastu (mil. avv.382-322 y.y) lar yashab ijod qiladi.



2-RASM



3-RASM

Levkipp qadimgi atomistik nazariyaning asoschisi sifatida olam bo‘linmaydigan juda kichik mayda, ko‘zga ko‘rinmaydigan atomlar va bo‘shliqdan iborat, degan qarashni ilgari suradi. U olamdagi narsa va hodisalarining hammasi ana shu zarralar - atomlarning birikuvidan paydo bo‘ladi, ob’ektiv zaruriyatdan kelib chiqadi, deydi (2-rasm). Levkippning bu qarashlarini rivojlantirgan, uni yuqori pog‘onaga ko‘targan, uning davomchisi Abderlik Demokrit edi. Demokrit «birinchi yunon ensiklopedik aql egasi» sifatida atomistik nazariyani ishlab chiqadi. Demokritning bu nazariyasiga ko‘ra ham olam eng mayda atomlardan iborat, borliqning asosida atomlar va bo‘shliq yotadi, atomlar esa bo‘linmas zarrachalar bo‘lib, bo‘shliqda harakat qiladi. Ularning turli xil qo‘shilishidan turli-tuman narsalar kelib chiqadi, ularning bir-birlaridan ajralishlari tufayli bor narsalar yo‘q bo‘ladi. Hamma abadiy son-sanoqsiz atomlar cheksiz bo‘shliqdagi turli xil joylashuvidan behisob dunyolar paydo bo‘lib, yo‘q bo‘lib turadi. Bu holat tabiiy zaruriyat asosida sodir bo‘ladi. Sababsiz hech bir narcha, hech bir hodisa yo‘q, hamma narsa, hamma hodisa sababli va zaruriyidir.

Demokritning bilish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega (3-rasm). U hissiy bilishning shakli-hissiy sezishni bilishning birinchi bosqichi, deb hissiy bilishni «qorong‘i bilish», deydi. Uningcha, chin bilish, haqiqatni bilish, insonning aqliy faoliyati orqali bilishi tufayli yuzaga keladi. Aql bilan bilish bu eng yuqori, eng chuqr, eng to‘g‘ri bilishdir. deydi Demokrit. U inson bilishda, shubhasiz, hissiy va aqliy bilishni birlikda olib qaraydi.

«Donolik uch holatda: yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash va yaxshi ishda ko‘rinadi»-deb yozadi Demokrit. «Fikrlashga vaqt emas, balki tarbiya va tabiat o‘rgatadi», -deydi u.

Xullas, qadimgi yunon faylasuflari: Levkipp va Demokritlarning atomistik nazariyasi keyingi davr, ayniqsa, bizning XX asrda fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarning ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.


Qadimgi yunon faylasuflaridan juda katta mavqega ega bo‘lgan faylasuf Aflatundir. Aflatun (mil. avv. 427-347 y.y.) Afina oqsuyak zadoganlaridan bo‘lib, avval Kratildan, so‘ng Suqrotdan ta’lim oladi va mashhur faylasuf bo‘lib etishadi. Aflatun o‘zining ob’ektiv idealistik falsafiy tizimini ishlab chiqadi. U «Pir», «Fedon», «Teetete», «Davlat», «Parmenid», «Sofist» nomli asarlari va dialoglarida o‘z dunyoqarashini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazarlarini bayon qiladi.

Aflatunning nuqtai nazaricha, olamning asosini ham ayni shu «g‘oyalar dunyosi» tashkil qiladi. Uningcha, «g‘oyalar dunyosi» butun borliqning ham mohiyatini tashkil etadi. Aflatunning bilish nazariyasi ham o‘ziga xosdir. U o‘z bilish nazariyasida jon va tan haqida so‘zlab, jonnini tandan mustaqil, alohida ruhiy, ilohiy, hech o‘lmas, deb hisoblaydi. «Jonlar dunyosi» «g‘oyalar dunyosi» bilan yaqin, «jonlar dunyosi» «narsalar dunyosi»ga, ya’ni insonlar taniga kelib kirkach, insonlarda bilish hosil bo‘ladi, deydi. Aflatun inson bilishida insondagi sezgi, his, idrok, tuyg‘u hosil qiluvchi sezgi a’zolarining rolini inkor qilib, bilish bu jonning «eslashi», «xotirlashi», deydi.

Alkmeon⁴ (eramizdan avvalgi VIa) o‘z kuzatishlari va xirurgik operatsiyalari natijasida bosh miya – ruhiyat organi degan fikrga keladi. Bosh miya yarim sharlaridan ko‘z yo‘nalishi bo‘yicha 2 ta yo‘l ketadi. Bosh miya bizga eshitish, ko‘rish, xid bilish imkonini beradi. Ulardan xotira, undan esa tasavvurlar vujudga keladi. Ular mustahkamlangach esa, bililar yuzaga keladi deb hisoblaydi.

Qadimgi yunon falsafasining eng so‘nggi buyuk namoyandası Aflatunning shogirdi Arastudir.

Arastu (mil. avv. 384-322 y.y.) YUnionistonning Stagira shahrida tug‘ilib, 17 yoshida Afinaga kelib, Aflatun akademiyasiga o‘qishga kiradi va unda 20 yil ta’lim oladi (4-rasm). U Aflatun bilan juda ko‘p masalalarda munozaralar qilib, Aflatunning falsafiy ta’limotini rad qila boshlaydi. Aflatun vafotidan keyin Arastu Afinada o‘z maktabini tashkil qilib, uni yunon fani va falsafasining markaziga aylantiradi. U qadimgi YUnionistonda hamma ilmlarga oid yutuqlarni egallab, ularni sistemalashtiradi, rivojlantiradi.



4-RASM

⁴ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lerning. 36-bet.

Hozirgi zamon tabiatshunosligi, jamiyatshunosligi, mantiq fani o‘zlarining dastlabki taraqqiyotini boshlanishi va ibtidosini Arastu ilmiy faoliyatidan olgan. Uning «Fizika», «Matematika», «Jon to‘g‘risida», «Kategoriylar», «Ikkinchi Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlarida samarali ijodi-tabiatshunoslik va jamiyatshunositka, falsafaga oid qarashlari o‘zining to‘la ifodasini topgan.

Arastu Aflatunning «g‘oyalar dunyosi» to‘g‘risidagi nazariyasiga qarshi chiqib, uning «g‘oyalar dunyosi» «narsalar dunyosidan alohida», degan fikrini - bu aslo mumkin emas, qanday qilib narsalar boshqa, ularning mohiyati-g‘oyalari alohida yashaydi? Bu aqlga to‘g‘ri kelmaydigan hol,-deydi Arastu. Aflatunning: «narsalar dunyosi harakatda, o‘zgaruvchan va ma’lum vaqt bilan bog‘liq, g‘oyalar dunyosi esa, o‘zgarmas, doimiy va abadiydir», -degan fikriga qarshi: «Bu qanaqasi? Original - asl o‘zgarmas, uning aksi, g‘oyasi o‘zgaruvchan bo‘lar ekan, bu mantiqqa zid qarash-ku!» deydi. Arastu Aflatunning «g‘oyalar dunyosi» to‘g‘risidagi ta’limotni qat’iy rad qilib, u narsalarning asli, mohiyati, substansiyasi shu narsalarning o‘zidadir, deydi va bu qarashni isbotlaydi.

U bunda bu sabablarning har birini bir-bir tahlil qilib, izohlab beradi, moddiy sabab, ya’ni modda har bir narsaning materiali, har bir narsa undan hosil bo‘ladi. SHakliy sabab, ya’ni shakl har bir narsaga shakl ato qiladi. Masalan: «haykal shaksiz bronzadan, idish-tavoqlar beshakl loydan farq qilishib, ular muayyan shakl vositasidagina shu narsa qiyofasini kasb etadi. Agarda shakl bo‘lmasa, bronza yoki mis, loy qanday material holida bo‘lsa, shunday qolaveradi», deydi u.


Arastu bunda shaklni faol hisoblaydi, u hatto shaklni narsaning borliq ko‘rinishi, borliqning ma’nosi, deydi. Arastu fikricha, agar modda va shakl «narsalar nimalardan tuzilgan?» degan savolga javob bersa, «yaraturvchi sabab nima yaratildi?»-degan savolga javo beradi. Masalan, ota-onal bolaning sababchisidir. Oxirgi sabab-bu «maqsad» bo‘lib, Arastu tasavvuricha, «nima uchun? degan savolga javob bo‘lib, unda tabiat hodisalarining kelib chiqishi, paydo bo‘lishi ifodalananadi. Arastu bu bilan har bir ijtimoiy hodisada, har bir inson faoliyatida ma’lum maqsad borligini qayd qiladi.

Arastu falsafasidagi yana bir muhim jihat-bu uning imkoniyat va vogelik kategoriylarini har tomonlama tadqiq qilib ishlab chiqadi.

Arastuning tarixiy xizmati esa uning naturfalsafasi va bilish nazariyasidir. U: «Aql (idrok), fikr, ong tabiat bo‘lmasa, u bilan muvofiq kelmasa, demak, (ular) soxtadir», deydi. Arastu bilishda borliqni e’tirof qiladi, tabiat, moddiy olam inson ongidan, insonga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lib, ular inson sezgisi, idroki, ongi tafakkuri, bir butun bilishining manbai, deb hisoblaydi. Insonning bilishi uning ayrim predmet, buyum, hodisalarini sezishidan, so‘ngra aql, tafakkur, nazariy bilimlar vositasida umumiylikni bilishga erishadi.

Arastu shunday yozadi: «..kimki hech narsani sezmasa, u hech narsani bilmaydi va hech narsani tushunmaydi; agar biror narsani bilsa, (mushohada qilsa) unda u kishi buni tasavvur sifatida ham bilib oladi, chunki tasavvurlar sezgilar demakdir. Faqat materiyasizdir, xolos».

Qadimgi yunon falsafasining eng muhim jihat – uning stixiyali dialektik xarakterga egaligidir. Bu dialektikaning asoschilaridan biri Geraklitdir. U o‘zining olov to‘g‘risidagi ta’limotida barcha narsalar olovdan paydo bo‘lib, so‘ngra olovga qaytadi, deb, olovning erga, suvgaga, havoga aylanishini va aksini ta’riflab, dunyonni doimiy harakatda, o‘zgarish jarayonida ko‘radi.



5-RASM

Geraklit dunyodagi to‘xtovsiz o‘zgarishlarining asosiy sababini narsalardagi qarama-qarshiliklardan, deb biladi (5-rasm). Uningcha, bir xillik va har xillik, hamohanglik va nohamohanglik kabilardan birlik hosil bo‘ladi, bu birlikdan hamma har hillik va birhillik tashkil topadi. Hayotda tirik va o‘lik, uyg‘oq va uyqudalik, yoshlik va qarilik bиргadir. Narsalar doimo o‘zaro bir-biriga o‘tib, o‘zgarib turadi. «Sovuq issiq bo‘ladi, issiq sovuq bo‘ladi. Xo‘l quruqqa, quruq ho‘lga aylanadi. Nifoqlashuvchi kelishishi, tarqaluvchi yig‘ilishi (birikishi), ajoyib xilma-xil ohanglar hamohanglikni kurash jarayonida paydo qiladi». Geraklit dialektikaning qarama-qarshiliklar kurashi va birligini yaxshi taxmin qiladi. U shunday yozadi: «Baho bebaholikdan, bebaholik baholikdan, ular bir-birining o‘limi bilan yashaydi va bir-birining yashashi bilan o‘ladi, hayot harakat, o‘zgarish bilan hayot, hamma narsa harakatda, o‘zgarishdadir, bir daryo suviga ikki marta cho‘milish mumkin emas, chunki daryoda

tinimsiz yangi-yangi suvlar oqib turadi». «Dengiz suvi ham toza ham toza emas. U baliqlarga davo, hayotbaxsh bo‘lsa, insonlarga ichish uchun yaramaydi va zararlidir». «Eng kelishgan maymun inson zotiga nisbatan eng xunukdir». «Eshakka xashak oltindan a‘lo turar». «Tabiat qarama-qarshilikka intiladi, lekin bir-biriga o‘xshashlik emas, homoxanglik tug‘diradi».

Masalan, tabiat inson individlarini qarama-qarshi jinslardan, erkak va ayollardan tuzgan, demak, ularni qarama-qarshi jinslardan yaratgan, bir xil jinslardan emas. San’at ham, xuddi tabiatga o‘xshash qarama-qarshiliklardan, turli hil ohangliklardan tashkil topadi. Rasm ham qora, qizil, sariq, oq bo‘yoqlar birligidan paydo bo‘ladi. Musiqada esa, yuqori, baland, past turli ovozlardan ohang, kuy, ashula hosil bo‘lib, so‘zlar tashkil topadi va h.k.»



6-RASM
Эмпедокл

Qadimgi yunon falsafasining yana bir vakili Empedokl⁵ (mil. avv.490-430y.y.) o‘z falsafiy qarashida narsalarni tashkil etgan elementlar va ulardan hosil bo‘lgan narsalarni harakatda, deb qaragan. U bu harkatlarning sababi, 6 deb «dushmanlik» va «do‘slik», ishq-muhabbat va rashk, raqiblik kabi qarama-qarshi kuchlardir, deydi. Empedokl o‘z mushohada va kuzatishlaridan kelib chiqib, chindan ham qarama-qarshi kuchlar tortish, birikish, qo‘silish do‘slik, muhabbat, sevgi tufayli sodir bo‘lsa; itarilish, ajralish, raqiblik, yomon ko‘rish, nifoqlik, dushmanlik tufayli vujudga keladi, deb xulosa chiqaradi (6-rasm).

⁵ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lerning. 33-bet.

Qadimgi yunon falsafasida Geraklidan keyin dialektikani rivojlantirgan faylasuf – bu Arastudir. U o‘zining tabiiy-ilmiy qarashlari bayon qilingan «Fizika», «Osmon haqida», «Meteologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kabi asarlarida dialektik fikrni ilgari suradi.

Arastu o‘zining bu asarlarida, xususan, «Fizika»da dialektik fikr yuritib, shunday yozadi: Birinchi modda-olamning substrati, materiali - «ikki sifatli» bo‘lib, bir-biriga ziddissiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik xususiyatlari bilan dunyoning asosini tashkil qiladi. Uning nazaricha, mazkur xususiyatlar qo‘shilib, issiq va quruq-olovni, issiq va ho‘l-nam havoni, sovuq va nam-suvni, sovuq va quruq-erni hosil qiladi. To‘rt element-olov, havo, er, suv-o‘zaro bir-birlari biln qo‘shilib, turli jismlarni hosil qiladi, bu jismlar ham o‘zaro qo‘shilib, yemirilib turadi.

Masalan, suvning parga aylanishi yoki havoga o‘tishi ham shu elementlarning turlicha qo‘shilishi tufayli ro‘yobga chiqadi. Har bir elementning o‘z joyi bor: olov va havo yuqorida, suv va er quyida bo‘ladi. Arastu bu o‘rinda beshinchchi element - efir to‘g‘risida ham fikr yuritadi va uni beshinchchi mohiyat, deb ataydi. U Demokritning atomistik nazariyasiga qarshi chiqib, narsalarda bo‘linmaydigan hech qanday materiya zarrasi yo‘q, hamma zarralar bo‘linaveradi, bu bepayon olamda «quruqlik va issiqlikka» bo‘linish davom etaveradi; narsa, jism tarkibi cheksiz», deydi.

Arastuning bu qarashlari o‘z davri uchun juda muhim dialektik farazlar edi. Xullas, dialektika qadimgi yunon falsafasida dunyoga, borliqqa qarash, uni tushunish usuli, savol-javob san’ati sifatida, materialistik va idealistik ko‘rinishlarda stixiyali shaklda yuzaga kelganligi tarixiy fakt edi. Bu narsa qadimgi yunon falsafasining o‘ziga xos yutuqlaridan biridir.

Rim imperiyasida bu davrda yuzaga kelgan falsafiy oqimlardan yana biri - bu neoplatonizm oqimidir. Bu oqimning asoschisi Plotin eramizning 204-270y.y.) bo‘lib, uning fikricha, olamiy jarayon payqab va ifodalab bo‘lmaydigan ilohiy bosh yagona ibtidodan boshlanadi. Bu ibrido avval olamiy aql, so‘ngra olamning joni (ruhi) sifatida, undan keyin ayrim jonlar sifatida, ayrim jonli jislar sifatida to materiyagacha davom etadi. Plotin fikricha, bu ibrido butun borliq asosi bo‘lgan yagona ilohiy kuch - xudodir. Qolgan barcha narsalar (ham) ruhiy, hissiy narsalar, ham moddiy narsalar) shu ilohiy kuchdan yaralgan nurning emmanatsiyasining natijasidir. Uning nuqtayi nazaricha, Quyosh o‘zidan nur taratgan kabi, ilohiy kuch-xudo ham o‘zidan butun koinotni undagi barcha narsalarni emmanatsiya usuli bilan chiqarib yuborgan. Bu emanatsiya qilingan narsalarga ruh ham (jon ham) materiya ham kiradi. Insonning joni va tanasi ham ularning birligida shu ilohiy kuch-xudo tomonidan emanatsiya qilingan. SHuning uchun inson-hayotining oliy maqsadi - o‘z jonining shu ilohiy kuch-xudo bilan qo‘shilishiga erishuvdan iboratdir. Kishi bunga ekstaz (jazava) holatga tushish orqali, uni bajarish orqali erishadi, bu holatda uning joni, ruhi butun hissiy dunyodan va tanadan xalos bo‘ladi. Buning uchun kishi o‘z nafsin va jismoniy ishtiyoqlarini tiyish vositasi bo‘lgan hamda butun ruhiy kuchlarini, shu jumladan, biluvchilik kuchlarini rivojlantirish yo‘li bilan erishadi. Bunda yuksalib borishning oliy ekstaz (jo‘sh urish) bosqichida inson ruhi xudo bilan qaytadan birlashadi. Plotin shu tariqa refleksiyani ochib berdi.

Stoiklar maktabi. Stoiklar affektlarga (emotsiyalar, zshriqishlar) ga qarshi chiqadilar, ularni aqli buzuvchi rolini ko‘rsatib o‘tadilar. Affektlardan kasalliklardan qanday davolansa, shunday davolanish kerak deb hisoblaydilar. Umuman affektlarni ildizi bilan ruhdan chiqaribyuborish kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari suradilar.



7-RASM

Galen (eramizdan avvalgi II a.) – gladiatorlarni operatsiya qilib, bosh miyani o‘rganadi, faolsafa va meditsina bo‘yicha 400 dan ortiq traktatlarni qoldirgan (7-rasm).

CLAUDIO GALEN

Asosiy adabiyotlar

1. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
2. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
3. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
4. Jdan A.N. Istoriya psixologii. M.: MDU, 1990.
5. Marsinkovskaya T.V. Istoriya psixologii. M., 2002.
6. Yakunin V.A. Istoriya psixologii: Uchebnoye posbiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Кылова.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.
2. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
3. Sunnatova R.I. Karimova V.M.,Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
4. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
5. Xayrullayev M.M. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O’zbekiston, 1995.
6. Xrestomatiya po obshuey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
7. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO “Xarvest”, 2003.- 528 s.

4-Mavzu. Bilish jarayonlari xaqida talimot. Tafakkurning oliy shakllari: muxokama yurutuvchi, mantiqiy, diskursiv.

Ma’ruza rejasi.

1. Shaxsga interotsianistik va kognitiv yondashuvlar.
2. Axborotni qayta ishslashda organizm yashovchanligining mexanizmlari va hal qiluvchi omillari.
3. SHaxs xulq-atvorida kognitiv modellarning xususiyatlari.
Myurrey, Kelli va Levin nazariyalari.

Jahon psixologiyasi to‘plagan nazariy va amaliy ma’lumotlarga ko‘ra, yosh, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlar sensor (subsensor, subseptiv), mnemik (xotira), verbal (so‘z orqali) va mantiq psixofiziologik funksiyalarining dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperament xususiyatlarida va tug‘ma mayllarda ifodalanishini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Birinchi davr - go‘daklik. Ushbu davrda go‘dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan “ishonch” tuyg‘usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota--onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go‘dakda ishonch negizi paydo bo‘lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug‘ilsa, u taqdirda voyaga etgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinci davrda, ya’ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo‘lmish uyat va shubha hissi hosil bo‘ladi. Bolada mustaqillikning o‘sishi, o‘z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo‘lg‘usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas’uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr - o‘yin yoshi deb atalib 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg‘usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istikani ro‘yobga chiqarishning yo‘li to‘sib qo‘ylsa, ushbu holatda bola o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya’ni guruhiy o‘yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko‘rishiga, xayoloti o‘sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

To‘rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o‘zgarishlar ko‘zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldarlikka intilish tuyg‘usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldarlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko‘zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobji xislatlari etarli darajada bo‘limganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni echishda aql-zakovatning etishmasligi, bilimlarni o‘zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o‘spirinlik - o‘zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. SHuningdek, o‘smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolni uddalamaslik, qat’iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati “rolni kechiktirish”ning o‘zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko‘lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi, vaholanki bu kezda o‘spirin rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi, xolos.

CHunki yuqoridagi sifatlar ontogenetik evolyusiya jarayondan iborat bo‘lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. YOsh davrga oid va individual o‘zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta’siri ostida har xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Individning dinamik xususiyatlari shaxsning ijtimoiy muhitda vujudga kelgan sifatlari ta’sir etib, uning individual o‘zgaruvchiligi omilini yanada kuchytiradi.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo‘lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir¹. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o‘ziga xos betakror xususiyatga egadir.



1-RASM

Erikson⁶ o‘spirinlarda o‘z-o‘zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtin yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini sharhlaydi (1-rasm).

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Etinchi davr - etuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g‘amxo‘rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldarlik tuyg‘usi unga uzuksiz ravishda hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. SHuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg‘unlik tuyg‘usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya’ni qarilik inson tariqasida o‘z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg‘ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko‘ngil sovish his-tuyg‘ularini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig‘ bo‘lishlik bu yoshdagи odamlarning eng muhim jihat, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingen holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi.

E.SHpranger “O‘spirinlik davri psixologiyasi” degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning esa 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o‘zgarishlar E.SHpranger bo‘yicha:

a) shaxsiy “Men” ni kashf qilish,

⁶ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth,. 13-bet.

- b) refleksiyaning o'sishi,
- v) o'zining individualligini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini e'tirof qilish,
- g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo'lishi,




d) o'z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustanovkasi va hokazo. Uning fikricha, 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqirozning mohiyati ularga kattalarning bolalarcha munosabatidan qutulish tuyg'usini tug'ilishidan iboratdir. 17-21 yoshlarning yana bir xususiyati - o'zining tengqurlari va jamoatchilik qurshovidan "uzilish inqirozi" va tanholik tuyg'usining paydo bo'lishidir. Bu holatni tarixiy shartlanganlik shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi.

E.SHpranger, K.Byuler, A.Maslou⁷ va boshqalar personologik nazariyaning yirik namoyandalari bo'lib hisoblanadilar (2-rasm).

Kognitivistik yo'naliшning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piaje intellekt nazariyasini ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi (3-rasm).



⁷ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 587-bet.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.



J.Piajening g‘oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyaga biriktirish mumkin. Bu yo‘nalishning namoyandalari qatoriga L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalar kiradi (4-rasm).

Fransuz psixologi A.Vallon nuqtai nazaricha, shaxsning rivojlanishi quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri,
- 2) impulsiv harakat davri - tug‘ilgandan to 6 oylikgacha,
- 3) emotsiyal (his-tuyg‘u) davri - 6 oylikdan to 1 yoshgacha,
- 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg‘unlashuv) davri - 1 yoshdan to 3 yoshgacha,
- 5) personalizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan to 5 yoshgacha,
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan to 11 yoshgacha,
- 7) jinsiy etilish va o‘spirinlik davri - 12 yoshdan to 18 yoshgacha.

YAna bir fransiyalik yirik psixolog Zazzo o‘z vatanidagi ta’lim va tarbiya tizimining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni o‘ziga xos talqin qilib, insonning ulg‘ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Birinchi bosqich - bolaning tug‘ilganidan 3 yoshigacha.
2. Ikkinci bosqich - 3 yoshidan 6 yoshigacha.
3. Uchinchi bosqich - 6 yoshidan 9 yoshigacha.
4. To‘rtinchi bosqich - 9 yoshidan 12 yoshigacha.
5. Besinchi bosqich - 12 yoshidan to 15 yoshigacha.
6. Oltinchi bosqich - 15 yoshidan 18 yoshigacha.

Insonning shaxs sifatida tavsiflanishining muhim psixologik lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy negizga bog'liq, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni, nufuzi, mavqeい bilan belgilanadi) orqali ifodalanadi. Statusning negizida esa hamisha uzlucksiz ravishda o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Inson bajarishi lozim bo'lgan guruhiy faoliyat va yakkahol turmushga, kasb-hunarga aloqador, ya'ni kasabaviy, oiladagi hamda jamoadagi roling ijtimoiy funksiyasi, uning muayyan maqsadga, qadriyatga, ma'naviyatga yo'nalganligi, shaxsni faollashtiradi, natijada u barcha jabhalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Status, rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlari, sifatlari, fazilatlari, xosiyatlari va xislatlarining birlamchilarini tashkil etadi, uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. SHaxsning tavsifi faoliyat, xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor (oddiy stereotipdan tortib, to xalq donishmandligi namunalari) tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar, belgilar sifatida joy egallaydi. SHaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo'li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. SHaxsning xalqiga qilgan xizmati uning e'zozlanishiga, hattoki milliy ma'naviy boylik, tafakkur gulshani va sarchashmasi darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Insonning faoliyat sub'ekti sifatidagi asosiy tavsiflari qatoriga uning bu sohadagi taraqqiyotning mahsuli - ongi (ob'ektiv faoliyatning in'ikosi sifatida (va faoliyati) voqelikning o'zgartiruvchisi tariqasida) kiradi. Inson amaliy faoliyatning sub'ekti tarzida uning shaxsiy fazilatlari va xislatlarini tavsiflabgina qolmaydi, balki mehnatning texnik vositalari va texnologiyasi, ularning kuchaytiruvchanlik, tezlashtiruvchanlik va yaratuvchanlik funksiyalari sifatida yuzaga keladi. Amaliy faoliyat umuminsoniy va yakka shaxs tajribasining bir qismi tariqasida, egallanilgan, o'zlashtirilgan, puxta tajribadan foydalanish singari namoyon bo'ladi. Nazariy faoliyatning sub'ekti bo'lmish inson o'zining bilimlari, kasbiy ko'nikmalar, aqliy malakalari bilan tavsiflanadi, qaysiki ular o'ziga xos alomatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir.

Aqliy faoliyat ijodiyot darajasiga o'sib o'tishi natijasida ijodiy mahsullar, yangiliklar, qonuniyatlar vujudga keladi va jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ajdodlar merosi va avlodlar salohiyati mahsullarining uzviy bog'lanishi nazariy va amaliy faoliyatning o'zaro uyg'unlashuvini taqozo etadi, vaholanki, har ikkala faoliyat turida ijodiylik alomati, mahsuli ishtirok qiladi, fan va texnika rivojini ta'minlaydi. Faoliyat tajribalar bilan uzviy bog'lansa, uning samaradorligi, maqsadga yo'nalganligi, amalga oshish imkoniyati yuksak bosqichga ko'tariladi.

Inson hayotida ijtimoiy hodisa sifatida armon muhim rol o'ynaydi, uning faollikka chorlaydi, harakat qilishga asosiy turtki vazifasini bajaradi. Armon inson uchun go'yoki ushalmagan orzu, g'amgin tuyg'ularning jonlashuvi, komfortga intilishga da'vat etuvchi hissiyot, ijtimoiy va yakkahol turmushni baholash mezoni, faollikka etaklovchi motiv, ezgu niyatlar og'ushiga tortuvchi doimiy turtki, loqaydlikning oldini oluvchi ichki ruhiy imkoniyatdir. SHaxs uchun eydetik obrazlar qanchalik ahamiyat kasb etsa, barqaror iz qoldirsa, armon ham xuddi shunday xususiyatga ega bo'lib, ulardan farqli o'laroq doimiyligi, ustuvorligi, maqsadga undovchiligi bilan yuqoriqoq nufuzga ega.

Insonning sub'ektiv xislatlari integratsiyasining yuksak shakli ijodiyot (kreatsiya) hisoblanib, umumlashgan imkoniyatlari tarzida qobiliyatlar (iste'dod, iqtidor), talant va salohiyat vujudga keladi. Odamning sub'ektiv xususiyatlari, xislatlari rivojining asosiy shakllari ruhan tayyorgarlik, start, kulminatsiya va finish sanalib, insonning jamiyatdagi ishlab chiqarish va ijodiyot faoliyatlarini belgilaydi. Mazkur to'rt bosqich, to'rt mezon, taraqqiyotni baholash tizimi o'ziga xos

xususiyatlari, imkoniyatlari, sur'ati, davomiyligi bilan bir-birlaridan ham sifat, ham miqdor jihatdan ajralib turadi.

Inson hayotida ijtimoiy hodisa sifatida armon muhim rol o'ynaydi, uning faollikka chorlaydi, harakat qilishga asosiy turtki vazifasini bajaradi. Armon inson uchun go'yoki ushalmagan orzu, g'amgin tuyg'ularning jonlashuvi, komfortga intilishga da'vat etuvchi hissiyot, ijtimoiy va yakkahol turmushni baholash mezoni, faollikka etaklovchi motiv, ezgu niyatlar og'ushiga tortuvchi doimiy turtki, loqaydlikning oldini oluvchi ichki ruhiy imkoniyatdir. SHaxs uchun eydetik obrazlar qanchalik ahamiyat kasb etsa, barqaror iz qoldirsa, armon ham xuddi shunday xususiyatga ega bo'lib, ulardan farqli o'laroq doimiyligi, ustuvorligi, maqsadga undovchiligi bilan yuqoriq nufuzga ega.

Jahon psixologiyasi fanida inson sifatlari (xislatlari, fazilatlari, xosiyatlari) ni individual, shaxsga oid va sub'ektiv guruhlarga ajratilishi an'anaviy va kasbiy xususiyatga ega, chunki ular odamning yaxlitligi, bir butunligi, alohidaligi tavsifidan iborat bo'lib, bir davrning o'zida ham tabiat, ham jamiyat jonzodi ekanligini anglatadi. Mazkur yaxlitlikning mag'zi shaxsnинг tuzilishidir, unda nafaqat insonning asosiy xislatlari o'zaro kesishadi va umumlashadi, balki uning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalari muayyan tarkibga keltiriladi, qoidaviy xususiyat kasb etadi.

Bizningcha, individ, shaxs, sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qilinishi zarur:

1. Inson rivojining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhitining omillari).
2. Insonning shaxsiy o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning rivojlanishi ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyusion negizda kamol topish bosqichlari, barqarorlashuvi va involyusiya (o'sishdan qaytish davri xususiyatlari).
3. Insonni yaxlit, mukammal tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning muttasil ravishda takomillashuvi kabi faktorlar.

XXI asrda individ, inson, shaxs, sub'ekt va komil insonni o'rganish turli yo'naliishlarda, vaziyatlarda, yosh xususiyatlari, alohida yondashish negizida, o'ziga xos talhlilga, metodologik asosga suyanib olib borilishi maqsadga muvofiq. CHunki jahon psixologiyasi fanida to'plangan nazariy va amaliy xususiyatlari materiallar mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil hamda tanqid qilmasdan, balki ularni xolisona baholash, ilmiy jihatdan talqin qilish joiz. Binobarin, turli psixologik ilmiy maktablar tomonidan to'plangan natijalarning oqil jihatlarini tanlash va tadqiqotning boshlang'ich nuqtasini belgilashda ulardan omilkorlik bilan foydalanish ko'pgina ilmiy qaytatdan tekshiruvlarning oldini oladi.

Mustaqillik, istiqlol sharofati bilan shaxsga oid qarashlar, mulohazalar mohiyati, uning mazmuni va shaklida o'zgarishlar yuz beradikim, buning natijasida erkin fikrlash, ochiq shakldagi ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Respublikamizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar xalqimiz, millatimiz ruhiyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi, ona yurt madhi, ajdodlar merosidan g'ururlanish, ma'naviyat durdonalaridan faxrlanish hislari vujudga keladi. Vatan va vatanparvarlik tushunchalari o'zining haqiqiy, chinakam ma'nosini kasb etadi. Kishilardagi o'ta sabr-toqatlilik, itoatkorlik, tashabbuskorlikning etishmasligi o'rmini erkinlik, ijodiyot, mehnat, batamom istiqlolga erishish zaruriyati, oilaning butligi, to'kisligi va ularning istiqboli kabi sifatlar, fazilatlari, yuksak tuyg'ular, xislatlar egallay boshlaydi.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy, nazariy va ijodiy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. CHunki bevosita faoliyatni amalga oshirish jarayonida yashash muhitini va ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning ham interiorizatsiya, ham ekteriorizatsiya davrlari yuzaga keladi.

Buning natijasida shaxsda tabiatga va jamiyatga nisbatan ideal, real, ratsional va ijodiy (kreativ) munosabati o'zgarmoqda, hatto ayrim o'rirlarda borliq va voqelikdan begonalashish, uzoqlashish va yaqinlashish holatlari ro'y bermoqda. Bu holatlar ijtimoiy xususiyat kasb etib, umumbashariy ahamiyatga ega, chunki jahon mamlakatlari sivilizatsiyalashish darajalari tenglashmoqda. Xuddi shu sababli ijtimoiy garmoniya tariqasida yuqoridagi ilmiy ijtimoiy-psixologik tushunchalar qator (taraqqiyot ko'rsatkichi o'zaro uyg'unlikka ega bo'lgan) mamlakatlarga bir tekis yoyilib, hayot va faoliyatning turli qatlamlariga kirib bormoqda. Mazkur asr odamlarida esa axloqiy, jismoniy va aqliy komillik belgilari, ko'rsatkichlari hamda bosqichlarining mezonlari, ularning oldiga qo'yiladigan talablarning mohiyati o'zgaradi.

Demakki, tabiatga va jamiyatga nisbatan sevinch, sevgi, mehr-muhabbat yuksak hislari, vatanparvarlik va Vatan tuyg'usining tarkiblari, negizi, ularni harakatlantiruvchi mexanizmlari boshqacha yondashishni taqozo etadi, zamon ruhi va nafasiga moslashishni talab qiladi. Insoniyatning bunday yuksak his-tuyg'ulari, anglashilgan motivlari shaxsning o'qish, mehnat, sport va o'yin faoliyatlarida, bilish hamda muomala jarayonlarida vujudga kelishi mumkin. Borliqqa va jamiyatga nisbatan munosabatning o'zgarishi, uning ierarxiyasi, shakllari, maqomi va mohiyatida namoyon bo'ladi, ularga yo'naltirilgan avvalgi, eski uslubdagi motivatsiya o'z ahamiyatini nisbiy jihatdan yo'qotadi.

Hozirgi kunda va kelajakda shaxsga sub'ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun:

1. Odam (individ) - inson - shaxs - individuallik - sub'ekt - komillik (barkamollik) ierarxiyasiga rioya qilish.
2. SHaxsga nisbatan sub'ektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida majburiylik tamoyiliga asoslanib (barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish) inson qarshilik ko'rsatishini hisobga oluvchi yondashishni yo'lga qo'yish, sub'ekt - sub'ekt aloqasini vujudga keltirish.
3. Har qanday sub'ekt - shaxs, lekin har qaysi shaxs sub'ekt emasligi muammosini echish.

Buning uchun mustaqil fikrlashga ega bo'lish, shaxsiy pozitsiyani himoya qila olish, g'oyani amalga oshirish yo'lida to'siqlarni pisand qilmaslik, mustahkam ishonch, qat'iy maslak, iyomon negizida asoslanish, intilishda irodaviy barqarorlik ustuvorligiga erishish. Dunyoqarash va uni hayotga tatbiq qilishning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari mavjudligiga iqror bo'lish hamda uni tan olish va hokazo.

Asosiy adabiyotlar

7. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
8. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
9. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
10. Jdan A.N. Istorija psixologii. M.: MDU, 1990.
11. Marsinkovskaya T.V. Istorija psixologii. M., 2002.
12. Yakunin V.A. Istorija psixologii: Uchebnoye posobiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

Qo’shimcha adabiyotlar

8. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.
9. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
10. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
11. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
12. Xayrullayev M.M. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O’zbekiston, 1995.
13. Xrestomatiya po obshuey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
14. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO “Xarvest”, 2003.- 528 s.


5-Mavzu. Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi.

Ma'ruza rejasi.

1. Ong haqidagi falsafiy ta’limotlar doirasida psixologik bilimlarning rivojlanishi (XVII asr – XIX asrning birinchi yarmi.)
 2. R.Dekart g‘oyalari.
 3. Spinozaning substansiya xaqidagi ta’limoti monizmi.
 4. Affektlar va inson mustaqilligi xaqidagi ta’limotlar.

XVII -XVIII asrlar G‘arbiy Evropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Evropa mamlakatlari O‘rtalashtirishda O‘rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kapitalistik munosabatlar to‘liq qaror topadi va rivojlanma boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqaraish ehtiyoji tabiatni, insonning o‘zini, jamiyatni ilmiy o‘rganish, bilishni taqazo qiladi va uni o‘rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarining o‘sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalar Er shari bo‘ylab ilmiy ekspeditsiyalarning uyuştirilishi, yangi erlar, yangi qit’alarmi ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexanika, matematika, fizika, kimyo, astronomiya sohalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, O‘rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarini uloqtirib tashlanadi.

Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Bunda nemis olimi Keplerning sayyoralarining harakati, qonunlarining ochishi, ingliz olimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarini kashf etilish, ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyoni bilishdagi muhim rol o'ynovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, fransuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo'lishiga oid detuktiv metodni asoslab berishi muhim rol o'ynaydi. SHular asosida bu davr falsafasida metafizik va metamexanistik materializm qaror topadi.



Metafizik va mexanistik materializmning namoyondalari F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs fransuz faylasuflari R.Dekart, P.Kobak, Lametri va Gelvetsiy qarashlarida o‘zining yorqin ifodasini topadi.

F.Bekonning³ falsafa va fan tarixidagi eng katta hizmati - uning inson bilishining induktiv metodini ishlab chiqishidir (1-rasm).

Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga keladi. Empirik oqimning asoschisi F.Bekon hisoblanadi. Uning qarashicha, tabiatni bilshning manbai bu - tajriba, eksperiment, kuzatishdir. Inson sezgi a'zolari orqali tabiat to'g'risida hosil qilingan faktlar, dalillar va ma'lumotlarni tajriba orqali tekshirishi, aniqlashi, undagi hato va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. SHu asosda insoning tabiat to'g'risidagi to'g'ri, to'liq bilimlari hosil bo'ladi.

Bekon fikricha, ilmiy bilishning maqsadi - insoniyatga foyda keltirishdir. SHundagina u o'z vazifasini oqlaydi. Barcha fanlarning vazifasi insonning tabiat ustidan hukmronligini mumkin qadar ko'proq ta'minlashdir, deydi mutafakkir.

Bilim bu kuchdir, degan shior ham F.Bekonga mansubdir. Bekoning buyuk xizmati shundaki, u ilmiy bilishning tajribaga asoslangan uslubini ishlab chiqdi. Uning fikricha, fanning xulosalari faqat rad etib bo'lmaydigan dalillardan kelirb chiqishi kerak.

Bekon tomonidan qo'llangan induktiv usul kuzatish, analiz qilish, taqqoslash va eksperimentga asoslanadi. Lekin tajribada ishonchli bilimga erishish uchun inson o'z ongidagi zararli sharpalardan ozod bo'lishi lozim. Urug' sharpasi - bu kishilik urug'iga tegishli bo'lib, uning natijasida odamlar o'zlarining sub'ektiv xususiyatlarini tabiat predmetlarining xususiyati deb qaraydilar. Fop sharpasi - bu kishilarning olam to'g'risidagi noto'g'ri tushunchasidir.

Bozor sharpasi - bu ko'p tarqalgan so'zlarni noto'g'ri ishlatish natijasida vujudga kelgan tushunchalardir. Teatr sharpasi - hurmatli kishilarning aytganlariga ko'r-ko'rona amal qilishdir. Bekon insonni qurshab turgan moddiy dunyo turli tumanligini va uni bilish ham cheksiz ekanligini qayd etadi. Agar Bekon ilmiy bilishning tajribaga asoslangan induktiv uslubini ishlab chiqib, fanga katta hissa qo'shgan bo'lsa, uning zamondoshi fransuz mutafakkiri R.Dekart¹ (1596-1650) esa, aksincha, ilmiy bilishning deduktiv uslubiga o'z e'tiborini qaratadi. Dekart dunyoni bilishda birinchi o'ringa aqlni qo'yadi. Buni uning, «men fikrlar ekanman, men mavjudman» degan mashhur so'zлари tasdiqlaydi. Dekart fikricha, falsafaning birinchi masalasi - bu ishonchli bilimga olib boradigan uslub masalasıdır.



Uni ishlab chiqishni Dekart o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi (2-rasm). Dekart ishlab chiqqan ilmiy bilishning deduktiv uslubi analitik yoki ratsionalistik ham deb ataladi. Dekartning deduktiv uslubi quyidagilarni talab etadi: 1) Haqiqat deb faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo'lgan xulosalarni qabul qilish; 2) har bir murakkab muammolarni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish; 3) bilish jarayonida ma'lum va isbot qilingandan noma'lum va isbot qilinmaganga borish; 4) tadqiqot mantiqiy halqalaridan birortasini ham tushirib qoldirmaslikdir. Dekart bilishning bu uslubini qo'llash farovon hayot uchun kishilarga katta imkoniyatlar yaratib berishiga hech shubha qilmadi.

³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Principles of Newtonian science 106-107-bet.

Biroq, Dekartning aql kuchira tayangan bilishning deduktiv uslubi uning «tug‘ma g‘oyalari»ni tan olishga olib keldi. Bu tajriba orqali olingan g‘oyalari emas, balki odam tug‘ilishi bilan uning miyasida oldindan bo‘lgan g‘oyalardir. Unga xudo g‘oyasi, sonlar va shakllar g‘oyasi, shuningdek, ayrim umumiy tushunchalar kiradi.

Dekart ularni umumiy va zaruriy bilimning sharti sifatida qaraydi. Bu esa uning ilmiy deduktiv bilish uslubiga ravnaq solib turadi. Buni e’tiborga olmaganda, Dekart Bekon singari falsafaning ilmiy masalalarini ishlab chiqishda o‘z davrida katta yutuqlarga erishdi. Lekin shuni ham aytib o‘tish lozimki, Bekon va Dekart tomonidan yaratilgan bilishning har ikki uslubini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish yoki ularning har birining ahamiyatini kamsitish noto‘g‘ri bo‘lur edi. Yangi davr falsafiy fikrida o‘rtaga qo‘yilgan muhim muammolardan biri - substansiya masalasi edi. SHu davrda bu masalaning turlicha echimini ko‘ramiz.

Masalan, Dekart ruhiy va moddiy substansiya mavjudligini ko‘rsatdi. Ruhiy substansiyaning eng muhim belgisi bo‘linmaslik bo‘lsa, aksincha, moddiy substansiyaning belgisi uning cheksiz bo‘linuvchanligidir. Ruhiy substansiyaning asosiy atributlari - bu tafakkur va ko‘lamlilikdir.


Uning qolgan atributlari - tasavvur, hissiylik, xohish, fikrlash moduslari bo‘lsa, moddiy substansiyaning atributlari bu shakl, holat, harakat va tortiluvchanlikdir. SHunday qilib, Dekart substansiya masalasini dualistik mavqedan turib hal qiladi. Dekart ta’limoticha, insonning tabiatni bilishining birdan-bir to‘g‘ri metodi bu aqlga asoslangan deduktiv metoddir.

Dekart⁸ o‘zining bu qarashlarini «Metod to‘g‘risida mulohazalar» asarida bayon qiladi. U o‘z asarida insonning tabiatni bilishida quyidagi talablarni ilgari suradi:

1. Haqiqat, deb qaralgan bilim faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan, shubhalardan holi bo‘lgan nazariy xulosalari asosida chiqarilgan fikrlar bo‘lmog‘i lozim.
2. Har bir murakkab muammo yoki masalani ularning tarkibini tashkil qilgan muammo va masalalarga ajratish, bo‘lish lozim.
3. Bilishda isbot bo‘ladigan, ma’lum bilimlardan hali noma’lum va isbot qilinmagan bilimlarga o‘tib borish zarur.
4. Tadqiqot haqidagi fikrlar - bilimlarni tashkil etgan mantiqiy xalqalardan xulosa chiqarishda birontasi ham tushirilib yoki e’tiborsiz qoldirmasligi lozim.

Dekartning qarashlariga ko‘ra inson bilishining birdan-bir manbai - bu tafakkur, aqliy salohiyatidir. Uning qarashicha, insonning sezgi a’zolari, tajribalari hamma vaqt ham to‘g‘ri bilim beravermaydi, shu sababli ularga inson o‘z bilish jarayonida to‘liq ishonmasligi zarur.

⁸ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Rene Decartes 113-bet



Dekartdan boshlab psixologiya rux haqidagi emas ong xaqidagi fan bo‘lib qoldi. Dekart dualizmi bilishning ikkita bir biridan mustaqil metodi ya’ni eksperimental – тана mexanikasi analizi uchun, introspeksiya (o‘zini o‘zi kuzatish) – ruhni bilish uchun deb tafovutlaydi. Rux va тана bir biridan mustaqil ravishda mavjud, lekin ular o‘zaro ta’sir qilishi mumkin (3-rasm). Dekart affektlarni engishning 2 usulini taklif etadi

- 1 – boshqa faoliyat turiga o‘tish,
- 2 – ratsional yo‘l (affektlar sabablarini mulohaza etish).

3-RASM

.Spinoza⁹ (1632-1977) Dekart dualizmiga materialistik monizmni qarshi qo'yadi, ya'ni ruhiylik va moddiylikni yagona bir substansiya sifatida talqin etadi. U ongimizdan tashqarida ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, sababchi kuchga muhtoj bo'lman va o'ziga o'zi sababchi bo'lgan yagona moddiy substansiyani e'tirof etadi. Biroq Spinozaning substansiya haqidagi bu fikri panteistik tabiatga ega. CHunki u xudoni moddiy dunyoga qorishtirib yuboradi va tabiatni o'zini o'zi yaratuvchi xudo deb ataydi.



4-RASM


Spinoza bo'yicha affektlar insonni harakatga undovchi holatlardir. Uning fikricha uchta undovchi kuch mavjud: "ham tana, ham ruhga mansub mayl"; 2) quvonch va 3) qayg'u. Ana shu fundamepntal affektlardan barcha emotsiional holatlar kelib chiqadi (4-rasm). SHu davrning yirik mutafakkirlaridan biri G.Leybnits (1646-1716) hisoblanadi. U o'zining substansiyalarning ko'p xilligi haqidagi ta'limotini o'rtaga qo'yadi.

Uni Leybnits oddiy substansiyalarning asosiy xususiyati deb ataydi. Agar monadalarga sezgilar xos bo'lsa, ular jonlar deb ataladi. Monadalarga aql xos bo'lsa, ular ruhlar deb ataladi, deydi Leybnits. Leybnits fikricha, monadalar o'z faoliyatlarini aniq va ravshan ifodalanish darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar. Onglilik va aqlilik monadalar qanchalik taraqqiy etganligi darajasini bildiruvchi mezon hisoblanadi.

XVIII asr fransuz falsafasining asosiy vakillari P.Golbax (1723-1789), D.Didro (1713-1784), K.Gelvetsiy (1715-1771), J.Lametri (1709-1751) hisoblanadi. Ularning ta'limoticha, hamma narsalar - materiyadir. Materiya mayda molekula va atom zarrachalaridan tashkil topgan. Atomlar esa materiyaning bir xildagi, bo'linmas, mayda zarrachalaridan iboratdir. XVIII asr fransuz faylasuflarining yutuqlaridan biri shuki, ular harakatni materiyaning ajralmas xususiyati, deb ta'kidladilar. Biroq, ular harakatni tushunishda mexanistik darajadan yuqori ko'tarila olmadilar. Harakat, ularcha, predmet yoki hodisalarning fazoda oddiy o'rin almashuvidan iboratdir. Fransuz faylasuflari dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga ham ijobiy javob berdilar. Ular o'zlarining bilish nazariyalarida J.Lokkning sensualistik g'oyalariga suyandilar. Ular bilish sezishdan iboratdir, sezishning manbai esa ob'ektiv reallikdir, deb uqdirdilar. Fransuz faylasuflari bilish jarayonida aqlning rolini ham tan oladilar. Ularning fikricha, tafakkur sezgilarni qo'shish, yig'ish, solishtirish qobiliyatidan iboratdir.

⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Baruch Spinoza 169-bet

Leybnits¹ fikricha, substansiylar juda xilma-xildir. Ularni Leybnits monadalar deb ataydi. Leybnits ta'limoticha, monadalar oddiy bo'lib, ular qismlarga bo'linmaydi. Bu bilan Leybnits monadalar moddiylik xususiyatiga ega emasligini, shuning uchun unga ko'lamlilik yot ekanligini ta'kidlaydi. Faqat moddiy narsalargina ko'lamlilikka ega bo'lib, bo'laklarga bulinadi. SHuning uchun ko'lamlilik emas, faoliyat monadalarning xususiyatidir. Faoliyat nima, degan savolga Leybnits, ko'lamlilik bilan izohlab bo'lmaydigan tasavvur, idrok, intilishga o'xshash ruhiy narsadir, deydi.



Agar odam yomon bo'lsa buning aybini uning tanasi gunohli tuzilganligiga to'nkamaslik kerak, balki g'ayritabiyy tashqi holatlarga qo'yish kerak. Inson tabiat bolasi, shuning uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy tartiblar insonga tabiat ato etgan extiyojlar va xuquqlar aosida tartibga solinishi kerak. "Tabiiy odam" nazariyasini individning tug'ma xususiyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi o'za munosabatlar muammosini yanada o'tkirlashtirib yubordi, bu muammolarga geografik, klimat va tashqi muhitning boshqa sharoitlari ham kiritilgan edi. Fransuz materializmining asosiy amaliy g'oyasi inson shakllanishida tarbiya va qonunlar rolini ta'kidlashdan iborat edi. SHunga mos ravishda o'sha davrda jamiyatni takomillashtirish bo'yicha asosiy majburiyatlar tarbiyachilar va ma'rifchilarga yuklatilgan edi. Bu g'oyaning yaqqol ko'rinishi J.J.Russo¹⁰ asarlarida o'z aksini topdi (5-rasm).

Russo fikricha, inson tabiatan o'zi raxmdil va yaxshi, lekin uni sivilizatsiya tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi. SHunisi qiziqki, o'sha davr tarbiyaviy masalalari bo'yicha yirik nazariyotchi

bo'lishiga qaramay, Russo o'z bolalarini tarbiya qilmadi, balki ularni bolalar uyiga berishni afzal bildi. Russoning xizmatlari shundak u bola tabiat, uning rivojlanishi haqidagi o'sha davrda mavjud barcha bilimlarning umummiy manzarasini taqdim etdi. Russo insonning tabiiyligi nazariyasidan kelib chiqib, tabiatga xos o'qitishni taklif etadi. Lekin Komenskiydan farqli o'laroq J.J.Russo tabiatga tashqi taqlid qilish emas, balki bolaning rivojlanish tabiatiga e'tibor qaratish zarurligini e'tirof etadi. Boshqa qiliusso inson rivojlanishida ichki garmoniya va tabiiylik uyg'unligi mavjud bo'lishi kerak deb hisoblaydi. SHunday qilib, bolalarda individual tafovutlarni hisobga olish talabi endi ilmiy asosga ega bo'la boshladи, chunki bu tafovutlarni bilish kattalarga bolani o'qitishni uning psixik taraqqiyoti tabiiy jarayonini hisobga olgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Faqat individual emas, balki barcha bolalar psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari ham mavjud bo'lib, ular har bir yosh bosqichlarida o'zgarib turadi. Ana shu holatdan kelib chiqib, Russo rivojlanishning kengaytirilgan davriy sxemasini taklif etadi. Lekin davrlarga bo'lishda olim faktlar va kuzatishlarga tayanmaydi, balki o'zining nazariy bilimlariga asoslanadi.

¹⁰ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Jean- Jacques Rousseau 197-bet


J.J.Russo bolani tarbiya qilish uchun eng qulay joy bu tabiatdir deydi. O‘zining tarbiya nazariyasida Russo sentimentalizmni ilgari suradi. Sentimentalizm barcha holatlarda hissiyotlarni aqldan ustun qo‘yadi. Insondagi ahloq Russo fikricha, uning tabiatiga chuqurroq kirib borgan va aql farosatga nisbatan asosliroqdir. U bevosita va inson aqli tomonidan isbotlab berishga muxtoj emas. U o‘ziga etarli va uning manbai bitta u ham bo‘lsa bizning vijdonimiz ovozi. Lekin bu ovozni madaniyat bo‘g‘ib qo‘yadi. U bizni odamlarga nisbatan rasmiy va befarq qilib qo‘yadi. SHuning uchun ham Russo madaniyatga qarshi chiqadi..U tikuvg‘chi bo‘lib mehnat qilgan o‘z rafiqasi Tereza Levasser bilan birga hayot kechiradi va bolalarini “ijtimoiy tarbiya” qilishga majburlaydi. Uni bu xatti-harakati o‘z g‘oyalariga to‘g‘ri kelmaydi. Uning biografiyasini o‘rgangan olimlar bu faktni oxirigacha tushuntirib berolmadilar. Madaniyatni tanqid qilish jamiyatni tanqid qilish bilan barobar. 20 asrlarda SHpengler madaniyatni sivilizatsiya deb ataydi. Sivilizatsiya bu qotib qolgan, rasmiy, byurokratizmga asoslangan, bir so‘z bilan aytganda begon, insonning o‘zdan begona bo‘lgan madaniyat deb tushuntiradi. Russo hali bu tushunchalarni ajrata olmaydi. Uningcha barcha madaniyat odamga begona va dushman.

Madaniyat deganda u oliy sinflar madaniyatini tushunadi va xalq xayotining tabiiyligini unga qarama-qarshi qo‘yadi. Uningcha oliy sinflar madaniyat bilan, oddiy xalq esa tabiat bilan yashaydi. Bunda Russo buzilgan madaniyatga haqiqiy madaniyatni emas, tabiatni qarama-qarshi qo‘yadi.

Bu esa aynan san’at, klassik adabiyot, falsafada erishgan yutuqlarni yo‘qotishga olib keladi. Russoning Odamlar o‘rtasidagi tengsizlikning vujudga kelishi asarini o‘qigan Volter keyinchalik unga xat yozadi: Sizning asaringizni o‘qib yana xayvonga aylangisi keladi odamning deydi. Russo buni alamzadalik va tushunmaslik deb qabul qiladi. Uningcha inson o‘zining birlamchi holatiga qaytishi kerak emas.

Fransuz ensiklopedistlari nazariyalarida biologiklik va ijtimoiylik tabiatiga alohida e’tibor qaratiladi. Aynan Gelvetsiy va Didro birinchilardan bo‘lib, bola rivojlanishida irsiyat va muhitning asosiy omil ekanligini e’tirof etadilar va ularning ta’sirini qobilyaitlar muammosi bilan bog‘lab tushuntiradilar. Bunda qobiliyat deganda ma’lum bir faoliyatni yuqori darajada bajarish nazarda tutiladi, biroq bajarish tezligi va osonligi hisobga olinmaydi. Tabiiyki, buning natijasida Gelvetsiy qobiliyatlar tug‘ma emas, o‘qitish jarayonida ega bo‘linadigan xususiyatlar deb baholaydi.


Bunday yondashuv Gelvetsi yning odamlarning umumiyligi tengligi haqidagi konsepsisidan kelib chiqib, unga ko‘ra odamlar o‘rtasidagi individual tafovutlar turli ijtimoiy holat va tarbiya natijasidir. Lekin shunisi qiziqki, aynan shu yondashuv fatalizmga olib keldi, ya’ni odam taqdir o‘yinchog‘i bo‘lib, o‘z xoxishiga ko‘ra taqdir uni qaysi muhitga xoxlasa shunga tashlab qo‘yadi. SHunday qilib, Gelvetsiy o‘zining “Inson haqida” “Aql haqida” asarlarida insonlarning barcha munosabatlarda tengligi e’tirof eta turib, tarbiyaga eng katta kuch sifatida qaraydi.



6-RASM

Клод Адриан Гельвеций

butunlay boshqa narsani nazarda tutgan edi. Bosh miya faoliyatining tashqi mahsullariga Kabanis fikrlarni so‘zlar va imo-ishoralar yordamida ifodalashni kiritgan edi, fikrning orqasidan esa yashirin noma'lum nerv jarayoni yotadi deb ta’riflagan edi.



7-RASM

Gelvetsiy tashqi turkidan boshqa determinantni bilmaydi. SHu erdan uning odamlarning alloma yoki ahmoq bo‘lib etishishlariga ularning tasodifan turli holatlarga tushib qolishlari sabab bo‘ladi degan konsepsiysi kelib chiqadi. Fransuz materializmi rivojlanishidagi yakunlovchi bosqich vrach-faylasuf Kabanis bilan taqdim etiladi. (1757-1808) (6-rasm). U formula tuzgan, mazkur formulaga asosan tafakkur – miya funksiyasidir. O‘z xulosasini Kabanis revolyusiya tajribasidagi kuzatuvlari bilan mustahkamlaydi. Fiziologiya tomonidan ishlab chiqilgan turli organlarga turli funksiyalar to‘g‘ri kelishi haqidagi tushuncha va tasavvurlar bosh miya faoliyatiga ham tarqaladi. Kabanis formulasini materialistik falsafaga qarshi bo‘lganlar boshqacha ko‘rinishda talqin qiladilar. Ularning fikricha jigar safro, buyrak zaxar ilab chiqqanidek, miya ham fikr ishlab chiqaradi, deb fikrlashda Kabanisni ayblaydilar. Aslida esa Kabanis

Aynan shu davrda franquz mutafakkiri Monteske (1689-1755) “Qonunlar ruhiyati haqida” kitobini taqdim etadi.


Uning fikricha odamlar ustidan qonunlar xukmronlik qiladi ular jamiyatning xayot sharoitlari va birinchi navbatda geografik sharoitlardan kelib chiqadi. Bunda Monteske aholining etnik xususiyatlari, xalq xarakteriga alohida e’tibor qaratadi (7-rasm).

Ma'rifat tushunchasining o'zi 18 asrda g'oyaviy va adabiy tushuncha sifatida ishlatala boshladi, shuningdek u falsafiy va ilmiy yo'nalish sifatida ham paydo bo'ldi. Aynan shunda xalq ommasini "yoritish", odamlar ongini xurofotlardan tozalash vazifasi qo'yilgan edi. Ma'rifat Rossiyaga ham etib keladi. Imperator Ekaterina 2 vaqtinchalik ma'rifat bilan qiziqadi, lekin ma'rifat davrining asosiy g'oyalari Radishev nomi bilan bog'liq. Radishev Ekaterina 2 tomonidan o'z g'oyalari uchun Sibirga surgun qilinadi. Ma'rifat xrstianlik va cherkovga qarshi kurash ko'rinishida tus olgan edi. Ma'rifat davrining zaruriy elementi shunday qilib ateizm bo'lib qoladi.

XVIII asrda Rossiyada psixologik bilimlarning rivojlanishi. Bizga avalgi dasrlarimizdan ma'lumki Rossiyada psixologik g'oyalalar 15-16-asrlardayoq rivojlantira boshlangan. Ana shu manbalar asosida 18-asrda etarli darajada butun xarakterga ega bo'lgan konsepsiylar yaratildi va ular mazkur konsepsiylarning keyingi taraqqiyotida materialistik an'analarni boshlab berdilar. 18-asrda Rossiyada feodal-krepostniklik tuzimi xukm suradi. Uning qarama-qarshiliklarini A.N.Radio'ev o'zining "Peterburgdan Moskvaga sayohat" asarida yoritib beradi. U progressiv fikrlovchi olimlar kayfiyatlarini ifodalagan holda krepostniklik tuzumini bekor qilishni talab etadi.

18 asrda Rosiyada ma'rifatparvarlik harakati N.I.Novikov, N.N.Popovskiy, D.S.Anichkov, V.N.Tatishev tomonidan bir qancha ilg'or g'oyalarning ilgari surilishi bilan xarakterlanadi. Ukrainada G.S.Skvoroda asosiy e'tiborni insonning o'zini o'zi anglashiga qaratishni taklif etadi.

Antikrepostniklik yo'nalishiga ega bo'lgan mazkur harakat rasmiy fanda ustunlik qilayotgan idealizm va teologiya bilan kurashib inson muammosini markaziy muammo sifatida qarashni taklif etadi. Bu sharoitlarda aosiy psixologik muammolarni materialistik hal qilish gumanizm uchun xurofotlardan ozod bo'lishga kurash shakliga ega bo'ldi.



8-RASM

Jamiyat taraqqiyotida fan va ma'rifatning o'rni tan olina boshlanishi bilan, V.N.Tatishev aqliy taraqqiyotning maorif va o'qitishga bog'liqligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha individual aqlning manbai til va yozish orqali o'zlashtiriladigan boshqa odamlar tajribasidir. N.I.Novikov Rossiyada noshirlik ishining yirik tashkilotchilaridan edi (8-rasm). U ruh tabiatи, uning o'lmasligi haqidagi ko'proq munozarali savollarni o'rtaga tashlaydi. 1796 yilda psixologiyaga bag'ishlangan birinchi maxsus kitob nashrdan chiqadi. Uning nomi "Rux haqidagi fan" deb nmlanib, muallif I.Mixaylov Dj.Lokk ingliz empirizmi ta'siri ostida psixologik bilimlar tuzilmasini taklif etadi. Ruhning o'lmasligi va boshqa shunga o'xshash masalalarini ko'rib chiqmasdan, u faktlar – sezgilar, fikrlarni tasavvurlarning assotsiatsiyasi sifatida ko'rib chiqadi hamda iroda muammosiga e'tibor qaratadi.

Rus materialistik psixologiyasiga M.V.Lomonosov asos soladi. Lomonosovning psixologik qarashlari ilmiy tadqiqotlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Lomonosov sezgi tashqi predmetlarning sezgi organlariga ta'siri maxsuli bo'lib, bunda bosh miya qo'zg'atuvchilarni tafovutlashda alohida rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi. U o'zining rangli ko'rishning uch komponentli nazariyasini ilgari suradi. Keyinchalik 19 asrning boshlarida ingliz fizigi va vrachi T.Yung ham uch komponentli rangli ko'rish g'oyasini ilgari suradi, keyinchalik bu g'oya Gelmgols tomonidan qayta ishlab chiqiladi. Lomonosov o'zining "Ritorika bo'yicha qisqacha qo'llanma" asarida xayol, tasavvurlar, nutq psixologiyasiga oid fikrlarni bayon etadi.

Radio'ev ishlarida psixika taraqqiyoti inson va hayyovon psixikasini taqqoslash orqali namoyon bo'ladi. Uning fikricha inson tabiatga moslashmaydi, lekin uni o'zgartiradi, hayyovondan farqli ravishda nutq va to'g'ri yurishga ega. Olim inson qo'li, hamda bosh miyaning yuqori darajada rivojlanganligi katta rol o'ynashiga alohida urg'u beradi. Inson sezgilarining sifatiy tafovutlari uning bilimlarining o'ziga xosligi, san'at bilan shug'ullanishi, turli vositalardan foydalanish imkoniyati bilan namoyon bo'ladi. Individual ongning shakllanishida til va nutqning alohida roli ko'rsatib o'tiladi.

Radishev krepostnik davr zulmlari sharoitida inson muammosini o'rtaga tashlaydi. U Gobss, Dekart, Spinoza, Pristli, Lokk kabi olimlar fikriga tayanib, gumanistik etiga g'oyalarini ilgari suradi. Uning fikricha psixika tana organlari asablar va bosh miya funksiyalari bo'lib, ularsiz mavjud bo'la olmaydi. Radishev ruhning mustaqil substansiya sifatida mavjud bo'la olmasligini e'tirof etib, ruh ya'ni hayat, hissiyotlar va fikr barcha turli tuman ko'rinishga va sifatga ega bo'lsada bir butunlikdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Radishev aqlning rivojlanishida tarbiyaning roli kattaligini ta'kidlaydi. U o'z ishlarida qobiliyatlarga alohida urg'u beradi. Gelvetsyning inson o'z aqli uchun tabiatdan qarzdor emas" degan fikrini tanqid qilib, u tarbiyaning rolini inkor etmagan holda, biz tabiat kuchini ham inkor eta olmaymiz deydi. Tarbiya, unga bog'liq bo'lgan barcha narsalar o'z kuchida qoladi, lekin turli darajadagi vaziyatlar va bizni o'rab turgan barcha omillarning ta'sirini ham unutmasligim kerak deydi. Radishev o'zining "Inson mangulik va o'lim haqida" asarida dasttlab barcha narsalar tugal intiqomga ega ekanligini e'tirof etadi, keyinchalik o'zini juda qiyagan mazkur mavzu ustida uzoq fikrlab shunday xulosaga keladiki, inson nafaqat o'z fikri, hissiyotlari va xoxishlari ustidan xukmronlik qila oladi, balki o'z tanasi ustidan ham xukmronlik qila olishi mumkin. Uning fikricha inson tanasi o'lgandan keyin uning fikrlari yo'q bo'lib keta olmaydi. Bu fikr bilan Radishev diniy ideologiyaga yon bosadi, lekin aynan shu fikrda qattiq turib ham olmaydi.

Fransuz ma'rifatparvarlari. Mazkur yo'nalish namoyandalarini ensiklopedistlar ham deb atashadi, chunki ular "Ensiklopediyalar yoki fanlar, san'atlar va hunarlarning ma'noviy lug'ati" 35-tomli asari doirasiga birlashadilar. Ensiklopediyada materialistik pozitsiyadan turib psixologik masalalar hal qilingan.

Metafizika va sxolastikani tanqid qilib, tajribaviy bilimlarni e'tirof etgan olimlar Volter (1694-1778) va Kondilyak¹ (1715-1780) hisoblanadilar.. Kondilyak dastlab “xaykal g‘oyasini ilgari surib, inson dastlab ana shu ko‘rinishda bo‘ladi va faqatgina sezish qobiliyati unda mavjud bo‘ladi deb e’tirof etadi. Tashqaridan xattoki eng sodda sezgini qabul qilishi bilan (masalan hid bilish) butun psixik mexanika ishga tushib ketadi. Bitta hid ikkinchi xid bilan o‘rin almashgandan keyin Dekart aytganidek tug‘ma g‘oyalar, Lokk bo‘yicha esa refleksiya ishga tuadi. Kuchli hissiyotlarni diqqat yuzaga keltiradi, bir sezgini ikkinchisi bilan taqqoslash fnuksional aktga aylanadi va keyingi aqliy ishni belgilab beradi.



Жюльен Ламетри

Vrach Jyulen Lametri (1709-1751) Kondilyakning statuyasidan farqli o‘laroq, “odam-mashina” obrazini taklif etadi. Uning traktati ham aynan shunday deb nomlanadi. Lametri¹¹ fikricha Dekart xayvon organizmidan ruhni chetlatib qo‘yadi, biroq odam organizmi ham unga muxtoj emas, Inson organizmi psixik qobiliyatlardan iborat bo‘lib, uning mashinaga o‘xshash harakatlari maxsulidir (9-rasm). 1745 yilda Lametri “Ruhning tabiiy tarixi” asarini e’lon qiladi, u bu asarida ruhiyatni materiya xususiyati sifatida baholaydi. Bunda u Dekartning materiyani mexanistik tushuntirishidan chekinadi, va materianing atributi bu faqatgina tortilish emas, balki harakat va sezishga salohiyatli qobiyalitdir. Bu qobiliyatning rivojlanish maxsuli rux deb ataladi. Lametri o‘z asarida insonni murakkab mashina sifatida e’tirof etadi. Odamda hamma narsa mexanik tuzilgan, aynan inson mashinasi prujinalarida barcha hayotiy tabiiy va avtomatik harakatlar yuzaga keladi.

Darhaqiqat tana kutilmagan chuqurlikni ko‘rganda avtomatik tarzda qaltiray boshlaydi, yorug‘likka chiqqanda ko‘z qorachig‘i torayadi to‘r pardasini saqlash uchun va qorong‘ida predmetlarni yaxshi ko‘rish uchun kengayadi, teridagi mayda teshikchalar sovuqda mashinal tarzda yopiladi, sovuq tomirlarga kirmasligi uchun, yurak, arteriya va muskullar uyqu paytida xuddi uyg‘oqlikdagi kabi qisqaradi. Lametri sezgi va firklar o‘rtasidagi sifatiy tafovutlarni tan olmaydi. Lametri sensualistlarga o‘xshab, tafakkurni sezilar bilan bir narsa deb baholaydi. O‘z naturalizmi va mexanitsizmiga qaramasdan Lametri ta’limga alohida e’tibor qaratadi. Odamning tashkil etilishi barcha narsalardan birinchi afzallik bo‘lsa, ikkinchisi ta’limdir. Ta’limsiz eng yaxshi tashkil etilgan aql ham o‘z qadr qimmatini yo‘qotadi.

^{11 11} Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Julien de La Mettrie 153-bet

Lametri 42 yoshida vafot etadi. Albatta uning odamni mashinaga o'xshatish g'oyasi juda sodda va g'alati. Lekin Lametri g'oyalari insonda o'zi rug' bormi, bo'lsa u qanday, qaerda joylashgan degan savollarni yanada o'tkirlashtirib yubordi.

Lametri va Gelvetsiy Golbax va Didro o'z davrida fransuz hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan milliy davlatchilik inson erkinligi va xak xuquqlari muammolariga alohida e'tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma'naviy jixatdan yuksaklikka ko'tarish va ma'rifatli xalqqa aylantirish uchun o'z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishish yo'llari va usullarini ko'rsatib bergenlar. Ular tomonidan yaratilgan Ensiklopediya o'sha zamonning ma'naviy muammolarini ma'rifatli yo'l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlarini ko'rsatib bergen Evropa komusi darajasiga aylangan edi.

Ma'rifat davri materialistlari Evropaning intellektual hayotida juda katta ijobiy rol o'ynadi. Ular insonning bir butunligi g'oyasini, uning tana-ruhiy mavjudligining tashqi muhit – tabiat va ijtimoiy muhit bilan aloqadorligini e'tirof etdilar, hissiy tajriba qobiliyatining tashqi dunyo haqidagi ratsional bilishning yagona kafolati bo'lib xizmat qilishini, ularni ishlab chiquvchi psixik hodisalar va nerv substratining bo'linmasligini ta'kidlaydilar. Bu bo'linmaslikni endi faqat aql bilan chandalab ko'rmay, balki empirik tadqiq etishga o'tish lozimligini isbotlab, 18 asr materialistlari keyingi yuz yillikda yangi yo'nalishdagi ilmiy qarashlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdilar.



10 - RASM

I.Kant¹² ta'limotining psixologiya rivojlanishiga ta'siri. S.L.Rubinshteyn fikricha, Kant psixologiya masalalariga yo'l yo'lakay to'xtalib o'tadi. U o'zining "Antropologiya" asarida temperament muammoiga qisman to'xtaladi (10-rasm). U nemis maxsulsiz nemis qobiliyatlar psixologiyasi ta'siriga berilib, psixologyaning fan sifatida mavjud bo'lishiga shubxa bilan qaraydi. Lekin uningkonsepsiysi Myuller, Gelmgolsning sezgi organlari va sezgilar psixofiziologiyasi bo'yicha tadqiqotlariga yaqqol ta'sir ko'rsatadi, biroq psixofiziologiya fan sifatida Kant g'oyalariiga asosan emas, balki unga qarama qarshi rivojlanadi.

L.Feyerbax

(1804 – 1872) Avvaliga Gegel izidan boradi, keyinchalik uni tanqid qiladi (11-rasm). Feyerbax falsafasi markazida biologik mavjudot hisoblangan inson yotadi. Dinni u inson ruhiyatiga yet narsa deb baholab, uning manbai insonning tabiat va jamiyatdagi falokat kuchlariga qaramligi hissiyotidan kelib chiqadi deb tushuntiradi. Ahloq asosini u insonning baxtga intilishida ko'radi.

SHunday qilib nemis mumtoz falsafasining markaziy muammo – moddiylik va ideallik o'rtasidagi munosabatlar alohida inson hayot faoliyati misolida ko'rib chiqiladi. Natijada tafakkur va borliqning mutanosibligi Feyerbaxda psixofizik muammo ko'rinishini oladi. Ruh va tananing bevosita mutanosibligini Feyerbax bosh miyada deb biladi. Bosh miya aktida erkin, sub'ektiv, ma'naviy faoliyat nomustaqil, ob'etiv va moddiy faoliyat bilan bir narsadir.

¹² Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Immanuel Kant 180-bet

Nemis idealizmining jidiy erishgan yutug'i bu ruhni insoniy faoliyatlar tizimi sifatida ifodalash edi. Bosh miya fikrlovchi sub'ekt quroli bo'lib, aynan bosh miya yordamida hamda boshqa tana va madaniy organlar bilan sub'ekt tashqi dunyoning ideal obrazlarini yaratadi. SHunday qilib faqat o'z faoliyatidagina bosh miya ideallik organiga aylanadi Har qanday emas, balki faqat madaniy tarixiy faoliyatgina bizning miyamizda chiroyligi, yuksak narsalarni yuzaga keltiradi. Madaniyat olami bilan muomala kirishib, biz fikrlash uchqunlariga ega bo'lamiz. Xayvonlar esa tabiat bilan munosabatga kirishib, faqatgina odatlar, elementar psixik obrazlar bilan kifoyalanadilar.



Bosh miyaga kelsak, u o'zi hech qanday ideallikka ega emas. Feyerbax fikr va bosh miya bir biriga bevosita mos kelishi sababli tafakkur tabiatini meditsina o'rganishi kerak degan xulosaga keladi. Ana shu erda Feyerbax ta'limotining paradoksal tomoniga duch kelamiz.

Meditisina har doim soma tanani o'rganib kelgan. Meditsinaning alohida sohasi psixiatriya inson ruhiyatini o'rganib kelgan. Lekin psixiatriya patologik ko'rinishdagi psixeyani o'rganadi. Lekin ruhning o'zi normal holatda qanday bo'lishini psixiatr ham aytolmaydi. Bu erda u psixologiyaga murojaat qilishi kerak. Lekin Feyerbax insonni meditsinaga asoslangan falsafa o'rganishi kerak deb turib oladi.

Ingliz naturalisti CH.Darvin¹³ ta'limoti butun dunyoda biologik va psixologik tafakkur tuzilishini o'zgartirib yubordi (12-rasm). Uning fikricha barcha hodisa va vokeliklar biologik determinizm asosiga qurilgan. Tabiiy tanlash organizmning unga doimiy xavf soluvchi muhitda yashab ketishining omili sifatida qaraladi. Evolyusiyada faqatgina samarali moslashganlar yashab keta oladi. YA'ni yashash kurashish demakdir.

12 - RASM

XIX asrga kelib psixikaga yangi yondashuvlar shakllana boshladi. Endi mexanika emas, fiziologiya psixologik bilimlarning o'sishiga olib kela boshladi. Psixofiziologiya psixologiya va neyrofiziologiya to'qnashuvida yuzaga keldi va psixikani uning neyrofiziologik substratlari birligida o'rgana boshladi.

¹³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Evolutionary Theory before Darwin 279-bet

Darvinizm zoologiya, undan keyin esa zoopsixologiya fan taraqqiyotiga ham hissa qo'shdi. Darvinizm shuningdek qiyosiy psixologiya yo'nalishiga ham asos bo'ldi.

Darvin fikricha tabiiy tanlash hayot uchun keraksiz bo'lgan barcha narsalarni ajratib tashlar ekan, psixik funksiyalar moslashishga yordam bermaganida ular yo'q bo'lib ketar edi. Bu g'oya psixikani organizmning tabiiy muhitga moslashish elementi sifatida qarash imkoniyatini berdi. Psixika alohi "rux oroli" sifatida mavjud bo'la olmaydi. SHu tariqa alohida organizm o'rniga "organizm-muhit" munosabati yuzaga keladi. Bu esa psixologiyaning predmeti faqatgina ong emas, balki xulq xam bo'lishi kerak degan fikrga olib keldi.



13 - RASM

Albert fon Galler (1708-1777) – shveysariyalik olim, shifokor va shoir, eksperimental fiziologiya asoschilaridan biri. Bosh miya bo'limlarida psixik funksiyalarning taqsimlanishi g'oyasi unga tegishli deb hisoblanadi.

Georgiy Proxazka (1749-1820) – chexialik anatom va fiziolog. U asab apparati va uning funksiyalari haqida, asab refleksi, reflektor yoyi, tashqi muhit va organizm o'rtaqidagi asosiy vositachi asab tizimi ekanligi haqidagi g'oslarni ilgari suradi (13-rasm).

Charlz Bell (1749-1842) – "bosh miyaning yangi anatomiyasi" muallifi, eksperimental tarzda orqa miyaning old va orqa tomonlari funksiyalarining taqsimlanishini tushuntirib beradi. U sezgi muskulining harakatlarni amalga oshirishdagi rolini ko'rsatib beradi, asab xalqasi – qo'zg'alish – bosh miya – muskul – bosh miyadan iborat deb e'tirof etadi u. Ana shu xalqadagi buzilishlar harakat, koordinatsiya buzilishiga, falajga olib keladi.

Iogannes Peter Myuller¹ (1801-1858) – nemis fiziologi sezgi sifati qanday organ qo‘zg‘alganligiga bog‘liq deb tushuntiradi. U reflektor akt haqidagi, orqa miyaning ishlashida reflektor tabiatga ega ekanligi, sezgi organlari faoliyati haqida to‘xtalib o‘tdi.

Frans Gal¹ (1758-1828)- taniqli avstriyaliik shifokor, anatom. Miya morfologiyasi bilan shug‘ullangan. Bosh miya po‘stlog‘i va po‘stloq ostini tashkil etuvchi oq va kul rang moddalarni birinchi bo‘lib tafovutlagan. Uning bu kashfiyoti aynan bosh miya po‘stlog‘i, uning qorinchalari emas, inson psixik faoliyatining substratini tashkil etadi degan fikrlarga olibk eladi. Gal frenologiya – ya’ni inson yoki xayvondagi psixik xususiyatlarning bosh miya qopqog‘i tashki shakliga bog‘liqligini e’tirof etadi.

P.Flurans¹ (1794-1867) – fransuz fiziolog-vrachi. Markaziy nerv tizimining ba’zi bir bo‘laklarini olib tashlab, u bosh miya asosiy psixik funksiyalarning butun organ-substrati ekanligini isbotladi. Miyacha harakatlarni, uzunchoq miya esa nafas olish markazini boshqarishini e’tirof etdi.

Jan Buyo¹ (1796-1881), fransuz olimi, bosh miya lolizatsiyasi jarohatlangan bemorlar xulqini kuzatib, bosh miya old tomonlari ishi buzilganida motor nutq yo‘qolishini ko‘rsatib o‘tdi.



Psixofizika – umumiy psixologiya bo‘limlaridan hisoblanib, uning namoyandası Ernst Veber sezgilar chegarasi va psixofizik shkalarni tuzish masalalari bilan shug‘ullandi. U teri sezgilarida uch xillik, ya’ni bosim, temperatura va lokalizatsiyani tafovutlaydi. Lokalizatsiyani tekshirish uchun u esteziometr kashf qfiladi. Eksperimental tarzda teri ta’sir ko‘rsatish lokalizatsiyasiga ko‘ra turlicha sezishini aniqlaydi. Psixofizikaning asoschisi Fexner psixofizikaning asosiy vazifasini shakllantirdi. Unga ko‘ra psixofizikaning vazifasi psixik va jismoniy hodisalar o‘rtasidagi mutanosiblik aniq nazariyasini ishlab chiqishdir. U psixofiziologiyani ichki va tashqi bo‘limlarga bo‘ladi.

E.Fexner aynan tashqi psixofizikani ishlab chiqadi, asosiy psixofizik qonuniyatni topadi.

Golland fiziologi **Frans Donders¹⁴ (1818-1889) psixik jarayonlar kechish tezligini o‘rganadi** (14-rasm).

Ungacha G.Gelmgols impulsning nerv tolalari bo‘ylab tezligini o‘lchaydi. Bu organizmga taalluqli edi. Donders esa sub’ektning u qabul qilayotgan ob’ektlarga nisbatan reaksiyasi tezligini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. SHu tariqa psixologik bilimning yangi sohasi – psixometriya yuzaga kela boshlaydi.

Asosiy adabiyotlar

13. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
14. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
15. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
16. Jdan A.N. Istorija psixologii. M.: MDU, 1990.
17. Marsinkovskaya T.V. Istorija psixologii. M., 2002.
18. Yakunin V.A. Istorija psixologii: Uchebnoye posbiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

¹⁴ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Mental Chronometry154-bet


Qo'shimcha adabiyotlar

1. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.
2. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
3. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadzhilbayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
4. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
5. Xayrullayev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O'zbekiston, 1995.
6. Xrestomatiya po obshchey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
7. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO "Xarvest", 2003.-528 s.

6-Mavzu. Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya soxalarining rivojlanishi.

Ma’ruza rejasi.

1. V. Vundt (1832 – 1920) va eksperimental psixologiyaning shakllanishi.
2. Psixik xodisalarning reflektor konsepsiysi.
3. Chet el psixologiyasidagi boshqa psixologik dasturlar.
4. Funksional psixologiyaning asosiy g‘oyalari va ularning amaliy soxalar va bixevoirizmning yuzaga kelishidagi axamiyati.
5. Rossiyada psixologiya rivojlanishining muxim yo‘nalishlari
6. Eksperimental psixologiyaning va uning amaliy soxalari rivojlanishi.
7. Psixikaning psixofizik qonuniyatlarini Veber va Fexner tajribalari misolida



XIX asrning 70-yillarida psixika haqidagi tarqoq bilimlarni bitta ilmiy yo‘nalishga birlashtirish extiyoji yuzaga keldi. Fiziologlarning laboratoriya ishlari bilan bir qatorda evolyusion biologiya va meditsina amaliyoti yangi psixologiyani tayyorlay boshlagandi. Boshqa tabiiy faktlar kabi psixik hodisalarni ham ob‘ektiv o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lgan psixik hodisalar dunyosi ochildi. SHu narsa aniqlandiki, bu psixik dunyoda o‘z qonuniyatlarini va sabablari bor. Bu esa psixolooiyaning fiziologiyadanham, falsafadan ham ajralib chiqishiga turtki bo‘ldi (1-rasm). Ayniqsa eng katta muvaffaqiyatga taniqli nemis psixolog, fiziolog va faylasufi Vilgelm Vundt¹⁵ (1832 - 1920) erishdi. Uning "fiziologik psixologiya asoslari" (1873 - 1874) asari yangi fanda yo‘lboshchi vazifasini o‘tadi

Psixologiyaning noyob metodi sifatida “bevosita tajriba”, asosiy metodi sifatida introspeksiya tan olindi.

¹⁵ David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: Worth Publishers, 2013. – P. 3

Vilgelm Vundt psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dasturini ishlab chiqdi. 1879 yilda Leypsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini olib, keyinchalik birinchi mxsus psixologiya institutiga asos soldi va fiziologlardan o'tgan mavzular – sezgilar, reaksiyalar tezligi, assotsiatsiyalar, psixofizik qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullandi. Vundt maktabini 136 nafar nemis, 14 nafar amerikalik, 10 nafar angliyalik, 6 nafar polyak, 3 nafar rus, 2 nafar fransuz mutaxassislari tugatdi. Bu maktab psixolog-eksperimentatorlar birinchi avlodini etishtirib chiqardi.

V. Vundt ong muammolarini chuqr taxlil qildi. Uning fikricha ong xossasiga fenomenalizm, ong ko'lami, birinmasi, idrok chegaralari, kuchlanish, jadallik, taassurotlar aniqligi, ong chegarasi kiradi. Affekt uning fikricha hissiyot va tasavvurlarning bir o'rinn almashinishi va bir vaqtda birikmasi hamdir. Kayfiyat hissiyotlarning past jadalligida va katta davomiyligida yuzaga keladi. Affektlar irodaviy jarayonlarning tarkibiy qismlaridir. Irodaviy jarayon – barcha qismlarni o'z ichiga olgan to'liq jarayon hisoblanadi. Ong fenomenlari assotsiatsiyalar va appersepsiya yo'li bilan shakllanadi. Appersepsiya – onging alohida funksiyasidir. U insonning irodaviy xulqini belgilab beradi. SHunday qilib, belgilangan dastur asoida laboratoriyyada sezgi, reaksiya vaqtлari, ssotsiatsiyalar, diqqatning, insonning eng sodda hissiyotlari o'rganildi. Ular asoida Vundt psixik hayot qonuniyatini shakllantirdi va ulardan ba'zilarini prinsiplar deb atadi.



2-RASM

Bu davrda **Ivan Mixaylovich Sechenov¹⁶** (1829-1905) ishlariga alohida urg'u beriladi. Uning «Psixologicheskie etyudy», «Refleksy golovnogo mozga» (1863) asarlari juda katta rezonansga sabab bo'ladi. Sechenovning eng asosiy qilgan kashfiyoti – markaziy tormozlanishdir. Ungacha bosh miyada faqat bitta jarayon – qo'zg'alish bo'ladi deb hisoblanardi. Sechenov eksperimentda bosh miyaning reflekslarni ushlab qolish xususiyatini ochdi (2-rasm). Bu kashfiyotni u psixik funksiyalar iroda va tafakkurning nerv mexanizmlari sifatida talqin etdi. Irodali odam qo'zg'atuvchi qanday kuchli bo'lmasin uning ta'sirini enga oladi deb hisoblaydi. Bunga esa tormozlanish apparati orqali erishiladi.

19 asrning oxiriga kelib pedologiya, bola haqidagi fan ham G'arbda va Rossiyada ham keng yoyila boshlaydi. Biroq pedologiya o'z tadqiqot predmetini aniqlay olmadidi. U to'rtta prinsip bo'yicha muammolarni qarab chiqdi.

Ma'lumki birlashtirish extiyoji yuzaga keldi.

Fiziologlarning laboratoriya ishlari bilan bir qatorda evolyusion biologiya va meditsina amaliyoti yangi psixologiyani tayyorlay boshlagandi. Boshqa tabiiy faktlar kabi psixik hodisalarini ham ob'ektiv o'rganish imkoniyati mavjud bo'lgan psixik hodisalar dunyosi ochildi. SHu narsa aniqlandiki, bu

¹⁶ David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: Worth Publishers, 2013. – P. 3

psixik dunyoda o‘z qonuniyatlari va sabablari bor. Bu esa psixolooiyaningfiziologiyadanham, falsafadan ham ajralib chiqishiga turtki bo‘ldi.

P.Lyubovskiy, Xarkov universiteti magistri «Kratkoe rukovodstvo k opytynomu dushesloviyu» (1815) asarini e’lon qiladi. Mohiyatiga ko‘ra bu “eksperimental psixologiya” edi. Ish uchta qisdan iborat: 1. sezgirlik, 2 bilish, 3 intilish, mayl, iroda.

A.I.Galich (1783-1848) tafakkurning ob’ektiv dunyo qonunlariga bo‘ysunishini isbotlashga urinadi. **K.V.Lebedevning “Umumiy psixologiya”si** ham alohida o‘rin egallaydi. Unda muallif rus fiziologiya va psixologiya maktabi rolining o‘rnini ko‘rsatib beradi. **O.M.Novitskiy** podgotovil «Rukovodstvo k opytnoy psixologii» (1840) asarini e’lon qiladi, unda psixologiya bo‘yicha ilmiy asoslangan faktik ma’lumotlar keltiriladi.

Xarkov universiteti professori **P.I.Kovalevskiy** birinchi rus psixiatrik jurnaliga asos soladi. Unda eksperimental-psixologik tadqiqotlar va chet el psixologik adabiyotlari tahlili beriladi. **V.M.Bexterev** 1886 yilda «Soznanie i ego granitsy» asarini e’lon qiladi. 80-90-yillardan boshlab «Voprosy psixologii i filosofii», «Vestnik psixiatrii» jurnallari nashr ettirila boshlangan.

Psixikaning psixofizik qonuniyatlari Veber va Fexner tajribalari misolida

Garchi, eksperimental psixologiya to‘liq yaratilgan bo‘lmasa-da, eksperimentlarni ilk bor tashkil etish tadqiqotchilar, fiziolog Veber (1796–1878 y.) va fizik Fexner (1803 – 1887 y.)lar amalga oshirdilar. Veber va Fexnerning maqsadi tashqi ta’sirotlar (fizik omillar) va ularning muvofiqi – sezgilarning o‘zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni topishdan iborat edi.

Fexner eksperimental metodlar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni qo‘zg‘atuvchi ta’ssurotlar ta’siridagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi ko‘zg‘atgich logarifmasiga proporsionaldir degan psicho fizik qonunni kashf etadi. Veber va Fexnerlar o’tkazgan tajribalar “Psixofizika” degan alohida fanning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Veber va Fexner ishlaringning ahamiyati, asosan, shundan iboratki, ular birinchi bo‘lib psixologiyani, tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotladilar. SHu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan, o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanib kelayotgan psixologiya endi aniq, fanlardagi ob’ektiv metoddan foydalana boshlaydi.

Ayniqsa eng katta muvaffaqiyatga taniqli nemis psixolog, fiziolog va faylasufi Vilgelm Vundt (1832 - 1920) erishdi. Uning “fiziologik psixologiya asoslari” (1873 -1874) asari yangi fanda yo‘lboshchi vazifasini o‘tadi

Vilgelm Vundt psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dasturini ishlab chiqdi. 1879 yilda Leypsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini ochib, keyinchalik birinchi mxsus psixologiya institutiga asos soldi va fiziologlardan o‘tgan mavzular – sezgilar, reaksiyalar tezligi, assotsiatsiyalar, psixofizik qonuniyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullandi. Vundt maktabini 136 nafar nemis, 14 nafar amerikalik, 10 nafar angliyalik, 6 nafar polyak, 3 nafar rus, 2 nafar fransuz mutaxassislari tugatdi. Bu maktab psixolog-eksperimentatorlar birinchi avlodini etishtirib chiqardi.

Psixologiyaning noyob metodi sifatida “bevosita tajriba”, asosiy metodi sifatida introspeksiya tan olindi.

V.Vundt ong muammolarini chuqur taxlil qildi. Uning fikricha ong xossaliga fenomenalizm, ong ko‘لامи, birinmasi, idrok chegaralari, kuchlanish, jadallik, taassurotlar aniqligi, ong chegarasi kiradi. Affekt uning fikricha hissiyor va tasavvurlarning bir o‘rin almashinishi va bir vaqtida birikmasi hamdir. Kayfiyat

hissiyotlarning past jadalligida va katta davomiyligida yuzaga keladi. Affektlar irodaviy jarayonlarning tarkibiy qismlaridir.

Irodaviy jarayon – barcha qismlarni o‘z ichiga olgan to‘liq jarayon hisoblanadi. Ong fenomenlari assotsiatsiyalar va appersepsiya yo‘li bilan shakllanadi. Appersepsiya – ongning alohida funksiyasidir. U insonning irodaviy xulqini belgilab beradi. SHunday qilib, belgilangan dastur asoida laboratoriyyada sezgi, reaksiya vaqtleri, ssotsiatsiyalar, diqqatning, insonning eng sodda hisiyotlari o‘rganildi. Ular asoida Vundt psixik hayot qonuniyatini shakllantirdi va ulardan ba’zilarini tamoyillar deb atadi.

Ayniqsa, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq, psixologlar o‘rtasida psixik hodisalarini o‘rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmiyan degan masala keng maydonga chiqdi.

Bu g‘oya ilk bor faylasuf Kant tomonidan aytildi. Uni fikricha, psixologiyada eksperimentning bo‘lishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarini o‘lchash mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish mumkin emas.

Psixik hodisalarini o‘lchashning mumkinligi, binobarin, psixologiyada eksperimentning bo‘lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I. Gerbart (1776–1841 y.) ijobjiy fikr aytgan. U “psixologiyada matematikani tatbiq qilish mumkin va zarurligi haqida” shunday degan: “Mening tekshirishlarim amalda faqat, psixologiyaning o‘zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir”.

Gerbartning fikricha, asosiy psixik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlardan iboratdir. Ruhiy holatlar doimo o‘zgarish jarayonida bo‘ladilar. Tasavvurlarning bu doimiy o‘zgarish va al mashish jarayonida ma’lum darajada doimiylilik qonuniyati bor. Bu doimiylilik miqdori tomonini o‘lchash mumkin. SHuning uchun ham, Gerbartning fikricha psixologiyaga matematikani tadbiq qilish mumkin.

Gerbart, garchan psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydaliligini isbotlagan bo‘lsa ham, lekin uning o‘zi bu metoddan foydalanmadи.

V. Vundt eksperimental psixologiyaning asoschisi

Psixologiya fanining eksperimental sohasi masalalarida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt (1832– 1920y.) ning ishlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriy fan edi. Vundt eksperiment va o‘lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo‘ydi.

V. Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo‘lib qolgan bir qancha metodlarni, ya’ni qo‘zg‘atish metodi, ifodalash metodi va reaksiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi. Vundt 1879 yili birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini kashf qildi. Oxir-oqibat V. Vundt o‘z xulosalariga tayanib, Berlin universiteti huzurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi.

Ta’kidlash joizki, Vundt shug‘ullangan masalalardan biri o‘sha vaqtida astronomolar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtida ikkita har xil o‘tkazgichga to‘plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun Vundt (laboratoriya tashkil qilinganga qadar) 1861 yilda alohida mayatnik ish o‘ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo‘lingan yoy atrofida harakatlanadi va har bir ma’lum vaqtidan keyin shing‘ir laydi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Psixologiya fanining ilmiy metodologik qiymatini ko‘rsatish uchun Vundt qo‘srimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mifologiya va boshqa fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalanish zaruriyatni ilgari surdi.

Olim Leypsig laboratoriysi va institutidan namuna olib, Germaniyaning boshqa universitetli shaharlarida ham, shuningdek boshqa mamlakatlarda ham, jumladan Fransiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil kilindi. XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil kilindi. Moskvada Tokarskiy, Qozonda – Bexterev, Odessada, N.N. Langerlar tomonidan shunday laboratoriya ochildi. 1911 yil Moskva universiteti huzurida, mahsus ko‘rilgan binoda professor C. Helpanov rahbarligida eksperimentengal

psixologiya instituti tashkil qilinadi. Hozirgi vaqtida bu institut RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi.

Tadqiqotchi A.F.Lazurskiy (1874–1917 y.) tomonidan eksperimental metodning alohida turi – tabiiy eksperimental metodning alohida turli tabiiy eksperiment metodi ishlab chiqilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o‘rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta’lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va unumli foydalanilmoqda.

Eksperimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta’sir ko‘rsatdi.

Bu metodning yordamida oddiy kuzatish yoki o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan aniqlash qiyin bo‘lgan yoki butunlay mumkin bo‘lman bo‘lmotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlangan, psixik jarayonlardagi, ayniqsa, sezgilar, idrok, diqqat, xotira sohasidagi ba’zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Eksperimental analiz yo‘li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo‘lgan bog‘lanishlari ochilgan.

Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental metodning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohalarida o‘quv tarbiya ishlarida, meditsinada, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashda, sud ishlarida, san’atda juda ko‘p foyda keltirdi.

Eksperimental psixologiya - emperik tadqiqotlar rivojlanishining omili sifatida

V.Vund tajribasi o‘z-o‘zidan psixologik tadqiqotlar o‘tkazishga bo‘lgan zarurati kuchaytirib yubordi. Bu holat psixologiya tarixida psixologik testlar, shaxs so‘rovnomalari, intellekt testlari kabilarni ishlab chiqish bilan bog‘liq izlanishlarda ko‘zga tashlana bordi. Eksperimental tadqiqotlardan keyingi ba’zi qilingan ishlar fan tarixida qilingan ilk emperik tadqiqotlar sanalib, uning mazmuni psixologiyaning amaliy sohasi tarixini yoritishda e’tiborli sanaladi.

Psixologiyada empirik ishlar qanchalik muvaffaqiyat bilan rivojlanib borgan, psixologiya doirasida o‘rganiladigan hodisalar maydoni qanchalik kengayib borgan bo‘lsada, psixologiyaning ongri tushuntirishdagi ojizligi yaqol namoyon bo‘lib bordi. Yangi biologiyadagi yirik muvaffaqiyatlar organizmning hayotiy funksiyalari, jumladan psixik funksiyalarga nisbatan qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Tadqiqotlar natijasitga ko‘ra, idrok va xotira, ko‘nikma va tafakkur, ustanovka va hissiyotlar eni hayotiy vaziyatlarda oranizmni qurollantiradigan oliy psixik funksiyalar deb hisoblandi.

Tabiiy fan bo‘lgan, biologiya psixikani o‘rganishni rivojlanish nuqtai nazaridan olib borishga yo‘naltirdi. Bu bilan introspektiv tahlil uchun mumkin bo‘lman ob‘ektlarni bilish zonasini radikal ravishda kengayib bordi. Psixologiyaning predmeti va metodlari haqidagi birlamchi tasavvurlarning barham topishi aniq bo‘lib qoldi. Psixologiyaning kategorial apparati ham chuqur o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Uning asosiy bloklari haqida eslatib o‘tamiz: psixik obraz, psixik xatti-harakat, psixik munosabatlар, motiv, shaxs.

Ilk tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra, psixikaning birlamchi elementi sezgilar hisoblanardi. SHu narsa isbotlandiki, psixik obrazlar – geshtaltlardan iboratligi nemis psixologlari tomonidan belgilab berildi. SHu tariqa geshtaltpsixologiya yuzaga keldi. Psixik harakatga kelsak, uning kategorial mavqeい o‘zgardi. Ilgari u sub‘ektning ichki, ma’naviy aktlari qatoriga kiritilar edi.

Organizm va muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda ob‘ektiv metodlarni qo‘llash muvaffaqiyatlari psixika sohasi tashqi tana harakatini ham o‘z ichiga olishini isbotlab berdi. Uni psixologiya predmetiga kiritgan kuchli psixologik maktab ham vujudga keldi. Bu yo‘lni tanlagan “bixevorizm” maktabi ham yuzaga keldi. Psixologiyada ochilgan yana bir soha ongga birlamchi emas, ikkilamchi ahamiyatni berdi. Z.Freyd tomonidan psixanaliz yo‘nalishiga asos solindi, mazkur maktab namoyandalari psixik hayotni ongsizlik mayllari (motivlar) boshqaradi, u xulqni harakatga keltiradi va shaxsning murakkab dinamikasi tuzilmasini belgilab beradi deb hisobladi.

Ayniqsa, Fransuz tadqiqotchilari odamlar o‘rtasidagi psixik munosabatlarni tahlil qilishga asosiy e’tiborni qaratdilar. Bir qator nemis psixologlari ishlarida shaxsning qadriyatlar tizimiga kiritilishi mavzusi markaziy bo‘lib qoldi. Dunyoviy psixologik fikr tarixida alohida novatorlik rolini xulqning madaniyat aossida yuzaga kelishi haqidagi g‘oya egalladi.

SHu tariqa turli maktablar yuzaga kela boshladi, ulardan har biri kategoriyalarning butun markaziga obraz yoki harakatni, motiv yoki shaxsni qo‘ydi. Bu esa o‘z navbatida har bir mактабга o‘ziga xos profil berdi.

Kategoriyalardan biriga dominanta sifatida yo‘nalitirilish va boshqa kategoriyalarga bo‘ysunuvchanlik funksiyasini berish psixologiyaning bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishlar – maktablarga bo‘linib ketishiga olib keldi. Ana shu manzara psixologiyada inqirozga olib keldi. Biroq turli maktablar o‘rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelmaganida psixologiya ham rivojlanib ketmas edi.

Biz bilamizki har qanday inqiroz rivojlanishga olib kelishi mumkin. Psixologiya tarixida ham shunday hodisa yuz berdi. 20-asrning boshlarida dunyoning ko‘pgina mamlkatlaridagi turli universitetlarda o‘nlab eksperimental psixologiya laboratoriyalari ish olib borardi. AQSHning o‘zida bunday laboratoriylar 40 dan ortiq edi. Ularning tadqiqot mavzulari turlicha – sezgilar tahlili, psixofizika, psixometriya, assotsiativ eksperiment va x.k. edi. Ishlar juda izchillik bilan amalga oshirildi, biroq ahamiyatli yangi faktlar va g‘oyalar yuzaga kelmadi.

V.Djems shu narsaga e’tibor qaratdiki, mavjud bo‘lgan tajribalarning ko‘pchiligidagi natijalar harakatlarga mos kelmaydi. Lekin “Umumiy psixologiya arxivi” jurnalida bir nechta maqolalar yoritildi, mazkur maqolalar ichida O.Kyulpe rahbarligidagi yosh olimlar guruhining ishlari ahamiyatga molik edi.

Ma’lumki, O.Kyulpe Vyursburg psixologik maktabi asoschisi bo‘lib, Vundtdan ta’lim oladi, keyinchalik uning yordamchisi bo‘lib ishlaydi. Keyinchalik Vyursburgdagi laboratoriyanı boshqarayotib, u o‘z ustoziga qarshi chiqadi. Vyursburg mактабining muhim muvaffaqiyatlaridan biri shundaki tafakkurni o‘rganish psixologik konturga ega bo‘la boshladi. Avvallari tafakkur qonunlari – individual ongda bajariladigan mantiq qonunlari deb baholanardi. Vyursburg mактаби vakillari psixologik tafakkurga ustanovkani (motivatsion o‘zgarish), vazifani (maqsad) va undan kelib chiquvchi determinatsiyalashgan tendensiyalarni kiritdi.

N. Ax o‘z eksperimentida Kyulpening tekshiriluvchi topshiriqni bajarishga avvaldan tayyorgarlik ko‘rishi haqidagi taxminini isbotladi. Bunday avvaldan tayyorgarlik ko‘rishni u “determinatsiyalashgan tendensiya yoki “ong ustanovkasi” deb atadi. So‘nggi termin paradoksal tarzda jarangladi, chunki tajribalardan ma’lumki bu ustanovka anglanmaydi.

N. Ax ongning aloxida nosensor mazmunini anglanganlik termini bilan izohladi. Karl Byuler eksperimental amliyotiga yangi yo‘nalishni olib kirdi, bu esa Vundt tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Metodika shundan iborat ediki, tekshiriluvchi oldiga murakkab vazifa qo‘yilgan edi va u xronoskopdan foydalanmasdan turib uning ongida qaror qabul qilish jarayonida nima yuz berayotganini aytib berishi kerak edi.

20-asr Amerika psixologiyasi qiyofasini belgilab bergen yana bir yo‘nalish bixevoirizmdir. Mazkur yo‘nalish psixologiya predmetini ong emas, xulq tashkil qilishini e’tirof etadi. Bu yo‘nalish pionerlaridan bo‘lgan E.Torndayk 1898 yilda o‘zining “Hayvonlar intellekti. Hayvonlardagi assotsiativ jarayonlarni eksperimental tadqiq etish” nomli doktorlik dissertatsiyasini taqdim etdi. Bixevoirizmning nazariy liderlaridan biri Dj.Uotson “Psixologiya bixevoirist nuqtai nazarida” nomli maqolasini e’lon qiladi. Bixevoirizmning shiori xulqning organizmning tashqi va ichki stimullarga nisbatan reaksiyalar tizimi sifatida baholanishi bo‘lib qoladi.

Pozitivizm ta’siri ostida Dj.Uotson shuni isbotladiki, bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan narsalar va xodisalar haqqoniydir. Uning rejasiga ko‘ra butun xulq-atvorni jismonif qo‘zg‘atuvchilarning organizmga ta’siri va uning reaksiyalarini o‘rtasidagi munosabatlar bilan tushuntirish mumkin.

SHu tariqa bixevoirizm uchun ramziy belgi hisoblangan stimul – reaksiya formulasi vujudga keldi. Unga ko‘ra xox fiziologik bo‘lsin, xox psixik jarayonlar ana shu formula asosida yuz beradi. Xulqda yagona realliklar tanadagi reaksiyalarning turli shakllari deb e’tirof etilgan. Barcha

reaksiyalarni, intellektual yoki emotsiyonal reaksiyalarni boshqarish mumkin va psixikaning rivojlanishi muammolarning turli usullarda o‘rganilishiga bog‘liq.

Haqiqiy psixodiagnostikaga ilk bor e’tibor, fransuz psixologlari A.Bine, va T.Simonlarning intellekni o‘lchash borasida ishlab chiqqan ietellekt testlari bilan bog‘lanadi.

Bu holat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kechib, psixologik testlar borasidagi tadqiqotlarga yo‘l ochib berdi. Psixologlardan R.Kettel, D.Raven, L.Frank, G.Rorshax, G.Myurrey, G.Ayzekn, T.Veksler, L.Sond, Dj.Morenolar psixologiyaning turli sohalari bo‘yicha xar xil mazmundagi testlar ishlab chiqdilar va shu sohaning ilmiy jihatini asoschisiga aylandilar.

Oxir-oqibat psixologiya tarkibidan psixodiagnostika fani ajralib chiqdi va amaliy tadqiqotlar ko‘lami yanada kengaya bordi.

birinchi prinsip – bolani “qismlar”ga bo‘lib o‘rganishdan voz kechish.

Ikkinci prinsip – genetik prinsip. Bola ular uchun rivojlanayotgan mavjudot, shuning uchun uning rivojlanish dinamikasi va tendensiyasini hisobga olish zarur. **Uchinchi prinsip** bolalikni tadqiq etish metodlogiyasidagi tub burilish bilan bog‘liq. To‘rtinchi prinsip – bola haqidagi fanni amaliy jihatdan ahamiyatli qilish. Pedologiya o‘zining bir qator afzalliklari va kamchiliklariga ega edi.

Asosiy adabiyotlar

1. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
2. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
3. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
4. Jdan A.N. Istorya psixologii. M.: MDU, 1990.
5. Marsinkovskaya T.V. Istorya psixologii. M., 2002.
6. Yakunin V.A. Istorya psixologii: Uchebnoye posbiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.
7. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
8. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
9. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
10. Xayrullayev M.M. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O’zbekiston, 1995.
11. Xrestomatiya po obshchey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
12. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO “Xarvest”, 2003.-528 s.

Qo’shimcha adabiyotlar

15. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.

7-Mavzu. Eksperimental psixologiyaning vujudga kelishi va qo'llanish sohalari.

Ma'ruza rejasi.

1. Fransuz sotsiologik maktabi. 1920- 30- yillarda Rossiyada psixologiyaning rivojlanishi.
2. Psixologiya tashkiliy asoslarining mustaxkamlanishi (50-- 80-yillar).
3. 90 yillar psixologiyasi rivojlanishidagi muxim tendensiyalar.

Psixologiyada empirik ishlar qanchalik muvaffaqiyat bilan rivojlanib borgan bo'lsa, psixologiya doirasida o'rganiladigan hodisalar maydoni qanchalik kengayib borgan bo'lsa, psixologiyaning ongni tushuntirishdagi ojizligi yaqol namoyon bo'lib bordi. Yangi biologiyadagi yirik muvaffaqiyatlar organizmning hayotiy funksiyalari, jumladan psixik funksiyalarga nisbatan qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Idrok va xotira, ko'nikma va tafakkur, ustanovka va hissiyotlar eni hayotiy vaziyatlarda oranzmn qurollantiradigan instrumentlarga aylandi. Yangi biologiya psixikani o'rganishni rivojlanish nuqtai nazaridan olib borishga yo'naltirdi. Bu bilan introspektiv tahlil uchun mumkin bo'limgan ob'ektlarni bilish zonasini radikal ravishda kengayib bordi.

Psixologiyaning predmeti va metodlari haqidagi birlamchi tasavvurlarning emirilishi aniq bo'lib qoldi. Psixologiyaning kategorial apparati ham chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Uning asosiy bloklari haqida eslatib o'tamiz: psixik obraz, psixik xatti-harakat, psixik munosabatlар, motiv, shaxs. Ilmiy psixologiya boshlanishida eslatib o'tamiz, psixikaning birlamchi elementi sezgilar hisoblanardi.

SHu narsa isbotlandiki, psixik obrazlar – geshtaltlardan iboratligi nemis psixologlari tomonidan belgilab berildi. SHu tariqa geshtaltpsixologiya yuzaga keldi. Psixik harakatga kelsak, uning kategorial mavqeい o'zgardi. Ilgari u sub'ektning ichki, ma'naviy aktlari qatoriga kiritilar edi. Organizm va muhit o'rtaisdagi munosabatlarni o'rganishda ob'ektiv metodlarni qo'llash muvaffaqiyatlari psixika sohasi tashqi tana harakatini ham o'z ichiga olishini isbotlab berdi. Uni psixologiya predmetiga kiritgan kuchli psixologik maktab ham vujudga keldi. Bu yo'lni tanlagan "bixevoirizm" maktabi ham yuzaga keldi. Psixologiyada ochilgan yana bir soha ongga birlamchi emas, ikkilamchi ahamiyatni berdi. Z.Freyd¹⁷ tomonidan psixoanaliz yo'naliishiga asos solindi, mazkur maktab namoyandalari psixik hayotni ongsizlik mayllari (motivlar) boshqaradi, u xulqni harakatga keltiradi va shaxsning murakkab dinamikasi tuzilmasini belgilab beradi deb hisobladi.

Fransuz tadqiqotchilari odamlar o'rtasidagi psixik munosabatlarni tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratdilar. Bir qator nemis psixologlari ishlarida shaxsning qadriyatlar tizimiga kiritilishi mavzusi markaziy bo'lib qoldi. Dunyoviy psixologik fikr tarixida alohida novatorlik rolini xulqning madaniyat aossida yuzaga kelishi haqidagi g'oya egalladi.

SHu tariqa turli maktablar yuzaga kela boshladi, ulardan har biri kategoriyalarning butun markaziga obraz yoki harakatni, motiv yoki shaxsni qo'ydi. Bu esa o'z navbatida har bir maktabga o'ziga xos profil berdi.

Bo'yusinuvchilik tunkstyasini berish psixologiyaning on-omiga qarama-qarsini yo'nansmalar – maktablarga bo'linib ketishiga olib keldi. Ana shu manzara psixologiyada inqirozga olib keldi.

¹⁷ David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: Worth Publishers, 2013. – P. 5

Biroq turli maktablar o‘rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelmaganida psixologiya ham rivojlanib ketmas edi. Biz bilamizki har qanday inqiroz rivojlanishga olib kelishi mumkin. Psixologiya tarixida ham shunday hodisa yuz berdi. 20-asrning boshlarida dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridagi turli universitetlarda o‘nlab eksperimental psixologiya laboratoriyalari ish olib borardi. AQSHning o‘zida bunday laboratoriylar 40 dan ortiq edi. Ularning tadqiqot mavzulari turlicha – sezgilar tahlili, psixofiziqa, psixometriya, assotsiativ eksperiment va x.k. edi. Ishlar juda izchillik bilan amalga oshirildi, biroq ahamiyatli yangi faktlar va g‘oyalar yuzaga kelmadi.

V.Djems shu narsaga e’tibor qaratdiki, mavjud bo‘lgan tajribalarning ko‘pchiligidagi natijalar harakatlarga mos kelmaydi. Lekin “Umumiyy psixologiya arxiv” jurnalida bir nechta maqolalar yoritildi, mazkur maqolalar ichida O.Kyulpe raxbarligidagi yosh olimlar guruhining ishlari ahamiyatga molik edi. O.Kyulpe Vyursburg psixologik maktabi asoschisi bo‘lib, Vundtdan ta’lim oladi, keyinchalik uning yordamchisi bo‘lib ishlaydi. Keyinchalik Vyursburgdag‘i laboratoriyanı boshqarayotib, u o‘z ustoziga qarshi chiqadi. Vyursburg maktabining muhim muvaffaqiyatlaridan biri shundaki tafakkurni o‘rganish psixologik konturga ega bo‘la boshladı. Avvallari tafakkur qonunlari – individual ongda bajariladigan mantiq qonunlari deb baholanardi. Vyursburg maktabi vakillari psixologik tafakkurga ustanovkani (motivatsion o‘zgarish), vazifani (maqsad) va undan kelib chiquvchi determinatsiyalashgan tendensiyalarni kiritdi. Narsiss Ax eksperimentda Kyulpening tekshiriluvchi topshiriqni bajarishga avvaldan tayyorgarlik ko‘rishi haqidagi taxminini isbotladi. Bunday avvaldan tayyorgarlik ko‘rishi u “determinatsiyalashgan tendensiya yoki “ong ustanovkasi” deb atadi. So‘nggi termin paradoksal tarzda jarangladi, chunki

Keyinchalik Ax ongning aloxida nosensor mazmunini anglanganlik termini bilan izoxladi. Karl Byuler Vyursburg maktabi eksperimental amliyotiga yangi yo‘nalishni olib kirdi, bu esa Vundt tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Metodika shundan iborat ediki, tekshiriluvchi oldiga murakkab vazifa qo‘yilgan edi va u xronoskopdan foydalanmasdan turib uning ongida qaror qabul qilish jarayonida nima yuz berayotganini aytib berishi kerak edi. 20-asr Amerika psixologiyasi qiyofasini

belgilab bergen yana bir yo‘nalish bixevoirizmdir. Mazkur yo‘nalish psixologiya predmetini ong emas, xulq tashkil qilishini e’tirof etadi. Bu yo‘nalish pionerlaridan bo‘lgan E.Torndayk¹⁸ 1898 yilda o‘zining “Hayvonlar intellekti. Hayvonlardagi assotsiativ jarayonlarni eksperimental tadqiq etish” nomli doktorlik dissertatsiyasini taqdim etdi. Bixevoirizmning nazariy liderlaridan biri Dj.Uotson¹⁹ “Psixologiya bixevoirist nuqtai nazarida” nomli maqolasini e’lon qiladi. Bixevoirizmning shiori xulqning organizmning tashqi va ichki stimullarga nisbatan reaksiyalar tizimi sifatida baholanishi bo‘lib qoladi. Pozitivism ta’siri ostida Uotson shuni isbotladiki, bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan narsalar va xodisalar haqqoniyidir. SHuning uchun uning rejasiga ko‘ra butun xulq-atvorni jismonif qo‘zg‘atuvchilarining organizmga ta’siri va uning reaksiyalari o‘rtasidagi munosabatlar bilan tushuntirish mumkin. SHu tariqa bixevoirizm uchun ramziy belgi hisoblangan stimul



1-RASM

Лев Выгодский

¹⁸ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Edward Lee Thorndike 354-bet

¹⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Watson’s education 382-bet


– reaksiya formulasi vujudga keldi. Unga ko‘ra xox fiziologik bo‘lsin, xox psixik jarayonlar ana shu formula asosida yuz beradi. Xulqda yagona realliklar tanadagi reaksiyalarning turli shakllari deb e’tirof etilgan. Barcha reaksiyalarni, intellektual yoki emotsiyalarni boshqarish mumkin. Psixik rivojlanish o‘rganishga bog‘liq .

Sobiq sovet psixologiyasi rivojlanishi. Sobiq sovet tuzumidan keyingi davrda psixologiya taraqqiyoti

Aleksey Alekseevich Uxtomskiy (1875-1942) – rus fiziologi, ham fiziologiya, ham psixologiya eng muhim kategoriyalardan biri bo‘lmish dominanta tushunchasini kiritdi (1-rasm). Bu tushuncha organizmdagi xulqni tizimli ravishda, fiziologik va psixologik holatlar uyg‘unligida tushunish imkoniyatini berdi.

Lev Semenovich Vygotskiy¹ (1896-1934) – madaniy tarixiy rivojlanish konsepsiyasini ilgari surdi. U reaksiyalarga alohida e’tibor berar ekan, eng muhimi insondagi nutq reaksiyasi deb baholadi. Nutq tana harakatidir, biroq boshqa tana harakatlaridan farqli o’laroq, shaxs ongiga yangi o‘lchovlarni berishini ta’kidlab o’tadi. Birinchidan nutq muomala jarayonida amalga oshadi, demak u boshdan bosh ijtimoiydir. Ikkinchidan unda doim psixik jabha bor, u so‘zning ma’nosidir. Uchinchidan so‘z sub’ektdan mustaqil ravishda madaniyat elementi sifatida mavjud bo‘la oladi. SHunday qilib nutqli reaksiyada tana, ijtimoiylik (kommunikativlik), ma’noviy va tarixiy-madaniylik mujassamlashgan. Mana 4 ta koordinatalar tizimida (individ, muomala, ma’no, madaniya)da Vigotskiy inson psixik hayotining har qanday fenomenini tushuntirib berishga intiladi.

Belgi (so‘z) – «psixologik qurol», uning vositasida ong quriladi. Uning xususiyati shundaki muomala mehnat qurollari bilan taqozo qilinadi. Ular tashqi tabiatni ham, insonni ham o‘zgartiradi. Vygotskiy eksperimental tarzda shuni isbotladiki bolalardagi egotsentrik nutq reallikdan uzoqlashgan mayllar va bola fantaziyasiga borib taqalmaydi. U amaliy harakatlar tashkilotchisidir. O‘z o‘zi bilan fikr yuritib bola harakatni rejalashtiradi. «Мышление и речь» (1934) asarida Vygotskiy, eksperimental tadqiqotlarga tayangan holda bolalarda tushunchalarning rivojlanishini tadqiq etdi. Vygotskiy fikricha faqatgina rivojlanishdan oldin keladigan ta’lim yaxshi natija beradi. U rivojlanishning yaqin zonasini” terminin kiritadi. Bu tushncha ostida bola kattalar raxbarligi ostida mustaqil echa oladigan masalalar darajalari o‘rtasidagi tarqoqlik tushuniladi. O‘qitish shunga o‘xhash zonani yuzaga keltirib o‘z ketidan rivojlanishga olib keladi.



Sergey Leonidovich Rubinshteyn o‘zining “Основы общей психологии” asarida ong va faoliyat birligi prinsipini ilgari surdi. Ongni faoliyat jarayoni bilan birlashtirib Rubinshteyn uning bu jarayonda qanday tarzda shakllanishini tushuntirib berdi. Bu konkret tadqiqotlar istqbolini tubdan o‘zgartirib yubordi. Insonning dunyo bilan murojaati to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita emas, balki uning bu dunyo ob’ektlari bilan real harakatlari vositasida amalga oshiriladi, degan g‘oya ongga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartirib yubordi. Uning tashqi predmetlarga emas, predmetli harakatlarga bog‘liqligi psixologiyaning muhim muammolaridan biriga aylandi (2-rasm).

Ong maqsadlar qo‘yib, sub’ekt faolligini reajalashtiradi va reallikni hisiy va aqliy



3-RASM

psixofiziologik fnuksiyalar. Faoliyat tuzilmasi komponentlariga motivatsion soha komponentlari mos keladi: motiv, maqsad, sharoit, shuningdek ong komponentlari – ma’no, ahamiyat, “hissiy to‘qima”. Ularni ajratib ko‘rib bo‘lmaydi.

obrazlarda aks ettiradi. Taxmin qilinadiki, ong tabiatи dastlab ijtimoiy, ijtimoiy munosabatlar orqali taqozo qilingandir. Bu munosabatlar davrdan davrga o‘tish bilan o‘zgarar ekan, unda ong tarixan o‘zgaruvchan maxsuldir. Hamma narsa inson psixikasida uning faoliyatida amalga oshirilishi haqidagi g‘oya **Aleksey Nikolaevich Leontev** (1903-1979) tomonidan ham rivojlantiriladi. Dastlab u Vigotskiy yo‘lidan boradi. Keyinchalik esa Basvoning faoliyat morfologiyasi haqidagi g‘oyaligiga yuksak baho beradi. U faoliyati tashkil etilishi va darajalarda o‘zgarishi borasidagi o‘z sxemasini taklif etadi: ya’ni bu jarayon faoliyat hayvonot dunyosi evolyusiyasi, kishilik jamiyati tarixi, shuningdek insonning individual rivojlanishida yuz beradi. («Проблемы развития психики», 1959).

Leontev fikricha, faoliyat – alohida butunlik. U o‘z ichiga tuzilmaviy komponentlarni oladi: faoliyat, haraktalar, operatsiyalar,



Lomov Boris Fedorovich ²⁰(1927-1989)

– umumiy, injenerlik, kognitiv psixologiya, ta’lim psixologiyasi, muomala psixologiyasi sohalari mutaxassis, psixologiya fanlari doktori, professor. 1972-1989 yillarda Psixologiya instituti direktori lavozimida ishlagan, “Psixologicheskiy jurnal” asoschisi va bosh muxarriri (3-rasm). B.G.Ananев bilan birga Leningrad universitetida psixologiya fakultetini ochadi, bir necha yillar mobaynida dekan vazifasida xizmat qiladi. Uning ishlarining ko‘philigi umumpsixologik muammolarni o‘rganishga qaratilgan. U muomala psixologiyasi bo‘yicha («Общение и познание» 1984) juda ko‘p g‘oyalarni ilgari suradi. Lomov injenerlik psixologiyasi asoschilaridan biri. U psixologiya fanining metodologik-nazariy muammolariga alohida e’tibor qaratadi., jumladan psixologiyaning kategorial apparatini tahlil qilishga, psixologik bilimlar ichki birligi va tuzilish tizimini olib berishga, uning xolatlari va rivojlanish tendensiyalariga, psixologik nazariyalarni qurish yo‘llarini aniqlashga, psixologiyada nazariya, eksperiment va amaliyot

²⁰ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 369-bet

o‘zaro aloqadorligini tadqiq etishga va x.k.

Asmolov Aleksandr Grigorevich (1949) - psixologiya metodlogiyasi va nazariyasi borasidagi mutaxassis. A.N.Leontev va A.R.Luriya shogirdi. Uning tadqiqot va tashkilotchilik ishlari faqatgina pedagogik g‘oyalarni ta’lim sohasiga olib kirishdan emas, amaliyotchi psixologlar tayyorlashga va psixologik xizmatni tashkil etishga qaratildi

CHet el psixologiyasi rivojlanishining bugungi xolati

Har bir shaxs o‘z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta’sirlarning ob’ekti hisoblanadi. (E.G‘.G‘oziev 2002) SHaxsnинг xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o‘zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda aloqadorlik, shaxsnинг psixologik tuzilishini tashkil etadi. Afsuski, biz ba’zan inson haqida fikr yuritganimizda sog‘liq, kasallik va uchinchisi sog‘liqqa ham, kasallika ham qo‘shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to‘g‘ri keladi.

S.Xoll (1940) o‘zining rekapitulyasiya nazariyasida o‘smirlik yoshi insoniyat rivojlanish tarixining romantik epoxasiga to‘g‘ri kelib, bolalik bilan kattalik orasidagi bosqich ekanligini ta’kidlaydi. U o‘smirning xarakterida paradoksallik va ambivalentlik holatlarini izohlab, ularning faoliyatlarida o‘ta faollik hukmronlik qilishiga e’tiborni qaratib, ularda shodlik o‘rnini qayg‘u, o‘ziga ishonchni tortinchoqlik, xudbinlikni altruizm, ma’naviy intiluvchanlikni past qo‘zg‘aluvchanlik, muloqotmandlik istagini pismiqlik va hokazolar tezkor o‘rin almashishi bilan ifodalanishini, o‘zini o‘zi anglash krizisi bilan bog‘laydi. YA’ni, uni engib o‘tish «individuallikni his etish»ga sabab bo‘lishini isbotlaydi.

Amerikalik psixolog A.Gezell (1880-1861) S.Xoll kabi rivojlanishning biologik modeliga asoslanadi va bunda yangilanish, integratsiya va muvozanat o‘rin almashadi, deb hisoblaydi. “O‘sish” va “rivojlanish” Gezell uchun sinonim hisoblanadi va u xulq-atvor usulining progressiv differensiatsiya va integratsiya jarayonini bildiradi. Gezell madaniy ta’sirni tan olgan holda shuni ta’kidlaydiki, madaniyat yo‘naltiradi, lekin rivojlanish bosqichlari va tendensiyasini keltirib chiqarmaydi. Individning o‘qitilishi va madaniyatga qo‘shilishi qanchalik muhim bo‘lmasin, u hech qachon etilish ta’siridan o‘zib keta olmaydi.

A.Gezellni qanday qilib rivojlanish jarayoni va shaxslilik xususiyatlari individning xulq-atvorida aks etadi, degan savol qiziqtiradi. Turli yoshdagи bolalarning xulq-atvorini kuzatib, u o‘smir taraqqiyoti bosqichlari va sikllarining umumlashgan bayonini yaratadi. Bu bayonda u har bir bosqich uchun normal deb hisoblangan xulq-atvorni xronologik ketma-ketlikda tasvirlaydi. Gezell nazariyasi asosan biologik yo‘natriliganlik xususiyatiga ega bo‘lishi bilan birga, unda etilish jarayoni xulq-atvor xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyasining vujudga kelishi ketma-ketligini aniqlab beruvchi biologik va genetik omillar birgalikda boshqaradi deb taxmin qilinadi. A.Gezell shu narsani tushuntirishga intiladiki, o‘smir taraqqiyoti bosqichlarini ifodalab turib, u kuzatiladigan o‘zgarishlar asta-sekinlik bilan shakllanishi va bir-birini to‘ldirishini e’tirof etadi. Uning fikricha, individ taraqqiyoti ketma-ket emas, spiralsimon yo‘nalishda ro‘y beradi. Gezell nazariyasi juda ko‘p psixologlar tomonidan qattiq tanqidga uchradi.

Insonning bioijtimoiy tabiatini tan olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, asosiy determinant – tashqi ijtimoiy muhit, tashqi holatlardir. Biroq yosh rivojlanishiga etilishning ichki jarayonlari ma'lum ma'noda ta'sir etar ekan, bu narsa faqat organizmning emas, balki psixika va individ rivojlanish bosqichlari, yosh davrlarining bosqichma-bosqich almashinuv qonuniyatlariga, shu zaylda har bir yosh bosqichida psixik rivojlanish xususiyatlari qonuniyatlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

O'smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan yana biri nemis faylasufi va psixologi E. SHpranger (1924) o'smirlik yoshi qizlarda 14-21 va o'g'il bolalarda 13-19 yoshlarga davom etib, uning birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to'g'ri kelib, bu yoshda bolalikdan qutulish sodir bo'lishini izohladidi. U o'zining o'smirlik yoshining madaniy-psixologik konsepsiyasida rivojlanishning uch tipi mavjudligini ajratadi. Birinchi tip- keskin, krizisli, shiddatli kechadi va o'smir o'zining ikkinchi tug'ulishini his etadi, oqibatda yangi «Men» vujudga keladi. Ikkinchi tip- o'smirning kattalik hayotida bosiqlik, sokinlik, uzlucksizlik sezilib, uning shaxsiyatida chuqur va jiddiy o'zgarishlar ro'y bermaydi. Uchinchi tip- bu rivojlanish jarayonining shunday bosqichiki, o'smir o'z ichki kechinmalari va krizislarini matonat bilan engib, o'zini o'zi faol anglagan holda shakllantiradi hamda tarbiyalaydi. SHunday qilib, E.SHpranger mazkur yoshning tashkil etuvchilari o'z individualligini anglash, refleksiyaning vujudga kelishi, «Men»ning ochilishi ekanligini isbotlab, o'smirning dunyoqarashlarini, qadriyatlarini, o'zini o'zi anglashini o'rganishning sistematik tadaqqaotiga asos soldi

O'smirlik yoshini pubertat davr deb atagan SH. Byuler ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ochib berilgan. Pubertat davr – bu biologik o'sish davri bo'lib, jinsiy etilish o'z nihoyasiga etadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi. U pubertat davrdan oldingi bosqichni insonning bolalik, ushbu davrning tugashini o'spirinlik deb ataydi. SH.Byuler pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O'smirning etilishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar undagi o'zidan o'zi qoniqishi va hotirjamlikini izdan chiqarib, uni o'zga jinsn qidirishga undaydi. Biologik etilish uni izlanuvchan qilib qo'yadi va uning «Men»ida «U» bilan uchrashish istagi tug'iladi. YA'ni SH.Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, jismoniy etilish o'g'il bolalarda o'rtacha 14-16 yosh, qiz bolalarda esa 13-15 yoshlarga to'g'ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shahar va qishloq, alohida mamlakatlar va hatto iqlimning ta'siri hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10-11 yosh, yuqori chegarasi 18 yosh bo'lishi kerak.. Ushbu davrning negativ xususiyatlari sifatida o'smirning urishqoqligi, injiqligini ifodalovchi jismoniy va ruhiy toliqish, notinch, oson qo'zg'aluvchan holat, yuqori sezuvchanlik hamda qo'zg'aluvchanlikni ko'rsatadi. O'smirlearning o'zlaridan qoniqmasliklari asta atrofdagilaridan ham qoniqmasliklariga sabab bo'lib, boshqacha tus intilishlari bilan uyg'unlashadi va turli salbiy fikrlar shakllanishiga olib keladi. YA'ni, o'smirlarda «sust melanxoliya» va «tajovuzkor himoya» shakllanadi. Mazkur davrning ijobiy xususiyatlaridan biri tarzida qandaydir go'zallikning anglangan kechinmalarini, muhabbat tuyg'usini misol qilib keltiradi. Demak, SH.Byulerning ilmiy urinishlari pubertat yoshni organik etilish bilan psixik rivojlanishning uyg'unlikda kechishini ko'rsatishga qaratilgandir.

SH. Byulerning izlanishlariga tayangan G.Getser pubertat davr salbiy bosqichining 13-16 yoshlari oralig‘ida o‘y-hayollarga berilish, yaqin do‘siga ehtiyoj sezish va «do‘sni izlash» ga urinishda ijobiy bosqichga o‘sib o‘tishini ta’kidlaydi.

E. SHprangerning izdoshlaridan biri V.SHtern o‘smirlilik yoshini shaxs shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydi. V.SHtern «Do‘stingni ko‘rsatsang, kimliginni aytaman» degan naqlga «Hayotingdagi eng qimmatli kechinmangni ayt, men sening kimligingni aytaman» degan ma’no berib, uni izohlashga harakat qiladi. CHunki o‘smir hayotining mazmunini tashkil etuvchi kechinmalar ta’sirida uning shaxsi shakllanadi. Qimmatga ega kechinmalar esa uning shaxsini tiplarga ajratishga yordam beradi. SHu tariqa V.SHtern oltita tipni ajratadi: a) nazariy tip – shaxsning barcha intilishlari borliqni anglashga qaratiladi; b) estetik tip – bunday shaxs uchun ob’ektiv borliqni anglash yot bo‘lib, u individual tanlanganlikka ega; v) iqtisodchi tip – bunday shaxsning sa’i-harakatlaridagi shiori qilib, ko‘proq foyda (natija)ga qaratilgan bo‘ladi; g) ijtimoiy tip – hayotining mazmunini muhabbat, muomala va o‘zgalar uchun yashash tashkil etadi; d) siyosiy tip – bundaylar uchun mansabga intilish, ta’sir o‘tkazish va buyruq berish xosdir; e) diniy tip-har qanday voqeani ham hayotning va dunyoning mohiyati bilan haspo‘splashga urinadi.

V. SHternning fikricha, o‘tish davri nafaqat ideal va intilishlar, hislar hamda fikrlarning yo‘nalganligi, balki harakatlarning o‘ziga xos siymosi (obrazi) hamdir. U buni bolalikning o‘yinlari bilan kattalikning mas’uliyatli faoliyati oralig‘idagi holat deb atab, unga «jiddiy o‘yinlar» deb nom beradi. Jiddiy o‘yinlar o‘smirning maqsad qo‘yishiga, turli qiziqishlarga o‘z munosabatini bildirishi va qiyosiy tahlil qilishidagi ikkilanishlarini bartaraf etishida hamda uni irodasining mustahkamlanishiga imkon berishini ta’kidlaydi.

L.S.Vigotskiy o‘tish davriga xos qiziqishlar muammosini atroficha o‘rganib, buni «o‘smirning psixologik rivojlanishidagi muammolarni hal qilishning yagona kalitidir» deb izohlaydi. O‘smirlilik yoshi eski qiziqishlarning buzilishi va yo‘qolishi hamda yangi biologik asosga ega yangi qiziqishlarning vujudga kelishi davri hisoblanib, unda bir necha yorqin qiziqishlar mavjud bo‘lib, ularni dominant qiziqishlar deb atadi. Ular: *egotsentrik*, ya’ni o‘z shaxsiga qiziqish, *kelajagiga qiziqish*, ya’ni bugungi kuni emas, balki uzoqni ko‘ra bilishiga qaratilgan ustanovka; *zo‘r berish* (harakat), ya’ni qaysarlikka asoslangan irodaviy zo‘riqish, tarbiya usullariga qarshilik ko‘rsatishdan iborat salbiy harakatlar, *xayolparastlik*, ya’ni o‘smirning sarguzashtlarga boy, turli qahramonliklar ko‘rsatishga intilishlari bilan bog‘liq tavakkalchiligidan iborat. J.Piaje kabi L.S.Vigotskiy ham o‘smirlilik davridagi tafakkur rivojlanishi tushunchalarni o‘zlashtirish asosiga kechishini va o‘smir tafakkuri sub’ektiv shaklga ega bo‘lib, o‘zgalardan «sir» tutiladigan intim jabhalarga qaratilishini hamda o‘smir shaxsining ichki o‘zgarishlarini qamrab oluvchi refleksiya rivojlanishi, ya’ni o‘zligini anglashdek *yangilanishlar* ro‘y berishini qayd etadi. A.Freyd go‘daklik davrinining psixik jarayonlari haqidagi bilimlarimiz, o‘smirlarni tahlil qilish mobaynida va ularni kuzatish orqali qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarga asoslanganligini ta’kidlaydi.

SHuningdek, analitik terapiya uchun «tashlandiq» ob’ektga mazkur usullarni qo‘llash eng samaralidir. O‘smir emotSIONAL kurashga qat’iy kirishadi, bu kurashda undan juda tezkorlik va qat’iylik talab etiladi. Uning libidosi yangi ob’ekt izlashda davom etadi. Bunday o‘smirlarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, «erkin» libido haqidagi tahlilimiz davolash vaqtida aynan: a) ularni hamkorlik qilmasliklari uchun intilishlarida, analitiklar bilan munosabatlariga e’tiborsizlik; b) hafta

davomidagi seanslar sonini qisqartirishga urinishlarida; v) besabab seanslarga kelmaslik; g) umuman davolanishdan bosh tortishlarida o‘z aksini topadi. Ba’zan analitikning o‘zi o‘smir uchun qidirilayotgan «ob’ektga» aylanashi mumkin. Davolashning qanday natija bilan yakunlashidan qat’i nazar analitik o‘smirlilik yoshining o‘ziga xos qiyinchiliklarini: a) uning ehtiyojlari qondirilishini kechiktirib bo‘lmasligi; b) frustratsiya holatini ko‘tara olmasligi va har qanday aloqani tushunish hamda bilish negizi deb emas, balki bunga istaklarning ro‘yobga chiqish usuli deb qarashi; v) o‘smir psixikasining ongsizlik mohiyatini, buzilishlar vujudga kelishining mexanizmlari hamda buzilishning tipik strukturasini yanada chuqurroq o‘rganish zaruratligidan dalolat beradi.

Yana bir ilmiy konsepsiya J.Piajega¹ tegishli bo‘lib, u 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha oxirgi fundamental detsentratsiya, ya’ni bolaning idrok maydonini o‘z ob’ektidan qutulishi va unda dunyoni qanday o‘zgartirish kerak, degan nuqtai nazarning boshlanishi bilan tushuntirishga harakat qiladi. Uningcha, bu yoshda hayotiy dastur (gipodeduktiv, ya’ni tafakkur yordamida) tuzilib, shaxs shakllanishi tugallanadi. O‘z rejasи va dasturiga ega o‘smir kattalar jamiyatiga qadam qo‘yadi, unda turli to‘sqliarga uchraydi, ma’lum ma’noda ularga bog‘lanadi va ijtimoiylashish jarayonini boshdan kechiradi. SHu tariqa o‘smirlilik yoshi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda *yangi yo‘nalish* boshlandi. Bu L.S.Vigotskiy va uning maktabi bilan bog‘liq ishlardir.

Asosiy adabiyotlar

19. Myers David G., DeWall C. Nathan “Psychology” Worth Publishers. USA, 2015.
20. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley “An introduction to the History of Psychology”. More Buying Choices. USA, 2013.
21. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma’ruzalar matni). T. 2003.
22. Jdan A.N. Istoriya psixologii. M.: MDU, 1990.
23. Marsinkovskaya T.V. Istoriya psixologii. M., 2002.
24. Yakunin V.A. Istoriya psixologii: Uchebnoye posbiye. –SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

Qo’shimcha adabiyotlar

16. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.
17. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
18. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
19. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
20. Xayrullayev M.M. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O’zbekiston, 1995.
21. Xrestomatiya po obshchey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
22. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO “Xarvest”, 2003.-528 s.

8-Mavzu. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi..

Ma'ruza rejasi.

1. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.
2. Psixologiyaning ishlab chiqarish, meditsina va pedagogika sohalariga tatbiq etilishi.
3. O'zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.

Mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishi E.G'.G'oziev, M.Voxidov, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.SHoumarov nomlari bilan bog'liq. SH.R.Baratov ma'lumotlariga ko'ra (1997) O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intixosi asrimizning 30-yillardagi pedalogiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Toshkent Davlat universiteti xozirgi O'zMU psixologiya kafedrasi xodimlari E.G'oziev, Z.R.Dushabaev, V.Tokarevalar raxbarligida keng qamrovli ilmiy-amaliy va ijtimoiy psixologik tadqiqsotlar amalga oshirildi. Toshkent Davlat Pedagogika instituti xozirgi TDPU psixologiya kafedrasi mudiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi M.G.Davletshin rahbarlidagi olimlar guruhi olib borgan tadqiqsotlar ham O'zbekistonda psixologik bilimlar rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. SHuningdek G'.B.SHoumarov, N.A.Sog'inov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova rahbarligida ham olib borilgan ilmiy tadqiqt ishlari psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ishlab chiqarish, tibbiyot va pedagogika sohasida psixologik xizmatni yo'lga qo'yish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo'g'inalrida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to'la-to'kis yuzaga chiqarish masalasi O'zbekiston psixologlari oldiga psixologik xizmat bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas'uliyatini yukladi:

1. Aholi o'rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish.
2. Har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologiya tamoyillarga moslashtirilgan eng ilg'or testlar, usullar aosida o'rghanish, taxlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish.
3. Xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo'naltirishda ma'muriy tashkilotlarga ko'maklashish, barcha bo'g'indagi rahbar xodimlarning mamlakatdagi ijtimoy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik savoldxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish.
4. Qator yo'nalishdagi aholiga sotsial-psixologik xizmat ko'rsatishni ta'minlash, xususan individual psixologik xizmat, ishlab chiqarish va mexna jamoalariga psixologik xizmat, oilaviy konsuldtatsiya, xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmat, ichki ishlar tizimida psixologik xizmat, sport va sog'lomlashtirish tizimlaridagi psixologik xizmat, tibbiyot tizimidagi psixologik xizmat, transport tizimidagi psixologik xizmat.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning tatbiq etilishini 2 bosqich asosida talqin qilish mumkin. 1 bosqich – maktablarda bevosita psixologlar tomonidan psixologik xizmatning tashkil etilishi. O'tgan asrning 80-yillardanoq Toshkent shahrining talaygina

maktablarida ish boshlangan va o'sha paytlarning o'zidayoq psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomoni barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin psixologik xizmatni keng targ'ib etish uchun maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi. 90*yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari namoyon bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun o'ziga xos zamin yaratildi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining keyingi bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi.

Toshkent Davlat Pedagogika instituti xozirgi TDPU psixologiya kafedrasи mudiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi M.G.Davletshin rahbarligidagi olimlar guruhi olib borgan tadqiqotlar ham O'zbekistonda psixologik bilimlar rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. SHuningdek G'.B.SHoumarov, N.A.Sog'inov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova rahbarligida ham olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi M.Voxidov, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, R.Gaynuddinov, M.M.Mamatov, B.R.Qodirov V.M.Karimova, V.Tokareva, G'.B.SHoumarov va ularning ba'zi izdoshlari nomi bilan bog'liq sanaladi. SH.R.Baratov ma'lumotlariga ko'ra (1997) O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intixosi asrimizning 30-yillaridagi pedalogiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Toshkent Davlat universiteti xozirgi O'zMU psixologiya kafedrasи xodimlari E.G'oziev, Z.R.Dushabaev, V.Tokarevalar raxbarligida keng qamrovli ilmiy-amaliy va ijtimoiy psixologik tadqiqotlar amalga oshirildi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ishlab chiqarish, tibbiyot va pedagogika sohasida psixologik xizmatni yo'lda qo'yish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo'g'irlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to'la-to'kis yuzaga chiqarish masalasi O'zbekiston psixologlari oldiga psixologik xizmat bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas'uliyatini yukladi:

-Aholi o'rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish.

-Har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimi O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologiya tamoyillarga moslashtirilgan eng ilg'or testlar, usullar aosida o'rganish, taxlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish.

-Xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo'naltirishda ma'muriy tashkilotlarga ko'maklashish, barcha bo'g'indagi rahbar xodimlarning mamlakatdagi ijtimoy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik savoldxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish.

-Qator yo'nalishdagi aholiga sotsial-psixologik xizmat ko'rsatishni ta'minlash, xususan individual psixologik xizmat, ishlab chiqarish va mexna jamoalariga psixologik xizmat, oilaviy konsuldtatsiya, xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmat, ichki ishlар tizimida psixologik xizmat, sport va sog'lomlashtirish tizimlaridagi psixologik xizmat, tibbiyot tizimidagi psixologik xizmat, transport tizimidagi psixologik xizmat.

-Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning tatbiq etilishini 2 bosqich asosida talqin qilish mumkin. 1 bosqich – maktablarda bevosita psixologlar tomonidan psixologik xizmatning tashkil etilishi. O'tgan asrning 80-yillaridanoq Toshkent shahrining talaygina

maktablarida ish boshlangan va o'sha paytlarning o'zidayoq psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomoni barchaga ma'qul va manzur bo'lgan.

Lekin psixologik xizmatni keng targ'ib etish uchun maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyatchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi.

90-yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari namoyon bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun o'ziga xos zamin yaratildi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining keyingi bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi.

O'zbekiston tarixida psixologik fikrlar rivojlanishining bir necha davr va bosqichlari ajratilgan. Birinchi davr - sovet tuzumigacha (1917-yilgacha) qator bosqichlarni qamrab oladi. Islomgacha bo'lgan bosqich (VII asr oxirlarigacha), bu bosqichda psixologik bilimlar zaroastrizm, moniylik va mazdakiylik ta'limotlari ta'siri ostida shakllandi va ular folklor xalq og'zaki ijodi orqali. qayd qilingan. Islomiy bosqich (VII asr oxiri – XIX asr oxirlari), inson "qalb kuchi"ni o'rganish, olloh bilan birlashishga intilishi, "yaratuvchi" aqli bilan, tabiiy-ilmiy va materialistic yo'nalganligi bn xarakterlanuvchi farqlanadi. Ma'lum bir me'yorda bu bilimlar arab falsafasi fikri va islomning yangi din doktrinasi ta'sirida kelib chiqqan (imoillik, mo'tazillik, so'fiylik). Ma'rifatchilik bosqich (XIX asr oxiri – XXasr boshlari) O'zbekistonda psixologik fikrlar o'zlashtirilishi g'arbiy yevropa madaniyati ilmiy yutuqlaridan farq qiladi. Ikkinci davr (1917 yildan hozrgi vaqtgacha) – sovet davri, ikki bosqichni o'z ichiga oladi (urushgacha (1940yilgacha) va urushdan keyingi (1945yildan keyin). Urushgacha bo'lgan bosqich dialektik-materialistik psixologiya asoslari ishlari bilan xarakterlanadi, psixologik izlanishlar pedagogik amaliy vazifalarni yechish uchun mo'ljallanganligi psixologiyaning mustaqil tadqiqotlarini tasdiqlashga asoslangan. Urushdan keyingi bosqich ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamenti kengaytirish bilan bog'liq bo'lib, tashkil qilingan va kadrli asoslarni mustaxkamlash hamda O'zbekistonda tashkiliy psixologiyani mustaqil ilmiy tartibga keltirish ahamiyatga ega edi.

Psixologiya O'zbekistonda ma'lum bir ishlarni olib bormoqda hamda psixologiya ilmiga o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Universitetlarda, pedagogika institutlarida, O'zbekiston ilmiy Akademiyasida, O'zbekiston jismoniy tarbiya institutida, pedagogika bilim yurtlarida ko'plab psixologlar ish olib bormoqda.

Umumiyligi yosh davrlar, pedagogik hamda bolalar psixologiyasi, mehnat psixologiyasi va boshqa psixologiya fanining tarmoqlarining muammolarini bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa oxirgi o'n yillik ustida ilmiy izlanishlar shiddat bilan olib borilmoqda.

Oxirgi vaqtarda rahbar va hodimlarning ishdagi kollektivning sotsial-psixologik muammolarini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar rivojlantirilmoqda. Psixologlar tomonidan insonlar bilan ishlashni takomillashtirish, kollektivda normal psixologik muhitni yaratish, yosh xodimlarning individual psixologik xususiyatlariga qarab munosabatda bo'lish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oxirgi yillarda respublikamiz psixologlari maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha katta ishlar olib borishmoqda. Asosiy izlanishlar shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlanish yo'li bilan ta'lim sohasidagi shaxslarga qaratilgan. Aktiv muloqot, o'zlikni anglash, qobiliyatlarni, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar o'tkazilmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan kasbga yo'naltirish bo'yicha yoshlar o'rtasidagi ishlar O'zbekistondagi psixologik izlanishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu

muammo bo'yicha respublika pedagogika oliy o'quv yurtining o'qtuvchi va aspirantlari kollektivi e'tibori qaratilgan. monografiyalar hamda o'quv uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Bu muammolar bo'yicha izlanishlar O'zbekiston Milliy Universiteti, Nizomiy nomidagi Pedagogika instituti, O'zbekiston jismoniy tarbiya institutlaridagi maxsus tashkil etilgan labaratoriylarida olib borilmoqda.

Respublikada kasbiy tayyorgarlik va kasbga yo'naltirish psixologiya maktablari tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos kasblarini hamda buning asosida kasbiy muhim sifat va xususiyatlarni bu kasblar uchun kerak bo'lган obyektiv xususiyatlarini o'rganish va tavsiflash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu muammolar bo'yicha izlanishlar keyinchalik ham olib boriladi.

Texnika ishlariga oid, differensial, sotsial psixologiya, sport psixologiyasi, psixologiya tarixi muammolari bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Maktablarda ta'limni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega differensial psixologiyaning muammolarini B.Qodirov o'rganmoqda.

Alovida sport turlariga ixtisoslashtirilgan psixologik tuzilishlarga, sport mahoratini yuksaltirish jarayonida talabalarning psixik holatlari; bo'lajak o'qituvchining kasbiy xususiyatlari shakllanishida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulatlari ta'siriga bag'ishlangan sport psixologiyasi bo'yicha ishlar amalga oshirildi (Z.G.Gapparov)

O'zbekistonda psixologiyaning sotsial ehtiyojlarini, odatiy va real imkoniyatlarni (rivojlanish bosqichi) hisobga olgan holda, eng zarur va kelajagi bor psixologik izlanish yo'nalishlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: etnopsixologiya, oila psixologiyasi, sotsial psixologiya, diniy psixologiya.

Psixofiziologiya ham juda dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Professor B.R.Qodirovning izlanishlari bosh miya funksiyasi tizimi hamda uning eslab qolish, fikrlash, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda o'zini tartibga solish va refleksdagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

Neyropsixologiya bo'yicha dastlabki ishlar amalga oshirildi. Masalan, bosh miya suyagi tepe qismi zararlanganda miya qismining taktil sezgilarning shakli o'rganildi.

Butun mamlakat psixologlarining faoliyati shaxsning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan.

O'zbekiston Milliy Universiteti va Nizomiy nomidagi Toshkent shahar pedagogika institutlarining psixologiya kafedralarida umumiy, yosh davrlari, pedagogik psixologiya, bolalar va sotsial psixologiyaning turli muammolarini o'rganayotgan aspirantlar ta'lim olishmoqda.

O'zbek tilidagi psixologik adabiyotlar nashri katta o'rinn egallamoqda (original hamda tarjima qilingan). Har yili Nizomiy nomidagi Toshkent shahar pedagogika institutining, O'zbekiston Milliy Universiteti va O'zbekiston ilmiy izlanish institutlari kafedralarining ilmiy ishlari majmuasi nashr qilinmoqda.

Muhim muammolarga, xususan oxirgi vaqlarda – maktablarni isloh qilishga bag'ishlangan respublika ilmiy konferensiylari va ilmiy kengashlarni o'tkazish an'anaga aylandi.

Filialning faoliyati O'zbekiston Respublikasi hamda Rossiya Federatsiyasi qonunlari doirasida amalga oshirilmoqda.

Filialga abituriyentlarni qabul qilish hamda bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish M.V.Lomonosov nomidagi MDU tomonidan qo'yiladigan talablar, tartib va muddatlarga binoan amalga oshiriladi.

Filialda ta'lim berish M.V.Lomonosov nomidagi MDU tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasi va dasturlari asosida olib boriladi.

M.V.Lomonosov nomidagi MDUni bitirganligi haqidagi filial bitiruvchilariga taqdim etiladigan diplom O'zbekiston respublikasida oliy ta'lim hujjati sifatida tan olinadi.

Filial faoliyatining maqsadi va predmeti:

5. Barcha kvalifikatsion darajadagi va akademik darajalardagi, chuqur professional bilimlarni hamda o'zining ilm sohasi doirasidagi masalalarini yuqori madaniyat va fuqarolar faolligi asosida o'quv jarayoni va ilmiy izlanishlarga bog'lovchi mutaxasislarni tayyorlash.

6. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda M.V.Lomonosov nomidagi MDUning ilmiy hamda ma'orifga oid potensialni qo'llash yo'li bilan akademik va universitetlarning fanlarini integratsiya qilish. Tabiiy-ilmiy tartibga o'quvchilarning qiziqishini tarbiyalash orqali iqtidorli yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalg qilish,

7. Insoniyat sivilizatsiyasini va rivojlanishini inson bilimini oshirish maqsadida dunyo ilmiy izlanishlarida faol qatnashish yuqori malakali ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash, Mutaxasislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash (shu jumladan, aspirantura va doktarantura orqali) ilmiy bilimlarni tarqatish va propaganda qilish, madaniy-ma'rifiy faoliyat dunyo xalqlarining madaniyatini o'zaro boyitish jarayoni.

8. Yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash va ilmiy tadqiqot faoliyatini amalgalash oshirish maqsadida O'zbekiston, Rossiya va boshqa chet davlatlar jamoalari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish

9. Darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar va boshqa adabiyotlarni tayyorlash

10. Professor o'quvchilarni yangi ta'lim va mutaxasisliklar yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

11. O'quv va ilmiy adabiyotlarni nashr qilish uchun matbuotchilik faoliyatini tashkil qilish

M.G.Davletshin maktabi

M.G. Davletshin 1923-yil 11-noyabrda Orenburg shahrida tug'ildi. Toshkent shahrida o'rta maktabni tamomlagandan so'ng undagi tashkilotchilik ishiga bo'lган qobiliyati tufayli rayon kamsamol qo'mitasi yo'llanmasi asosida aviatsiya zavodiga ishga yo'llandi. Slesorning shogirdilikdan mehnat faoliyatini boshlab u qisqa muddat ichida kadrlar tayyorlash bo'limining usta instruktori darajasigacha o'sdi.

1944yildan 1954-yilgacha Davletshin komsomol, kasaba uyushmasi va partiya organlarida ishlab, zavodning komsoliga kotibning yordamchisidan O'zbekiston komsomoli markaziy komitetining kadrlar bo'yicha sekretari lavozimlarida ishladi.

1957-yil u "5-7sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va 1960-yil psixologiya kafedrasи dotsenti ilmiy unvoniga tayinlandi.

Nizomiy nomidagi pedagogika institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori sifatida 11 yil bo'la turib M.G.Davletshin institutda o'quv tarbiya jarayonini takommilashtirish bo'yicha kata ishlarni amalga oshirdi.

1971-yil M.G.Davletshin "maktab o'quvchilarining texnik qobiliyati psixologiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Texnik qobiliyatlar strukturasi va o'qish va tarbiya jarayonida ularni shakllantirish shartlari o'sha yilda ko'p yillik izlanishlari natijasi monografiya sifatida chop etildi.

Professor Davletshin yosh psixologlarva tadqiqotchilarga maslahat berish bo'yicha katta ish olib bordi.

Yoshlarni mehnat ta'limida va kasbga yo'naltirish psixologiyasi muammolarini yaratishga professor Davletshin ko'p e'tibor qaratgan. 1979-yilda A.G.Kovalyov va V.A.Kruttetski hammualliflida M.G.Davletshinning "Qobiliyatlar tashhisi" (o'zbek tilida) monografiyasi chiqdi.

Unda qobiliyatlar muammolari nazariyasi, ularning strukturasi va ularning tashhisi masalalari – adabiyot, matematika va texnika qobiliyatları misolida yoritilgan.

Umuman olganda professor Davletshin tomonidan psixologik limning turli masalalari bo'yicha 70dan ortiq ilmiy ishi nashr qilingan.

Psixologiya fakulteti ("Psixologiya" mutaxasisligi) o'qish muddati 5 yil. Xalq xo'jaligi tizimida, ta'limda, sog'liqni saqlashda, boshqarishda aholiga ijtimoiy yordam masalalarini majmuali hal qilishda qatnashuvchi mutaxasislarni tayyorlash maqsadi hisoblanadi. Ular quyidagi kasb faoliyatini amalga oshirishlari mumkin: tashxis qilish va korreksiya; ekspertlik va maslahat; o'quv tarbiya; ilmiy tadqiqot; madaniy-ma'rifiy.

Yoshlarni tarbiyalash, oliy pedagogic ta'limni rivojlantirish, malakali kadrlarni tayyorlashdagi xizmatlari uchun M.G.Davletshin "Hurmat Belgisi" ordeni, "Fidoyi mehnati uchun", "1941-1945 yillardagi ulug' vatan urushi g'alabasining 30 yilligi" medallari bilan, SSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Ishdag'i a'lo yutuqlari uchun" nishoni, "O'ZSSR xalq ta'limi a'lochisi" nishoni O'zSSR oliy soveti prezidentining bir nechta faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Pedagogic ilm va kadrlarni tayyorlashni rivojlantirishga qo'shgan hissalari uchun professor Davletshinga 1975-yil "O'zSSRda hizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni berildi.

O'zbekiston psixologiya fani asoschisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin

II. BOB. O'zbeksitonda sport psixologiyasi fani va uning tarixi

Bugungi psixologik adabiyotlar sport psixologiyasi rivojlanishining tarixiy jarayonlarini hanuzgacha to'la -to'kis qamrab olmagan. Umuman olganda, sport psixologiyasi fanining paydo bo'lishiga Germaniya, AQSH, Italiya, Kanada, Rossiya va boshqa davlatlar olimlarining ilmiy ishlari sabab bo'lgan. Ayniqsa bu XIX asr oxiri va XX boshlarida, ya'ni psixologiya falsafadan ajralib chiqib, mustaqil eksperimental fan maqomini olgandan so'ng, yanada yaqqol sezila boshladи. Ayni shu davrlarda inson xulq-atvori va harakatlariga oid bir qator ilmiy ishlar paydo bo'ldi. (Vundt, Torndayk, Uotson, Byuxner va boshqalar.)

"Sport psixologiyasi" tushunchasi va bu sohadagi bilimlar ilk marotaba bugungi olimpiya o'ynilarining asoschisi P'er de Kubertenning maqolalarida, 1900-yilda paydo bo'ldi. O'shanda u "Sport psixologiyasi" nomli maqola e'lon qilgan bo'lib, mazkur ish asosan falsafiy xarakterga ega edi. 1913-yilda Lozanna shahrida P'er de Kubertenning tashabbusi bilan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan sport psixologiyasi bo'yicha maxsus kongress chaqirildi va shu tariqa ushbu soha "dunyoga keldi" hamda o'z maqomini oldi.

Biroq, u paytlarda hali sport psixologiyasi muammolarining haqiqiy ma'nodagi ilmiy ishlamalari deyarli yo'q edi. Qolaversa, sport psixologiyasini hali ilmiy bilimlar sohasidagi maxsus yo'nalish sifatida tan olishmagan edi. Bu avvalo, sport o'sha davrlarda hali yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'liq edi. Sport psixologiyasining muammolari faqatgina ayrim jamoat arboblari va olimlarning qiziqishlari manbai edi, xolos. SHunday bo'lishiga qaramasdan, P'er de Kubertenning tashabbusi va Lozanna Kongressi sport psixologiyasi muammolarini o'rganishda ma'lum darajadagi turki bo'ldi. Natijada XX asrning 20-yillaridan keyinoq bu masalalar bo'yicha Fransiya, Germaniya, AQSH, Rossiya va boshqa mamlakatlarda faol ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlandi.

Masalan, Fransiyada sportchining ijtimoiy psixologiyasi sohasida bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Mazkur ishlarning mualliflari YU. Karrara, M. Bernard va M. Buellar edi. YU. Segal esa nevrozlarni hamda ularni davolash vositalarini o'rgangan.

Psixolog Riu rahbarligi ostida "Sport psixopedagogikasi" nomli to'plam e'lon qilingan. Germaniyada bu borada olib borilgan ishlarni Nyumannning "Sport va shaxs" (1957), "Sportda motivatsiya" (1971) kabi asarlarining paydo bo'lishi bilan belgilash mumkin. Italiyada esa sport psixologiyasi sohasidagi eng katta ishlar sport psixologiyasi xalqaro jamiyatining birinchi Prezidenti F. Antonelli tomonidan amalga oshirilgan. Uning mualliflida "Psixologiya va sport psixologiyasi" nomli kitob nashr etilgan bo'lib (1960), unda muallifning uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalari umumlashtirilgan.

Sport psixologiyasi fan sifatida eng taraqqiy topgan mamlakatlardan biri AQSH da jadal rivojlandi. Amerikalik olimlar X. Frenelik, A. Sleyter-Xemmel va boshqalar sport psixologiyasi fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning tadqiqotlari markaziga sportchi shaxsi qo'yilgan edi. Asosiy usullari shaxs ko'rsatkichlari hamda testlardan iborat bo'lган.

AQSHning eng mashhur sport psixologi B. Krettidir. U 30 dan ortiq shu sohaga oid kitobning muallifidir. Uning kitoblari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinib, sport murabbiylari tomonidan, MDH mamlakatlari olimlari, jumladan O'zbekiston olimlari tomonidan ham amaliyotda keng qo'llaniladi.

Kanadada Persival (Universitet direktori) ning ishlari ayniqsa mashhur bo'lib, ular asosan sport sotsiologiyasi sohasini o'rganishga yo'naltirilgandir. U sportchilarning sport murabbiylariga bergen baholarini o'rgangan.

SHarqiy Evropa mamlakatlarida MDHda qo'lga kiritilgan sport natijalarining keng ta'siri ostida sport psixologiyasi nihoyatda rivojlandi. Zero, bu mamlakatlarda sport psixologiyasi davlat darajasida taraqqiy ettirildi.

Sobiq CHexoslovakiyada psixolog olimlar motivatsiya muammolarini ishlab chiqqan bo'lib, ushbu masala sporchi va sport murabbiylarini psixodiagnostikadan o'tkazish usullariga asoslangan edi. (Vanek, Goshek, Svoboda, Motsak va boshqalar)

Bolgariyadagi olimlar sportchini psixologik jihatdan tayyorlash va guruqlar psixologiyasi bilan bog'liq muammolarni o'rgandilar. (F. Genov, Genova va boshqalar).

Rus olimlari I.M.Sechenov, P.F.Lesgaftlar o'z ilmiy ishlarida inson psixikasining rivojlanishiga uning harakatlari nihoyatda muhim ta'sir ko'rsatishini isbotladilar. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati qonuniyatлari haqidagi ta'limoti sport psixologiyasi muammolarini hal etishda keng qo'llanildi. MDHda sport psixologiyasiga oid dastlabki tadqiqotlar professor P.A. Rudik tomonidan amalga oshirilgan edi. Uning tadqiqotlari mashqlarning tahliliga va harakat reaksiyalarini o'rganishga bag'ishlangan edi. 1958 yilda u jismoniy tarbiya institutlari uchun psixologiya va sport psixologiyasi bo'yicha ilk darslikni yozdi.

Professor A.S.Puni musobaqalarning sportchi psixikasiga ta'sirini o'rgandi. SHuningdek MDHda sport psixologiyasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan ilk qaldirg'ochlar sifatida T. Strelsov, G. M. Gagaeva, O.A. Chernikova va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin.

1913-yildan so‘ng, 1965-yilda Rimda sport psixologiyasi Kongressi qaytadan tashkil etildi. Ushbu kongressda Sport psixologlarining xalqaro jamiyati (SPXJ) tashkil topdi va u doimiy faoliyat yurituvchi organini, shuningdek jamiyat Prezidenti - F. Antonellini sayladi. (XOK—Xalqaro olimpiya komiteti prezidenti).

SPXJ o‘z faoliyatini jadal rivojlantirib bordi. Rimda bo‘lib o‘tgan kongressdan so‘ng yana bir qator kongresslar bo‘lib o‘tdi: 1968-yilda AQSHda, 1973-yilda Ispaniyada, 1977-yilda CHexiyada, 1985-yilda SHvetsariyada, 1986-yilda Fransiyada va hokazo.

1970-yildan buyon SPXJning rasmiy organi bo‘lgan “Sport psixologiyasi” xalqaro jurnali nashr etib kelinmoqda.

SPXJ ning tashkil etilishi sport psixologlarining mintaqaviy birlashmalarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 1967-yilda sport psixologlarining SHimoliy Amerika jamiyati tashkil etildi, 1969-yilda esa sport psixologlarining Evropa Assotsiatsiyasi FEPSAK, SHilling T. (SHvetsariya), Kunat (Germaniya) va boshqalar prezidentligida tashkil topdi. SHundan so‘ng turli yillarda Kanada, YAponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Braziliya, Avstriya, Misr va boshqa mamlakatlarda ham sport psixologiyasining milliy jamiyatlari tuzildi. 1987-yilda MDH sport psixologlari federatsiyasi tashkil etilib, uning Prezidenti qilib A.V. Rodionov saylandi, mazkur kitob muallifi Z.G. Gapparov esa ushbu Federatsiya Prezidiumining a‘zoligiga saylandi.

Sport psixologiyasi haqidagi ma’ruzalarni XVIII va XX Xalqaro psixologik kongresslar: 1972-yil Myunxenda bo‘lib o‘tgan ilmiy Olimpiya Kongressi, 1979-yil Moskvada bo‘lib o‘tgan “Bugungi jamiyatdagi sport” mavzuidagi Xalqaro Kongress dasturlarida ham ko‘rish mumkin. SHuningdek, sport psixologiyasi bo‘yicha Kyoln shahrida 1991 yil, Moskva shahrida 1992-yil, Rostov-Don shahrida 1994-yil va nihoyat yana Moskva shahrida 1995-yillarda Xalqaro Kongresslar o‘tkazildi va o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekistonda sport psixologiyasi fan sifatida dastlab O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining pedagogika va psixologiya kafedrasi bazasida dunyoga keldi. Mazkur kafedraning mudiri dotsent L.E. Lebedyanskaya bo‘lib, u ushbu lavozimda 1962-yildan 1972 yilga qadar samarali faoliyat yuritdi. Ana shu yillar mobaynida u “Sport psixologiyasi”ning metodologik asosini ishlab chiqdi, aynan shu muallif tomonidan o‘sha paytlarda institut talabalariga mazkur kurs bo‘vicha beriladigan darslarning barcha o‘quv huijalari ishlab chiqildi.

Sport psixologiyasining fan sifatida oyoqqa turishida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti pedagogika va psixologiya kafedrasi bilan Moskva shahridagi Markaziy Davlat jismoniy tarbiya institutning psixologiya kafedrasi o‘rtasidagi aloqalari juda katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha paytlarda mazkur institutni jismoniy tarbiya Oliy O‘quv yurtlarida sport psixologiyasini o‘quv predmeti sifatida o‘qitilishining asoschisi, professor P.A. Rudik boshqarar edi.

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida umumiy va sport psixologiyasini o‘qitishning farqli tomoni shunda ediki, bu erda ma’ruzaviy mashg‘ulotlardan so‘ng seminar mashg‘ulotlari emas, balki laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazilar edi. Ushbu mashg‘ulotlarda talabalarining ma’ruzalardan olgan bilimlari talabalarining o‘zlarida tajribalar o‘tkazish yo‘li bilan mustahkamlanardi. Tadqiqotlarning natijalari yo‘riqnomalar bo‘yicha ishlab chiqilar, so‘ngra xulosalar chiqarilardi va talabalar tajriba yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar asosida o‘zlar mustaqil xulosalarga kelardilar (o‘quv mashg‘ulotni shu tarzda tashkil etish an’anasi hozirgacha saqlanib kelmoqda).

SHunday qilib, institutdagi laboratoriya mashg‘ulotlari ko‘proq ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borish xarakterini kasb etardi. Laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni Moskva va Leningrad jismoniy tarbiya institutlari psixologiya kafedralari tomonidan nashr etilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida doimiy ravishda yangilanib borilgan.

Sport psixologiyasi fanidan o‘zbek tilida dotsent N.A.YAx’yarov va Z.T.Sayitmetovalar dars bergenlar.

Bugungi kunda sport psixologiyasi fani pedagogik universitetlarning jismoniy tarbiya fakultetlari o‘quv dasturlariga kiritilgan, shuningdek u Milliy universitetning psixologiya fakultetida ham o‘qitilmoqda. 2003 yilda Milliy universitetda “Sport psixologiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura ochildi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining doimiy yangilanib borilishi ushbu mashg‘ulotlar uchun zurur psixologik apparaturalarni, uskuna va jihozlarni yaratishni taqazo etadi. SHuni ta’kidlash joizki, psixologiya fani uchun zarur ilmiy asbob -uskuna va jihozlarni ishlab chiqish va tayyorlash bo‘yicha hech qanday maxsus tashkilotlar bo‘lman va hozirgacha ham yo‘q. 1966 yilda O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining pedagogika va psixologiya kafedrasida Moskva jismoniy tarbiya insitutining bitiruvchisi bo‘lgan o‘qituvchi Z.G.Gapparov tomonidan ilk psixologiya o‘quv ilmiy laboratoriysi tashkil etildi. Ushbu laboratoriyaning yaratilishi kafedraning sport psixologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faoliyatining boshlanishiga yordam berdi. Dastlabki tadqiqotlar asosan psixofiziologik xarakterga ega bo‘lib, ular qilichbozlarning harakatlaridagi assimmetriyalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan edi. Ushbu mavzu Z.G.Gapparov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga L.E.Lebedyanskaya rahbarlik qilgan (1966-1969 yillar).

O‘zbekistonlik sport psixologlari ilk bor 1967 yilda xorijda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanda o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan ishtirok etdilar. O‘sanda Tbilisi shahrida sport psixologiyasi bo‘yicha Umumittifoq konferensiyasi bo‘lib o‘tgandi. Ushbu anjumanda xamyurtlarimiz tomonidan 2 ta ma’ruza qilingan (L.E.Lebedyanskaya, Z.G.Gapparovlar tomonidan) ushbu ma’ruzalar “Qilichbozlardagi harakat assimetriyalari” va “Funksional assimetriya qilichbozlarning sport tayyorgarligi holatining mezoni sifatida” deb nomlangan.

Ana shunday muvaffaqiyatlari chiqishlardan so‘ng O‘zbekistonlik psixologlar keyingi yillarda sport psixologiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan barcha konferensiya, simpozium, seminarlarda muntazam qatnashib bordilar. Ular tomonidan “Qilichbozlardagi oraliqni his qilishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish” (Z.G.Gapparov), “Ot sportida ixtisoslashgan idroklarni o‘rganish” (dotsent L.E.Lebedyanskaya) mavzulari xar tomonlama tadqiq etilgan. 1969 – 1972 yillar mobaynida psixolog Z.G.Gapparov Moskvadagi markaziy jismoniy tarbiya instituti (GSOLIFK)ning professor P.A.Rudik rahbarlik qilayotgan psixologiya kafedrasining maqsadli aspiranturasida tahsil oldi. Professor O.A.CHernikova rahbarligi ostida Z.G.Gapparov tomonidan “Qilichbozlardagi oraliqni his qilishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish” mavzusida dissertatsiya yozilib muvaffaqiyatlari tarzda himoya qilindi. Mazkur nomzodlik dissertatsiyasi xozirgi kunga qadar O‘zbekistondagi “Sport psixologiyasi” fani bo‘yicha yagona hisoblanadi.

Moskva tajribasi kafedra psixologlarining o‘quv - ilmiy ishlarining yanada takomillashtirilishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining pedagogika va psixologiya kafedrasi yaqin xorijdagi davlatlar, xususan, Sankt-Peterburg, Omsk, Kyoln shaharlaridagi jismoniy tarbiya institutlarining psixologiya kafedralari bilan o‘z aloqalarini yanada kengaytirdi.

Mazkur kafedra olis xorij mamlakatlarida ham sport psixologiyasi bo‘yicha bilimlarning tarqatilishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi (dotsent Z.G.Gapparov 1983-1987 yillar davomida Jazoirning institutlarida “Psixologiya” va “Sport psixologiyasi” fanlaridan dars berdi).

1980 yilda kafedradagi olimlar safi yangi o‘qituvchilar bilan to‘ldirildi. Ayni shu yillarda kafedraga M.A. Tursunova, N.I.Ivanova va 1988 yilda esa T.P.Predibaylolar kelib qo‘shildilar

ularning kelishi bilan kefadradagi ilmiy tadqiqot ishlarning mavzu doirasi yanada kengaydi. Dotsent Z.G.Gapparov raxbarligi ostida ular tomonidan ixtisoslashgan idroklarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Mazkur tadqiqotlarning natijalari Kaunas shahrida bo‘lib o‘tgan sport psixologiyasi bo‘yicha xalqaro konferensiyada ma’ruza qilindi.

M.A.Tursunova ushu anjumanda “VeloSPORTda ixtisoslashgan idroklarni o‘rganish masalasiga doir” mavzuida, N.I.Ivanova esa “Suzish sportchilarida vaqtini his etish bo‘yicha ixtisoslashgan idroklarni o‘rganish” mavzusida ma’ruza qildilar.

Sobiq ittifoqda sport psixologiyasi hali alohida fan sifatida ajralib chiqmagan, shuningdek uning alohida boshqaruv organlari ham yo‘q edi. 1987-yilda Moskvadagi markaziy davlat jismoniy tarbiya instituti (GSOLIFK) qoshida simpozium o‘tkazilib, unda sobiq ittifoqning barcha Respublikalaridan psixolog mutaxassislar ishtirok etdilar. Simpoziumning ta’sis majlisida sobiq ittifoqda sport psixologlari federatsiyasi tashkil etildi va, O‘zbekiston psixologlari vakili Z.G.Gapparov esa mazkur majlisda qatnashdi.

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida magistratura va aspirantura ochilishi munosabati bilan zamonaviy talablarga javob beradigan psixologiya laboratoriyasini tashkil etish masalasi kun tartibiga keskin qo‘yildi, zero sport psixologiyasi fani magistrantlar o‘quv dasturiga kiritilgan edi. 2003 yilda institut rektoratining yordamida pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri dotsent Z.G.Gapparov tomonidan psixologiya laboratoriyasi tashkil etildi va zarur uskuna va jihozlar, zamonaviy informatsion-texnologiyalar bilan ta’mindandi.

Magistrantlar, aspirantlar, kafedraning professor o‘qituvchilarining o‘quv va ilmiy faoliyatlarini ta’minlash maqsadida kafedrada psixologik tadqiqotlar uchun PSI-10 kompyuter dasturi (kompyuterlashtirgan psixodiagnostika usullari) ishlab chiqildi, shuningdek talabalar bilan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun kompyuter o‘quv dasturlari yaratildi (Z.G.Gapparov).

Laboratoriyaning tashkil etilishi xamda psixologik tadqiqotlar o‘tkazish uslublariga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi psixologiya fanining rivojlanish tarixida va uning sport faoliyatiga tatbiq etilishida muhim bosqich bo‘ldi. SHunday qilib laboratoriyanidan Respub-

likamizning har xil sport turlari bo‘yicha terma jamoalarini ilmiy ta’minlash maqsadida foydalаниlib, bunda kafedra o‘qituvchilaridan M.A.Tursunova, T.P.Predibaylo va Z.T.Sayitmetovalar faol ishtirok etdilar.

Olib borilgan psixologik tadqiqotlar talabalarning diplom ishlarida, magistrlik nomzodlik dissertatsiyalarida o‘z ifodasini topdi.

Psixologiya laboratoriyasi psixologik tadqiqotning yangi uslublari yaratilishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Xususan “FOSBERI” uslubi bilan balandlikka sakrashning ritm va sur’at strukturalarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi “RTS-PV” kompyuter dasturi, sinxron suzish musobaqaviy kompozitsiyalarining ritm va sur’atlari strukturalarini aniqlashga xizmat qiluvchi “SINXRO” dasturi hamda yangi o‘rganayotgan slalomist – eshkakchilarda xotirani rivojlantirishga mo‘ljallangan “SLALOMIST” dasturlarini alohida tilga olib o‘tish mumkin. Futbolchilarda taktik tayyorgarliklarni takomillashtirish maqsadida “TAKTIK” kompyuter dasturi ishlab chiqildi. Ushbu barcha kompyuter dasturlaridan magistrlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, shuningdek Respublikamizning terma jamoalari sportchilarining psixologik tayyorgarligini takomillashtirishda samarali foydalanildi. Mazkur barcha kompyuter dasturlarining muallifi dotsent Z.G.Gapparov bo‘ldi.

Respublikamiz terma jamoalarini 2008 yil Pekinda bo‘lib o‘tgan XXIX Olimpiada o‘ynlarida ishtirok etish uchun tayyorlash ham nihoyatda muhim voqeа bo‘ldi. O‘zbekiston

Respublikasi Hukumati Olimpiada ishtirokchilarining psixologik tayyorgarligiga juda katta e'tibor qaratdi.

2008 yilning 1-fevraldan 20-fevraliga qadar O'zbekistonning etakchi psixologlari Rossiya psixologlarining o'z terma jamoalarini qanday qilib psixologik tayyorgarliklarini ta'minlashlarini o'rghanish uchun Rossiya davlat jismoniy tarbiya, turizm va sport universitetiga (Moskva) va Jismoniy tarbiya Akademiyasiga (Sankt-Peterburg) xizmat safariga yuborildilar. O'sha yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi sport murabbiylari ishtirokida "YUqori sport natijalari uchun psixologik tayyorgarlik" mavzusida seminar o'tkazilib, unga rossiyalik etakchi psixolog, pedagogika fanlari doktori, professor A.V. Rodionov taklif etildi.

2009 yilning sentyabr oyida O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituning pedagogika va psixologiya kafedrasida "Sport psixologiyasi" ta'lim yo'nalishi ochildi va bu yo'nalish bo'yicha 21 nafar talaba qabul qilindi.

Asosiy adabiyotlar

25. Myers David G., DeWall C. Nathan "Psychology" Worth Publishers. USA, 2015.
26. B.R.Hergenhahn, Tracy Henley "An introduction to the History of Psychology". More Buying Choices. USA, 2013.
27. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma'ruzalar matni). T. 2003.
28. Jdan A.N. Istoriya psixologii. M.: MDU, 1990.
29. Marsinkovskaya T.V. Istoriya psixologii. M., 2002.
30. Yakunin V.A. Istoriya psixologii: Uchebnoye posbiye. -SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001. – 379 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

8. Psixologiya. Uchebnik. /Pod. Redaksiyey A.A.Krylova.-M.: PBOYuL M.L.Zaxarova, 2001.-584 s.
9. Sokolova Ye.Ye. Trinadsat dialogov o psixologii. - M., 1995.
10. Sunnatova R.I. Karimova V.M., Tadjibayeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent, 2000.
11. Fromm E. Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M. 2000 g.
12. Xayrullayev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent : O'zbekiston, 1995.
13. Krestomatiya po obshchey psixologii. Psixologiya pamyati? Pod. red. Yu. B. Gippenreyter, V, Ya. Romanova. M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 2001.
14. Yung K.G. Ocherki po analiticheskoy psixologii.-Mn.: OOO "Xarvest", 2003.-528 s.

1-Mavzu: Psixologiya tarixi fanining soha sifatida shakllanishi,predmeti, maqsad va vazifalari.

Reja

- 1. Psixologiya tarixi perdmeli va vazifalari.**
- 2. Psixologik bilimlarning yuzaga kelish shart-sharoitlari va rivojlanish qonuniyatatlari.**
- 3. Psixologiya fanining antik davrdagi rivojlanish tarixi.**
- 4. Psixologiya tarixi metodlari va manbalari.**

Psixologiya tarixi fani boshqa fanlar singari o‘z o‘tmishiga ega bo‘lib, inson psixikasi va uning paydo bo‘lishi haqidagi mumtoz nazariy ma’lumotlar tizimidan iboratdir.

Avvalombor, fanning maqsadi, predmeti, vazifalarini tushintirishda xronologik yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki xar bir davr psixologik qonuniyatlar va jarayonlarni tushintirishda qiziqarli va bahsbop fikr mulohazalarni qamrab oladi. Psixologiya tarixi fanining **predmeti** psixik voqelikni emas, uning haqidagi tasavvurlarning aniqlanish boqsichlarni o‘rganadi.

SHuning uchun fanning predmeti davrlashtirish asosida o‘ganiladi. Psixologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosи grekcha “psyche”-ruh, jon “logos”-ta’limot so‘zlarini anglatib, inson psixikasini tadqiq etuvchi fandir. Bundan farqli ravishda psixologiya tarixi o‘z predmetida fan haqidagi ilk qarashlardan hozirgi zamонави psixologiyagacha yaratilgan nazariyalar, ilmiy qarashlar, ilmiy tamoyillar, turli ta’limotlar va fikr psixologiya fani psixik hayat faktlari, mexanizmlarlar mazmunini yoritadi.

Asrlar mobaynida ruh, ong, xulq haqidagi tasavvurlar yuzaga kelgan va bir-biri bilan o‘rin almashib kelgan. Psixologiya tarixi ana shu o‘rin almashish manzarasini ifodalab beradi. Psixologiya tarixi fanining **vazifikasi** - psixika haqidagi ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi va keyingi taraqqiyotini tahlil qilishdan iboratdir.

Bizningcha, psixologiya tarixi fanining vazifalari quyidagilarda aks etadi:

- 1.Psixika haqidagi bilimlar rivojlanish qonuniyatlarini xronologik o‘rganish.
- 2.Fan taraqqiyotida psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ilmiy ochib berish.

3.Inson ruhiyati haqidagi dastlabki bilimlarning vujudga kelishi va voqe’likni idrok qilinishining miya mahsuli sifatida namoyon bo‘lishini tahlil etish.

4.Fanning vujudga kelishida shaxs va uning individual hayatda tutgan rolini o‘rganish. Bir so‘z bilan aytganda, psixologiya tarixi – bu fanning mantiqiy xotirasidir.

5.Psixologiya fanining butun bir masalalarini metodologik, ilmiy, haqqoniylar tarzda yoritishdan iborat.

Psixologiya fani **maqsadi** inson psixikasi rivojlanishining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish va fanning kelgusidagi rivojini psixologik manbalar bilan asoslashdir.

Antik davr yunon falsafasi qadimiy SHarq – Bobil va Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoyda paydo bo‘lgan diniy-falsafiy ta’limotlar ta’sirida, YUnionistonda yuksak rivojlangan quzdordik jamiyatining tarixiy, iqtisodiy siyosiy va madaniy-ma’naviy shart-sharoitlar asosida vujudga keldi. Miloddan ilgarigi VIII-VI asrlarda Kichik Osiyo, O‘rtalik dengizi qirg‘oqlaridagi shaharlar bilan yaqin SHarq, Kavkaz hamda G‘arb mamlakatlari xalqlari o‘rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy munosabatlardan juda ham avj oladi. Bu davrga kelib bu hududlarda qulchilik munosabatlari juda rivojlanadi. Natijada, quzdorlik jamiyatni YUnionistonda jadallik bilan taraqqiy eta boshlaydi. Ayniqsa, bu hududdagi Milet va Efes shaharlarida quzdorlik o‘zining yuqori bosqichiga erishadi. Oqibatda, bu shaharlar YUnion ilm-fani va falsafasining beshigiga aylanadi.

Animizm (lot. «anima» - ruh)

Ruh haqida afsonaviy tasavvurlar vujudga keladi. Har bir hissiy idrok qilinayotgan narsa o‘zining juftiga ega deb hisoblanadi.

Gilozizm – dunyoning umumiy jonliligi haqidagi ta’limot.

Bu davrda bir qancha maktablar vujudga keldi. Masalan Milet faylasuflari o‘z falsafiy qarashlarini tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan ifodalaydilar. Bu davrlarda falsafa va boshqa bilim sohalari ham bir-birlaridan ajralmagan holda bir butun shaklda «falsafa» nomi bilan atalar edi.

Ilk yunon faylasuflari Milet shahri falsafiy mакtab vakillari: Fales, Anaksimandr va Anaksimenlardir. Ular o‘zlarining falsafiy asarlarida kosmologizmga oid, ya’ni astronomik bilimlarga oid o‘z qarashlarini ifodalab berdilar. Ulardan qadimiy YUnionistonda «etti donishmandning biri» hisoblanib, shuhrat qozongan Fales Bobilliklarning astronomik tassavvurlarini rivojlanadir, qadimgi yunon astronomiyasiga asos soladi. U oldindan quyosh tutilishini aytishga doir o‘zining hisoblash usulini ishlab chiqadi va ta’riflab beradi. Anaksimandr esa quyosh soatini ixtiro qilib, gnomon nomli asbob yasaydi va ko‘k-osmon gumbazi sferasi doirasi modelini tuzadi. U birinchi bo‘lib YUnionistonning geografik xaritasini chizadi.

Demokritning bilish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. U hissiy bilishning shakli-hissiy sezishni bilishning birinchi bosqichi, deb hissiy bilishni «qorong‘i bilish», deydi. Uningcha, chin bilish, haqiqatni bilish, insonning aqliy faoliyati orqali bilishi tufayli yuzaga keladi. Aql bilan bilish bu eng yuqori, eng chuqur, eng to‘g‘ri bilishdir. deydi Demokrit. U inson bilishda, shubhasiz, hissiy va aqliy bilishni birlikda olib qaraydi.

«Donolik uch holatda: yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash va yaxshi ishda ko‘rinadi»-deb yozadi Demokrit. «Fikrlashga vaqt emas, balki tarbiya va tabiat o‘rgatadi», -deydi u.

Qadimgi yunon faylasuflaridan juda katta mavqega ega bo‘lgan faylasuf Aflatundir. Aflatun (mil. avv.427-347 y.y.) Afina oqsuyak zadoganlaridan bo‘lib, avval Kratildan, so‘ng Suqrotdan ta’lim oladi va mashhur faylasuf bo‘lib etishadi. Aflatun o‘zining ob‘ektiv idealistik falsafiy tizimini ishlab chiqadi. U «Pir», «Fedon», «Teetete», «Davlat», «Parmenid», «Sofist» nomli asarlari va dialoglarida o‘z dunyoqarashini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazarlarini bayon qiladi.

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1-topshiriq. Ushbu jadvalni to‘ldiring.

<i>Psixologyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti er.av.IV asrdan XIX:asr o‘rtalarigacha</i>			
Nº	Asrlar	Fan tegishli bo‘lgan yutuqlari	Hozirda ushbu yutuqlarning mavjudligi
1.	Eramizgacha VI asrdan eramizning V asrigacha		
2.	V-VIII asrlar		
3.	XIV-XVI asrlar		
4.	XVII-XIX asrlar		
5.	XIX asrning boshidan XIX asrning 60-yillari		

2-topshiriq. Ushbu jadvalni to‘ldiring.

<i>Psixologyaning mustaqil fan sifatidagi taraqqiyoti XIX:asr 60 yillaridan to hozirgacha</i>			
Nº	Asrlar	Fan tegishli bo‘lgan yutuqlari	Hozirda ushbu yutuqlarning mavjudligi
1.	XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning		

	oxirlarigacha		
2.	XX asrning 10 va 30-yillari o‘rtalarida		
3.	XX asrning 20 - 30 yillari		
4.	XX asrning 30-yillar oxiri 50- yillari		
5.	XX asrning 60-yillardan shu davrgacha		

Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar:

6. Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth
7. Jdan A.N. Istorija psixologii. – M., 1995.
8. Istorija psixologii: teksty. – M., 1992.
9. YAroshevskiy M.G. Istorija psixologii. – M., 1997.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
9. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.
10. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 vydayushchixsya psixologov mira. – M., 1995.
11. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
12. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
13. SHuls D., SHuls S. Istorija sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
14. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
15. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

17. <http://www.psychology.net.ru/>
18. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz)
19. [www.Sportivniy_psixolog.ru;](http://www.Sportivniy_psixolog.ru)
20. [www.Psixologiya_sporta;](http://www.Psixologiya_sporta)
21. [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
22. www.childpsy.ru
23. www.edu.uz
24. www.flogiston.ru
25. www.pedagog.uz

2-mavzu. Qadimgi Sharqda psixologik talimotlarning yuzaga kelishi

Reja:

- 1. Abu Nasr Forobiyning psixologiya tarixiga qo'shgan hissasi.**
- 2. Abu Ali ibn Sino meditsina psixologiyasi otasi sifatida.**
- 3. Abu Rayxon Beruniyning psixologiya tarixidagi o'rni.**
- 4. Abu Hamid Muxammad ibn Muxammad al-G'azolliyning psixologik qarashlari.**
- 5. O'rta va sharq mutafakkirlarning qarashlari (6-7 asrlar misolida).**

Abu Nasr Forobi O'rta Osiyoning emas, sharq olamining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining SHarqdagi eng yirik targ'ibotchisi va uning rivojiga hissa qo'shgan olimlardan biri, sharq Aristoteli U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olim bo'lib nom qozondi. U "Aql haqidagi risola", "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak", "Falsafa maktablari", "Logikaga kirish" kabi ko'plab risolalar yaratdi. Faylasuf – falsafaning eng muhim masalalari bo'yicha qator asarlarning muallifi sifatida shuhrat qozondi. U SHarqda qadim yunon falsafasi, ayniqsa, qadimgi dunyoning qomusiy olimi, psixologiya fanining otasi Aristotelning asarlarini o'rganish, ularga sharxlar yozish, g'oyalarini targ'ib etish va yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Aristotel "birinchi muallim" deb nom olgan bo'lsa, butun SHarqda Forobi "ikkinchi muallim" unvoniga sazovor bo'ldi. U insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. Forobiyning fikricha, mavjudotning eng buyuk va etuk mahsuli – bu insondir, u o'zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o'rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunadi. U mavjudotning yashash shakllari, olamni bilishning yo'l va vositalari, unda ilm-fanning o'mi va ahamiyati masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uningcha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ulishida mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va aqliy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari bilan muloqotda vujudga keladi. Uning aqli, fikri (tafakkuri), ruhiy yuksakligining eng etuk mahsuli bo'ladi va inson o'z bilimlarini, aqlini rivojlantirib, so'ngra mavjudotning ibtidosi, boshlanishi haqidagi ilmga etib boradi deb ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sino(980-1037)

SHarq tabobat ilmining sultonii, vrach, jamiyatshunos olim 980 yilda Buxoro viloyatining Afshona qishlog'ida tavallud topdi. Ibn Sino o'z hayot yo'li davomida tibbiyot, falsafa, psixologiya, matematika kabi fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Alloma olamning mavjudligi va insoniyatning yashash tarzini shuningdek, barcha organizmlarning kelib chiqishini o'zaro munosabalar, yani biridan ikkinchisiga o'tishini keng qamrovli o'rgandi. Undan bizgacha 280 dan ziyod asarlar meros bo'lib qolgan. Ulardan 50 tasi tibbiyotga, tabiat va gumanitar fanlarga oid 40 ta, musiqaga oid 3 ta risola, falsafa, mantiq, psixologiya, ahloq-odob va ijtimoiy-siyosiy muammolarga oid 185 ta asarlari qayd etiladi.

Ibn Sinoning fikricha, olam yaxlit murakkabliklar bilan bog'liqdir. Bu bog'liqliklarni har tomonlama tekshirish uchun uni zaruriyat, imkoniyat, voqe'lik va sababiyat tamoyillariga asoslanib o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Materiya eng sodda bo'laklarga bo'linmaydigan to'rtta shakl, ya'ni havo, o't, suv, tuproqdan iboratdir. Ularning o'zaro birikuvি natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi deb ta'kidlaydi. Bu moddiy narsalarning asosi bo'lgan havo, o't, suv, tuproq o'zgarmaydi ham, yo'qolmaydi ham. Materiya – harakat, vaqt, fazo bilan uzviy bog'liqdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

SHarq allomalaridan yana biri Abu Rayhon Beruniy ham, buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkur bo'lgan. U o'zining falsafiy fikrlarida Forobi va Ibn Sino kabi insonning ruhiy jarayonlar haqidagi qarashlarga e'tibor berdi. U ham ular kabi to'rtta narsani – suvni, olovni, havoni, erni moddiy olamning asosi deb ko'rsatadi.

Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G'ozzoliy (1058-1111)

Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G'ozzoliy yirik musulmon arab faylasufi va mashhur islom ilohiyotchisidir. U Tus shahrida kosib oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Muhammad Ibn Ahmad Tusdag'i o'zining kichik do'konida ip yigiruvchi, ya'ni g'azzolchilik bilan tirikchilik qiladi. Abu Hamid Muhammadning G'azzoliy taxallusi ham ayni shu otasining kasbidan olingan. Otasi Abu Hamidni o'qimishli inson bo'lishini juda xohlaydi. SHu sababli u o'z vafoti oldidan uy-joyini sotib, o'zining bir ahli soliho mutasavvuf do'stiga o'g'lining ilm olish uchun sarflashni vasiyat qiladi. Ota vasiyati amalga oshib, Abu Muhammad G'azzoliy butun islom dunyosi tan olgan benazir faylasuf, buyuk islom ilohiyotchi olimi bo'lib etishadi. U dastlabki ma'lumotni Nishopurda olib, so'ng uni Bag'dodda davom ettiradi. o'qishni tugatib, "Nizomiya" madrasasida islom huquqi – fiqhdan, mantiq va falsafadan dars beradi. So'ng mudarrislikdan voz kechib, 11 yil zohidlikka beriladi.

O'rta asr SHarq mutafakkirlarining qarashlari (VI-XVI asrlar misolida).

Bu davr mutafakkirlari islom dinining cheksiz hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiatini va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o'rni haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan farq qiladigan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarni ham ilgari suradilar. Bu bilan ular ilg'or falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadilar. Arab xalifaligiga qarashli hududlarda ilm-fanning taraqqiyoti bilan birga, erkin fikr qiluvchi, diniy aqidalardan etishib chiqadilar. Bu mutafakkirlar o'z qarashlari bilan O'rta asr SHarq falsafasiga asos soladilar. Ular o'z qarashlarining dunyoviyligi, o'z asarlarining aql-idrokli, o'qimishiligi, qadimgi yunon-rim falsafiy qarashlari bilan tanish bo'lgan, o'z kuchlari va bilimlariga qattiq ishongan kishilar bo'lishgan edi.

VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar o'z taraqqiyotining gullab yashnagan davrini kechirdi. Bu jarayonga O'rta va YAqin SHarq mamlakatlaridagi ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy ta'limotlar ham katta ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, o'sha davrlarda O'rta Osiyo, O'rta va YAqin SHarq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar bir-biri bilan bog'langan yaxlit jarayon sifatida rivojlandi. Unda qadariylar, murji'alar, mutazila va kalomdan iborat ratsionalistik va insonparvarlik yo'nalishidagi diniy-falsafiy oqimlar, tasavvufning oriflik ta'limoti tarafdarlari, "sof arab-musulmon falsafasi" - mashshoyunlar (Kindiy, YAh'yo ibn Adi, Nasriddin Tusiy, Ibn Bajja, Ibn Tufayl, Ibn Rushd), Demokritning empirik tabiatshunoslik falsafasi yo'nalishidagi tabiiyunlar (Jobir, Eronshahriy, Roziy, Beruniy, Abu-l-Barakot), amaliy siyosat, davlat va axloq falsafasi (Abu Hanifa, Abu Yusuf al-Hirojiy, Mavardiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Kaykovus, Nizomul-Mulk, Nasriddin Tusiy, Sa'diy, Hofiz), mantiqshunoslik va hozirgi semantik mantiq falsafasi yo'nalishidagi falsafa (Matta ibn Yunus, YUhanna binni Haylon, Forobiy, Abu Sulaymon Mantiqiy as-Sijjistoniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, hurufiyalar, Mir Said SHarif Jurjoniy), fan, falsafiy va diniy ta'limotlarni qiyosiy o'rganuvchilar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh Kotib Xorazmiy, Abdulkarim ash-SHaharastoniy, Bayhaqiy, Ibn Hallikon, Ibn abi Usaybi'a, al-Forisiy al-Fahriy) kabi oqimlar ta'siri katta bo'ldi.

1-topshiriq.

<i>Qadimgi sharq mutafakkirlarining psixologiya fani taraqqiyotidagi roli</i>				
No	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo'shgan hissasi	Qo'shimcha izoh
1.	Abu Nasr Forobiy			
2.	Abu Ali ibn Sino			
3.	Abu Rayxon Beruniy			
4.	Muxammad al-G'azolliy			

2-topshiriq.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining qarashlari (VI-XVI asrlar misolida)				
Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo‘shtgan hissasi	Qo‘srimcha izoh
1.	Yoqub Ibn Ishoq al-Kindiy (800-879)			
2.	Ar-Roziy (864-925)			
3.	Ibn Rushd (1126-1198)			

Foydalananish uchun adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar:

- Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth**
- Jdan A.N. Istoriya psixologii. – M., 1995.
- Istoriya psixologii: teksty. – M., 1992.
- YAroshevskiy M.G. Istoriya psixologii. – M., 1997.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

- Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
- Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.
- Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 výdayuščixsya psixologov mira. – M., 1995.
- Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
- Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
- SHuls D., SHuls S. Istoriya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
- YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
- YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

- <http://www.expert.psychology.ru/>
- <http://www.psycho.all.ru/>
- <http://www.psychology.net.ru/>
- www.natlib.uz;
- www.Sportivniy_psixolog.ru;
- www.Psixologiya_sporta;
- www.ziyonet.uz.
- www.childpsy.ru
- www.edu.uz
- www.flogiston.ru
- www.pedagog.uz

3-Mavzu.Antik davr psixologik ta'limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)

Reja:

1. “Jon” va “rux” haqidagi qarashlarning yuzaga kelishi.
2. Eramizdan avvalgi VI asrda grek faylasuflarining ruh haqidagi ta’limotlari.
3. Ellinizm davri psixologiyasi.
4. Sufizm namoyandalarining psixologik qarashlari.
5. Platon falsafasida ouh haqidagi idealistik ta’limotning shakllanishi.
6. Aristotelning psixologik g‘oyalari.
7. Antik davr shifokorlarining psixologik qarashlari.
8. Temperament xaqida Gippokrat ta’limoti.

Antik²¹ davr yunon falsafasini qadimiy SHarq – Bobil va Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoyda paydo bo‘lgan diniy-falsafiy ta’limotlar ta’sirida, YUnionistonda yuksak rivojlangan quldordik jamiyatining tarixiy, iqtisodiy siyosiy va madaniy-ma’naviy shart-sharoitlar asosida vujudga keldi. Miloddan ilgarigi VIII-VI asrlarda Kichik Osiyo, O’rta er dengizi qirg‘oqlaridagi shaharlar bilan yaqin SHarq, Kavkaz hamda G‘arb mamlakatlari xalqlari o‘rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy munosabatlar juda ham avj oladi. Bu davrga kelib bu hududlarda qulchilik munosabatlari juda rivojlanadi. Natijada, quldorlik jamiyati YUnionistonda jadallik bilan taraqqiy eta boshlaydi. Ayniqsa, bu hududdagi Milet va Efes shaharlarida quldorlik o‘zining yuqori bosqichiga erishadi. Oqibatda, bu shaharlar YUnion ilm-fani va falsafasining beshigiga aylanadi.

Animizm (lot. «anima» - ruh)

Ruh haqida afsonaviy tasavvurlar vujudga keladi. Har bir hissiy idrok qilinayotgan narsa o‘zining justiga ega deb hisoblanadi.

Gilosizm – dunyoning umumiy jonliligi haqidagi ta’limot.

Bu davrda bir qancha maktablar vujudga keldi.

Milet faylasuflari o‘z falsafiy qarashlarini tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan ifodalaydilar. Bu davrlarda falsafa va boshqa bilim sohalari ham bir-birlaridan ajralmagan holda bir butun shaklda «falsa» nomi bilan atalar edi.

Ilk yunon faylasuflari Milet shahri falsafiy maktab vakillari: Fales, Anaksimandr va Anaksimenlardir. Ular o‘zlarining falsafiy asarlarida kosmologizmga oid, ya’ni astronomik bilimlarga oid o‘z qarashlarini ifodalab berdilar. Ulardan qadimiy YUnionistonda «etti donishmandning biri» hisoblanib, shuhrat qozongan Fales Bobilliklarning astronomik tassavvurlarini rivojlantirib, qadimgi yunon astronomiyasiga asos soladi. U oldindan quyosh tutilishini aytishga doir o‘zining hisoblash usulini ishlab chiqadi va ta’riflab beradi. Anaksimandr esa quyosh soatini ixtiro qilib, gnomon nomli asbob yasaydi va ko‘k-osmon gumbazi sferasi doirasi modelini tuzadi. U birinchi bo‘lib YUnionistonning geografik xaritasini chizadi.

Milodgacha V-IV asrlarda, xususan, V asrning 40-30 yillari davrida qadimgi YUnioniston o‘zining eng gullagan davriga kiradi. Bu davrda matematika, astronomiya, arxitekturaga oid bilimlar kuchli rivojlanib, qadimgi yunon falsafasining buyuk namoyandalari etishib chiqadi. Ayni shu davrda yunon materialistik falsafiy yo‘nalishining yirik vakillari Levkipp (mil. avv.500-440 y.y.) va Demokrit (mil. avv.460-370 y.y) maktablari shakllanib, ravnaq topadi. Bu asrlar orasida dastlab Suqrot hamda Aflatun, sal keyinroq Arastu (mil. avv.382-322 y.y) lar yashab ijod qiladi. Levkipp qadimgi atomistik nazariyaning asoschisi sifatida olam bo‘linmaydigan juda kichik mayda, ko‘zga ko‘rinmaydigan atomlar va bo‘shliqdan iborat, degan qarashni ilgari suradi. U olamdagi narsa va hodisalarining hammasi ana shu zarralar - atomlarning birikuvidan paydo bo‘ladi, ob’ektiv zaruriyatdan kelib chiqadi, deydi. Levkippning bu qarashlarini rivojlantirgan, uni yuqori pog‘onaga ko‘targan, uning davomchisi Abderlik Demokrit edi. Demokrit «birinchi yunon

²¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lerning. 27-bet.

ensiklopedik aql egasi» sifatida atomistik nazariyani ishlab chiqadi. Demokritning bu nazariyasiga ko‘ra ham olam eng mayda atomlardan iborat, borliqning asosida atomlar va bo‘shliq yotadi, atomlar esa bo‘linmas zarrachalar bo‘lib, bo‘shliqda harakat qiladi. Ularning turli xil qo‘shilishidan turli-tuman narsalar kelib chiqadi, ularning bir-birlaridan ajralishlari tufayli bor narsalar yo‘q bo‘ladi. Hamma abadiy son-sanoqsiz atomlar cheksiz bo‘shliqdagi turli xil joylashuvidan behisob dunyolar paydo bo‘lib, yo‘q bo‘lib turadi. Bu holat tabiiy zaruriyat asosida sodir bo‘ladi. Sababsiz hech bir narcha, hech bir hodisa yo‘q, hamma narsa, hamma hodisa sababli va zaruriydir.

Demokritning bilish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. U hissiy bilishning shakli-hissiy sezishni bilishning birinchi bosqichi, deb hissiy bilishni «qorong‘i bilish», deydi. Uningcha, chin bilish, haqiqatni bilish, insonning aqliy faoliyati orqali bilishi tufayli yuzaga keladi. Aql bilan bilish bu eng yuqori, eng chuqur, eng to‘g‘ri bilishdir. deydi Demokrit. U inson bilishda, shubhasiz, hissiy va aqliy bilishni birlikda olib qaraydi.

«Donolik uch holatda: yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash va yaxshi ishda ko‘rinadi»-deb yozadi Demokrit. «Fikrlashga vaqt emas, balki tarbiya va tabiat o‘rgatadi», -deydi u.

Xullas, qadimgi yunon faylasuflari: Levkipp va Demokritlarning atomistik nazariyasi keyingi davr, ayniqsa, bizning XX asrda fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarning ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan juda katta mavqega ega bo‘lgan faylasuf Aflatundir. Aflatun (mil. avv. 427-347 y.y.) Afina oqsuyak zadoganlaridan bo‘lib, avval Kratildan, so‘ng Suqrotdan ta’lim oladi va mashhur faylasuf bo‘lib etishadi. Aflatun o‘zining ob‘ektiv idealistik falsafiy tizimini ishlab chiqadi. U «Pir», «Fedon», «Teetete», «Davlat», «Parmenid», «Sofist» nomli asarlari va dialoglarida o‘z dunyoqarashini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazarlarini bayon qiladi.

Aflatun falsafiy ta’limoti o‘zining idealistik tizimi, bilish nazariyasi, dialektik metodi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan xarakterlanadi. U o‘zining idealistik falsafiy tizimida «g‘oyalar dunyo»si va «narsalar dunyosi bor, deydi. «g‘oyalar dunyosi» doimiy, o‘zgarmas, haqiqiy, chin dunyodir. «Narsalar dunyosi» esa o‘tkinchi, vaqtincha, o‘zgaruvchan dunyodir, «narsalar dunyosi» «g‘oyalar dunyosi»ning xira ko‘lankasi, soyasidir, deydi. Aflatunning nuqtai nazaricha, olamning asosini ham ayni shu «g‘oyalar dunyosi» tashkil qiladi. Uningcha, «g‘oyalar dunyosi» butun borliqning ham mohiyatini tashkil etadi. Aflatunning bilish nazariyasi ham o‘ziga xosdir. U o‘z bilish nazariyasida jon va tan haqida so‘zlab, jonne tandan mustaqil, alohida ruhiy, ilohiy, hech o‘lmas, deb hisoblaydi. «Jonlar dunyosi» «g‘oyalar dunyosi» bilan yaqin, «jonlar dunyosi» «narsalar dunyosi»ga, ya’ni insonlar taniga kelib kirdi, insonlarda bilish hosil bo‘ladi, deydi. Aflatun inson bilishida insondagi sezgi, his, idrok, tuyg‘u hosil qiluvchi sezgi a’zolarining rolini inkor qilib, bilish bu jonning «eslashi», «xotirlashi», deydi.

Alkmeon²² (eramizdan avvalgi VIa) o‘z kuzatishlari va xirurgik operatsiyalari natijasida bosh miya – ruhiyat organi degan fikrga keladi. Bosh miya yarim sharlaridan ko‘z yo‘nalishi bo‘yicha 2 ta yo‘l ketadi. Bosh miya bizga eshitish, ko‘rish, xid bilish imkonini beradi. Ulardan xotira, undan esa tasavvurlar vujudga keladi. Ular mustahkamlangach esa, bililar yuzaga keladi deb hisoblaydi.

Qadimgi yunon falsafasining eng so‘nggi buyuk namoyandası Aflatunning shogirdi Arastudir.

Arastu (mil. avv. 384-322 y.y.) YUnionistonning Stagira shahrida tug‘ilib, 17 yoshida Afinaga kelib, Aflatun akademiyasiga o‘qishga kiradi va unda 20 yil ta’lim oladi. U Aflatun bilan juda ko‘p masalalarda munozaralar qilib, Aflatunning falsafiy ta’limotini rad qila boshlaydi. Aflatun vafotidan keyin Arastu Afinada o‘z maktabini tashkil qilib, uni yunon fani va falsafasining markaziga aylantiradi. U qadimgi YUnionistonda hamma ilmlarga oid yutuqlarni egallab, ularni sistemalashtiradi, rivojlantiradi. Hozirgi zamon tabiatshunosligi, jamiyatshunosligi, mantiq fani

²² Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lerning. 36-bet.

o‘zlarining dastlabki taraqqiyotini boshlanishi va ibtidosini Arastu ilmiy faoliyatidan olgan. Uning «Fizika», «Matematika», «Jon to‘g‘risida», «Kategoriylar», «Ikkinchi Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlarida samarali ijodi-tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka, falsafaga oid qarashlari o‘zining to‘la ifodasini topgan.

Arastu Aflatunning «g‘oyalar dunyosi» to‘g‘risidagi nazariyasiga qarshi chiqib, uning «g‘oyalar dunyosi» «narsalar dunyosidan alohida», degan fikrini - bu aslo mumkin emas, qanday qilib narsalar boshqa, ularning mohiyati-g‘oyalari alohida yashaydi? Bu aqlga to‘g‘ri kelmaydigan hol,-deydi Arastu. Aflatunning: «narsalar dunyosi harakatda, o‘zgaruvchan va ma’lum vaqt bilan bog‘liq, g‘oyalar dunyosi esa, o‘zgarmas, doimiy va abadiydir», -degan fikriga qarshi: «Bu qanaqasi? Original - asl o‘zgarmas, uning aksi, g‘oyasi o‘zgaruvchan bo‘lar ekan, bu mantiqqa zid qarash-ku!» deydi. Arastu Aflatunning «g‘oyalar dunyosi» to‘g‘risidagi ta’limotni qat’iy rad qilib, u narsalarning asli, mohiyati, substansiyasi shu narsalarning o‘zidadir, deydi va bu qarashni isbotlaydi.

U bunda bu sabablarning har birini bir-bir tahlil qilib, izohlab beradi, moddiy sabab, ya’ni modda har bir narsaning materiali, har bir narsa undan hosil bo‘ladi. SHakliy sabab, ya’ni shakl har bir narsaga shakl ato qiladi. Masalan: «haykal shaklsiz bronzadan, idish-tavoqlar beshakl loydan farq qilishib, ular muayyan shakl vositasidagina shu narsa qiyofasini kasb etadi. Agarda shakl bo‘lmasa, bronza yoki mis, loy qanday material holida bo‘lsa, shunday qolaveradi», deydi u.

Arastu bunda shaklni faol hisoblaydi, u hatto shaklni narsaning borliq ko‘rinishi, borliqning ma’nosи, deydi. Arastu fikricha, agar modda va shakl «narsalar nimalardan tuzilgan?» degan savolga javob bersa, «yaratuvchi sabab nima yaratildi?» -degan savolga javo beradi. Masalan, otona bolaning sababchisidir. Oxirgi sabab-bu «maqsad» bo‘lib, Arastu tasavvuricha, «nima uchun? degan savolga javob bo‘lib, unda tabiat hodisalarining kelib chiqishi, paydo bo‘lishi ifodalanadi. Arastu bu bilan har bir ijtimoiy hodisada, har bir inson faoliyatida ma’lum maqsad borligini qayd qiladi.

Arastu falsafasidagi yana bir muhim jihat-bu uning imkoniyat va voqelik kategoriylarini har tomonlama tadqiq qilib ishlab chiqadi.

Qadimgi yunon falsafasining eng muhim jihat - uning stixiyali dialektik xarakterga egaligidir. Bu dialektikaning asoschilaridan biri Geraklitdir. U o‘zining olov to‘g‘risidagi ta’limotida barcha narsalar olovdan paydo bo‘lib, so‘ngra olovga qaytadi, deb, olovning erga, suvga, havoga aylanishini va aksini ta’riflab, dunyonи doimiy harakatda, o‘zgarish jarayonida ko‘radi. Geraklit dunyodagi to‘xtovsiz o‘zgarishlarining asosiy sababini narsalardagi qarama-qarshiliklardan, deb biladi. Uningcha, bir xillik va har xillik, hamohanglik va nohamohanglik kabilardan birlik hosil bo‘ladi, bu birlikdan hamma har hillik va birhillik tashkil topadi. Hayotda tirik va o‘lik, uyg‘oq va uyqudalik, yoshlik va qarilik birgadir. Narsalar doimo o‘zaro bir-biriga o‘tib, o‘zgarib turadi. «Sovuq issiq bo‘ladi, issiq sovuq bo‘ladi. Xo‘l quruqqa, quruq ho‘lga aylanadi. Nifoqlashuvchi kelishishi, tarqaluvchi yig‘ilishi (birikishi), ajoyib xilma-xil ohanglar hamohanglikni kurash jarayonida paydo qiladi». Geraklit dialektikaning qarama-qarshiliklar kurashi va birligini yaxshi taxmin qiladi. U shunday yozadi: «Baho bebaholikdan, bebaholik baholikdan, ular bir-birining o‘limi bilan yashaydi va bir-birining yashashi bilan o‘ladi, hayot harakat, o‘zgarish bilan hayot, hamma narsa harakatda, o‘zgarishdadir, bir daryo suviga ikki marta cho‘milish mumkin emas, chunki daryoda tinimsiz yangi-yangi suvlar oqib turadi». «Dengiz suvi ham toza ham toza emas. U baliqlarga davo, hayotbaxsh bo‘lsa, insonlarga ichish uchun yaramaydi va zararlidir». «Eng kelishgan maymun inson zotiga nisbatan eng xunukdir». «Eshakka xashak oltindan a‘lo turar». «Tabiat qarama-qarshilikka intiladi, lekin bir-biriga o‘xshashlik emas, homoxanglik tug‘diradi». Masalan, tabiat inson individlarini qarama-qarshi jinslardan, erkak va ayollardan tuzgan, demak, ularni qarama-qarshi jinslardan yaratgan, bir xil jinslardan emas. San‘at ham, xuddi tabiatga o‘xshash qarama-qarshiliklardan, turli hil ohangliklardan tashkil topadi. Rasm ham qora, qizil, sariq, oq bo‘yoqlar birligidan paydo bo‘ladi. Musiqada esa, yuqori, baland, past turli ovozlardan ohang, kuy, ashula hosil bo‘lib, so‘zlar tashkil topadi va h.k.». Qadimgi yunon falsafasining yana

bir vakili Empedokl²³ (mil. avv.490-430y.y.) o‘z falsafiy qarashida narsalarni tashkil etgan elementlar va ulardan hosil bo‘lgan narsalarni harakatda, deb qaragan. U bu harkatlarning sababi, 6 deb «dushmanlik» va «do‘stlik», ishq-muhabbat va rashk, raqiblik kabi qarama-qarshi kuchlardir, deydi. Empedokl o‘z mushohada va kuzatishlaridan kelib chiqib, chindan ham qarama-qarshi kuchlar tortish, birikish, qo‘shilish do‘stlik, muhabbat, sevgi tufayli sodir bo‘lsa; itarilish, ajralish, raqiblik, yomon ko‘rish, nifoqlik, dushmanlik tufayli vujudga keladi, deb xulosa chiqaradi.

Qadimgi yunon falsafasida Geraklidan keyin dialektikani rivojlantirgan faylasuf – bu Arastudir. U o‘zining tabiiy-ilmiy qarashlari bayon qilingan «Fizika», «Osmon haqida», «Meteologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kabi asarlarida dialektik fikrni ilgari suradi.

Arastu o‘zining bu asarlarida, xususan, «Fizika»da dialektik fikr yuritib, shunday yozadi: Birinchi modda-olamning substrati, materiali - «ikki sifatli» bo‘lib, bir-biriga zid-issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik xususiyatlari bilan dunyoning asosini tashkil qiladi. Uning nazaricha, mazkur xususiyatlar qo‘silib, issiq va quruq-olovni, issiq va ho‘l-nam havoni, sovuq va nam-suvni, sovuq va quruq-erni hosil qiladi. To‘rt element-olov, havo, er, suv-o‘zaro bir-birlari biln qo‘silib, turli jismlarni hosil qiladi, bu jismlar ham o‘zaro qo‘silib, emirilib turadi. Masalan, suvning parga aylanishi yoki havoga o‘tishi ham shu elementlarning turlicha qo‘silishi tufayli ro‘yobga chiqadi. Har bir elementning o‘z joyi bor: olov va havo yuqorida, suv va er quyida bo‘ladi. Arastu bu o‘rinda beshinchchi eelement - efir to‘g‘risida ham fikr yuritadi va uni beshinchchi mohiyat, deb ataydi. U Demokritning atomistik nazariyasiga qarshi chiqib, narsalarda bo‘limmaydigan hech qanday materiya zarrasi yo‘q, hamma zarralar bo‘linaveradi, bu bepayon olamda «quruqlik va issiqlikka» bo‘linish davom etaveradi; narsa, jism tarkibi cheksiz», deydi. Arastuning bu qarashlari o‘z davri uchun juda muhim dialektik farazlar edi. Xullas, dialektika qadimgi yunon falsafasida dunyoga, borliqqa qarash, uni tushunish usuli, savol-javob san’ati sifatida, materialistik va idealistik ko‘rinishlarda stixiyali shaklda yuzaga kelganligi tarixiy fakt edi. Bu narsa qadimgi yunon falsafasining o‘ziga xos yutuqlaridan biridir.

Rim imperiyasida bu davrda yuzaga kelgan falsafiy oqimlardan yana biri - bu neoplatonizm oqimidir. Bu oqimning asoschisi Plotin eramizning 204-270y.y.) bo‘lib, uning fikricha, olamiy jarayon payqab va ifodalab bo‘lmaydigan ilohiy bosh yagona ibtidodan boshlanadi. Bu ibrido avval olamiy aql, so‘ngra olamning joni (ruhi) sifatida, undan keyin ayrim jonlar sifatida, ayrim jonli jislar sifatida to materiyagacha davom etadi. Plotin fikricha, bu ibrido butun borliq asosi bo‘lgan yagona ilohiy kuch - xudodir. Qolgan barcha narsalar (ham) ruhiy, hissiy narsalar, ham moddiy narsalar) shu ilohiy kuchdan yaralgan nuring emmanatsiyasining natijasidir. Uning nuqtayi nazaricha, Quyosh o‘zidan nur taratgan kabi, ilohiy kuch-xudo ham o‘zidan butun koinotni undagi barcha narsalarni emmanatsiya usuli bilan chiqarib yuborgan. Bu emanatsiya qilingan narsalarga ruh ham (jon ham) materiya ham kiradi. Insonning joni va tanasi ham ularning birligida shu ilohiy kuch-xudo tomonidan emanatsiya qilingan. SHuning uchun inson-hayotining oliv maqsadi - o‘z jonining shu ilohiy kuch-xudo bilan qo‘silishiga erishuvdan iboratdir. Kishi bunga ekstaz (jazava) holatga tushish orqali, uni bajarish orqali erishadi, bu holatda uning joni, ruhi butun hissiy dunyodan va tanadan xalos bo‘ladi. Buning uchun kishi o‘z nafsimi va jismoniy ishtiyoqlarini tiyish vositasi bo‘lgan hamda butun ruhiy kuchlarini, shu jumladan, biluvchilik kuchlarini rivojlantirish yo‘li bilan erishadi. Bunda yuksalib borishning oliv ekstaz (jo‘sh urish) bosqichida inson ruhi xudo bilan qaytadan birlashadi. Plotin shu tariqa refleksiyani ochib berdi.

Stoiklar maktabi. Stoiklar affektlarga (emotsiyalar, zshriqishlar) ga qarshi chiqadilar, ularni aqli buzuvchi rolini ko‘rsatib o‘tadilar. Affektlardan kasalliklardan qanday davolansa, shunday davolanish kerak deb hisoblaydilar. Umuman affektlarni ildizi bilan ruhdan chiqarib yuborish kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari suradilar.

²³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lerning. 33-bet.

Galen (eramizdan avvalgi II a.) – gladiatorlarni operatsiya qilib, bosh miyani o‘rganadi, faolsafa va meditsina bo‘yicha 400 dan ortiq traktatlarni qoldirgan.

1-topshiriq.

<i>Antik davr psixologik ta’limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)ning psixologiya fani taraqqiyotidagi roli</i>				
Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo’shgan hissasi	Qo’shimcha izoh
1.	Demokrit			
2.	Aflatun			
3.	Alkmeon			
4.	Geraklit			

2-topshiriq.

<i>Antik davr psixologik ta’limotlari (eramizgacha VI asrdan – eramizning V asrigacha)</i>				
Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo’shgan hissasi	Qo’shimcha izoh
1.	Demokrit			
2.	Aflatun			
3.	Alkmeon			

Foydalananish uchun adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar:

5. Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth
6. Jdan A.N. Istoriya psixologii. – M., 1995.
7. Istoriya psixologii: teksty. – M., 1992.
8. YAroshevskiy M.G. Istoriya psixologii. – M., 1997.

Qo’shimcha adabiyotlar:

24. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
25. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.
26. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 vydayuushixsya psixologov mira. – M., 1995.
27. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
28. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
29. SHuls D., SHuls S. Istoriya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
30. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
31. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

37. <http://www.expert.psychology.ru/>
38. <http://www.psychology.all.ru/>
39. <http://www.psychology.net.ru/>
40. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz/)
41. www.Sportivniy psixolog.ru;

42. www.Psixologiya.sporta;
43. www.ziyonet.uz.
44. www.childpsy.ru
45. www.edu.uz
46. www.flogiston.ru
47. www.pedagog.uz

4-mavzu: Bilish jarayonlari xaqida talimot. Tafakkurning oliv shakllari: muxokama yurutuvchi, mantiqiy, diskursiv.

Reja:

1. Shaxsga interotsianistik va kognitiv yondashuvlar.
2. Axborotni qayta ishlashda organizm yashovchanligining mexanizmlari va hal qiluvchi omillari.
3. Shaxs xulq-atvorida kognitiv modellarning xususiyatlari.

Myurrey, Kelli va Levin nazariyalarini.

Jahon psixologiyasi to‘plagan nazariy va amaliy ma’lumotlarga ko‘ra, yosh, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlar sensor (subsensor, subseptiv), mnemik (xotira), verbal (so‘z orqali) va mantiq psixofiziologik funksiyalarining dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperament xususiyatlarida va tug‘ma mayllarda ifodalanishini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Chunki yuqoridagi sifatlar ontogenetik evolyusiya jarayondan iborat bo‘lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh davrga oid va individual o‘zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta’siri ostida har xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy muhitda vujudga kelgan sifatlari ta’sir etib, uning individual o‘zgaruvchiligi omilini yanada kuchytiradi.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo‘lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir²⁴. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o‘ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr - go‘daklik. Ushbu davrda go‘dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan “ishonch” tuyg‘usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota--onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go‘dakda ishonch negizi paydo bo‘lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug‘ilsa, u taqdirda voyaga etgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya’ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqbillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo‘lmish uyat va shubha hissi hosil bo‘ladi. Bolada mustaqillikning o‘sishi, o‘z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo‘lg‘usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas’uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr - o‘yin yoshi deb atalib 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg‘usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istakni ro‘yobga chiqarishning yo‘li to‘sib qo‘yilsa, ushbu holatda bola o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya’ni guruhiy o‘yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolanling turli

²⁴ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth,. 517-bet.

rollar sinab ko‘rishiga, xayoloti o‘sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

To‘rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o‘zgarishlar ko‘zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldarlikka intilish tuyg‘usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldarlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko‘zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlari etarli darajada bo‘lmaganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni echishda aql-zakovatning etishmasligi, bilimlarni o‘zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o‘spirlinlik - o‘zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. SHuningdek, o‘smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolni uddalamaslik, qat’iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati “rolni kechiktirish”ning o‘zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishining daqiqaсидir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko‘lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi, vaholanki bu kezda o‘spirlin rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson²⁵ o‘spirlardan o‘z-o‘zini anglashning psixologik mexanizmlarini bat afsil tahlil qiladi, unda vaqt ni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Etinchi davr - etuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g‘amxo‘rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldarlik tuyg‘usi unga uzlucksiz ravishda hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarining amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. SHuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg‘unlik tuyg‘usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya’ni qarilik inson tariqasida o‘z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg‘ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko‘ngil sovish histuyg‘ularini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig‘ bo‘lishlik bu yoshdagagi odamlarning eng muhim jihat, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingan holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliv himmati sanaladi.

E.SHpranger “O‘spirlinlik davri psixologiyasi” degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning esa 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o‘zgarishlar E.SHpranger bo‘yicha:

- a) shaxsiy “Men” ni kashf qilish,
- b) refleksiyaning o‘sishi,
- v) o‘zining individuallagini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini e’tirof qilish,

g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo‘lishi,

d) o‘z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustyanovkasi va hokazo. Uning fikricha, 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqirozning mohiyati ularga kattalarning bolalarcha munosabatidan qutulish tuyg‘usini tug‘ilishidan iboratdir. 17-21 yoshlarning yana bir xususiyati - o‘zining tengqurlari va jamoatchilik qurshovidan “uzilish inqirozi” va tanholik tuyg‘usining paydo bo‘lishidir. Bu holatni tarixiy shartlanganlik shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi.

²⁵ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth,. 13-bet.

E.SHpranger, K.Byuler, A.Maslou²⁶ va boshqalar personologik nazariyaning yirik namoyandalari bo‘lib hisoblanadilar.

Kognitivistik yo‘nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin. J.Piaje intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo‘lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta’limotini o‘z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko‘nikish) dan iborat bo‘lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

J.Piajening g‘oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyaga biriktirish mumkin. Bu yo‘nalishning namoyandalari qatoriga L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalar kiradi. Fransuz psixologi A.Vallon nuqtai nazaricha, shaxsning rivojlanishi quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri,
- 2) impulsiv harakat davri - tug‘ilgandan to 6 oylikgacha,
- 3) emotsiyal (his-tuyg‘u) davri - 6 oylikdan to 1 yoshgacha,
- 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg‘unlashuvi) davri - 1 yoshdan to 3 yoshgacha,
- 5) personalizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan to 5 yoshgacha,
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan to 11 yoshgacha,
- 7) jinsiy etilish va o‘spirinlik davri - 12 yoshdan to 18 yoshgacha.

Yana bir fransiyalik yirik psixolog Zazzo o‘z vatanidagi ta’lim va tarbiya tizimining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni o‘ziga xos talqin qilib, insonning ulg‘ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Birinchi bosqich - bolaning tug‘ilganidan 3 yoshigacha.
2. Ikkinci bosqich - 3 yoshidan 6 yoshigacha.
3. Uchinchi bosqich - 6 yoshidan 9 yoshigacha.
4. To‘rtinchi bosqich - 9 yoshidan 12 yoshigacha.
5. Besinchi bosqich - 12 yoshidan to 15 yoshigacha.
6. Oltinchi bosqich - 15 yoshidan 18 yoshigacha.

Insonning shaxs sifatida tavsiflanishining muhim psixologik lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy negizga bog‘liq, ya’ni uning jamiyatda egallagan o‘rnii, nufuzi, mavqe bilan belgilanadi) orqali ifodalanadi. Statusning negizida esa hamisha uzluksiz ravishda o‘zaro aloqalar tizimi yotadi. Inson bajarishi lozim bo‘lgan guruhiy faoliyat va yakkahol turmushga, kasb-hunarga aloqador, ya’ni kasabaviy, oiladagi hamda jamoadagi rolning ijtimoiy funksiyasi, uning muayyan maqsadga, qadriyatga, ma’naviyatga yo‘nalganligi, shaxsni faollashtiradi, natijada u barcha jabhalarda ishtirot etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Status, rol, qadriyatga yo‘nalganlik shaxs xususiyatlari, sifatlari, fazilatlari, xosiyatlari va xislatlarining birlamchilarini tashkil etadi, uning tuzilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. SHaxsning tavsifi faoliyat, xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe’l-atvor (oddiy stereotipdan tortib, to xalq donishmandligi namunalari) tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar, belgilar sifatida joy egallyaydi. SHaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o‘zaro ta’sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo‘li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy

²⁶ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 587-bet.

tarjimai holi hisoblanadi. SHaxsning xalqiga qilgan xizmati uning e'zozlanishiga, hattoki milliy ma'naviy boylik, tafakkur gulshani va sarchashmasi darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Insonning faoliyat sub'ekti sifatidagi asosiy tavsiflari qatoriga uning bu sohadagi taraqqiyotning mahsuli - ongi (ob'ektiv faoliyatning in'ikosi sifatida (va faoliyati) voqelikning o'zgartiruvchisi tariqasida) kiradi. Inson amaliy faoliyatning sub'ekti tarzida uning shaxsiy fazilatlari va xislatlarini tavsiflabgina qolmaydi, balki mehnatning texnik vositalari va texnologiyasi, ularning kuchaytiruvchanlik, tezlashtiruvchanlik va yaratuvchanlik funksiyalari sifatida yuzaga keladi. Amaliy faoliyat umuminsoniy va yakka shaxs tajribasining bir qismi tariqasida, egallanilgan, o'zlashtirilgan, puxta tajribadan foydalanish singari namoyon bo'ladi. Nazariy faoliyatning sub'ekti bo'lmish inson o'zining bilimlari, kasbiy ko'nikmalari, aqliy malakalari bilan tavsiflanadi, qaysiki ular o'ziga xos alomatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Aqliy faoliyat ijodiyot darajasiga o'sib o'tishi natijasida ijodiy mahsullar, yangiliklar, qonuniyatlar vujudga keladi va jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ajodolar merosi va avlodlar salohiyati mahsullarining uzviy bog'lanishi nazariy va amaliy faoliyatning o'zaro uyg'unlashuvini taqozo etadi, vaholanki, har ikkala faoliyat turida ijodiylik alomati, mahsuli ishtirok qiladi, fan va texnika rivojini ta'minlaydi. Faoliyat tajribalar bilan uzviy bog'lansa, uning samaradorligi, maqsadga yo'nalganligi, amalga oshish imkoniyati yuksak bosqichga ko'tariladi.

Inson hayotida ijtimoiy hodisa sifatida armon muhim rol o'ynaydi, uning faollikka chorlaydi, harakat qilishga asosiy turtki vazifasini bajaradi. Armon inson uchun go'yoki ushalmagan orzu, g'amgin tuyg'ularning jonlashuvi, komfortga intilishga da'vat etuvchi hissiyot, ijtimoiy va yakkahol turmushni baholash mezoni, faollikka etaklovchi motiv, ezgu niyatlar og'ushiga tortuvchi doimiy turtki, loqaydlikning oldini oluvchi ichki ruhiy imkoniyatdir. SHaxs uchun eydetik obrazlar qanchalik ahamiyat kasb etsa, barqaror iz qoldirsa, armon ham xuddi shunday xususiyatga ega bo'lib, ulardan farqli o'laroq doimiyligi, ustuvorligi, maqsadga undovchiligi bilan yuqoriq nufuzga ega.

Insonning sub'ektiv xislatlari integratsiyasining yuksak shakli ijodiyot (kreatsiya) hisoblanib, umumlashgan imkoniyatlar tarzida qobiliyatlar (iste'dod, iqtidor), talant va salohiyat vujudga keladi. Odamning sub'ektiv xususiyatlari, xislatlari rivojining asosiy shakllari ruhan tayyorgarlik, start, kulminatsiya va finish sanalib, insonning jamiyatdagi ishlab chiqarish va ijodiyot faoliyatlarini belgilaydi. Mazkur to'rt bosqich, to'rt mezon, taraqqiyotni baholash tizimi o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari, sur'ati, davomiyligi bilan bir-birlaridan ham sifat, ham miqdor jihatdan ajralib turadi.

Jahon psixologiyasi fanida inson sifatlari (xislatlari, fazilatlari, xosiyatlari) ni individual, shaxsga oid va sub'ektiv guruhlarga ajratilishi an'anaviy va kasbiy xususiyatga ega, chunki ular odamning yaxlitligi, bir butunligi, alohidaligi tavsifidan iborat bo'lib, bir davrning o'zida ham tabiat, ham jamiyat jonzodi ekanligini anglatadi. Mazkur yaxlitlikning mag'zi shaxsning tuzilishidir, unda nafaqat insonning asosiy xislatlari o'zaro kesishadi va umumlashadi, balki uning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalari muayyan tarkibga keltiriladi, qoidaviy xususiyat kasb etadi.

Bizningcha, individ, shaxs, sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qilinishi zarur:

1. Inson rivojining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhitining omillari).

2. Insonning shaxsiy o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning rivojlanishi ichki qonuniyatlarini, mexanizmlari, evolyusion negizda kamol topish bosqichlari, barqarorlashuvi va involyusiya (o'sishdan qaytish davri xususiyatlari).

3. Insonni yaxlit, mukammal tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning muttasil ravishda takomillashuvi kabi faktorlar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy, nazariy va ijodiy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. CHunki bevosita faoliyatni amalga oshirish jarayonida yashash muhitini va ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning ham interiorizatsiya, ham ekteriorizatsiya davrlari yuzaga keladi.

XXI asrda individ, inson, shaxs, sub'ekt va komil insonni o'rganish turli yo'nalishlarda, vaziyatlarda, yosh xususiyatlari, alohida yondashish negizida, o'ziga xos talhlilga, metodologik asosga suyanib olib borilishi maqsadga muvofiq. CHunki jahon psixologiyasi fanida to'plangan nazariy va amaliy xususiyatlari materiallar mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil hamda tanqid qilmasdan, balki ularni xolisona baholash, ilmiy jihatdan talqin qilish joiz. Binobarin, turli psixologik ilmiy maktablar tomonidan to'plangan natijalarining oqil jihatlarini tanlash va tadqiqotning boshlang'ich nuqtasini belgilashda ulardan omilkorlik bilan foydalanish ko'pgina ilmiy qaytatdan tekshiruvlarning oldini oladi.

Mustaqillik, istiqlol sharofati bilan shaxsga oid qarashlar, mulohazalar mohiyati, uning mazmuni va shaklida o'zgarishlar yuz beradikim, buning natijasida erkin fikrlash, ochiq shakldagi ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Respublikamizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar xalqimiz, millatimiz ruhiyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi, ona yurt madhi, ajdodlar merosidan g'ururlanish, ma'naviyat durdonalaridan faxrlanish hislari vujudga keladi. Vatan va vatanparvarlik tushunchalari o'zining haqiqiy, chinakam ma'nosini kasb etadi. Kishilardagi o'ta sabr-toqatlilik, itoatkorlik, tashabbuskorlikning etishmasligi o'rnini erkinlik, ijodiyot, mehnat, batamom istiqlolga erishish zaruriyati, oilaning butligi, to'kisligi va ularning istiqboli kabi sifatlar, fazilatlar, yuksak tuyg'ular, xislatlar egallay boshlaydi. Buning natijasida shaxsda tabiatga va jamiyatga nisbatan ideal, real, ratsional va ijodiy (kreativ) munosabati o'zgarmoqda, hatto ayrim o'rindarda borliq va voqelikdan begonalashish, uzoqlashish va yaqinlashish holatlari ro'y bermoqda. Bu holatlар ijtimoiy xususiyat kasb etib, umumbashariy ahamiyatga ega, chunki jahon mamlakatlari sivilizatsiyalashish darajalari tenglashmoqda. Xuddi shu sababli ijtimoiy garmoniya tariqasida yuqorida ilmiy ijtimoiy-psixologik tushunchalar qator (taraqqiyot ko'rsatkichi o'zaro uyg'unlikka ega bo'lgan) mamlakatlarga bir tekis yoyilib, hayot va faoliyatning turli qatlamlariga kirib bormoqda. Mazkur asr odamlarida esa axloqiy, jiismoniy va aqliy komillik belgilari, ko'rsatkichlari hamda bosqichlarining mezonlari, ularning oldiga qo'yiladigan talablarning mohiyati o'zgaradi.

Demakki, tabiatga va jamiyatga nisbatan sevinch, sevgi, mehr-muhabbat yuksak hislari, vatanparvarlik va Vatan tuyg'usining tarkiblari, negizi, ularni harakatlantiruvchi mexanizmlari boshqacha yondashishni taqozo etadi, zamon ruhi va nafasiga moslashishni talab qiladi. Insoniyatning bunday yuksak his-tuyg'ulari, anglashilgan motivlari shaxsning o'qish, mehnat, sport va o'yin faoliyatlarida, bilish hamda muomala jarayonlarida vujudga kelishi mumkin. Borliqqa va jamiyatga nisbatan munosabatning o'zgarishi, uning ierarxiyasi, shakllari, maqomi va mohiyatida namoyon bo'ladi, ularga yo'naltirilgan avvalgi, eski uslubdagi motivatsiya o'z ahamiyatini nisbiy jihatdan yo'qtadi.

Hozirgi kunda va keljakda shaxsga sub'ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun:

1. Odam (individ) - inson - shaxs - individuallik - sub'ekt - komillik (barkamollik) ierarxiyasiga rioya qilish.

2. SHaxsga nisbatan sub'ektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida majburiylik tamoyiliga asoslanib (barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish) inson qarshilik ko'rsatishini hisobga oluvchi yondashishni yo'lga qo'yish, sub'ekt - sub'ekt aloqasini vujudga keltirish.

3. Har qanday sub'ekt - shaxs, lekin har qaysi shaxs sub'ekt emasligi muammosini echish. Buning uchun mustaqil fikrlashga ega bo'lish, shaxsiy pozitsiyani himoya qila olish, g'oyani amalga oshirish yo'lida to'siqlarni pisand qilmaslik, mustahkam ishonch, qat'iy maslak, iymon negizida asoslanish, intilishda irodaviy barqarorlik ustuvorligiga erishish. Dunyoqarash va uni hayotga tatbiq qilishning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari mavjudligiga iqror bo'lish hamda uni tan olish va hokazo.

1-topshiriq.

*Bilish jarayonlari xaqida talimotning psixologiya
fani taraqqiyotidagi roli. Tafakkurning oly shakllari: muxokama yurutuvchi, mantiqiy,
diskursiv.*

Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo'shgan hissasi	Qo'shimcha izoh
1.	E.Erikson			
2.	E.SHpranger			
3.	J.Piaje			
4.	G.Grimm			

2-topshiriq.

Bilish jarayonlari xaqida talimot. Tafakkurning oliv shakllari: muxokama yurutuvchi, mantiqiy, diskursiv.

Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo'shgan hissasi	Qo'shimcha izoh
1.	E.Erikson			
2.	E.SHpranger			
3.	J.Piaje			
4	G.Grimm			

Foydalananish uchun adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar:

9. Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth
 10. Jdan A.N. Istorya psixologii. – M., 1995.
 11. Istorya psixologii: teksty. – M., 1992.
 12. YAroshevskiy M.G. Istorya psixologii. – M., 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar:

32. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: «Uzbekistan», 1997.
 33. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O'zbekiston», 1992-2010.
 34. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 výdayuščixsyu psixologov mira. – M., 1995.
 35. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
 36. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
 37. SHuls D., SHuls S. Istorya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
 38. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
 39. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

48. <http://www.expert.psychology.ru/>
 49. <http://www.psychology.all.ru/>
 50. <http://www.psychology.net.ru/>
 51. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz/)
 52. [www.Sportivniy psixolog.ru;](http://www.sportivniy-psixolog.ru/)
 53. [www.Psixologiya sporta;](http://www.psixologiya-sporta.ru/)
 54. [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz/)
 55. www.childpsy.ru
 56. www.edu.uz

57. www.flogiston.ru

58. www.pedagog.uz

5-mavzu: Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi.

Reja

- 1. Ong haqidagi falsafiy ta'limotlar doirasida psixologik bilimlarning rivojlanishi (XVII asr – XIX asrning birinchi yarmi.)**
- 2. R.Dekart g'oyalari.**
- 3. Spinozaning substansiya xaqidagi ta'limoti monizmi.**
- 4. Affektlar va inson mustaqilligi xaqidagi ta'limotlar.**

XVII -XVIII asrlar G'arbiy Evropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Evropa mamlakatlarida O'rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kapitalistik munosabatlar to'liq qaror topadi va rivojana boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqaraish ehtiyoji tabiatni, insonning o'zini, jamiyatni ilmiy o'rganish, bilishni taqazo qiladi va uni o'rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarining o'sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalar Er shari bo'y lab ilmiy ekspeditsiyalarning uyushtirilishi, yangi erlar, yangi qit'alarni ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexanika, matematika, fizika, kimyo, astronomiya sohalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, O'rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarni uloqtirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Bunda nemis olimi Keplerning sayyoralarning harakati, qonunlarining ochishi, ingliz olimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarini kashf etilish, ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyonи bilishdagi muhim rol o'ynovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, fransuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo'lishiga oid detuktiv metodni asoslab berishi muhim rol o'ynaydi. SHular asosida bu davr falsafasida metafizik va metamexanistik materializm qaror topadi. Metafizik va mexanistik materializmning namoyondalari F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs fransuz faylasuflari R.Dekart, P.Kobak, Lametri va Gelvetsiy qarashlarida o'zining yorqin ifodasini topadi.

Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga keladi. Empirik oqimning asoschisi F.Bekon hisoblanadi. Uning qarashicha, tabiatni bilshning manbai bu - tajriba, eksperiment, kuzatishdir. F.Bekonning³ falsafa va fan tarixidagi eng katta hizmati - uning inson bilishining induktiv metodini ishlab chiqishidir.

Bekon fikricha, ilmiy bilishning maqsadi - insoniyatga foyda keltirishdir. SHundagina u o'z vazifasini oqlaydi. Barcha fanlarning vazifasi insonning tabiat ustidan hukmronligini mumkin qadar ko'proq ta'minlashdir, deydi

³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Principles of Newtonian science 106-107-bet.



mutafakkir. Bilim bu kuchdir, degan shior ham F.Bekonga mansubdir. Bekoning buyuk xizmati shundaki, u ilmiy bilishning tajribaga asoslangan uslubini ishlab chiqdi. Uning fikricha, fanning xulosalari faqat rad etib bo'lmaydigan dalillardan kelib chiqishi kerak. Bekon tomonidan qo'llangan induktiv usul kuzatish, analiz qilish, taqqoslash va eksperimentga asoslanadi. Lekin tajribada ishonchli bilimga erishish uchun inson o'z ongidagi zararli sharpalardan ozod bo'lishi lozim. Urug' sharpasi - bu kishilik urug'iga tegishli bo'lib, uning natijasida odamlar o'zlarining sub'ektiv xususiyatlarini tabiat predmetlarining xususiyati deb qaraydilar. Fop sharpasi - bu kishilarning olam to'g'risidagi noto'g'ri tushunchasidir. Bozor sharpasi - bu ko'p tarqalgan so'zlarni noto'g'ri ishlatalish natijasida vujudga kelgan tushunchalardir. Teatr sharpasi - hurmatli kishilarning aytganlariga ko'r-ko'rona amal qilishdir. Bekon insonni qurshab turgan moddiy dunyo turli tumanligini va uni bilish ham cheksiz ekanligini qayd etadi. Agar Bekon

ilmiy bilishning tajribaga asoslangan induktiv uslubini ishlab chiqib, fanga katta hissa qo'shgan bo'lsa, uning zamondoshi fransuz mutafakkiri R.Dekart²⁷ (1596-1650) esa, aksincha, ilmiy bilishning deduktiv uslubiga o'z e'tiborini qaratadi. Dekart dunyoni bilishda birinchi o'ringa aqlni qo'yadi. Buni uning, «men fikrlar ekanman, men mavjudman» degan mashhur so'zлari tasdiqlaydi. Dekart fikricha, falsafaning birinchi masalasi - bu ishonchli bilimga olib boradigan uslub masalasidir. Uni ishlab chiqishni Dekart o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Dekart ishlab chiqqan ilmiy bilishning deduktiv uslubi analitik yoki ratsionalistik ham deb ataladi. Dekartning deduktiv uslubi quyidagilarni talab etadi: 1) Haqiqat deb faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo'lgan xulosalarni qabul qilish; 2) har bir murakkab muammolarni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish; 3) bilish jarayonida ma'lum va isbot qilingandan noma'lum va isbot qilinmaganga borish; 4) tadqiqot mantiqiy halqalaridan birortasini ham tushirib qoldirmaslikdir. Dekart bilishning bu uslubini qo'llash farovon hayot uchun kishilarga katta imkoniyatlar yaratib berishiga hech shubha qilmadi. Biroq, Dekartning aql kuchira tayangan bilishning deduktiv uslubi uning «tug'ma g'oyalar»ni tan olishga olib keldi. Bu tajriba orqali olingan g'oyalar emas, balki odam tug'ilishi bilan uning miyasida oldindan bo'lgan g'oyalardir. Unga xudo g'oyasi, sonlar va shakllar g'oyasi, shuningdek, ayrim umumiylar tushunchalar kiradi. Dekart ularni umumiy va zaruriy bilimning sharti sifatida qaraydi. Bu esa uning ilmiy deduktiv bilish uslubiga ravnaq solib turadi. Buni e'tiborga olmaganda, Dekart Bekon singari falsafaning ilmiy masalalarini ishlab chiqishda o'z davrida katta yutuqlarga erishdi. Lekin shuni ham aytib o'tish lozimki, Bekon va Dekart tomonidan yaratilgan bilishning har ikki uslubini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yoki ularning har birining ahamiyatini kamsitish noto'g'ri bo'lur edi. YAngi davr falsafiy fikrida o'rtaga qo'yilgan muhim muammolardan bira - substansiya masalasi edi. SHu davrda bu masalaning turlicha echimini ko'ramiz. Masalan, Dekart ruhiy va moddiy substansiya mavjudligini ko'rsatdi. Ruhiy substansiyaning eng muhim belgisi bo'linmaslik bo'lsa, aksincha, moddiy substansiyaning belgisi uning cheksiz bo'linuvchanligidir. Ruhiy substansiyaning asosiy atributlari - bu tafakkur va ko'lamlilikdir. Uning qolgan atributlari - tasavvur, hissiylik, xohish, fikrlash moduslari bo'lsa, moddiy substansiyaning atributlari bu shakl, holat, harakat va tortiluvchanlikdir. SHunday qilib, Dekart substansiya masalasini dualistik mavqedan turib hal qiladi. Dekart ta'limoticha, insonning tabiatni bilishining birdan-bir to'g'ri metodi bu aqlga asoslangan deduktiv metoddir. Dekart²⁸ o'zining bu qarashlarini «Metod to'g'risida mulohazalar» asarida bayon qiladi. U o'z asarida insonning tabiatni bilishida quyidagi talablarni ilgari suradi:

1. Haqiqat, deb qaralgan bilim faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan, shubhalardan holi bo'lgan nazariy xulosalari asosida chiqarilgan fikrlar bo'lmog'i lozim.
2. Har bir murakkab muammo yoki masalani ularning tarkibini tashkil qilgan muammo va masalalarga ajratish, bo'lish lozim.
3. Bilishda isbot bo'ladigan, ma'lum bilimlardan hali noma'lum va isbot qilinmagan bilimlarga o'tib borish zarur.
4. Tadqiqot haqidagi fikrlar - bilimlarni tashkil etgan mantiqiy xalqalardan xulosa chiqarishda birontasi ham tushirilib yoki e'tiborsiz qoldirmasligi lozim. Dekartning qarashlariga ko'ra inson bilishining birdan-bir manbai - bu tafakkur, aqliy salohiyatidir. Uning qarashicha, insonning sezgi a'zolari, tajribalari hamma vaqt ham to'g'ri bilim beravermaydi, shu sababli ularga inson o'z bilish jarayonida to'liq ishonmasligi zarur.

²⁷ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Rene Decartes 111-bet.

²⁸ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Rene Decartes 113-bet



Dekardan boshlab psixologiya rux haqidagi emas ong xaqidagi fan bo'lib qoldi. Dekart dualizmi bilishning ikkita bir biridan mustaqil metodi ya'ni eksperimental – тана mexanikasi analizi uchun, introspeksiya (o'zini o'zi kuzatish) – ruhni bilish uchun deb tafovutlaydi. Rux va тана bir biridan mustaqil ravishda mavjud, lekin ular o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Dekart affektlarni engishning 2 usulini taklif etadi

- 1 – boshqa faoliyat turiga o'tish,
- 2 – ratsional yo'l (affektlar sabablarini mulohaza etish).

B.Spinoga²⁹ (1632-1977) Dekart dualizmiga materialistik monizmni qarshi qo'yadi, ya'ni ruhiylik va moddiylikni yagona bir substansiya sifatida talqin etadi. U ongimizdan tashqarida ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, sababchi kuchga muhtoj bo'lman va o'ziga o'zi sababchi bo'lgan yagona moddiy substansiyani e'tirof etadi. Biroq Spinozaning substansiya haqidagi bu fikri panteistik tabiatga ega. CHunki u xudoni moddiy dunyoga qorishtirib yuboradi va tabiatni o'zini o'zi yaratuvchi xudo deb ataydi. Spinoza bo'yicha affektlar insonni harakatga undovchi holatlardir. Uning fikricha uchta undovchi kuch mavjud: "ham tana, ham ruhga mansub mayl"; 2) quvонч va 3) qayg'u. Ana shu fundamepntal affektlardan barcha emotsiyal holatlar kelib chiqadi. SHu davrning yirik mutafakkirlaridan biri G.Leybnits (1646-1716) hisoblanadi. U o'zining substansiyalarning ko'p xilligi haqidagi ta'limotini o'rtaga qo'yadi. Leybnits³⁰ fikricha, substansiyalar juda xilma-xildir. Ularni Leybnits monadalar deb ataydi. Leybnits ta'limoticha, monadalar oddiy bo'lib, ular qismlarga bo'linmaydi. Bu bilan Leybnits monadalar moddiylik xususiyatiga ega emasligini, shuning uchun unga ko'lamlik yot ekanligini ta'kidlaydi. Faqat moddiy narsalargina ko'lamlikka ega bo'lib, bo'laklarga bulinadi. SHuning uchun ko'lamlik emas, faoliyat monadalarning xususiyatidir. Faoliyat nima, degan savolga Leybnits, ko'lamlik bilan izohlab bo'lmaydigan tasavvur, idrok, intilishga o'xshash ruhiy narsadir, deydi. Uni Leybnits oddiy substansiyalarning asosiy xususiyati deb ataydi. Agar monadalarga sezgilar xos bo'lsa, ular jonlar deb ataladi. Monadalarga aql xos bo'lsa, ular ruhlar deb ataladi, deydi Leybnits. Leybnits fikricha, monadalar o'z faoliyatlarini aniq va ravshan ifodalinish darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar. Ongilik va aqlilik monadalar qanchalik taraqqiy etganligi darajasini bildiruvchi mezon hisoblanadi. XVIII asr fransuz falsafasining asosiy vakillari P.Golbax (1723-1789), D.Didro (1713-1784), K.Gelvetsiy (1715-1771), J.Lametri (1709-1751) hisoblanadi. Ularning ta'limoticha, hamma narsalar - materiyadir. Materiya mayda molekula va atom zarrachalaridan tashkil topgan. Atomlar esa materianing bir xildagi, bo'linmas, mayda zarrachalaridan iboratdir. XVIII asr fransuz faylasuflarining yutuqlaridan biri shuki, ular harakatni materianing ajralmas xususiyati, deb ta'kidladilar. Biroq, ular harakatni tushunishda mexanistik darajadan yuqori ko'tarila olmadilar. Harakat, ularcha, predmet yoki hodisalarning fazoda oddiy o'rin almashuvidan iboratdir. Fransuz faylasuflari dunyonи bilish mumkinmi, degan savolga ham ijobiy javob berdilar. Ular o'zlarining bilish nazariyalarida J.Lokkning sensualistik g'oyalariga suyandilar. Ular bilish sezishdan iboratdir, sezishning manbai esa ob'ektiv reallikdir, deb uqdirdilar. Fransuz faylasuflari bilish jarayonida aqlning rolini ham tan oladilar. Ularning fikricha, tafakkur sezgilarni qo'shish, yig'ish, solishtirish qobiliyatidan iboratdir.

Fransuz ma'rifatparvarlari orasida shuningdek K.Gelvetsiy (1715-1771), P.Golbax (1723-1789) i D.Didro (1713-1784) ham o'z g'oyalarini ilgari suradilar. Ular insonda tabiat gultojini ko'radilar. Ularning fikricha har bir individda o'zini takomillashtirish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Agar odam yomon bo'lsa buning aybini uning tanasi gunohli tuzilganligiga to'nkamaslik kerak, balki g'ayritabiyl tashqi holatlarga qo'yish kerak. Inson tabiat bolasi, shuning uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy tartiblar insonga tabiat ato etgan extiyojlar va xuquqlar aosida tartibga solinishi kerak. "Tabiiy odam" nazariyasi individning tug'ma xususiyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi o'za munosabatlar muammosini yanada o'tkirlashtirib yubordi, bu muammolarga geografik, klimat va tashqi muhitning boshqa sharoitlari ham kiritilgan edi. Fransuz materializmining asosiy amaliy g'oyasi inson shakllanishida tarbiya va qonunlar rolini ta'kidlashdan iborat edi. SHunga mos ravishda o'sha davrda jamiyatni takomillashtirish bo'yicha asosiy majburiyatlar tarbiyachilar va ma'rifchilarga yuklatilgan edi. Bu g'oyaning yaqqol ko'rinishi J.J.Russo³¹ asarlarida o'z aksini topdi. Russo fikricha, inson tabiatan o'zi raxmdil va yaxshi, lekin uni sivilizatsiya tanib bo'limas

²⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Baruch Spinoza 169-bet

³⁰ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Gottfried Wilhelm von Leibniz 173-bet

³¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Jean-Jacques Rousseau 197-bet

darajada o'zgartirib yubordi. SHunisi qiziqliki, o'sha davr tarbiyaviy masalalari bo'yicha yirik nazariyotchi bo'lishiga qaramay, Russo o'z bolalarini tarbiya qilmadi, balki ularni bolalar uyiga berishni afzal bildi. Russuning xizmatlari shundak u bola tabiat, uning rivojlanishi haqidagi o'sha davrda mayjud barcha bilimlarning umummiy manzarasini taqdim etdi. Russo insonning tabiiyligi nazariyasidan kelib chiqib, tabiatga xos o'qitishni taklif etadi. Lekin Komenskiydan farqli o'laroq J.J.Russo tabiatga tashqi taqlid qilish emas, balki bolaning rivojlanish tabiatiga e'tibor qaratish zarurligini e'tirof etadi. Boshqa qiliusso inson rivojlanishida ichki garmoniya va tabiiylik uyg'unligi mavjud bo'lishi kerak deb hisoblaydi. SHunday qilib, bolalarda individual tafovutlarni hisobga olish talabi endi ilmiy asosga ega bo'la boshladи, chunki bu tafovutlarni bilish kattalarga bolani o'qitishni uning psixik taraqqiyoti tabiiy jarayonini hisobga olgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Faqat individual emas, balki barcha bolalar psixik taraqqiyotining umumiyligini qonuniyatlar ham mavjud bo'lib, ular har bir yosh bosqichlarida o'zgarib turadi. Ana shu holatdan kelib chiqib, Russo rivojlanishning kengaytirilgan davriy sxemasini taklif etadi. Lekin davrlarga bo'lishda olim faktlar va kuzatishlarga tayanmaydi, balki o'zining nazariy bilimlariga asoslanadi. J.J.Russo bolani tarbiya qilish uchun eng qulay joy bu tabiatdir deydi. O'zining tarbiya nazariyasida Russo sentimentalizmni ilgari suradi. Sentimentalizm barcha holatlarda hissiyotlarni aqldan ustun qo'yadi. Insondagi ahloq Russo fikricha, uning tabiatiga chuqurroq kirib borgan va aql farosatga nisbatan asosliroqdir. U bevosita va inson aqli tomonidan isbotlab berishga muxtoj emas. U o'ziga etarli va uning manbai bitta u ham bo'lsa bizning vijdonimiz ovozi. Lekin bu ovozni madaniyat bo'g'ib qo'yadi. U bizni odamlarga nisbatan rasmiy va befarq qilib qo'yadi. SHuning uchun ham Russo madaniyatga qarshi chiqadi..U tikuvchi bo'lib mehnat qilgan o'z rafiqasi Tereza Levasser bilan birga hayot kechiradi va bolalarini "ijtimoiy tarbiya" qilishga majburlaydi. Uni bu xatti-harakati o'z g'oyalariga to'g'ri kelmaydi. Uning biografiyasini o'rgangan olimlar bu fakti oxirigacha tushuntirib berolmadilar. Madaniyatni tanqid qilish jamiyatni tanqid qilish bilan barobar. 20 asrlarda SHpengler madaniyatni sivilizatsiya deb ataydi. Sivilizatsiya bu qotib qolgan, rasmiy, byurokratizmga asoslangan, bir so'z bilan aytganda begon, insonning o'zdan begona bo'lgan madaniyat deb tushuntiradi. Russo hali bu tushunchalarni ajrata olmaydi. Uningcha barcha madaniyat odamga begona va dushman. Madaniyat deganda u oliv sinflar madaniyatini tushunadi va xalq xayotining tabiiyligini unga qarama-qarshi qo'yadi. Uningcha oliv sinflar madaniyat bilan, oddiy xalq esa tabiat bilan yashaydi. Bunda Russo buzilgan madaniyatga haqiqiy madaniyatni emas, tabiatni qarama-qarshi qo'yadi. Bu esa aynan san'at, klassik adabiyot, falsafada erishgan yutuqlarni yo'qotishga olib keladi. Russuning Odamlar o'rtaqidagi tengsizlikning vujudga kelishi asarini o'qigan Volter keyinchalik unga xat yozadi: Sizning asaringizni o'qib yana xayvonga aylangisi keladi odamning deydi. Russo buni alamzadalik va tushunmaslik deb qabul qiladi. Uningcha inson o'zining birlamchi holatiga qaytishi kerak emas. Fransuz ensiklopedistlari nazariyalarida biologiklik va ijtimoiylik tabiatiga alohida e'tibor qaratiladi. Aynan Gelvetsiy va Didro birinchilardan bo'lib, bola rivojlanishida irsiyat va muhitning asosiy omil ekanligini e'tirof etadilar va ularning ta'sirini qobiliyatlar muammosi bilan bog'lab tushuntiradilar. Bunda qobiliyat deganda ma'lum bir faoliyatni yuqori darajada bajarish nazarda tutiladi, biroq bajarish tezligi va osonligi hisobga olinmaydi. Tabiiyki, buning natijasida Gelvetsiy qobiliyatlar tug'ma emas, o'qitish jarayonida ega bo'linadigan xususiyatlar deb baholaydi. Bunday yondashuv Gelvetsi yning odamlarning umumiy tengligi haqidagi konsepsisidan kelib chiqib, unga ko'ra odamlar o'rtaqidagi individual tafovutlar turli ijtimoiy holat va tarbiya natijasidir. Lekin shunisi qiziqliki, aynan shu yondashuv fatalizmga olib keldi, ya'ni odam taqdir o'yinchog'i bo'lib, o'z xoxishiga ko'ra taqdir uni qaysi muhitga xoxlasa shunga tashlab qo'yadi. SHunday qilib, Gelvetsiy o'zining "Inson haqida" "Aql haqida" asarlarida insonlarning barcha munosabatlarda tengligi e'tirof eta turib, tarbiyaga eng katta kuch sifatida qaraydi. Gelvetsiy tashqi turkidan boshqa determinantni bilmaydi. SHu erdan uning odamlarning alloma yoki ahmoq bo'lib etishishlariga ularning tasodifan turli holatlarga tushib qolishlari sabab bo'ladi degan konsepsiysi kelib chiqadi. Fransuz materializmi rivojlanishidagi yakunlovchi bosqich vrach-faylasuf Kabanis bilan taqdim etiladi. (1757-1808). U formula tuzgan, mazkur formulaga asosan tafakkur – miya funksiyasidir. O'z xulosasini Kabanis revolyusiyasi tajribasidagi kuzatuvlari bilan mustahkamlaydi. Fiziologiya tomonidan ishlab chiqilgan turli organlarga turli

funksiyalar to‘g‘ri kelishi haqidagi tushuncha va tasavvurlar bosh miya faoliyatiga ham tarqaladi. Kabanis formulasini materialistik falsafaga qarshi bo‘lganlar boshqacha ko‘rinishda talqin qiladilar. Ularning fikricha jigar safro, buyrak zaxar ilab chiqqanidek, miya ham fikr ishlab chiqaradi, deb fikrlashda Kabanisni ayblaydilar. Aslida esa Kabanis butunlay boshqa narsani nazarda tutgan edi. Bosh miya faoliyatining tashqi mahsullariga Kabanis fikrlarni so‘zlar va imo-ishoralar yordamida ifodalashni kiritgan edi, fikrning orqasidan esa yashirin noma’lum nerv jarayoni yotadi deb ta’riflagan edi. Aynan shu davrda franquz mutafakkiri Monteske (1689-1755) “Qonunlar ruhiyati haqida” kitobini taqdim etadi. Uning fikricha odamlar ustidan qonunlar xukmronlik qiladi ular jamiyatning xayot sharoitlari va birinchi navbatda geografik sharoitlardan kelib chiqadi. Bunda Monteske aholining etnik xususiyatlari, xalq xarakteriga alohida e’tibor qaratadi. Ma’rifat tushunchasining o‘zi 18 asrda g‘oyaviy va adabiy tushuncha sifatida ishlatila boshladi, shuningdek u falsafiy va ilmiy yo‘nalish sifatida ham paydo bo‘ldi. Aynan shunda xalq ommasini “yoritish”, odamlar ongini xurofotlardan tozalash vazifasi qo‘yilgan edi. Ma’rifat Rossiyaga ham etib keladi. Imperator Ekaterina 2 vaqtinchalik ma’rifat bilan qiziqadi, lekin ma’rifat davrining asosiy g‘oyalari Radishev nomi bilan bog‘liq. Radishev Ekaterina 2 tomonidan o‘z g‘oyalari uchun Sibirga surgun qilinadi. Ma’rifat xrstianlik va cherkovga qarshi kurash ko‘rinishida tus olgan edi. Ma’rifat davrining zaruriy elementi shunday qilib ateizm bo‘lib qoladi.

XVIII asrda Rossiyada psixologik bilimlarning rivojlanishi. Bizga avalgi daslarimizdan ma’lumki Rossiyada psixologik g‘oyalalar 15-16-asrlardayoq rivojlantira boshlangan. Ana shu manbalar asosida 18-asrda etarli darajada butun xarakterga ega bo‘lgan konsepsiylar yaratildi va ular mazkur konsepsiyalarning keyingi taraqqiyotida materialistik an’analarni boshlab berdilar. 18-asrda Rossiyada feodal-krepostniklik tuzimi xukm suradi. Uning qarama-qarshiliklarini A.N.Radio‘ev o‘zining “Peterburgdan Moskvaga sayohat” asarida yoritib beradi. U progressiv fikrlovchi olimlar kayfiyatlarini ifodalagan holda krepostniklik tuzumini bekor qilishni talab etadi. 18 asrda Rosiyada ma’rifatparvarlik harakati N.I.Novikov, N.N.Popovskiy, D.S.Anichkov, V.N.Tatishev tomonidan bir qancha ilg‘or g‘oyalarning ilgari surilishi bilan xarakterlanadi. Ukrainada G.S.Skvoroda asosiy e’tiborni insonning o‘zini o‘zi anglashiga qaratishni taklif etadi.

Antikrepostniklik yo‘nalishiga ega bo‘lgan mazkur harakat rasmiy fanda ustunlik qilayotgan idealizm va teologiya bilan kurashib inson muammosini markaziy muammo sifatida qarashni taklif etadi. Bu sharoitlarda aosiy psixologik muammolarni materialistik hal qilish gumanizm uchun xurofotlardan ozod bo‘lishga kurash shakliga ega bo‘ldi.

Jamiyat taraqqiyotida fan va ma’rifatning o‘rnini tan olina boshlanishi bilan, V.N.Tatishev aqliy taraqqiyotning maorif va o‘qitishga bog‘liqligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Uning fikricha individual aqlning manbai til va yozish orqali o‘zlashtiriladigan boshqa odamlar tajribasidir. N.I.Novikov Rossiyada noshirlik ishining yirik tashkilotchilaridan edi. U ruh tabiatini, uning o‘lmasligi haqidagi ko‘proq munozarali savollarni o‘rtaga tashlaydi. 1796 yilda psixologiyaga bag‘ishlangan birinchi maxsus kitob nashrdan chiqadi. Uning nomi “Rux haqidagi fan” deb nmlanib, muallif I.Mixaylov Dj.Lokk ingliz empirizmi ta’siri ostida psixologik bilimlar tuzilmasini taklif etadi. Ruhning o‘lmasligi va boshqa shunga o‘xshash masalalarni ko‘rib chiqmasdan, u faktlar – sezgilar, fikrlarni tasavvurlarning assotsiatsiyasi sifatida ko‘rib chiqadi hamda iroda muammosiga e’tibor qaratadi.

Rus materialistik psixologiyasiga M.V.Lomonosov asos soladi. Lomonosovning psixologik qarashlari ilmiy tadqiqotlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Lomonosov sezgi tashqi predmetlarning sezgi organlariga ta’siri maxsuli bo‘lib, bunda bosh miya qo‘zg‘atuvchilarni tafovutlashda alohida rol o‘ynashini ta’kidlab o‘tadi. U o‘zining rangli ko‘rishning uch komponentli nazariyasini ilgari suradi. Keyinchalik 19 asrning boshlarida ingliz fizigi va vrachi T.YUng ham uch komponentli rangli ko‘rish g‘oyasini ilgari suradi, keyinchalik bu g‘oya Gelmgols tomonidan qayta ishlab chiqiladi. Lomonosov o‘zining “Ritorika bo‘yicha qisqacha qo‘llanma” asarida xayol, tasavvurlar, nutq psixologiyasiga oid fikrlarni bayon etadi.

Radishev krepostnik davr zulmlari sharoitida inson muammosini o‘rtaga tashlaydi. U Gobss, Dekart, Spinoza, Pristli, Lokk kabi olimlar fikriga tayanib, gumanistik etiga g‘oyalarini ilgari suradi. Uning fikricha psixika tana organlari asablar va bosh miya funksiyalari bo‘lib, ularsiz

mavjud bo'la olmaydi. Radishev ruhning mustaqil substansiya sifatida mavjud bo'la olmasligini e'tirof etib, ruh ya'ni hayot, hissiyotlar va fikr barcha turli tuman ko'rinishga va sifatga ega bo'lsada bir butunlikdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Radio'ev ishlarida psixika taraqqiyoti inson va hayyovon psixikasini taqqoslash orqali namoyon bo'ladi. Uning fikricha inson tabiatga moslashmaydi, lekin uni o'zgartiradi, hayyovondan farqli ravishda nutq va to'g'ri yurishga ega. Olim inson qo'li, hamda bosh miyaning yuqori darajada rivojlanganligi katta rol o'ynashiga alohida urg'u beradi. Inson sezgilarining sifatiy tafovutlari uning bilimlarining o'ziga xosligi, san'at bilan shug'ullanishi, turli vositalardan foydalanish imkoniyati bilan namoyon bo'ladi. Individual ongning shakllanishida til va nutqning alohida roli ko'rsatib o'tiladi. Radishev aqlning rivojlanishida tarbiyaning roli kattaligini ta'kidlaydi. U o'z ishlarida qobiliyatlarga alohida urg'u beradi. Gelvetsyning inson o'z aqli uchun tabiatdan qarzdor emas" degan fikrini tanqid qilib, u tarbiyaning rolini inkor etmagan holda, biz tabiat kuchini ham inkor eta olmaymiz deydi. Tarbiya, unga bog'liq bo'lgan barcha narsalar o'z kuchida qoladi, lekin turli darajadagi vaziyatlar va bizni o'rab turgan barcha omillarning ta'sirini ham unutmasligim kerak deydi. Radishev o'zining "Inson mangulik va o'lim haqida" asarida dasttlab barcha narsalar tugal intiqomga ega ekanligini e'tirof etadi, keyinchalik o'zini juda qiyagan mazkur mavzu ustida uzoq fikrlab shunday xulosaga keladiki, inson nafaqat o'z fikri, hissiyotlari va xoxishlari ustidan xukmronlik qila oladi, balki o'z tanasi ustidan ham xukmronlik qila olishi mumkin. Uning fikricha inson tanasi o'lgandan keyin uning fikrlari yo'q bo'lib keta olmaydi. Bu fikr bilan Radishev diniy ideologiyaga yon bosadi, lekin aynan shu fikrda qattiq turib ham olmaydi.

Fransuz ma'rifatparvarlari. Mazkur yo'nalish namoyandalarini ensiklopedistlar ham deb atashadi, chunki ular "Ensiklopediyalar yoki fanlar, san'atlar va hunarlarning ma'noviy lug'ati" 35-tomli asari doirasiga birlashadilar. Ensiklopediyada materialistik pozitsiyadan turib psixologik masalalar hal qilingan. Metafizika va sxolastikani tanqid qilib, tajribaviy bilimlarni e'tirof etgan olimlar Volter (1694-1778) va Kondilyak³² (1715-1780) hisoblanadilar.. Kondilyak dasttlab "xaykal g'oyasini ilgari surib, inson dasttlab ana shu ko'rinishda bo'ladi va faqatgina sezish qobiliyati unda mavjud bo'ladi deb e'tirof etadi. Tashqaridan xattoki eng sodda sezgini qabul qilishi bilan (masalan hid bilish) butun psixik mexanika ishga tushib ketadi. Bitta hid ikkinchi xid bilan o'rin almashgandan keyin Dekart aytganidek tug'ma g'oyalar, Lakk bo'yicha esa refleksiya ishga tuadi. Kuchli hissiyotlarni diqqat yuzaga keltiradi, bir sezgini ikkinchisi bilan taqqoslash fnuksional aktga aylanadi va keyingi aqliy ishni belgilab beradi.

Vrach Jyulen Lametri (1709-1751) Kondilyakning statuyasidan farqli o'laroq, "odam-mashina" obrazini taklif etadi. Uning traktati ham aynan shunday deb nomlanadi. Lametri³³ fikricha Dekart xayvon organizmidan ruhni chetlatib qo'yadi, biroq odam organizmi ham unga muxtoj emas, Inson organizmi psixik qobiliyatlardan iborat bo'lib, uning mashinaga o'xshash harakatlari maxsulidir. 1745 yilda Lametri "Ruhning tabiiy tarixi" asarini e'lon qiladi, u bu asarida ruhiyatni materiya xususiyati sifatida baholaydi. Bunda u Dekartning materiyani mexanistik tushuntirishidan chekinadi, va materianing atributi bu faqatgina tortilish emas, balki harakat va sezishga salohiyatlari qobiyalitdir. Bu qobiliyatning rivojlanish maxsuli rux deb ataladi. Lametri o'z asarida insonni murakkab mashina sifatida e'tirof etadi. Odama hamma narsa mexanik tuzilgan, aynan inson mashinasi prujinalarida barcha hayotiy tabiiy va avtomatik harakatlar yuzaga keladi. Darhaqiqat tana kutilmagan chuqurlikni ko'rganda avtomatik tarzda qaltilay boshaydi, yorug'likka chiqqanda ko'z qorachig'i torayadi to'r pardasini saqlash uchun va qorong'ida predmetlarni yaxshi ko'rish uchun kengayadi, teridagi mayda teshikchalar sovuqda mashinal tarzda yopiladi, sovuq tomirlarga kirmasligi uchun, yurak, arteriya va muskullar uyqu paytida xuddi uyg'oqlikdagi kabi qisqaradi. Lametri sezgi va firklar o'rtasidagi sifatiy tafovutlarni tan olmaydi. Lametri sensualistlarga o'xshab, tafakkurni sezilar bilan bir narsa deb baholaydi. O'z naturalizmi va

³² Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Etienne Bonnot de Condillas 153-bet

³³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Julien de La Mettrie 153-bet

mexanitsizmiga qaramasdan Lametri ta'limga alohida e'tibor qaratadi. Odamning tashkil etilishi barcha narsalardan birinchi afzallik bo'lsa, ikkinchisi ta'limdir. Ta'limsiz eng yaxshi tashkil etilgan aql ham o'z qadr qimmatini yo'qotadi.

Lametri 42 yoshida vafot etadi. Albatta uning odamni mashinaga o'xshatish g'oyasi juda sodda va g'alati. Lekin Lametri g'oyalari insonda o'zi rug' bormi, bo'lsa u qanday, qaerda joylashgan degan savollarni yanada o'tkirlashtirib yubordi.

Lametri va Gelvetsiy Golbax va Didro o'z davrida fransuz hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan milliy davlatchilik inson erkinligi va xak xuquqlari muammolariga alohida e'tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma'naviy jixatdan yuksaklikka ko'tarish va ma'rifatli xalqqa aylantirish uchun o'z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishish yo'llari va usullarini ko'rsatib bergenlar. Ular tomonidan yaratilgan Ensiklopediya o'sha zamonning ma'naviy muammolarini ma'rifatli yo'l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlarini ko'rsatib bergen Evropa komusi darajasiga aylangan edi.

Ma'rifat davri materialistlari Evropaning intellektual hayotida juda katta ijobiy rol o'ynadi. Ular insonning bir butunligi g'oyasini, uning tana-ruhiy mavjudligining tashqi muhit – tabiat va ijtimoiy muhit bilan aloqadorligini e'tirof etdilar, hissiy tajriba qobiliyatining tashqi dunyo haqidagi ratsional bilishning yagona kafolati bo'lib xizmat qilishini, ularni ishlab chiquvchi psixik hodisalar va nerv substratining bo'linmasligini ta'kidlaydilar. Bu bo'linmaslikni endi faqat aql bilan chamlab ko'rmay, balki empirik tadqiq etishga o'tish lozimligini isbotlab, 18 asr materialistlari keyingi yuz yillikda yangi yo'nalishdagi ilmiy qarashlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdilar.

I.Kant³⁴ ta'llimotining psixologiya rivojlanishiga ta'siri. S.L.Rubinshteyn fikricha, Kant psixologiya masalalariga yo'l yo'lakay to'xtalib o'tadi. U o'zining "Antropologiya" asarida temperament muammosiga qisman to'xtaladi. U nemis maxsulsiz nemis qobiliyatlar psixologiyasi ta'siriga berilib, psixologiyaning fan sifatida mavjud bo'lishiga shubxa bilan qaraydi. Lekin uningkonsepsiysi Myuller, Gelmgolsning sezgi organlari va sezgilar psixofiziologiyasi bo'yicha tadqiqotlariga yaqqol ta'sir ko'rsatadi, biroq psixofiziologiya fan sifatida Kant g'oyalariga asosan emas, balki unga qarama qarshi rivojlanadi. **L. Feyerbax** (1804 – 1872) Avvaliga Gegel izidan boradi, keyinchalik uni tanqid qiladi. Feyerbax falsafasi markazida biologik mavjudot hisoblangan inson yotadi. Dinni u inson ruhiyatiga yot narsa deb baholab, uning manbai insonning tabiat va jamiyatdagi falokat kuchlariga qaramligi hissiyotidan kelib chiqadi deb tushuntiradi. Ahloq asosini u insonning baxtga intilishida ko'radi.

SHunday qilib nemis mumtoz falsafasining markaziy muammosi – moddiylik va ideallik o'rtasidagi munosabatlar alohida inson hayot faoliyati misolida ko'rib chiqiladi. Natijada tafakkur va borliqning mutanosibligi Feyerbaxda psixofizik muammo ko'rinishini oladi. Ruh va tananing bevosita mutanosibligini Feyerbax bosh miyada deb biladi. Bosh miya aktida erkin, sub'ektiv, ma'naviy faoliyat nomustaqlil, ob'etiv va moddiy faoliyat bilan bir narsadir.

Nemis idealizmining jiddiy erishgan yutug'i bu ruhni insoniy faoliyatlar tizimi sifatida ifodalash edi. Bosh miya fikrlovchi sub'ekt quroli bo'lib, aynan bosh miya yordamida hamda boshqa tana va madaniy organlar bilan sub'ekt tashqi dunyoning ideal obrazlarini yaratadi. SHunday qilib faqat o'z faoliyatidagina bosh miya ideallik organiga aylanadi Har qanday emas, balki faqat madaniy tarixiy faoliyatgina bizning miyamizda chiroyli, yuksak narsalarni yuzaga keltiradi. Madaniyat olami bilan muomala kirishib, biz fikrlash uchqunlariga ega bo'lamiz. Xayvonlar esa tabiat bilan munosabatga kirishib, faqatgina odatlar, elementar psixik obrazlar bilan kifoyalanadilar. Bosh miyaga kelsak, u o'zi hech qanday ideallikka ega emas. Feyerbax fikr va bosh miya bir biriga bevosita mos kelishi sababli tafakkur tabiatini meditsina o'rganishi kerak degan xulosaga keladi. Ana shu erda Feyerbax ta'llimotining paradoksal tomoniga duch kelamiz. Meditsina har doim soma tanani o'rganib kelgan. Meditsinaning alohida sohasi psixiatriya inson ruhiyatini o'rganib kelgan. Lekin psixiatriya patologik ko'rinishdagi psixeyani o'rganadi. Lekin ruhning o'zi normal holatda qanday bo'lishini psixiatr ham aytolmaydi. Bu erda u psixologiyaga

³⁴ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Immanuel Kant 180-bet

murojaat qilishi kerak. Lekin Feyerbax insonni meditsinaga asoslangan falsafa o'rganishi kerak deb turib oladi. Ingliz naturalisti CH. Darwin³⁵ ta'limoti butun dunyoda biologik va psixologik tafakkur tuzilishini o'zgartirib yubordi. Uning fikricha barcha hodisa va vokeliklar biologik determinizm asosiga qurilgan. Tabiiy tanlash organizmning unga doimiy xavf soluvchi muhitda yashab ketishining omili sifatida qaraladi. Evolyusiyada faqatgina samarali moslashganlar yashab keta oladi. YA'ni yashash kurashish demakdir. Darwin fikricha tabiiy tanlash hayot uchun keraksiz bo'lган barcha narsalarni ajratib tashlar ekan, psixik funksiyalar moslashishga yordam bermaganida ular yo'q bo'lib ketar edi. Bu g'oya psixikani organizmning tabiiy muhitga moslashish elementi sifatida qarash imkoniyatini berdi. Psixika alohi "rux oroli" sifatida mayjud bo'la olmaydi. SHu tariqa alohida organizm o'rniga "organizm-muhit" munosabati yuzaga keladi. Bu esa psixologiyaning predmeti faqatgina ong emas, balki xulq xam bo'lishi kerak degan fikrga olib keldi. Darwinizm zoologiya, undan keyin esa zoopsixologiya fan taraqqiyotiga ham hissa qo'shdi. Darwinizm shuningdek qiyosiy psixologiya yo'nalishiga ham asos bo'ldi.

XIX asrga kelib psixikaga yangi yondashuvlar shakllana boshladi. Endi mexanika emas, fiziologiya psixologik bilimlarning o'sishiga olib kela boshladi. Psixofiziologiya psixologiya va neyrofiziologiya to'qnashuvida yuzaga keldi va psixikani uning neyrofiziologik substratlari birligida o'rgana boshladi. **Albert fon Galler (1708-1777)** – shveysariyalik olim, shifokor va shoir, eksperimental fiziologiya asoschilaridan biri. Bosh miya bo'limlarida psixik funksiyalarning taqsimlanishi g'oyasi unga tegishli deb hisoblanadi.

Georgiy Proxazka (1749-1820) – chexialik anatom va fiziolog. U asab apparati va uning funksiyalari haqida, asab refleksi, reflektor yoyi, tashqi muhit va organizm o'rtaqidagi asosiy vositachi asab tizimi ekanligi haqidagi g'oslarni ilgari suradi.

Charlz Bell (1749-1842) – "bosh miyaning yangi anatomiysi" muallifi, eksperimental tarzda orqa miyaning old va orqa tomonlari funksiyalarining taqsimlanishini tushuntirib beradi. U sezgi muskulining harakatlarni amalga oshirishdagi rolini ko'rsatib beradi, asab xalqasi – qo'zg'alish – bosh miya – muskul – bosh miyadan iborat deb e'tirof etadi u. Ana shu xalqadagi buzilishlar harakat, koordinatsiya buzilishiga, falajga olib keladi.

Iogannes Peter Myuller³⁶ (1801-1858) – nemis fiziologi sezgi sifati qanday organ qo'zg'alanligiga bog'liq deb tushuntiradi. U reflektor akt haqidagi, orqa miyaning ishlashida reflektor tabiatga ega ekanligi, sezgi organlari faoliyati haqida to'xtalib o'tadi.

Frans Gal³⁷ (1758-1828) – taniqli avstriyaliik shifokor, anatom. Miya morfologiyasi bilan shug'ullangan. Bosh miya po'stlog'i va po'stloq ostini tashkil etuvchi oq va kul rang moddalarni birinchi bo'lib tafovutlagan. Uning bu kashfiyoti aynan bosh miya po'stlog'i, uning qorinchalari emas, inson psixik faoliyatining substratini tashkil etadi degan fikrlarga olibk eladi. Gal frenologiya – ya'ni inson yoki xayvondagi psixik xususiyatlarning bosh miya qopqog'i tashki shakliga bog'liqligini e'tirof etadi.

P.Flurans³⁸ (1794-1867) – fransuz fiziolog-vrachi. Markaziy nerv tizimining ba'zi bir bo'laklarini olib tashlab, u bosh miya asosiy psixik funksiyalarning butun organ-substrati ekanligini isbotladi. Miyacha harakatlarni, uzunchoq miya esa nafas olish markazini boshqarishini e'tirof etdi.

Jan Buyo³⁹ (1796-1881), fransuz olimi, bosh miya lolizatsiyasi jarohatlangan bemorlar xulqini kuzatib, bosh miya old tomonlari ishi buzilganida motor nutq yo'qolishini ko'rsatib o'tdi.

Psixofizika – umumiy psixologiya bo'limlaridan hisoblanib, uning namoyandasini Ernst Veber sezgilar chegarasi va psixofizik shkalarni tuzish masalalari bilan shug'ullandi. U teri

³⁵ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Evolutionary Theory before Darwin 279-bet

³⁶ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Doctrine of Specific Nerve Energies 221-bet

³⁷ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Early Research On Brain Functioning 130-bet

³⁸ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Pierre Flourens 132-bet

³⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 134-bet

sezgilarida uch xillik,ya’ni bosim, temperatura va lokalizatsiyani tafovutlaydi. Lokalizatsiyani tekshirish uchun u esteziometr kashf qfiladi. Eksperimental tarzda teri ta’sir ko’rsatish lokalizatsiyasiga ko’ra turlicha sezishini aniqlaydi. Psixofizikaning asoschisi Fexner psixofizikaning asosiy vazifasini shakkantirdi. Unga ko’ra psixofizikaning vazifikasi psixik va jismoniy hodisalar o’rtasidagi mutanosiblik aniq nazariyasini ishlab chiqishdir. U psixofiziologiyani ichki va tashqi bo‘limlarga bo‘ladi.

E.Fexner aynan tashqi psixofizikani ishlab chiqadi, asosiy psixofizik qonuniyatni topadi. Golland fiziologi **Frans Donders⁴⁰ (1818-1889)**psixik jarayonlar kechish tezligini o‘rganadi. **Ungacha** G.Gelmgols impulsning nerv tolalari bo‘ylab tezligini o‘lchaydi. Bu organizmga taalluqli edi. Donders esa sub’ektning u qabul qilayotgan ob’ektlarga nisbatan reaksiyasi tezligini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. SHu tariqa psixologik bilimning yangi sohasi – psixometriya yuzaga kela boshlaydi.

1-topshiriq.

*Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishining psixologiya
fani taraqqiyotidagi roli.*

Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo‘shtgan hissasi	Qo‘srimcha izoh
1.	B.Spinoza			
2.	Iogannes Peter Myuller			
3.	Jan Buyo			
4.	CHarlz Bell			

2-topshiriq.

Ongning psixika mezoni sifatida ajratilishi

Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo‘shtgan hissasi	Qo‘srimcha izoh
1.	B.Spinoza			
2.	Iogannes Peter Myuller			
3.	Jan Buyo			
4	CHarlz Bell			

Foydalananish uchun adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar:

13. Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth
14. Jdan A.N. Istoriya psixologii. – M., 1995.
15. Istoriya psixologii: teksty. – M., 1992.
16. YAroshevskiy M.G. Istoriya psixologii. – M., 1997.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

40. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
41. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.

⁴⁰ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Mental Chronometry154-bet

42. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 vydayushchixya psixologov mira. – M., 1995.
43. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
44. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
45. SHuls D., SHuls S. Istorya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
46. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
47. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

59. <http://www.expert.psychology.ru/>
60. <http://www.psycho.all.ru/>
61. <http://www.psychology.net.ru/>
62. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz/)
63. www.Sportivniy_psixolog.ru;
64. www.Psixologiya_sporta;
65. [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz/)
66. www.childpsy.ru
67. www.edu.uz
68. www.flogiston.ru
69. www.pedagog.uz

6-mavzu: Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya soxalarining rivojlanishi.

Rejasi

1. **V. Vundt (1832 – 1920) va eksperimental psixologiyaning shakllanishi.**
2. **Psixik xodisalarning reflektor konsepsiysi.**
3. CHET EL PSIXOLOGIYASIDAGI BOSHQA PSIXOLOGIK DASTURLAR.
4. **Funksional psixologiyaning asosiy g‘oyalari va ularning amaliy soxalar va bixevoirizmning yuzaga kelishidagi axamiyati.**
5. **Rossiyada psixologiya rivojlanishining muxim yo‘nalishlari**
6. **Eksperimental psixologiyaning va uning amaliy soxalari rivojlanishi.**
7. **Individual tafovutlar psixologiyasining vujudga kelishi.**
8. ROSSIYADAGI PEDOLOGIK XARAKATLAR.

XIX asrning 70-yillarida psixika haqidagi tarqoq bilimlarni bitta ilmiy yo‘nalishga birlashtirish extiyoji yuzaga keldi. Fiziologlarning laboratoriya ishlari bilan bir qatorda evolyusion biologiya va meditsina amaliyoti yangi psixologiyani tayyorlay boshlagandi. Boshqa tabiiy faktlar kabi psixik hodisalarni ham ob‘ektiv o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lgan psixik hodisalar dunyosi ochildi. SHu narsa aniqlandiki, bu psixik dunyoda o‘z qonuniylari va sabablari bor. Bu esa psixolooiyaningfiziologiyadanham, falsafadan ham ajralib chiqishiga turtki bo‘ldi. Ayniqsa eng katta

muvaffaqiyatga taniqli nemis psixolog, fiziolog va faylasufi Vilgelm Vundt⁴¹ (1832 - 1920) erishdi. Uning "fiziologik psixologiya asoslari" (1873 -1874) asari yangi fanda yo'lboshchi vazifasini o'tadi Vilgelm Vundt psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dasturini ishlab chiqdi. 1879 yilda Leypsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini ochib, keyinchalik birinchi mxsus psixologiya institutiga asos soldi va fiziologlardan o'tgan mavzular – sezgilar, reaksiyalar tezligi, assotsiatsiyalar, psixofizik qonuniyatlarni o'rghanish bilan shug'ullandi. Vundt maktabini 136 nafar nemis, 14 nafar amerikalik, 10 nafar angliyalik, 6 nafar polyak, 3 nafar rus, 2 nafar fransuz mutaxassislari tugatdi. Bu maktab psixolog-eksperimentatorlar birinchi avlodini etishtirib chiqardi.

Psixologiyaning noyob metodi sifatida "bevosita tajriba", asosiy metodi sifatida introspeksiya tan olindi.

V.Vundt ong muammolarini chuqur taxlil qildi. Uning fikricha ong xossasiga fenomenalizm, ong ko'lami, birinmasi, idrok chegaralari, kuchlanish, jadallik, taassurotlar aniqligi, ong chegarasi kiradi. Affekt uning fikricha hissiyot va tasavvurlarning bir o'rinni almashinishi va bir vaqtida birikmasi hamdir. Kayfiyat hissiyotlarning past jadalligida va katta davomiyligida yuzaga keladi. Affektlar irodaviy jarayonlarning tarkibiy qismlaridir. Irodaviy jarayon – barcha qismlarni o'z ichiga olgan to'liq jarayon hisoblanadi. Ong fenomenlari assotsiatsiyalar va appersepsiya yo'li bilan shakllanadi. Appersepsiya – ongning alohida funksiyasidir. U insonning irodaviy xulqini belgilab beradi. SHunday qilib, belgilangan dastur asoida laboratoriyada sezgi, reaksiya vaqtlari, ssotsiatsiyalar, diqqatning, insonning eng sodda hisiyotlari o'rGANildi. Ular asoida Vundt psixik hayot qonuniyatini shakllantirdi va ulardan ba'zilarini prinsiplar deb atadi.

19 asrning birinchi yarmi psixik jarayonlarni tushunishda tabiiy fanlar yutuqlaridan foydalanish davri hisoblanadi. Bu davrda psixologiyaning turli yo'nalishlari bo'yicha bir qator asarlar yaratiladi.

P.Lyubovskiy, Xarkov universiteti magistri «Kratkoe rukovodstvo k opytnomu dushesloviyu» (1815) asarini e'lon qiladi. Mohiyatiga ko'ra bu "eksperimental psixologiya" edi. Ish uchta qisdan iborat: 1. sezgirlik, 2 bilish, 3 intilish, mayl, iroda.

A.I.Galich (1783-1848) tafakkurning ob'ektiv dunyo qonunlariga bo'ysunishini isbotlashga urinadi. **K.V.Lebedevning "Umumiy psixologiya"si** ham alohida o'rinni egallaydi. Unda muallif rus fiziologiya va psixologiya maktabi rolining o'rnini ko'rsatib beradi. **O.M.Novitskiy** podgotovil «Rukovodstvo k opytnoy psixologii» (1840) asarini e'lon qiladi, unda psixologiya bo'yicha ilmiy asoslangan faktik ma'lumotlar keltiriladi.

Xarkov universiteti professori **P.I.Kovalevskiy** birinchi rus psixiatrik jurnaliga asos soladi. Unda eksperimental-psixologik tadqiqotlar va chet el psixologik adabiyotlari tahlili beriladi. **V.M.Bexterev**⁴² 1886 yilda «Soznanie i ego granitsy» asarini e'lon qiladi. 80-90-yillardan boshlab «Voprosy psixologii i filosofii», «Vestnik psixiatrii» jurnallari nashr ettirila boshlangan. Bu davrda **Ivan Mixaylovich Sechenov**⁴³ (1829-1905) ishlariga alohida urg'u beriladi. Uning «Psixologicheskie etyudy», «Refleksi golovnogo mozga» (1863) asarlari juda katta rezonansga sabab bo'ladi. Sechenovning eng asosiy qilgan kashfiyoti – markaziy tormozlanishdir. Ungacha bosh miyada faqat bitta jarayon – qo'zg'alish bo'ladi deb hisoblanardi. Sechenov eksperimentda bosh miyaning reflekslarni ushlab qolish xususiyatini ochdi. Bu kashfiyotni u psixik funksiyalar iroda va tafakkurning nerv mexanizmlari sifatida talqin etdi. Irodali odam qo'zg'atuvchi qanday kuchli bo'lmasin uning ta'sirini enga oladi deb hisoblaydi. Bunga esa tormozlanish apparati orqali erishiladi.

⁴¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Wilhelm Maximilian Wundt 1540-bet

⁴² Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Vladimir Bechterevev 377-bet

⁴³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Ivan Sechenov 369-bet

19 asrning oxiriga kelib pedologiya, bola haqidagi fan ham G‘arbda va Rossiyada ham keng yoyila boshlaydi. Biroq pedologiya o‘z tadqiqot predmetini aniqlay olmadi. U to‘rtta prinsip bo‘yicha muammolarni qarab chiqdi.

birinchi prinsip – bolani “qismlar”ga bo‘lib o‘rganishdan voz kechish.

Ikkinchi prinsip – genetik prinsip. Bola ular uchun rivojlanayotgan mavjudot, shuning uchun uning rivojlanish dinamikasi va tendensiyasini hisobga olish zarur. Uchinchi prinsip bolalikni tadqiq etish metodlogiyasidagi tub burilish bilan bog‘liq. To‘rtinchi prinsip – bola haqidagi fanni amaliy jihatdan ahamiyatli qilish. Pedologiya o‘zining bir qator afzalliklari va kamchiliklariga ega edi.

1-topshiriq.

Psixologyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya soxalarining rivojlanishining psixologiya fani taraqqiyotidagi roli.

Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo‘shtgan hissasi	Qo‘srimcha izoh
1.	Vilgelm Vundt			
2.	P.Lyubovskiy			
3.	A.I.Galich			
4.	P.I.Kovalevskiy			

2-topshiriq.

Psixologyaning mustaqil fan sifatidagi dastlabki dasturlari. Psixologiya soxalarining rivojlanishi.

Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo‘shtgan hissasi	Qo‘srimcha izoh
1.	Vilgelm Vundt			
2.	P.Lyubovskiy			
3.	A.I.Galich			
4	P.I.Kovalevskiy			

Foydalinish uchun adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar:

- Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth**
17. Jdan A.N. Istoriya psixologii. – M., 1995.
18. Istoriya psixologii: teksty. – M., 1992.
19. YAroshevskiy M.G. Istoriya psixologii. – M., 1997.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

48. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
49. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.
50. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 výdayuščixsya psixologov mira. – M., 1995.
51. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
52. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.

53. SHuls D., SHuls S. Istorya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
54. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
55. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

70. <http://www.expert.psychology.ru/>
71. <http://www.psycho.all.ru/>
72. <http://www.psychology.net.ru/>
73. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz/)
74. [www.Sportivniy_psixolog.ru;](http://www.Sportivniy_psixolog.ru/)
75. www.Psixologiya_sporta;
76. [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz/)
77. www.childpsy.ru
78. www.edu.uz
79. www.flogiston.ru
80. www.pedagog.uz

7-mavzu: Eksperimental psixologyaning vujudga kelishi va qo'llanish sohalari

Reja:

1. Inqirozning umumiy xarakteristikasi va ijtimoiy sharoitlari, sabablari hamda mazmuni.
2. Maktablar va ularning rivojlanishining umumiy xarakteristikasi.
3. Inqiroz nazariyalari
4. Bixevoirizm.
5. Berlin geshtalpsixologiya maktabining vujudga kelishi.
6. Freydizm va psixoanaliz
7. Fransuz sotsiologik maktabi. 1920- 30- yillarda Rossiyada psixologyaning rivojlanishi.
8. Psixologiya tashkiliy asoslarining mustaxkamlanishi (50-- 80-yillar).
9. 90 yillar psixologiyasi rivojlanishidagi muxim tendensiyalar.
10. Ochiq kriziis davri yo'nalishlari va evolyusiyasi xamda ularning nazariy va amaliy soxalardagi xolati.
11. Taraqqiyot nazariyalari.
12. SHaxs psixologiyasining rivojlanishi va uning amaliy psixologiyada tutgan o'mni.

13. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.
14. Psixologyaning ishlab chiqarish, meditsina va pedagogika sohalariga tatbiq etilishi.
15. O'zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.

Psixologiyada empirik ishlar qanchalik muvaffaqiyat bilan rivojlanib borgan bo'lsa, psixologiya doirasida o'rganiladigan hodisalar maydoni qanchalik kengayib borgan bo'lsa, psixologyaning ongni tushuntirishdagi ojizligi yaqol namoyon bo'lib bordi. Yangi biologiyadagi yirik muvaffaqiyatlar organizmning hayotiy funksiyalari, jumladan psixik funksiyalarga nisbatan qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Idrok va xotira, ko'nikma va tafakkur, ustanovka va hissiyotlar eni hayotiy vaziyatlarda oranizmni qurollantiradigan instrumentlarga aylandi. Yangi biologiya psixikani o'rganishni rivojlanish nuqtai nazaridan olib borishga yo'naltirdi. Bu bilan introspektiv tahlil uchun mumkin bo'lmagan ob'ektlarni bilish zonasini radikal ravishda kengayib bordi. Psixologyaning predmeti va metodlari haqidagi birlamchi tasavvurlarning emirilishi aniq bo'lib qoldi. Psixologyaning kategorial apparati ham chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Uning asosiy bloklari haqida eslatib o'tamiz: psixik obraz, psixik xatti-harakat, psixik munosabatlar, motiv, shaxs. Ilmiy psixologiya boshlanishida eslatib o'tamiz, psixikaning birlamchi elementi sezgilar hisoblanardi. SHu narsa isbotlandiki, psixik obrazlar – geshtaltlardan iboratligi nemis psixologlari tomonidan belgilab berildi. SHu tariqa geshtaltpsixologiya yuzaga keldi. Psixik

harakatga kelsak, uning kategorial mavqeい o'zgardi. Ilgari u sub'ektning ichki, ma'naviy aktlari qatoriga kiritilar edi. Organizm va muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda ob'ektiv metodlarni qo'llash muvaffaqiyatlari psixika sohasi tashqi tana harakatini ham o'z ichiga olishini isbotlab berdi. Uni psixologiya predmetiga kiritgan kuchli psixologik maktab ham vujudga keldi. Bu yo'lni tanlagan "bixevoirizm" maktabi ham yuzaga keldi. Psixologiyada ochilgan yana bir soha ongga birlamchi emas, ikkilamchi ahamiyatni berdi. Z.Freyd⁴⁴ tomonidan psixoanaliz yo'nalishiga asos solindi, mazkur maktab namoyandalari psixik hayotni ongsizlik mayllari (motivlar) boshqaradi, u xulqni harakatga keltiradi va shaxsning murakkab dinamikasi tuzilmasini belgilab beradi deb hisobladi.

Fransuz tadqiqotchilar odamlar o'rtasidagi psixik munosabatlarni tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratdilar. Bir qator nemis psixologlari ishlarida shaxsning qadriyatlar tizimiga kiritilishi mavzusi markaziy bo'lib qoldi. Dunyoviy psixologik fikr tarixida alohida novatorlik rolini xulqning madaniyat aossida yuzaga kelishi haqidagi g'oya egalladi.

SHu tariqa turli maktablar yuzaga kela boshladi, ulardan har biri kategoriyalarning butun markaziga obraz yoki harakatni, motiv yoki shaxsni qo'ydi. Bu esa o'z navbatida har bir mакtabga o'ziga xos profil berdi.

Kategoriyalardan biriga dominanta sifatida yo'nalitirilish va boshqa kategoriyalarga bo'ysunuvchanlik funksiyasini berish psixologyaning bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishlar – maktablarga bo'linib ketishiga olib keldi. Ana shu manzara psixologiyada inqirozga olib keldi. Biroq turli maktablar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelmaganida psixologiya ham rivojlanib ketmas edi. Biz bilamizki har qanday inqiroz rivojlanishga olib kelishi mumkin. Psixologiya tarixida ham shunday hodisa yuz berdi. 20-asrning boshlarida dunyoning ko'pgina mamlkattalaridagi turli universitetlarda o'nlab eksperimental psixologiya laboratoriyalari ish olib borardi. AQSHning o'zida bunday laboratoriylar 40 dan ortiq edi. Ularning tadqiqot mavzulari turlicha – sezgilar tahlili, psixofiziqa, psixometriya, assotsiativ eksperiment va x.k. edi. Ishlar juda izchillik bilan amalga oshirildi, biroq ahamiyatli yangi faktlar va g'oyalar yuzaga kelmadi.

V.Djems shu narsaga e'tibor qaratdiki, mavjud bo'lgan tajribalarning ko'pchiligidagi natijalar harakatlarga mos kelmaydi. Lekin "Umumiy psixologiya arxivi" jurnalida bir nechta maqolalar yoritildi, mazkur maqolalar ichida O.Kyulpe raxbarligidagi yosh olimlar guruhining ishlari ahamiyatga molik edi. O.Kyulpe Vyursburg psixologik mакtabi asoschisi bo'lib, Vundtdan ta'lim oladi, keyinchalik uning yordamchisi bo'lib ishlaydi. Keyinchalik Vyursburgdag'i laboratoriyanı boshqarayotib, u o'z ustoziga qarshi chiqadi. Vyursburg mакtabining muhim muvaffaqiyatlaridan biri shundaki tafakkurni o'rganish psixologik konturga ega bo'la boshladi. Avvallari tafakkur qonunlari – individual ongda bajariladigan mantiq qonunlari deb baholanardi. Vyursburg mакtabi vakillari psixologik tafakkurga ustanovkani (motivatsion o'zgarish), vazifani (maqsad) va undan kelib chiquvchi determinatsiyalashgan tendensiyalarni kiritdi. Narsiss Ax eksperimentda Kyulpening tekshiriluvchi topshiriqni bajarishga avvaldan tayyorgarlik ko'rishi haqidagi taxminini isbotladi. Bunday avvaldan tayyorgarlik ko'rishi u "determinatsiyalashgan tendensiya yoki "ong ustanovkasi" deb atadi. So'nggi termin paradoksal tarzda jarangladi, chunki tajribalardan ma'lumki bu ustanovka anglanmaydi. Keyinchalik Ax ongning aloxida nosensor mazmunini anganganlik termini bilan izoxladi. Karl Byuler Vyursburg mакtabi eksperimental amliyotiga yangi yo'nalishni olib kirdi, bu esa Vundt tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Metodika shundan iborat ediki, tekshiriluvchi oldiga murakkab vazifa qo'yilgan edi va u xronoskopdan foydalanmasdan turib uning ongida qaror qabul qilish jarayonida nima yuz berayotganini aytib berishi kerak edi.

20-asr Amerika psixologiyasi qiyofasini belgilab bergen yana bir yo'nalish bixevoirizmdir. Mazkur yo'nalish psixologiya predmetini ong emas, xulq tashkil qilishini e'tirof etadi. Bu yo'nalish

⁴⁴ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Sigmund Freud 493-bet

pioneerlaridan bo‘lgan E.Torndayk⁴⁵ 1898 yildap o‘zining “Hayvonlar intellekti. Hayvonlardagi assotsiativ jarayonlarni eksperimental tadqiq etish” nomli doktorlik dissertatsiyasini taqdim etdi. Bixevoirizmning nazariy liderlaridan biri Dj.Uotson⁴⁶ “Psixologiya bixevoirist nuqtai nazarida” nomli maqolasini e’lon qiladi. Bixevoirizmning shiori xulqning organizmning tashqi va ichki stimullarga nisbatan reaksiyalar tizimi sifatida baholanishi bo‘lib qoladi. Pozitivizm ta’siri ostida Uotson shuni isbotladiki, bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan narsalar va xodisalar haqqoniyidir. SHuning uchun uning rejasiga ko‘ra butun xulq-atvorni jismonif qo‘zg‘atuvchilarining organizmga ta’siri va uning reaksiyalarini o‘rtasidagi munosabatlar bilan tushuntirish mumkin. SHu tariqa bixevoirizm uchun ramziy belgi hisoblangan stimul – reaksiya formulasi vujudga keldi. Unga ko‘ra xox fiziologik bo‘lsin, xox psixik jarayonlar ana shu formula asosida yuz beradi. Xulqda yagona realliklar tanadagi reaksiyalarning turli shakllari deb e’tirof etilgan. Barcha reaksiyalarni, intellektual yoki emotsiyonal reaksiyalarni boshqarish mumkin. Psixik rivojlanish o‘rganishga bog‘liq .

Sobiq sovet psixologiyasi rivojlanishi. Sobiq sovet tuzumidan keyingi davrda psixologiya taraqqiyoti

Aleksey Alekseevich Uxtomskiy (1875-1942) – rus fiziologi, ham fiziologiya, ham psixologiya eng muhim kategoriyalardan biri bo‘lmish dominanta tushunchasini kiritdi. Bu tushuncha organizmdagi xulqni tizimli ravishda, fiziologik va psixologik holatlar uyg‘unligida tushunish imkoniyatini berdi.

Lev Semenovich Vygotskiy⁴⁷ (1896-1934) – madaniy tarixiy rivojlanish konsepsiyasini ilgari surdi. U reaksiyalarga alohida e’tibor berar ekan, eng muhimi insondagi nutq reaksiyasi deb baholadi. Nutq tana harakatidir, biroq boshqa tana harakatlaridan farqli o‘laroq, shaxs ongiga yangi o‘lchovlarni berishini ta’kidlab o‘tadi. Birinchidan nutq muomala jarayonida amalga oshadi, demak u boshdan bosh ijtimoiyidir. Ikkinchidan unda doim psixik jabha bor, u so‘zning ma’nosidir. Uchinchidan so‘z sub’ektdan mustaqil ravishda madaniyat elementi sifatida mavjud bo‘la oladi. SHunday qilib nutqli reaksiyada tana, ijtimoiylik (kommunikativlik), ma’noviy va tarixiy-madaniylik mujassamlashgan. Mana 4 ta koordinatalar tizimida (individ, muomala, ma’no, madaniya)da Vigotskiy inson psixik hayotining har qanday fenomenini tushuntirib berishga intiladi.

Belgi (so‘z) – «psixologik qurol», uning vositasida ong quriladi. Uning xususiyati shundaki muomala mehnat qurollari bilan taqozo qilinadi. Ular tashqi tabiatni ham, insonni ham o‘zgartiradi. Vygotskiy eksperimental tarzda shuni isbotladiki bolalardagi egotsentrik nutq reallikdan uzoqlashgan mayllar va bola fantaziyasiga borib taqalmaydi. U amaliy harakatlar tashkilotchisidir. O‘z o‘zi bilan fikr yuritib bola harakatni rejalshtiradi. «Мышление и речь» (1934) asarida Vygotskiy, eksperimental tadqiqotlarga tayangan holda bolalarda tushunchalarning rivojlanishini tadqiq etdi. Vygotskiy fikricha faqatgina rivojlanishdan oldin keladigan ta’lim yaxshi natija beradi. U rivojlanishning yaqin zonasi” terminin kiritadi. Bu tushncha ostida bola kattalar raxbarligi ostida mustaqil echa oladigan masalalar darajalari o‘rtasidagi tarqoqlik tushuniladi. O‘qitish shunga o‘xshash zonani yuzaga keltirib o‘z ketidan rivojlanishga olib keladi.

Sergey Leonidovich Rubinshteyn o‘zining “Osnovy obshchey psixologii ” asarida ong va faoliyat birligi prinsipini ilgari surdi. Ongni faoliyat jarayoni bilan birlashtirib Rubinshteyn uning bu jarayonda qanday tarzda shakllanishini tushuntirib berdi. Bu konkret tadqiqotlar istqbolini tubdan o‘zgartirib yubordi. Insonning dunyo bilan murojaati to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita emas, balki uning bu dunyo ob’ektlari bilan real harakatlari vositasida amalga oshiriladi, degan g‘oya ongga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartirib yubordi. Uning tashqi predmetlarga emas, predmetli harakatlarga bog‘liqligi psixologiyaning muhim muammolaridan biriga aylandi.

⁴⁵ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Edward Lee Thorndike 354-bet

⁴⁶ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Watson’s education 382-bet

⁴⁷ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 380-bet

Ong maqsadlar qo‘yib, sub’ekt faolligini reajalashtiradi va reallikni hisiy va aqliy obrazlarda aks ettiradi. Taxmin qilinadiki, ong tabiatи dastlab ijtimoiy, ijtimoiy munosabatlar orqali taqozo qilingandir. Bu munosabatlar davrdan davrga o‘tish bilan o‘zgarar ekan, unda ong tarixan o‘zgaruvchan maxsuldir. Hamma narsa inson psixikasida uning faoliyatida amalga oshirilishi haqidagi g‘oya **Aleksey Nikolaevich Leontev** (1903-1979) tomonidan ham rivojlanтирildи. Dastlab u Vigotskiy yo‘lidan boradi. Keyinchalik esa Basvoning faoliyat morfologiyasi haqidagi g‘oyalariга yuksak baho beradi. U faoliyati tashkil etilishi va darajalarda o‘zgarishi borasidagi o‘z sxemasini taklif etadi: ya’ni bu jarayon faoliyat hayvonot dunyosi evolyusiyasi, kishilik jamiyat tarixi, shuningdek insonning individual rivojlanishida yuz beradi. («Problemy razvitiya psixiki», 1959).

Leontev fikricha, faoliyat – alohida butunlik. U o‘z ichiga tuzilmaviy komponentlarni oladi: faoliyat, haraktalar, operatsiyalar, psixofiziologik fnuksiyalar. Faoliyat tuzilmasi komponentlariga motivatsion soha komponentlari mos keladi: motiv, maqsad, sharoit, shuningdek ong komponentlari – ma’no, ahamiyat, “hissiy to‘qima”. Ularni ajratib ko‘rib bo‘lmaydi.

Lomov Boris Fedorovich ⁴⁸(1927-1989) – umumiy, injenerlik, kognitiv psixologiya, ta’lim psixologiyasi, muomala psixologiyasi sohalari mutaxassis, psixologiya fanlari doktori, professor. 1972-1989 yillarda Psixologiya instituti direktori lavozimida ishlagan, “Psixologicheskiy jurnal” asoschisi va bosh muxarriri. B.G.Ananев bilan birga Leningrad universitetida psixologiya fakultetini ochadi, bir necha yillar mobaynida dekan vazifasida xizmat qiladi. Uning ishlarining ko‘pchiligi umumpsixologik muammolarni o‘rganishga qaratilgan. U muomala psixologiyasi bo‘yicha («Общение и познание» 1984) juda ko‘p g‘oyalarni ilgari suradi. Lomov injenerlik psixologiyasi asoschilaridan biri. U psixologiya fanining metodologik-nazariy muammolariga alohida e’tibor qaratadi., jumladan psixologiyaning kategorial apparatini tahlil qilishga, psixologik bilimlar ichki birligi va tuzilish tizimini olib berishga, uning xolatlari va rivojlanish tendensiyalariga, psixologik nazariyalarni qurish yo‘llarini aniqlashga, psixologiyada nazariya, eksperiment va amaliyot o‘zaro aloqadorligini tadqiq etishga va x.k.

Asmolov Aleksandr Grigorevich (1949) - psixologiya metodlogiyasi va nazariyasi borasidagi mutaxassis. A.N.Leontev va A.R.Luriya shogirdi. Uning tadqiqot va tashkilotchilik ishlari faqatgina pedagogik g‘oyalarni ta’lim sohasiga olib kirishdan emas, amaliyotchi psixologlar tayyorlashga va psixologik xizmatni tashkil etishga qaratildi

CHet el psixologiyasi rivojlanishining bugungi xolati

Har bir shaxs o‘z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta’sirlarning ob’ekti hisoblanadi. (E.G.G’oziev 2002) SHaxsnинг xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o‘zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda aloqadorlik, shaxsnинг psixologik tuzilishini tashkil etadi. Afsuski, biz ba’zan inson haqida fikr yuritganimizda sog‘liq, kasallik va uchinchisi sog‘liqqa ham, kasallika ham qo‘shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to‘g‘ri keladi.

S.Xoll (1940) o‘zining rekapitulyasiya nazariyasida o‘smirlik yoshi insoniyat rivojlanish tarixining romantik epoxasiga to‘g‘ri kelib, bolalik bilan kattalik orasidagi bosqich ekanligini ta’kidlaydi. U o‘smirning xarakterida paradoksallik va ambivalentlik holatlarini izohlab, ularning faoliyatlarida o‘ta faollik hukmronlik qilishiga e’tiborni qaratib, ularda shodlik o‘rnini qayg‘u, o‘ziga ishonchni tortinchoqlik, xudbinlikni altruizm, ma’naviy intiluvchanlikni past qo‘zg‘aluvchanlik, muloqotmandlik istagini pismiqlik va hokazolar tezkor o‘rin almashishi bilan ifodalanishini, o‘zini o‘zi anglash krizisi bilan bog‘laydi. YA’ni, uni engib o‘tish «individuallikni his etish»ga sabab bo‘lishini isbotlaydi.

Amerikalik psixolog A.Gezell (1880-1861) S.Xoll kabi rivojlanishning biologik modeliga asoslanadi va bunda yangilanish, integratsiya va muvozanat o‘rin almashadi, deb hisoblaydi.

⁴⁸ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 369-bet

“O’sish” va “rivojlanish” Gezell uchun sinonim hisoblanadi va u xulq-atvor usulining progressiv differensiatsiya va integratsiya jarayonini bildiradi. Gezell madaniy ta’sirni tan olgan holda shuni ta’kidlaydiki, madaniyat yo’naltiradi, lekin rivojlanish bosqichlari va tendensiyasini keltirib chiqarmaydi. Individning o‘qitilishi va madaniyatga qo’shilishi qanchalik muhim bo’lmasin, u hech qachon etilish ta’siridan o‘zib keta olmaydi. A.Gezellni qanday qilib rivojlanish jarayoni va shaxslilik xususiyatlari individning xulq-atvorida aks etadi, degan savol qiziqtiradi. Turli yoshdagagi bolalarning xulq-atvorini kuzatib, u o’smir taraqqiyoti bosqichlari va sikllarining umumlashgan bayonini yaratadi. Bu bayonda u har bir bosqich uchun normal deb hisoblangan xulq-atvorni xronologik ketma-ketlikda tasvirlaydi. Gezell nazariyasi asosan biologik yo’natriliganlik xususiyatiga bo‘lishi bilan birga, unda etilish jarayoni xulq-atvor xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyasining vujudga kelishi ketma-ketligini aniqlab beruvchi biologik va genetik omillar birgalikda boshqaradi deb taxmin qilinadi. A.Gezell shu narsani tushuntirishga intiladiki, o’smir taraqqiyoti bosqichlarini ifodalab turib, u kuzatiladigan o‘zgarishlar asta-sekinlik bilan shakllanishi va bir-birini to’ldirishini e’tirof etadi. Uning fikricha, individ taraqqiyoti ketma-ket emas, spiralsimon yo‘nalishda ro‘y beradi. Gezell nazariyasi juda ko‘p psixologlar tomonidan qattiq tanqidga uchradi.

Insonning bioijtimoiy tabiatini tan olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, asosiy determinant – tashqi ijtimoiy muhit, tashqi holatlardir. Biroq yosh rivojlanishiga etilishning ichki jarayonlari ma’lum ma’noda ta’sir etar ekan, bu narsa faqat organizmning emas, balki psixika va individ rivojlanish bosqichlari, yosh davrlarining bosqichma-bosqich almashinuv qonuniyatlariga, shu zaylda har bir yosh bosqichida psixik rivojlanish xususiyatlari qonuniyatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

O’smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan yana biri nemis faylasufi va psixologi E. SHpranger (1924) o’smirlik yoshi qizlarda 14-21 va o‘g‘il bolalarda 13-19 yoshlarga davom etib, uning birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to‘g‘ri kelib, bu yoshda bolalikdan qutulish sodir bo‘lishini izohladi. U o‘zining o’smirlik yoshining madaniy-psixologik konsepsiyasida rivojlanishning uch tipi mavjudligini ajratadi. Birinchi tip- keskin, krizisli, shiddatli kechadi va o’smir o‘zining ikkinchi tug‘ulishini his etadi, oqibatda yangi «Men» vujudga keladi. Ikkinci tip-o’smirning kattalik hayotida bosiqlik, sokinlik, uzuksizlik sezilib, uning shaxsiyatida chuqur va jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermaydi. Uchinchi tip- bu rivojlanish jarayonining shunday bosqichiki, o’smir o‘z ichki kechinmalari va krizislarini matonat bilan engib, o‘zini o‘zi faol anglagan holda shakllantiradi hamda tarbiyalaydi. SHunday qilib, E.SHpranger mazkur yoshning tashkil etuvchilar o‘z individualligini anglash, refleksiyaning vujudga kelishi, «Men»ning ochilishi ekanligini isbotlab, o’smirning dunyoqarashlarini, qadriyatlarini, o‘zini o‘zi anglashini o‘rganishning sistematik tadqiqotiga asos soldi.

O’smirlik yoshini pubertat davr deb atagan SH. Byuler ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ohib berilgan. Pubertat davr – bu biologik o‘sish davri bo‘lib, jinsiy etilish o‘z nihoyasiga etadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi. U pubertat davrdan oldingi bosqichni insonning bolalik, ushbu davrning tugashini o’spirinlik deb ataydi. SH.Byuler pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O’smirning etilishiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilar undagi o‘zidan o‘zi qoniqlishi va hotirjamlikini izdan chiqarib, uni o‘zga jinsni qidirishga undaydi. Biologik etilish uni izlanuvchan qilib qo‘yadi va uning «Men»ida «U» bilan uchrashish istagi tug‘iladi. YA’ni SH.Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, jismoniy etilish o‘g‘il bolalarda o‘rtacha 14-16 yosh, qiz bolalarda esa 13-15 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shahar va qishloq, alohida mamlakatlar va hatto iqlimning ta’siri hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10-11 yosh, yuqori chegarasi 18 yosh bo‘lishi kerak.. Ushbu davrning negativ xususiyatlari sifatida o’smirning urishqoqligi, injiqligini ifodalovchi jismoniy va ruhiy toliqish, notinch, oson qo‘zg‘aluvchan holat, yuqori sezuvchanlik hamda qo‘zg‘aluvchanlikni ko‘rsatadi. O’smirlarning o‘zlaridan qoniqmasliklari asta atrofdagilaridan ham qoniqmasliklariga sabab bo‘lib, boshqacha tus intilishlari bilan uyg‘unlashadi va turli salbiy fikrlar shakllanishiga olib keladi. YA’ni, o’smirlarda «sust melanxoliya» va «tajovuzkor himoya» shakllanadi. Mazkur davrning ijobiy xususiyatlaridan biri tarzida qandaydir go‘zallikning anglangan

kechinmalarini, muhabbat tuyg'usini misol qilib keltiradi. Demak, SH.Byulerning ilmiy urinishlari pubertat yoshni organik etilish bilan psixik rivojlanishning uyg'unlikda kechishini ko'rsatishga qaratilgandir.

SH. Byulerning izlanishlariga tayangan G.Getser pubertat davr salbiy bosqichining 13-16 yoshlari oralig'ida o'y-hayollarga berilish, yaqin do'stga ehtiyoj sezish va «do'stni izlash» ga urinishda ijobji bosqichga o'sib o'tishini ta'kidlaydi.

E. SHprangerning izdoshlaridan biri V.SHtern o'smirlik yoshini shaxs shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydi. V.SHtern «Do'stingni ko'rsatsang, kimliginni aytaman» degan naqlga «Hayotingdagi eng qimmatli kechinmangni ayt, men sening kimligingni aytaman» degan ma'no berib, uni izohlashga harakat qiladi. CHunki o'smir hayotining mazmunini tashkil etuvchi kechinmalar ta'sirida uning shaxsi shakllanadi. Qimmatga ega kechinmalar esa uning shaxsini tiplarga ajratishga yordam beradi. SHu tariqa V.SHtern oltita tipni ajratadi: a) nazariy tip – shaxsning barcha intilishlari borliqni anglashga qaratiladi; b) estetik tip – bunday shaxs uchun ob'ektiv borliqni anglash yot bo'lib, u individual tanlanganlikka ega; v) iqtisodchi tip – bunday shaxsning sa'i-harakatlardagi shiori qilib, ko'proq foyda (natija)ga qaratilgan bo'ladi; g) ijtimoiy tip – hayotining mazmunini muhabbat, muomala va o'zgalar uchun yashash tashkil etadi; d) siyosiy tip – bundaylar uchun mansabga intilish, ta'sir o'tkazish va buyruq berish xosdir; e) diniy tip-har qanday voqeani ham hayotning va dunyoning mohiyati bilan haspo'shlashga urinadi.

V. SHternning fikricha, o'tish davri nafaqat ideal va intilishlar, hislar hamda fikrlarning yo'nalganligi, balki harakatlarning o'ziga xos siyoshi (obrazi) hamdir. U buni bolalikning o'yinlari bilan kattalikning mas'uliyatlari faoliyati oralig'idagi holat deb atab, unga «jjiddiy o'yinlar» deb nom beradi. Jiddiy o'yinlar o'smirning maqsad qo'yishiga, turli qiziqishlarga o'z munosabatini bildirishi va qiyosiy tahlil qilishidagi ikkilanishlarini bartaraf etishida hamda uni irodasining mustahkamlanishiga imkon berishini ta'kidlaydi.

YAna bir ilmiy konsepsiya J.Piajega⁴⁹ tegishli bo'lib, u 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha oxirgi fundamental detsentratsiya, ya'ni bolaning idrok maydonini o'z ob'ektidan qutulishi va unda dunyoni qanday o'zgartirish kerak, degan nuqtai nazarning boshlanishi bilan tushuntirishga harakat qiladi. Uningcha, bu yoshda hayotiy dastur (gipodeduktiv, ya'ni tafakkur yordamida) tuzilib, shaxs shakllanishi tugallanadi. O'z rejasi va dasturiga ega o'smir kattalar jamiyatiga qadam qo'yadi, unda turli to'siqlarga uchraydi, ma'lum ma'noda ularga bog'lanadi va ijtimoiylashish jarayonini boshdan kechiradi. SHu tariqa o'smirlik yoshi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda yangi yo'naliш boshlandi. Bu L.S.Vigotskiy va uning maktabi bilan bog'liq ishlardir. L.S.Vigotskiy o'tish davriga xos qiziqishlar muammozini atroflicha o'rganib, buni «o'smirning psixologik rivojlanishidagi muammolarni hal qilishning yagona kalitidir» deb izohlaydi. O'smirlik yoshi eski qiziqishlarning buzilishi va yo'qolishi hamda yangi biologik asosga ega yangi qiziqishlarning vujudga kelishi davri hisoblanib, unda bir necha yorqin qiziqishlar mavjud bo'lib, ularni dominant qiziqishlar deb atadi. Ular: *egotsentrik*, ya'ni o'z shaxsiga qiziqish, *kelajagiga qiziqish*, ya'ni bugungi kuni emas, balki uzoqni ko'ra bilishiga qaratilgan ustakovka; *zo'r berish* (harakat), ya'ni qaysarlikka asoslangan irodaviy zo'riqish, tarbiya usullariga qarshilik ko'rsatishdan iborat salbiy harakatlar, *xayolparastlik*, ya'ni o'smirning sarguzashtlarga boy, turli qahramonliklar ko'rsatishga intilishlari bilan bog'liq tavakkalchiligidan iborat. J.Piaje kabi L.S.Vigotskiy ham o'smirlik davridagi tafakkur rivojlanishi tushunchalarni o'zlashtirish asosiga kechishini va o'smir tafakkuri sub'ektiv shaklga ega bo'lib, o'zgalardan «sir» utiladigan intim jabhalarga qaratilishini hamda o'smir shaxsining ichki o'zgarishlarini qamrab oluvchi refleksiya rivojlanishi, ya'ni o'zligini anglashdek *yangilanishlar* ro'y berishini qayd etadi. A.Freyd go'daklik davrining psixik jarayonlari haqidagi bilimlarimiz, o'smirlarni tahlil qilish mobaynida va ularni kuzatish orqali qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga asoslanganligini ta'kidlaydi. SHuningdek, analistik terapiya uchun «tashlandiq» ob'ektga mazkur usullarni qo'llash eng samaralidir. O'smir emotsiunal kurashga qat'iy kirishadi, bu kurashda undan juda tezkorlik va qat'iylik talab etiladi. Uning libidosi yangi ob'ekt izlashda davom etadi. Bunday

⁴⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Jean Piaget 587-bet

o'smirlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, «erkin» libido haqidagi tahlilimiz davolash vaqtida aynan: a) ularni hamkorlik qilmasliklari uchun intilishlarida, analitiklar bilan munosabatlari e'tiborsizlik; b) hafta davomidagi seanslar sonini qisqartirishga urinishlarida; v) besabab seanslarga kelmaslik; g) umuman davolanishdan bosh tortishlarida o'z aksini topadi. Ba'zan analitikning o'zi o'smir uchun qidirilayotgan «ob'ektga» aylanashi mumkin. Davolashning qanday natija bilan yakunlashidan qat'i nazar analistik o'smirlilik yoshining o'ziga xos qiyinchiliklarini: a) uning ehtiyojlari qondirilishini kechiktirib bo'lmasligi; b) frustratsiya holatini ko'tara olmasligi va har qanday aloqani tushunish hamda bilish negizi deb emas, balki bunga istaklarning ro'yobga chiqish usuli deb qarashi; v) o'smir psixikasining ongsizlik mohiyatini, buzilishlar vujudga kelishining mexanizmlari hamda buzilishning tipik strukturasini yanada chuqurroq o'rganish zaruratligidan dalolat beradi.

Taraqqiyot psixologiyasida neofreydizmning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri bu amerikalik olim Erik Eriksondir⁵⁰ (1902-1982). Uning fikricha, inson rivojlanishi avtonom bo'lsada, bir-biri bilan bog'liq 3 ta jarayondan tuziladi: biologiyada o'rganiladigan somatik rivojlanish, psixologiyada o'rganiladigan anglangan "Men" rivojlanishi hamda ijtimoiy fanlar tomonidan o'rganiladigan ijtimoiy rivojlanish. Rivojlanishning asosiy qonuni – "epigenetik" prinsipga asosan rivojlanishning har bir bosqichida oldingi bosqichlarga xos bo'limgan yangi hodisalar va xususiyatlar yuzaga keladi. Rivojlanishning yangi fazasiga o'tish tashqi ko'rinishdan patologik holatni eslatadigan "normativ inqiroz" tarzida kechadi, lekin aslida o'sishning normal qiyinchiliklarini bildiradi.

1-topshiriq.

Eksperimental psixologyaning vujudga kelishi va qo'llanish sohalari				
Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari	Fan rivojiga qo'shgan hissasi	Qo'shimcha izoh
1.	Lev Semenovich Vygotskiy			
2.	Lomov Boris Fedorovich			
3.	Asmolov Aleksandr Grigorevich			
4.	L.S.Vygotskiy			

Foydalananish uchun adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar:

2. Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth
20. Jdan A.N. Istoriya psixologii. – M., 1995.
21. Istoriya psixologii: teksty. – M., 1992.
22. YAroshevskiy M.G. Istoriya psixologii. – M., 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar:

56. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: «Uzbekistan», 1997.
57. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O'zbekiston», 1992-2010.
58. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 vidasayuqchisya psixologov mira. – M., 1995.

⁵⁰ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, 517-bet

59. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
60. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
61. SHuls D., SHuls S. Istorya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
62. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
63. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

81. <http://www.expert.psychology.ru/>
82. <http://www.psycho.all.ru/>
83. <http://www.psychology.net.ru/>
84. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz)
85. [www.Sportivniy_psixolog.ru;](http://www.Sportivniy_psixolog.ru)
86. [www.Psixologiya_sporta;](http://www.Psixologiya_sporta)
87. [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
88. www.childpsy.ru
89. www.edu.uz
90. www.flogiston.ru
91. www.pedagog.uz

8-mavzu: O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.

Reja:

1. O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.
2. Psixologiyaning ishlab chiqarish, meditsina va pedagogika sohalariga tatbiq etilishi.
3. O‘zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari.

Mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishi E.G‘.G‘oziev, M.Voxidov, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B.SHoumarov nomlari bilan bog‘liq. SH.R.Baratov ma‘lumotlariga ko‘ra (1997) O‘zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intixosi asrimizning 30-yillaridagi pedalogiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Toshkent Davlat universiteti xozirgi O‘zMU psixologiya kafedrasi xodimlari E.G‘oziev, Z.R.Dushabaev, V.Tokarevalar raxbarligida keng qamrovli ilmiy-amaliy va ijtimoiy psixologik tadqiqsotlar amalga oshirildi. Toshkent Davlat Pedagogika instituti xozirgi TDPU psixologiya kafedrasi mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi M.G.Davletshin rahbarligidagi olimlar guruhi olib borgan tadqiqotlar ham O‘zbekistonda psixologik bilimlar rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. SHuningdek G‘.B.SHoumarov, N.A.Sog‘inov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova rahbarligida ham olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

26. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ishlab chiqarish, tibbiyat va pedagogika sohasida psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimizdagи iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo‘lishini ta’minalash, ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi O‘zbekiston psixologlari oldiga psixologik xizmat bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas’uliyatini yukladi:

1. Aholi o‘rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish.

2. Har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologiya tamoyillarga moslashtirilgan eng ilg'or testlar, usullar aosida o'rganish, taxlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish.
 3. Xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo'naltirishda ma'muriy tashkilotlarga ko'maklashish, barcha bo'g'indagi rahbar xodimlarning mamlakatdagi ijtimoy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik savoldxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish.
 4. Qator yo'nalishdagi aholiga sotsial-psixologik xizmat ko'rsatishni ta'minlash, xususan individual psixologik xizmat, ishlab chiqarish va mexna jamoalariga psixologik xizmat, oilaviy konsuldtatsiya, xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmat, ichki ishlar tizimida psixologik xizmat, sport va sog'lomlashtirish tizimlaridagi psixologik xizmat, tibbiyot tizimidagi psixologik xizmat, transport tizimidagi psixologik xizmat.
 27. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning tatbiq etilishini 2 bosqich asosida talqin qilish mumkin. 1 bosqich – maktablarda bevosita psixologlar tomonidan psixologik xizmatning tashkil etilishi. O'tgan asrning 80-yillaridanoq Toshkent shahrining talaygina maktablarida ish boshlangan va o'sha paytlarning o'zidayoq psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomoni barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin psixologik xizmatni keng targ'ib etish uchun maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi. 90*yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari namoyon bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun o'ziga xos zamin yaratildi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining keyingi bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi.
- 28.

1-topshiriq.

O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi		
Nº	Allomalar	Psixologik qarashlari
1.	E.G'.G'oziev	
2.	M.Voxidov	
3.	V.M.Karimova	
4.	M.G.Davletshin	

2-topshiriq.

O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi		
Nº	Allomalar	Fan rivojiga qo'shgan hissasi
1.	E.G'.G'oziev	
2.	M.Voxidov	
3.	V.M.Karimova	
4.	M.G.Davletshin	

3-topshiriq.

O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi		
Nº	Allomalar	Qo'shimcha izoh
1.	E.G'.G'oziev	
2.	M.Voxidov	
3.	V.M.Karimova	
4.	M.G.Davletshin	

Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar:

3. Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth

23. Jdan A.N. Istoriya psixologii. – M., 1995.
24. Istoriya psixologii: teksty. – M., 1992.
25. YAroshevskiy M.G. Istoriya psixologii. – M., 1997.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

64. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Uzbekistan», 1997.
65. Karimov I.A. AsarlarT.1-16. T.: «O‘zbekiston», 1992-2010.
66. Marsinkovskaya T.D., YAroshevskiy M.G. 100 výdayuščixsya psixologov mira. – M., 1995.
67. Psixologiya: biograficheskiy bibliograficheskiy slovar / Pod red. N.SHixi, e.CHepman, U.Konroy. – Spb., 1999.
68. Sokolova e.E. Trinadsat dialogov o psixologii. – M., 1994.
69. SHuls D., SHuls S. Istoriya sovremennoy psixologii. – Spb., 1998.
70. YAroshevskiy M.G. Kratkiy kurs istorii psixologii. – M., 1995.
71. YAroshevskiy M.G., Ansferova L.I. Razvitie i sovremennoe sostoyanie zarubejnoy psixologii.- M.. 1974.

Internet resurslar:

92. <http://www.expert.psychology.ru/>
93. <http://www.psycho.all.ru/>
94. <http://www.psychology.net.ru/>
95. [www.natlib.uz;](http://www.natlib.uz)
96. [www.Sportivniy_psixolog.ru;](http://www.Sportivniy_psixolog.ru)
97. [www.Psixologiya_sporta;](http://www.Psixologiya_sporta)
98. [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
99. www.childpsy.ru
100. www.edu.uz
101. www.flogiston.ru
102. www.pedagog.uz

GLOSSARIY

ATAMANING O'ZBEK TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING INGLIZ TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA'NOSI
Abuliya	Abulia	Абулия	Eng oddiy, osongina masaladar buyicha ham ma'lum qapopga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlikdir.
Adaptasiya	Adaptation	Адаптация	Tashqi sharoitlarga moslashish bo'lib, buning o'zi analizatorlarning o'zidagi o'zgarishlarni sezish bilan bog'lik fiziologik adaptasiya va yangi go'ruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishidagi ijtimoiy-psixologik adaptasiyalarga ajratiladi.
Abstraksiya (mavhumiylik)	Abstraction	Абстракция	Narsalapning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni predmetlarning muhim bo'limgan belgi va xususiyatlaridan ajratib olishga qaratilgan fikrlash operasiyasidir.
Apatiya	Apathy	Апатия	Kishining og'ir kechinmalar, yoki kasalliklardan tolikishi natijasida kelib chiqadigan, hamda uning tebarak-atrofdagi olamga nisbatan hyech qanday qiziqishlarsiz befarq qarashlarda ifodalanadigan psixik holat.
Anketa	Questionnaire	Анкета	Tez va qisqa muddatda amalga oshiriladigan metod.
Asab hujayra	Neuron	Нервная клетка	Markaziy asab tizimining asosiy elementi bo'lib, organizmni qo'zg'atish vazifasini bajaradi.
Assosiasiya	Association	Ассоциация	(Lot.-birlashtiraman, bog'layman, qo'shaman) psixologiyada - psixika hodisalarining bog'lanishi tufayli ongimizda paydo bo'ladigan muayyan tasavvurlar: o'xshashlik yoki

			qapama-qarshi belgilarga ko'ra boshqa tasavvurlarni hosil qilish.
Bilish	Knowledge	Знание	Psixik aks ettirish jarayoni bo'lib, bilimlarni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlaydi
Bixevierizm	Behaviorism	Бихевиоризм	Xx asr boshlarida aqshda maydonga kelgan psixologiyaning mexanik yo'nalishi bo'lib, psixologiyani o'rganish predmeti qilib faqat odamning xulq-atvori olingan. Ular faqat odamning tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan xattiharakatlari, xulq-atvorni o'rganish mumkin deb hisoblaydilar. Bunda ongning roli inkor qilinadi. Bu yo'nalishlarning asoschilarid. uotson. E.torndayklardir.
Bosh miya	Brain	Головной мозг	Psixikaning moddiy asosidir
Diqqat	Attention	Внимание	Inson psixik faoliyatini ahamiyatga ega bo'lgan biror bir buyum va hodisaga yo'naltirilishi na unda to'xtashi.
Eksperiment	Experiment	Эксперимент	Asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi
Empatiya	Emphatic	Эмпатия	(Ang.-hamdardlik.o'zini boshqalar o'rнига qo'ya olish) inson boshqalar his-hayajoni, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emosional javob bera olish qobiliyati.
Etika	Ethics (morality)	Этика	Ahloqiy qoidalar
Etiologik tashxis	Diagnostics etiological	Этиологический диагноз	(Kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudliginiga emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi.
Etnopsixologiya	Ethno psychology	Этнопсихология	
Evolyusiya	Evolutions	Эволюция	Dunyoning rivojlanish jarayoni
Faoliyat motivlari	Motives activity	Мотивы деятельности	O'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Faoliyat	Activity	Деятельность	Insongagina xos, ong bilan boshqaradigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishiga, uni qayta qo'rishga yo'valtirilgan faolligidir.
Filogenez	Phylogenies	Филогенез	Dunyoni rivojlanish boshlanishidan to hozirgi kunga qadar davri
Gipofiz	Hypothesis	Гипофиз	(Grekcha - o'simta) - pastki miya o'simtasi. U ichki sekretsiya bezi bo'lib hayvon va odamning bosh miya umirtqasida joylashgan. Gipofiz gormonlari organizmning ish faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Gipofiz funksiyasining buzilishi organizmning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etadi, bunda gormonlarning ortib ketishi yoki kamayib ketishi kuzatiladi. Gipofiz buzilishida bolalarning bo'yи o'smaydi, moddalar almashinushi buziladi, jinsiy bezlarning rivojlanishi buzilishi natijasida semirib ketish hollari kuzatiladi, bola psixikasida intellektning buzilishini xotiraning yomonlashishi yuz beradi.
Gipoteza (taxmin)	Hypothesis	Гипотеза	Ma'lum masalani yechishning taxmini, uning loyihasi.
Gippokamp	Hippocampus	Гиппокамп	Bosh miya qobig'ining qo'yи qismida joylashgan chiziq bo'lib, oriyentasiya reaksiysi va o'rganishning fiziologik mexanizmlarida ishtirok etadi.
Gnostik faoliyat	Gnostic activity	Гностическая деятельность	O'z bilim va tajribalarini oshirish maqsadida pedagogik faoliyat va shaxsiyatining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish.
Identifikasiya	Identification	Идентификация	Bunda kasbdoshlar to'g'ri idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat

			qiladilar.
Ijtimoiy psixologiya	Social Psychology	Социальная психология	
Individual izlanish		Индивидуальное исследование	“Men” obrazi asosida o’ziga xos o’zlikni anglash.
Individuallik	Individuality	Индивидуальность	O’ziga xos bo’lgan xususiyat
Insayt	Inside	Инсайд	Miyaga echimning tezda kelishi
Instinkt	Instinct	Инстинкт	Nasldan nasl o‘zgarishsiz o’tadigan tug‘ma xususiyat
Intellekt	Mind	Разум	Aqliy taraqqiyot darajasi
Introversiya	Introversion	Интроверсия	Shaxsni o’z fikrlari, sezgisi, kechinmalari, ya’ni o’z-o’ziga tayanishi.
Iroda	Will	Воля	Insonni biror bir harakatlarni bajarishga qaratilgan maqsad sari ongli intilishi.
Kasb	Profession	Профессия	Mehnat faoliyatining bir shakli
Kasbga o’qitish	Professional education	Прфессиональное обучения	Kasblar tizimiga asoslanib o’qitishdir.
Kasbiy anglash		Профессиональная осознанность	Kasbkorlikda o’z mavqyeini belgilash.
Kasbiy faoliyat	Professional activity	Профессиональная деятельность	Kasbiy faoliyatning o’ziga xos psixologik qonuniyatlarini qamrab oladi.
Kasbiy imkoniyat	Professional possibility	Профессиональная возможность	Mutaxassisning egallab turgan lavozimi va talab etayotgan malaka toifasiga mosligini namoyon etish.
Kasbiy nomutanosiblik	Professional incompatibility	Профессиональная несовместимость	Kasbiy layoqat tufayli diskvalifikasiya hollarini alohida kasb etishi.
Kasbiy tanlov	Professional choice	Профессиональный отбор	Ishchilar malakasiga, layoqaiga qo’yiladigan talablar (kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va kobiliyatlar).
Kommunikativ faoliyat	Activity communicative	Коммуникативная деятельность	Har bir talabaga individual yo’l topishi va ular bilan hamkorlik darajasida ishonchli munosabat o’rnatishi

Kompetentlik	Competence	Компетентность	Kasbiy faoliyatga mos tushish, o'z-o'rnini topish.
Konsepsiya	Concept	Концепция	(Lot-idrok etmoq) - qarashlar sistemasi, farazlar yig'indisi.
Konstruktiv faoliyat	Constructive activity	Конструктивная деятельность	O'qituvchining har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun reja asosida (ishchi reja) senariy tuzish .
Kuzatish	Watching	Наблюдение	Tabiiy xususiyatga ega bo'lgan metod.
Mavqe	Status	Статус	Jamiyatdagi tutgan o'mi
Menejment psixologiyasi	Management Psychology	Психология менеджмента	
Motiv	Motive	Мотив	Faoliyatga undovchi turtki, omil..
Motivasiya	Motivation	Мотивация	Motivdan kengroq tushuncha bo'lib, "nega", "nima uchun", va "qanday" degan savollarga javob qidiradi..
Mutaxassislik	Qualification	Квалификация	Kasbkorlikning, muayyan sohaga yo'naltirilganligi.
Muxandislik psixologiyasi	Engineering psychology	Инженерная психология	Bu psixologiya fani sohasi bo'lib, kishi mehnatining psixologik xususiyatlarini faoliyat jarayonida texnika vositalari bilan munosabatda bo'lishida o'rGANADI. Shu bilan birga bu soha mashina va uskunalar loyihasini yaratishda inson omillarini hisobga olish talablarini ishlab chiqadi.
Nutq	Language	Речь	Odamlarning til vositasida muloqotda bo'lish jarayonidir.
O'qituvchining imkoniyatlari		Преимущества преподавателя	O'qituvchi o'zining faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirishidir .
O'yin	Game	Игра	Faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalanadigan va tebarak-atrofdagi borlikni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

Ong	Reflections Consciousness	Сознание	Psixikaning obyektiv va subyektiv tarzda aks etishidir. Psixikaning oliv darajasi bo'lib, uni yaxlit holga keltiruvchi tuzilmadir.
Ontogenez	Ontogenesis	Онтогенез	Ma'lum bir turning rivojlanish bosqichlari
Parapsixologiya	Parapsychology	Парапсихология	Tadqiqot sohalaridan biri bo'lib, sezgi a'zolari ishtirokisiz idrok qilish formalarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik hodisalarga mushak kuchsiz ta'sir etish turlarini o'rganishga qaratilgandir. Parapsixologiya muammosi baxsga molik sohadir.
Patopsixologiya	Pathopsychology	Патопсихология	Psixologiya tarmoqlaridan bo'lib, turli kasalliklar natijasida psixik taraqqiyotining izdan chiqishini o'rganadi.
Pedagogik psixologiya	Educational psychology	Педагогик психология	Psixologiya tarmoqlaridan bo'lib ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini o'rganadi.
Professiografiya	Professiographics	Профессиография	Kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi
Psixik jarayonlar	The mental Processes	Психические процессы	Shaxs psixikasining aks ettirish shakli bo'lib, atrofdagi voqyelikni bilish demakdir.
Psixik taraqqiyot	Psychic development	Психическое развитие	Insonning psixik jihatdan rivojlanishi.
Psixika	Rsyche	Психика	Tashqi olamni ongimizda aks ettirilishidir.
Psixodiagnostika	Psychodiagnostics	Психодиагностика	“ Psixologik tashxis qo'yish ” degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatida to'liq yoki biror bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir.

Psixogramma	Psycho gram	Психограмма	Kasbning psixologik portreti bo'lib, u anik kasbda dolzarb bulgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.
Psixolingvistika	Psycholinguistics	Психолингвистика	Psixologiyaning sohasi bo'lib nutq davrida psixologik holatlarni o'rganadi
Psixologik holatlar	Psychological properties	Психологические свойства	Psixikaning namoyon bo'lish shakli bo'lib, shaxs hulqida hissiy kechinmalarining va irodaviy sifatlarni ifodalaydi.
Psixologiya	Psychology	Психология	«Psixo» -ruh, «logos»-ta'limot. Odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik hodisalari orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fandir.
Psixometriya	Psychometric	Психометрия	Psixologik o'lchamlar
Qobiliyat	Capability	Способность	Shaxsnинг ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarni va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan yakka psixologik xususiyatlardir.
Reaksiya	Reaction	Реакция	(Lot.-qarama-qarshi, hapakat) - psixologiya va fiziologiyada ichki va tashqi muhitning turli ta'sirlariga organizmning javob harakati.
Refleksiya	Reflection	Рефлексия	Boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir.
Sezgi	Sensations	Ощущения	Sezgi organlariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning aloxida xususiyatlarini aks ettiruvchi jarayon.
Stimul	Stimulus	Стимул	(Lot.-qyvlashmachoq) - biror-bir harakatga yndamoq, turtki. Reseptorlarda qo'zg'alishni vujudga keltiradigan tashqi ichki ta'sirdir.
Strategiya	Strategy	Стратегия	Kasbiy faoliyatini asoslovchi o'ziga xos uslub yoki

			tamoyildir.
Stress (tanglik kolati)	Stress	Стресс	Kuchli quzg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan jiddiylik holati.
Tafakkur	Thought	Мышления	Psixik aks ettirishning ancha umumiy va bevosita usuli bo'lib, bu narsa va hodisalar o'tasidagi o'zaro bog'lanish va munosabatlarni bilib olishida ifodalanadi
Tamoyil	Principle	Принцип	Ma'lum qonun-qoidlarga asoslanishdir.
Tanlov xulosasi	The conclusion of choice	Заключение отбора	Bu mutaxassislarga ular kasbiy darajalariga muvofik malaka toifalarini berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishdir
Tasavvur	Imaginations	Воображение	Sezgi organlarga qachonlardir ta'sir etgan predmetlar va hodisalarning yaqqol hissiy obrazi.
Tashkilotchilik faoliyati	Organizational activity	Организационная деятельность	Har bir mashg'ulotni o'tkazishda har qanday to'siqqa qaramay, o'zining oldindan o'ylab qo'ygan rejasini amalda joriy etish
Temperament	Temperament	Тамперамент	Shaxsning yakka psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, bu kishi faoliyati va xulqatvorining dinamik va emosional tomonlari bilan xarakterlanadi.
Tipologik tashxis	Diagnostics typological	Типологический диагноз	Sinaluvchi shaxsning tushida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi
Turkumlash	Classification	Классификация	Kasblar yoki mehnat turlarini tuglarga ajratib o'rganish
Ustanovka	Setting	Установка	Kishining tevapak-atrofdagi odamlarga yoki obyektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorligini anglamagan holati.

Yuridik psixologiya-	Law psychology	Юридическая психология	
Ziddiyat.	Conflict	Конфликт	Kasbiy faoliyatdagi jismoniy va ruhiy zo'riqishlarining namoyon bo'lishi
Zoopsixologiya-	Zoopsychology	Зоопсихология	Psixologiya tarmoqlaridan bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadigan sohadir.